

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA” FAKUL'TETI

**“MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI”
KAFEDRASI**

**ONA TILI VA BOLALAR ADABIYOTI
FANIDAN MA'RUZALAR MATNI**

JIZZAX

S O' Z B O Sh I

Maktabgacha ta'lim ixtisosligi uchun mo'ljallangan «Shuningdek, mavjud adabiyotlarning barchasi krill alifbosida yaratilgan. Shu sababli ushbu muammolarni qisman bo'lsa-da hal qilish maqsadida lotin alifbosi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlo qoidalariga moslashtirilgan holda mazkur qo'llanma yaratildi.

Mazkur qo'llanmada ma'lum bir izchillikni saqlash maqsadida barcha mavzular quyidagi bir xil tizimdagi qismlarga ajratildi: mavzu, reja, mavzu yuzasidan tafsiya qilinayotgan adabiyotlar, matn, nazorat savollari, tayanch tushunchalar, tahlil namunalari. Bunda talaba mavzuning rejasi, matn bilan tanishib, mavzu yuzasidan ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgach, nazorat savollariga javob berish, tayanch tushunchalar mohiyatini chuqur anglab yetish maqsadida mavzu uchun ko'rsatilgan adabiyotlar bilan tanishadi, qisqacha konspektlashtiradi, nazorat savollariga javob yozadi.

Mazkur qo'llanma pedagogika institutlarini maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat yo'nalishi uchun mo'ljallangan.

1-ma'ruza: Til haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsad va vazifalari. O'zbek adabiy tilining mundarijasi va bo'limlari

Reja:

1. Til ijtimoiy hodisa.
2. Til – taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa
3. Tillarning tasnifi
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilining predmeti, maqsadi va vazifalari
5. O'zbek adabiy tilining mundarijasi va bo'limlari

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Til ijtimoiy hodisadir. Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. [A.Nurmonov, B.Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2001, 11-bet., A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2002, 107-bet]. Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 80-90-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rindir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ldi.

Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989 yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu Qonunning qabul qilinishi istiqlool tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir.

Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Tilning tuzilishi. Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko'rsatkichlarni shakllantiradi. Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning **lug'at boyligini** tashkil qiladi. Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi.

Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatik qurilishi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bo'lishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi.

Til – taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa. Til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin.

O'zbek tili - o'zbek millatining tili, o'zbek tili-O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o'zbek adabiy tilining mavqei beqiyos darajada o'sdi, xizmat doirasi kengaydi, lug'at tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi. O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xo'jaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi.

Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan so'z birikmalari ko'proq qo'llana boshladi.

O'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Tillarning tasnifi. Olimlarning taxmin qilishlaricha, er yuzida 5000 dan ortiq til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko'ra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Jahon tillarining ko'pchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urug' tillari hisoblanadi.

Milliy tillar o'zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta hududlardagi ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi. Yer yuzidagi tillarni o'rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada, tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi; bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rganiladi. Shuning uchun ham o'rganishning bu yo'li qiyosiy-tarixiy usul deb yuritiladi. Tillarni shu yo'l bilan o'rgangan va o'zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Raskni (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Yakob Grimmni (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokovni (1781-1864) ko'rsatish lozim.

Tilshunoslikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning geneologik tasnifi; 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi; 4) tillarning funktsional tasnifi.

Tillarning geneologik tasnifi. Geneologik tasnif tilshunoslikda tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi tovushlar, o'zak va qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib guruhlariga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi. Tilshunoslik tomonidan tekshirib aniqlangan til oilalari quyidagilardan iborat: 1) hind-evropa tillari; 2) semit tillar; 3) xamit tillar; 4) dravid tillari; 5) ugor-fin tillari; 6) xitoy-tibet tillari; 7) iberiy-kavkaz tillari; 8) oltoy tillari; 9) avstroneziya tillari; 10) yapon tili; 11) koreys tili va boshqalar.

Bular o'z navbatida yana shaxobchalarga bo'linadi. Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish hind-evropa tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga ajratiladi: 1. Hind tillari. 2. Eron tillari. 3. German tillari. 4. Roman tillari. 5. Slavyan tillari. 6. Kelt tillari. 7. Boltiq tillari. 8. Grek tili. 9. Alban tili. 10. Arman tili.

1. Hind tillariga qadimiy hind, yoki sanskrit tili (o'lik til), o'rta hind tili, hozirgi hind tillari (panjob tili, gujarat tili, bengal tili) kiradi. 2. Eron tillariga tojik tili, afg'on (yoki pushtu) tili, osetin tili, kurd tili, so'g'd tili (o'lik til), qadimgi fors tili, o'rta fors (yoki pahlaviy) tili, yangi fors tili kiradi. 3. German tillariga got tili (o'lik til), shved, daniya, norveg, island tillari (shimoliy german tillari), ingliz, nemis, golland, flamand, friz tillari (g'arbiy german tillari) kiradi. 4. Roman tillariga italyan, fransuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, katalan, sardiniya tillari kiradi. Roman tillari tarixan lotin tilidan kelib chiqqan. Bundan ikki ming yilcha oldin jonli til bo'lgan lotin tili hozir o'lik tilga aylangan. 5. Slavyan tillariga rus, belorus, ukrain tillari (sharqiy slavyan tillari), polyak, slovak, chex, lujik tillari (g'arbiy slavyan tillari), bolgar, makedon, serb, xorvat, sloven tillari (janubiy slavyan tillari) kiradi. 6. Kelt tillariga irland, shotland, ueylz, breton tillari kiradi. 7. Boltiq tillariga qadimgi prus tili (o'lik til), litva tili, latish tili, latgal tili kiradi.

Grek, alban, arman tillari biror guruhga kiritilmaydi, ularning har biri yakka-yakka holda olinadi.

O'zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga bo'linadi: 1. Turkiy tillar. 2. Mo'g'ul tillari. 3. Tungus-manchjur tillari. Turkiy tillar oltoy tillar oilasining ko'p sonli va rang-barang guruhidir. Turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi: 1) g'arbiy turkiy tillari; 2) sharqiy turkiy tillari.

G'arbiy turkiy tillari tarmog'i o'z navbatida yana to'rt guruhga bo'linadi: a) bulg'or tillari (chuvash tili), b) o'g'uz tillari (gagauz, turkman, turk, ozarbayjon tillari), v) qipchoq tillari (tatar, boshqird, qumiq, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari), g) qorluq tillari (o'zbek, uyg'ur tillari). Sharqiy turkiy tillari tarmog'i ikki guruhga bo'linadi: a) uyg'ur-to'kyuy tillari (tuva, yoqut, shor, xakas tillari), b) qirg'iz-qipchoq tillari (qirg'iz, oltoy tillari).

Mo'g'ul tillariga mo'g'ul, buryat, qalmiq tillari (shimoliy mo'g'ul tillari guruhi), dagur, dunsyan, mengir tillari (janubiy-sharqiy mo'g'ul tillari guruhi) kiradi.

Tungus-man'chjur tillariga evenk, even, negidal tillari (tungus guruhi) va manchjur, nanay, udegey, ulch, oroch tillari (manchjur guruhi) kiradi.

Tillarning morfologik tasnifi. Jahon tillarining morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tizim tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif so'zning tuzilishidagi o'zak va qo'shimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Bu tasnifga ko'ra tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, so'zlarning tuzilish turi asos qilib olinadi. Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari to'rt guruhga bo'linadi: 1) amorf (so'z o'zgartuvchi qo'shimchasiz) tillar; 2) agglyutativ tillar; 3) flektiv tillar; 4) polisintetik tillar.

Amorf tillarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi so'zlar hech qanday so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan-to'g'ri birikib, bog'lanib keladi. Bunday tillarda grammatik ma'no yordamchi so'zlar, so'z tarkibi, muzikal urg'u va intonatsiya (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni o'rnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga xitoy, tibet, birma, vetnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar misol bo'la oladi.

Agglyutinativ tillarda har bir grammatik ma'no odatda alohida affiks bilan, ma'lum bir grammatik ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *maktablarga* so'z shakli tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi ko'plik ko'rsatkichi, *-ga* affiksi jo'nalish kelishigi ko'rsatkichidir. *Bormadilar* so'z shakli *bor* - o'zak, *-ma* – bo'lishsizlik shaklini yasovchi affiks, *-di* – yaqin o'tgan zamon shaklini yasovchi affiks, *-lar* – III shaxs ko'plikni ifodalovchi affiksdan iborat. Bunda biror affiks o'zakka yoki ma'lum bir affiksga qo'shiladi. Agglyutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravig, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik ma'no odatda birgina grammatik ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, *kniga* so'zshakli tarkibidagi *-a* affiksi (tugallanmasi) uch grammatik ma'noni: 1) jinsni (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (imenitelniy padej), 3) birlik sonni (edinstvennoe chislo) bildirib kelgan; *uchu* so'z shakli tarkibidagi *-u* affiksi ham uch grammatik ma'noni: 1) aniqlik, xabar maylini; 2) hozirgi zamonni; 3) 3-shaxs birlikni ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Flektiv tillardagi bunday grammatik ko'rsatkich, tugallanma **fleksiya** deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil bo'ladi: **tashqi fleksiya** va **ichki fleksiya**.

Tashqi fleksiya so'z oxiriga qo'shib kelsa, ichki fleksiya so'zning o'zagida bo'ladi. Fleksiyaning ikkala turi ham so'zni grammatik jihatdan o'zgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga rus tili misol bo'la oladi: *zeml-ya*, *vod-a*, *pol-e*, *oblak-o*, *lyud-i*, *voln-ı* so'zlari oxiridagi unlilar, tugallanmalar so'zning grammatik ma'nosini ko'rsatib turadi.

So'z o'zagi ichidagi tovushni, unli tovushni o'zgartirish yo'li bilan grammatik ma'noni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha *woman* (ayol) so'z shakli tarkibidagi *a* unlisi birlik sonni, *women* (ayollar) so'z shaklidagi *e* unlisi ko'plik sonni ko'rsatuvchi fleksiyadir.

Flektiv tillarga hind-evropa, semit, xamit tillari kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Polisintetik tillarga chukot tili kiradi.

Kursning predmeti - hozirgi o'zbek adabiy tili, uning o'zbek milliy tili tarkibidagi o'rni.

Kursning maqsadi - talabalarni "til strukturasi–norma (me'yor) -uzus" masala- lariga, adabiy til va milliy til, adabiy til va dialektlar, adabiy til va jargon-argolar, adabiy til va funktsional stillar (vazifaviy uslublar) munosabatiga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, shu bilimlarga tayangan holda ularga hozirgi o'zbek adabiy tilining strukturaviy, mazmuniy va vazifaviy xususiyatlari, og'zaki va yozma shakllari haqida ma'lumot berish.

Kursning vazifalari: a) sohaga oid adabiyotlar ustida ishlash, asosiy tushunchalar, terminlar va nazariy umumlashmalar bilan tanishish; b) til ierarxiyasidagi fonetik-fonologik, leksik, semantik va grammatik sathlarga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor (norma) bo'lgan va me'yor bo'lmagan belgi-xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali nuqtalarni aniqlash; v) hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillar haqida talabalarga ma'lumot berish, ularda hozirgi o'zbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'zbek adabiy tilining mundarijasi va bo'limlari. Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursi tilshunoslikning quyidagi bo'limlarini o'z ichiga oladi:

1.Fonetika va fonologiya. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik-fonologik sathiga oid tizimlar (vokalizm, konsonantizm), segment va supersegment birliklar (fonema, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, fraza, takt), prosodik elementlar (temp, tembr, ritm, melodika, pauza va b.lar), ularning til va nutqdagi roli haqida fikr yuritiladi.

2.Grafika va orfografiya. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimlari (kirillcha va lotincha o'zbek yozuvlari), ularning asosiy komponentlari va belgilari, orfografiya printsiplari va qoidalari xususida bahs yuritiladi.

3.**Orfoepiya.** Bu bo'limda o'zbek tilining to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari, ularni belgilovchi omillar haqida ma'lumot beriladi.

4.**Leksikologiya va frazeologiya.** Bu bo'limlarda o'zbek tilining lug'at boyligi, uning rivojlanish qonuniyatlari, lug'aviy birliklarning qatlamlanishi, turlari, leksik-semantik va tematik guruhlari, leksema va frazemalarning semantik tarkibi, qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

5.**Leksikografiya.** Bu bo'limda lug'atchilik, lug'at tiplari va turlari, lug'atlarning tuzilish printsiplari, lug'at maqolalarining sxemalari, lug'atlarning amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

6.**Morfemika.** Bu bo'limda so'z yoki so'zning grammatik shakllari tarkibidagi ma'noli qismlar – morfemalar xususida, morfemalarning funktsional-semantik, strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida ma'lumot beriladi.

7.**So'z yasalishi.** Bu bo'limda o'zbek tilining so'z yasash usullari, ularning so'z turkumlari bo'yicha tavsifi, tarixiy va hozirgi so'z yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

8.**Morfologiya.** Bu bo'lim grammatikaning bir qismi bo'lib, unda grammatik ma'no va grammatik shakllar, shular orasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga birlashtirish printsiplari, har bir so'z turkumining ma'no turlari, morfologik belgilari, gapdagi funktsional xarakteristikasi haqida fikr yuritiladi.

9.**Sintaksis.** Bu bo'lim grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, unda so'z birikmalari va gap turlari, so'zlarning grammatik munosabatga kirishish yo'llari o'rganiladi.

10.**Punktuatsiya.** Bu bo'limda yozuv sistemasining uchinchi komponenti (birinchi komponenti-grafika, ikkinchi komponenti-ortografiya) xususida ma'lumot beriladi. U sintaksis bilan parallel ravishda o'rganiladi, chunki tinish belgilarining qo'llanishi, asosan, gap ichida va nutqda namoyon bo'ladi.

2-Ma'ruza: O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyot bosqichlari. Adabiy til tushunchasi. Oz'bek milliy tili va uning lahjalari.

Reja:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari.
2. Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi o'zgarishlar.
3. Tilning lug'at boyligidagi o'zgarishlar.
4. Tilning grammatik qurilishidagi o'zgarishlar.
5. Oz'bek milliy tili va uning lahjalari.

Tayanch tushunchalar: Fonetik-fonologik sath, leksik sath, vokalizm, konsonantizm, pozitsion xususiyatlar, sintagmatik xususiyatlar, singarmonizm, sheva, lahja

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr); b) qadimgi turkiy til(VII-XI asrlar); v) eski turkiy til (XI-XIII asrlar); g) eski o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar); d) yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri – XX-asrning 20-yillari). Hozirgi o'zbek adabiy tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, o'zbek milliy tilining oliy formasi darajasiga ko'tarilgan. O'zbek tilshunosligida o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini boshqacharoq tasnif qilish holatlari ham uchraydi (qarang: 17, 21-23).

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ko'zdan kechirish qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridan farqlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday farqlarning paydo bo'lishi, odatda, ikki omilga asoslanadi: 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga – tilning o'zidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar munosabatiga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga). O'zbek tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos til) vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama til) vazifasini o'tagan. Substrat va superstrat tillar o'rtasidagi aloqa odatda bilingvizm (ikki tillilik) yoki polilingvizm (ko'p tillilik) sharoitida yuzaga keladi va tillar substratsiyasi deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-rus ikki tilliliklari sharoitida asos til bilan ustama tillar o'rtasida bog'langan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasida qator o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Buni til sathlari va tizimlari bo'yicha keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan anglab olsa bo'ladi: 1.Tilning fonetik-fonologik sathida: a) qadimgi turkiy til vokalizmida 8 unli bo'lgan(a, o', o, u - orqa qator, yo'g'on unlilar; e, i, o,u - old qator , ingichka unlilar); b)eski turkiy til va eski o'zbek tillarida ham shu 8 unli saqlangan, ammo eski o'zbek tilida old, qator lablanmagan e unlisi hisobiga vokalizm tizimi 9 unlidan iborat bo'lgan; v)qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida unli tovushlarning yo'g'onlik-ingichkalik ziddiyati (oppozitsiyasi) bo'lgan: i-o', a-a, u-u, o'(o)-o'(o) kabi; g) hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida unlilar miqdori 6 taga tushib qolgan (i,e,a,u,o',o). Bu tizimda yo'g'onlik-ingichkalik oppozitsiyasi yo'q, ayrim tovushlarning sifat belgilari ham o'zgargan. Masalan, orqa qator, lablanmagan a o'rnida kuchsiz lablangan o () unlisi paydo bo'lgan.

Qiyos qiling: ata-ota, at-ot kabi; d) qadimgi turkiy til konsonantizmida b,m,p,v,s,z,t,d,n,l,r,ch,sh,y,q(k),g`g),n undoshlari bo'lgan, bu undoshlarning ko'pchiligi palatal (ingichka yoki yumshoq) va velyar (qalin) variantlarga ega edi; e) eski o'zbek adabiy tilida undoshlar 24 taga etgan (b,m,p,v,f,s,z,t,d,n,l,r,ch,sh,j,j ,y,q,k,g`g,n,x, h). Konsonantizm tarkibida undoshlar miqdorining ortishi o'sha davrdagi o'zbek-arab va o'zbek-fors ikki tilliligi (bi-lingvizmi) ta'sirida, shuningdek, ayrim undoshlarning divergentsiyasi (bir fonemaning ikki fonemaga ajralishi) natijasida sodir bo'lgan; j) hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmida yuqoridagi 24 undoshning barchasi bor. Ayrim tilshunoslarning (masalan, prof. A. Abduazizovning) fikricha, rus tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydigan qorishoq "s" ham o'zbek tili undosh fonemalari qatoridan o'rin olgan deb qaralishi kerak.¹ Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi: a) qadimgi turkiy til konsonantizmida f,x,h,j,j undoshlari bo'lmagan. Ular eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili davrida turli lisoniy (lingvistik) va nolisoniy(ekstralingvistik) omillar ta'sirida paydo bo'lgan; b) qadimgi turkiy tilda q va k undoshlari bir fonemaning nutqdagi ikki ko'rinishi-ottenkalari bo'lgan, keyinchalik bu fonema divergentsiyaga uchrab, ikki mustaqil fonemaga aylangan; g` va g undoshlari rivojida ham ayni shu jarayon (divergentsiya) bo'lganligini - "g" ning "g`" va "g" ga parchalanganligini ko'ramiz.

Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi o'zgarishlar:a) qadimgi turkiy tilda r,l,v,g`g), z,d,n undoshlari so'z boshida qo'llanmagan. Eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu tovushlar ("n" dan boshqalari) so'z boshida ham ishlatiladi; b) m undoshi qadimda so'z boshidagi "b" ning varianti sifatida qo'llangan, ammo so'z o'rtasida va oxirida mustaqil fonema bo'lgan. Uning mustaqil fonema sifatida so'z boshida qo'llanishi eski o'zbek tilida bir qadar uchrab turadi, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa uning so'z boshida qo'llanishi ancha keng tarqalgan; v) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar so'z boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski o'zbek tilida ham saqlangan, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida esa undoshlarning so'z yoki bo'g`in boshida qatorlashib kelishi me'yoriy holatga aylangan; bu hodisa o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga xos (brom, professor, shkaf, traktor, trolleybus, tramvay kabi); g) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: qirq, alp ("mergan ovchi"), art ("elka") kabi. Eski o'zbek tilida undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi bir oz ko'paygan (fors-tojik va arab tillaridan so'z o'zlashtirish hisobiga): do'st (forscha o'zlashma), hamd (arabcha o'zlashma:"maqtov"), g`isht (tojikcha o'zlashma), go'sht (tojikcha o'zlashma) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g`in yoki so'z oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali o'zlashgan so'zlar hisobiga ancha ko'paygan: boks, kodeks, kort, iks kabi; d) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida so'z oxirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (geminatsiya) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning so'z oxirida qavatlanishi uchrab turadi: gramm, klass, vatt, ball kabi ruscha-baynalmilal o'zlashmalar buning dalilidir; e) qadimgi turkiy tilda so'zning birinchi bo'g`inidan keyingi bo'g`inlari faqat undosh bilan boshlangan: *o-na, o-ta, o-g`a, i-ni, bo-la* kabi. Bu hol so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga sabab bo'lgan. Eski o'zbek tilida arab tili o'zlashmalarining paydo bo'lishi bu qonuniyatga chek qo'ygan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik o'zlashmalar hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

Singarmonizm: 1) qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida singarmonizm (so'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarda unlilarning uyg'unlashuvi) mavjud bo'lgan. Qiyos qiling: kelduk ("kel" dagi "e" - old qator, ingichka unli Q "-duk" dagi "u" ham old qator, ingichka unli) va barduk ("bar" dagi "a" - orqa qator, yo'g'on unli Q "-duk" dagi "u" ham orqa qator yo'g'on unli). Bu misollardagi unlilar til garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan. Kelip va korup so'z shakllarining birinchisida ("kelQip" da) o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida ("korQup" da) esa o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan; 2) hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm o'z mavqeini ancha yo'qotgan. Qiyos qiling: *konlunuz* (eski o'zbek tilida) – *ko'nglingiz* (hozirgi o'zbek adabiy tilda), *korup* (eski o'zbek tilida) - *ko'rib* (hozirgi o'zbek adabiy tilida) kabi.

Izoh: singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o'g'uz dialektlariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: *olgan* (adabiy tilda)-*alg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *borgan* (adabiy tilda) - *barg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *kelgan* (adabiy tilda) *kelgan* (qipchoq lahjasi shevalarida), *o'ttiz* (adabiy tilda) - *o'ttuz* (qipchoq lahjasi shevalarida), *uyimga* (adabiy tilda)- *uyuma* (o'g'iz lahjasi shevalarida) kabi.

Tilning lug'at boyligida: 1) qadimgi turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari bo'lmagan. Eski turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari qo'llana boshlagan, eski o'zbek tilida bunday o'zlashmalar ancha ko'paygan: *gul*, *gavhar*, *guruch*, *go'r* (fors-tojik so'zlari), *madrasa*, *oila*, *fikr*, *firoq*, *hosil* (arabcha so'zlar). Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday o'zlashma so'zlarning ayrimlari eskirgan (masalan, *muvalldi*- *ulhamuza*, *handasa*, *tarh* kabilar), ularning o'rnida bir qator ruscha o'zlashma termin va atamalar paydo bo'lgan (*kislorod*, *geometriya*, *avtobus*, *tramvay* va b.lar); 2) qadimgi turkiy tildagi ayrim so'zlarning eski o'zbek tilida tojikcha sinonimlari paydo bo'lgan: *chechak* (turkiy)-*gul* (tojikcha), *yog'och*, *yig'och* (turkiy)- *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy)- *tilla* (tojikcha), *buloq* (o'zbekcha)-*chashma* (tojikcha), *qirov* (o'zbekcha)- *shabnam* (tojikcha) kabi; 3) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida qisqartma so'zlar (abbreviaturalar) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek tilida bunday qisqartmalar anchagina bor: *BMT*, *TDP*, *SamDU* kabi. Keyingi yillarda o'zbek tili leksikasida IIB (Ichki ishlar bo'limi), IIBB (Ichki ishlar bo'limi boshqarmasi), IIV (Ichki ishlar vazirligi), DAN (Davlat avtoinspeksiya nazorati), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), BuxDU (Buxoro Davlat universiteti), QarMII (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti) kabi yangi qisqartma nomlar ham paydo bo'ldi; 4) o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shuningdek, mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy islohotlar o'zbek tili leksikasida yana bir qator yangi so'zlarning yuzaga kelishiga yoki ayrim eskirgan so'zlarning qayta tiklanishiga sabab bo'lmoqda: *supermarket*, *fermer*, *aktsiyador*, *vazirlik*, *nozir*, *devonxona*, *ta'til* kabilar shular jumlasidandir; 5) rus tili va rus yozuvi ta'sirida yuzaga kelgan tok ("elektor toki") va tok ("uzum toki") kabi omograflar, to'rt ("miqdor son") va tort (" konditer mahsuloti") kabi omofonlar ham ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasiga xosdir.

Tilning grammatik qurilishida: 1) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari bo'lgan. Bunday mustaqil so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida yordamchi so'zlar—ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalar bo'lgan. Bunday turkumlarga xos so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mavjud; 3) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida undovlar va modal so'zlar bo'lgan. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilda ham bor; 4) qadimgi turkiy tilda ham, eski o'zbek tilida ham har bir so'z

turkumining o'ziga xos grammatik kategoriyalari (otlarda-egalik, kelishik, son; sifatlarda- daraja; fe'llarda - shaxs-son, mayl, nisbat, zamon va b.lar) bo'lgan. Bu xususiyatlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski o'zbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlar ham uchraydi: 1) hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalar qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boydir. Masalan: qadimgi turkiy tilda o'zakdan oldin qo'shiluvchi affiks morfemalar (prefikslar) bo'lmagan. Bu tipdagi morfemalar eski o'zbek tilida va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydi: bebosh, bevosita, bamosita (bilvosita), noo'rin, sersuv, sergap kabi; b) eski o'zbek adabiy tilida "-ov", "-ev", "-ova", "-eva", "-ovna", "-evna", "-ovich", "-evich" kabi familiya va otchestvo yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday qo'shimchalar bor; v) eski o'zbek adabiy tilida "-lar" affiksi ko'plikni (odamlar, qishloqlar kabi), birgalikni (Karimlar kelishdi), ma'no kuchaytirilishini (suvlar oqib yotibdi), chama yoki taxminni (qirq yillar bo'ldi kabi) ifodalagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa "-lar" affiksining so'zlarni terminlashtirish funktsiyasi ham paydo bo'lgan: qirququloqsimonlar, sutemizuvchilar kabi; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida sin-garmonizm mavjud bo'lganligidan ko'pchilik morfemalarning yo'g'on va ingichka turlari saqlangan: "-mo'z" va "-miz" (baramo'z va kelamiz kabi), "-gan" va "-g'on" (kelgan va borg'on), "-cho'" va "-chi" (yog'cho' "azani boshqaruvchi" va bedizchi- "naqqosh" kabi). Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ulardan faqat bittasi standart forma sifatida saqlangan (boramiz, kelamiz, borgan, kelgan, qo'riqchi va ishchi kabi), "-lo'q" va "-lik" haqida ham shu fikrni aytish mumkin; 3) eski o'zbek adabiy tilidagi ba'zi affikslar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. Masalan, "-vul" affiksi eski o'zbek adabiy tilida qorovul, yasovul, kabi so'zlarni yasagan, hozir esa bu affiks so'z yasash xususiyatini yo'qotgan; 4) qadimgi turkiy tilda bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi ("-n", "-o'", "-in", "-un", "-un", "-on", "-en"), jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shulardan bittasi - vosita kelishigi yo'q. U qadimgi turkiy tilda "bilan" ko'makchisi funktsiyasiga teng bo'lgan: masalan, tilin sozlep, qolaqo'n eshidip ("tili bilan so'zlab, qulog'i bilan eshitib...") kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. O'zbek tili bir qator shevalarni o'z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtai nazardan uchta katta lahjaga - qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga birlashtiriladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida ana shu uchta lahja shevalarining ishtirok etganligi tabiiy bir holdir, ammo ulardan qaysi biri adabiy tilga ko'proq darajada asos bo'lganligi masalasida tilshunoslar orasida yakdillik yo'q. Ko'pchilik manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarluq lahjasi, xususan, uning Toshkent-Farg'ona tipidagi shahar shevalari ishtirok etganligi ko'rsatiladi. Ammo ayrim tilshunoslar (masalan, prof. X. Doniyorov, dotsent B. To'ychiboev) adabiy tilning tayanch dialekti masalasiga boshqacharoq yondashadilar: ularning fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham faol qatnashgan, shunga ko'ra adabiy til me'yorlariga oid ayrim masalalar (xususan, vokalizm tizimi, alifbo tuzilishi) qayta ko'rilishi kerak. Bu mualliflarning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida 6 ta emas, 8-9 ta unli fonema bor, ular i/o', a/a, u/u, o'(o) /o'(o) kabi kontrast juftliklarni hosil qiladi

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklaridagi shakllari Toshkent- Farg'ona gruppasi shevalariga asoslanadi: "-ga" (j.k), "-da" (o'-p.k) va "-dan" (ch.k) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakllari quyidagicha bo'ladi: Samarqand shevasida "-ga" formanti

joʻnalish va oʻrin-payt kelishiklari maʼnosini ifodalaydi: Buxoroga *ketopti* ("Buxoroga" - otning joʻnalish kelishigidagi shakli), Buxoroga *oʻqopti* ("Buxoroga" – otning oʻrin-payt kelishigidagi shakli) kabi. Oʻgʻuz lahjasi shevalarida "-ga" oʻrnida "-gʻa" (qurvaqagʻa), "-ye"(tangeye), "-ne"(erkine), "-na(yanoʻna),"-e"(uyime) formantlari ishlatiladi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: "-ni"/"-noʻ", "-ning"/"-noʻng" (qipchoq lahjasi shevalarida), "-ning"/ "-ing","-noʻng"/"-oʻng" (Iqon, Qorabuloq, Hazorasp shevalarida), "-ni"/"-ti"/ "-pi"/"-yi"/"-mi" (Toshkent shevasida) kabi. Bunday koʻp variantlilik adabiy tilga koʻchirilmagan.

Shuni ham aytish kerakki, koʻpchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Fargʻona, Xeva-Urganch shevalarida-5ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining j-lovchi shevalarida, qarluq-chigil-uygʻur lahjasining Iqon-Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga etadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

Milliy til va uning tarkibiy qismlari. Maʼlumki, oʻzbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri boʻlib, uning tili XI-XII asrlarda maʼlum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga koʻra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi.

Qaerda yashashidan qatʼi nazar oʻzbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) oʻzbek** tili deb yuritiladi. Milliy til oʻz tarkibiga adabiy til, sheva, soʻzlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (soʻkish, qargʻish soʻzlari), varvarizm (tilda oʻrinsiz ishlatilgan chet soʻzlar) kabi guruh soʻzlarni qamrab oladi.

Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiy qilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo boʻlishi bilan birga yuzaga keladi.

Milliy til millat uchun umumiy boʻlgan tildir. Milliy til tushunchasi juda keng boʻlib, u mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni oʻz ichiga oladi. **Sheva** bir millatga mansub boʻlib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til koʻrinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi xususiyatlariga koʻra farq qiladi:

1. **Fonetik (yaʼni tovush)** jihatdan: *yoʻq – joʻq, keldi – geldi, bahor – bohor.*

2. **Leksik (yaʼni soʻz)** jihatdan: *ota - ada, chumchuq – secha, sigir – inak.*

3. **Grammatik (yaʼni, qoʻshimchalar va gap qurilishi)** jihatdan: *kelyapti (ad.) – kevotti – kelopti – kelutti.*

Xalq shevalarining faqat **ogʻzaki** shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin boʻlgan guruhleri **lahja** deb ataladi (**dialekt** soʻzi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.).Jumladan, oʻzbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).

2. Qipchoq lahjasi (janubiy-gʻarbiy guruh).

3. Oʻgʻuz lahjasi (shimoliy-gʻarbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini oʻz ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Fargʻona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) soʻz oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *elak* - *elay*, *terak* - *teray*

2) **o** lashish yuz beradi: *aka* - *oka*, *nahor* – *nohor*.

3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qoʻshimchasi **yoʻq** boʻlib, uning oʻrniga ham tushum kelishigi qoʻshimchasi **-ni** ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari*.

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

- 1) **y** o'rnida **j** ishlatiladi: yo'l - jo'l, yo'q - jo'q.
- 2) **g** o'rnida **v** ishlatiladi: tog` - tov, sog` - sov va b.
- 3) so'z oxirida **k, q** tovushlari tushiriladi: *quru(q), sari(q)*.

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

- 1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: *at (hayvon), aad (ism)*.
- 2) **t** tovushi **d, k** esa **g** tarzida aytiladi: tog` - dog`, keldi - galdi.
- 3) **-ning** qo'shimchasi **-ing** tarzida, **-ga** qo'shimchasi esa **-a, -na** tarzida aytiladi: *yorimga - yorima, alina (qo'liga).*

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg'ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo bo'lsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo'lganda ham yuzaga keladi.

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqilashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud.

Adabiy tilning og'zaki shakli nisbatan qadimiy bo'lib, u nutq tovushlari, urg'u, intonatsiya (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va me'yorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va me'yorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

3-ma'ruza: Fonetika. Fonetikaning predmeti va vazifasi

Reja:

1. Fonetikaning predmeti
2. Fonetikaning maqsadi
3. Fonetikaning vazifasi
4. Fonetikaning bo'limlari haqida umumiy ma'lumot.

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Fonetikaning predmeti tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari bo'g'in, urg'u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi **vazifalarini** belgilaydi: a) tovush, urg'u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; g) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish.

Bizga ma'lumki, o'zbek tilining fonetika bo'limida, tilning fonetika bo'limida, tilning fonetik tizimi, nutq tovushlari, unli va undoshlar, ularning paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlari, bir-biridan farqlari, kombinator, pozitsion o'zgarishlar va ularning variantlari haqida bahs etadi. Shuningdek, u nutq apparati, bo'g'in va ularning tuzilishini ham tekshiradi. Demak, fonetika borliqdagi har qanday tovushni emas ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nutq tovushlarini tekshiradi.

Nutq tovushlari tarixiy, qiyosiy, hozirgi holati nuqtai nazaridan hamda turli asboblarda vositasida o'rganilishi mumkin. Shunga ko'ra fonetika: 1) umumiy fonetika; 2) tarixiy fonetika; 3) qiyosiy fonetika; 4) tavsifiy fonetika; 5) eksperimental fonetika kabi qismlarga ajratiladi.

Umumiy fonetika. Bunda fonetikaga oid materiallar, fonetikaning turlari, nutq tovushlari, ularning bo'linishlari va har xil o'zgarishlari to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi. Umumiy fonetikada ayrim tillarning, shuningdek, bir qancha qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning fonetik tuzilishini o'rganish asosida olingan natijalar umumlashtiriladi. Masalan: turkiy tillarning fonetik jihatdan o'xshashligi:

Tarixiy fonetikada aniq bir tilning tovushlar tizimi tarixiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Boshqacha aytganda tilning tovush tizimidagi taraqqiyot va o'zgarishlar; ayrim tovushlarning iste'moldan chiqib ketishi ya'ni tovush yoki tovush variantlarini yuzaga kelishi, tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog'liqlavishda o'rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi.

Masalan: o'zbek tilida hozir fonemasining ikkita lab-lab va lab-tish varianti bor. Tarixiy fonetika fonemasidagi shu hodisaning kelib chiqish sabablarini quyidagicha izohlaydi: lab-lab varianti o'zbek tili uchun birlamchi va qadimiy fonema sanaladi. Sof o'zbekcha va asl turkcha so'zlarda bu tovushning lab-lab varianti ishlatiladi. Masalan: *ov, suv, yaylov, yayov, qovun, haydov* kabi.

O'zbek tilining keyingi taraqqiyoti natijasida, boshqa tillardan leksikamizga yangi so'zlar kirib kelishi oqibatida bu fonemaning lab-tish varianti yuzaga keldi. Bu variant boshqa qiyosiy fonetikada bir qancha qarindosh tillarning yoki bir qancha dialekt va shevalarning materiallari unli va undoshlar, fonetik o'zgarishlar va shu kabilar bir-biriga

qiyoslash asosida o'rganiladi. Masalan: singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek adabiy tilida buzilgan, lekin boshqa turkiy tillarda, shuningdek, ayrim o'zbek dialektlarida to'la saqlangan. Bu materiallarni qiyosiy o'rganish asosida avval o'zbek adabiy tilida ham singarmonizm hodisasining to'la ravishda bo'lganligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Qiyosiy fonetika, bir tomondan umumiy va tavsifiy fonetika materiallariga, ikkinchi tomondan tarixiy fonetika materiallariga asoslanadi. Qiyosiy fonetika yozuv yodgorliklari va sheva materiallaridan ham unumli foydalanadi.

Masalan: o'zbek tilidagi uchta laxjaning fonetik jihatdan farqlanishi.

1) qarluq - chigil - uyg'ur laxchasida:

h tovush o'rnida **x** qo'llanishi;

a tovushining **e** ga o'tishi (ayt-et, borginda-borginde),

a tovushining **i** ga o'tishi (bormaydi-bormiydi),

o tovush **a** ga yaqin talaffuz (okasi),

so'z oxiridagi **k** – **y** ga o'tadi (elak-elay).

2) qipchoq lahchasida:

y o'rnida **j** qo'llanishi: *yo 'l-jo 'l*

f tovush deyarli qo'llanmaydi,

x tovush **q** tarzida *t/q*; ma

so'z o'rtasi va oxirida **g** tovushining **v** ga o'tishi (*sog`-sov*),

so'z oxirida **g**, **k**, **q** tovushlarining tushishi: (*sariq-sari*),

o tovushi **a** aytilishi (*jay, chay, chach*),

l tovushining so'z o'rtasida tushishi: (*bo 'lsa-bo 'sa, kelsa-kesa*),

e tovushining **o** ga o'tishi (*tepa-toba, belanchak-bolanchak*),

i tovushining **a** ga aylanishi (*qani-qana*).

Tavsifiy fonetikada aniq olingan til tovush tizimining hozirgi holati ya'ni unlilar, undoshlar, ularga xos bo'lgan fonetik o'zgarishlar o'rganiladi. Demak, tavsifiy fonetikada biror til fonetikasining hozirgi holati nuqtai nazaridan tasvirlanishi talab etiladi. Bundan tavsifiy fonetikada, nazariy, ilmiy xulosalar yoki tarixiy ekskurslar, degan fikr tug'ilmasligi kerak.

Tavsifiy fonetika nutq tovushlarini fiziologik (tovushlarning paydo bo'lish o'rniga ko'ra), akustik (eshitilishiga ko'ra), lingvistik (so'zda ma'no ajratish xususiyatiga ko'ra) aspiqlarda tekshiriladi. Tovushlarning kombinator, pozitsion variantlari va ularning o'zgarishlari ham shu sohaning asosiy o'rganish ob'ektidir.

Eksperimental fonetika. Bunda nutq tovushlari maxsus asboblari yordamida eksperimental o'rganiladi. Bu usul fonetik materialni ob'ektiv tasvirlash imkonini beradi.

Masalan: bu usul vositasida unli tovushlardagi cho'ziqlik yoki qisqalik, undoshlardagi portlash yoki sirg'alish hodisasini juda aniq belgilash mumkin.

Fonetikaning mustaqil bo'lgan bu bo'limlari o'zaro mustahkam bog'langan.

Tekshirish savollari:

1. Fonetikaning predmeti?
2. Fonetikaning maqsadi?
3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Segment va supersegment birliklari qanday farqlanadi?
5. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday tushunasiz?
6. Fonetik so'z nima?
7. Fonetikaning qanday turlari bor?
8. Umumiy fonetika nimani o'rganadi? Xususiy fonetika-chi?

9. Tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetika-larning farqi nimada? Bu sohalarda ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?

10. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilinadi? Bu sohaga oid ishlardan qaysilarini bilasiz?

Tayanch tushunchalar. Fonetika-tilshunoslikning fonetik birliklar, ular-ning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi bo'limi. Segment birliklar-so'z yoki morfema tarkibida (yoki nutq oqimida) gorizontaal chiziqli bo'ylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, bo'g'in, fonetik so'z, takt, fraza. Supersegment birliklar-urg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'lishi bilan segment birliklardan farq qiladi. Shakllantiruvchi vazifa-fonetik birliklarning "qurilish materiali", leksema yoki morfemalarning ifoda planidagi moddiy asos sifatidagi vazifalari. Tanituvchi vazifa-fonetik birliklarning so'z qiyofasini "tanib olish" va shu orqali so'zning ma'nosini "eslab qolish" uchun xizmat qilishi. Fonetik so'z-nutq tovushlarining ma'lum tartibda joylashuvidan tarkib topgan so'zning fonetik qiyofasi, leksemaning ifoda plani. Umumiy fonetika-fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida ma'lumot beruvchi turi. Xususiy fonetika-fonetikaning muayyan bir til tovush-lari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi. Tarixiy fonetika-xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) o'rganadi. Tavsifiy fonetika-xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bog'lamay) o'rganadi. Qiyosiy fonetika-qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab o'rganadigan fonetika. Eksperimental (instrumental) fonetika-nutq tovushlari, urg'u kabi birliklarning fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlarini maxsus asboblarda vositasida o'rganadigan fonetika.

Fonema va uning variantlari. Fonemaning uch asosiy tomoni

Reja:

1. Tovush haqida ma'lumot.
2. Fonema haqida ma'lumot.
3. Tovush va fonemaning farqi
4. Fonema variantlari.

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

So'z tilning asosiy birligidir. Nutq tovushlari esa tilning eng kichik bo'lagidir. Ular ikkiga bo'linadi:

So'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushlari fonema deyiladi. Fonema nutq tovushlarining asosiy qismi yoki uni ng asosiy tipidir. Demak, fonema tabiatda uchraydigan har qanday tovush emas, balki sotsial ahamiyatga ega bo'lgan inson tovushidir. Masalan: bar (etak), bor, ber, bir, bur so'zlari faqat a, o, e (e), i, u, o' unlilariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Bor, bosh, bog', boy, bol, bos, bot, bob, bop, bod, boj, bong, boq so'zlari esa r, sh, g', y, l, s, t, b, p, d, t (dj), ng, q undoshlariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Ma'no farqlanishiga xizmat qiluvchi mana shu unli va undosh tovush fonemalaridir.

Nutq tovushining ma'no ajratish uchun xizmat qilmaydigan qismi fonemaning variantlaridir.

Fonemaning uch tomoni bor: 1. Akustik tomoni (eshitilishi) 2. Fiziologik yoki artikulyatsion tomoni (aytilish yoki talaffuzi) 3. Sotsial tomoni (ma'no ajratish tomoni).

Bular orasida uchinchi ma'no ajratish tomoni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu belgi bo'lmasa, tovush fonema hisoblanmaydi.

Fonemalarda ularning variantlarini farqlamoq kerak. Fonema variantlari undosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladi va turlicha talaffuz qilinadi. Masalan: ba'zan og'zaki nutqda F tovushi o'rnida P tovushi ishlatiladi. Lekin f ning p shaklida talaffuz etilishi yangi fonema sifatida tushunilmaydi, chunki bu bilan so'zning ma'nosi o'zgarmaydi.

Bunday tovush o'zgarishi pozitsion yoki kambinator o'zgarish deb qaraladi.

O'zbek yozma adabiy tilida o' fonemasining ikkita varianti bor. Biri til oldi varianti bo'lib o'rdak, o'rik, ko'ngil, ko'ylak, ko'l singari so'zlarda qo'llaniladi. Ikkinchisi esa til orqa varianti bo'lib u o'rtoq, o'roq, qo'l, o'tin, g'o'za singari so'zlarda ishlatiladi. Shuningdek, i va u tovush fonemalarining ham kamida ikkitadan, ya'ni til oldi va til orqa variantlari bor. U fonemaning til oldi varianti uzum, uzuk, kul, gul, qo'y kabi so'zlarda til orqa varianti uzoq, qum, qul, quloq, uluq, suv kabi so'zlarda uchraydi.

I fonemasining til oldi varianti ish, kishi, tish, kitob, bilak tipli so'zlarda, til orqa varianti qir, qiz, o'g'il, qil, g'iz-g'iz kabi so'zlarda qo'llanadi. I fonemasining til orqa varianti ko'pincha g', q undoshlari bilan yonma-yon keladi. Aslida, bu tovushlarning har biri bir mustaqil fonemadan iboratdir. Chunki ularda fonemaning yuqorida ko'rsatilgan uchala belgisi ham bor.

So'zdagi yon tovushlar ta'sirida hosil bo'ladigan tovush o'zgarishlari tovushlarning kombinator variantlari deyiladi.

Unli fonemalarning kombinator variantlari unlilar tarkibida, undosh fonemalarning kombinator variantlari unlilar tarkibida, undosh fonemalarning kombinator variantlari esa undoshlar tarkibida o'rganiladi.

Yozma adabiy tilda fonemaning varianti sifatida qo'llanuvchi ayrim tovushlar shu tilning ayrim dialekt va shevalarida mustaqil fonema sifatida ish ko'rish mumkin. Masalan: Xorazm shevalarida mustaqil cho'ziq **a:** unlisi mavjud. Shuningdek, o'zbek tilining qipchoq (j-lashgan) shevalarida u, o', i fonemalarining variantlari mustaqil fonema sifatida ish ko'radi.

Chunki **u, o', i** unlilarining har ikki varianti ham bu shevalarda ma'no ajratish uchun xizmat qiladi.

Chunki ular har xil pozitsiyada kelganda ham bir xil pozitsiyada ishlatilganda ham ikki xil (til oldi, til orqa shaklida) talaffuz etiladi. Masalan, o't so'zida **o'** unilisi til oldida talaffuz qilinganda, o'tmoq fe'lini va odam ichki organining bir turini anglatadi. Til orqa qilib talaffuz etilganda esa "maysa", "olov" ma'nolarini ifodalaydi. Bu so'zlar faqat ma'no va talaffuzida emas, balki eshitilishida ham farqlanadi.

	o't	til oldi 1) o'tmoq (fe'l)
o't	o't	2) ichki organning bir turi (ot).
	o't	til orqa 3) maysa (ot)
	o't	4) olov (ot).

Xuddi shuningdek, qipchoq shevalarida o'r so'z formasiga beriluvchi omonim so'zi ham yuqoridagidek uch tomonidan farqlanadi.

o'r	1) sochni o'rmoq
o'r	til oldi 2) balandlik
o'r	3) o'tar odam.
o'r	
o'r	1) bedani o'r

oʻr til orqa 2) chuqurlik.

Oʻzbek tilining qipchoq shevalarida ham ogʻzaki adabiy nutqimizdagi kabi u fonemasi ham oʻ fonemasi singari ikkita mustaqil fonemani tashkil etadi. Masalan:

uch – til oldi 1) 3 raqami (son)

uch 2) osmonga uch (feʼl)

uch – til orqa 3) qalamning uchi (ot).

un – til oldi 1) unmoq (feʼl)

un un – til oldi 2) tovush (ot)

un – til orqa 3) un (ot) (muka).

Qipchoq shevalarida **i** tovushi ham yuqoridagi kabi ikki mustaqil fonemani tashkil etadi. Masalan, bir xil pozitsiyada kelgan tish soʻzidagi **i** unlisi til oldida talaffuz qilinganda “kishining tishi”ni anglatadi. Til orqa qilib talaffuz etilganda esa, “tashqari” maʼnosini ifodalaydi. **Is** soʻzi til oldida talaffuz qilinganda, “hid” maʼnosini, til orqa qilib talaffuz etilganda esa “qurum”, “ifloslik” maʼnosini anglatadi.

Shuning uchun yozma adabiy tilda 6 ta unli boʻlsa, bu shevalarda unlilar 9 tadir. qipchoq shevalaridagi **o, e, a** fonemalari adabiy tilimizdagi **o, e, a** fonemalaridan deyarli farq qilmaydi.

Maʼruza: Akustika haqida maʼlumot

Reja:

- 1) Tovushlarning sifat belgisi:
 - a) tovushning kuchi;
 - b) tovushning balandligi;
 - b) tovush tembri yoki boʻyoqdorligi.
- 2) Tovushlarning miqdor belgisi:
 - a) birlamchi choʻziqlik yoki fonologik choʻziqlik;
 - b) ikkilamchi choʻziqlik yoki fonotik choʻziqlik.
- 3) Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Foydalangan va mustaqil oʻqishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Tovushning uchta asosiy tomonidan biri, uning eshitilishi, yaʼni akustik tomonidir. Tovushning eshitilishi haqida biror tushuncha hosil qilish uchun biroz boʻlsa-da, akustikadan xabardor boʻlish kerak.

Nutq tovushlariga fizik yoki akustik aspektda qarashsa, ularda avvalo 2 xil belgi koʻzga tashlanadi: bulardan biri tovushning sifat belgisi, ikkinchisi esa miqdor belgisidir.

Tovushlarning sifat belgilari: 1. Tovushning kuchi yoki intensivligi. Tovush toʻlqinining balandligi va kengligi tovush kuchi deyiladi. Boshqacha aytganda, toʻlqinning paydo boʻlgan oʻrni bilan uning pastga tushgan oʻrni oʻrtasidagi kenglik tovush kuchini koʻrsatuvchi faktordir. Akustikada tovush toʻlqinining balandlik va kenglik koʻlami amplituda (lotincha-koʻlam) deyiladi. Odatda amplitudaning koʻlami qanchalik katta, keng va baland boʻlsa, tovush kuchi shunchalik koʻp boʻladi. Tovush kuchi nutqda nutq jarayonining holati va urgʻu bilan bogʻliq boʻladi. Odatda, soʻzda urgʻu tushgan tovushlar kuchli, urgʻusizlar esa kuchsiz tovushlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, har bir tovushning kuchini belgilashda uning nutq jarayonida aytilish holati ahamiyatlidir. Lekin teng kuchga ega boʻlgan tovushlarda ham shovqin (gromkost) har xil boʻlishi mumkin. Bu tovushning balandligiga bogʻliq. Tovushning balandligi qancha yuqori boʻlsa, uning shovqini shunchalik baland boʻladi. Lekin tovushning asosiy xususiyatini (intensivligini) uning kuchi belgilaydi. Ogʻiz boʻshligʻining maksimal shovqin chiqarish imkoniyatiga koʻra **i** tovushi eng kuchli tovush hisoblanadi. **A** tovushi esa bu jihatdan eng

kuchsiz tovushdir. Chunki og'iz bo'shlig'i **a** ni talaffuz qilganda **i** ga nisbatan keng ochiladi, havoning chiqish kuchi kamayadi. Lekin og'iz bo'shlig'ining **a** tovushni nutq jarayoni qo'llash imkoniyati **i** tovushning imkoniyatiga nisbatan ancha qulay. Shunga ko'ra odatdagi nutq jarayonida **a** tovushi **i** tovushiga nisbatan ko'proq kuch bilan qo'llanadi. Lekin nutq jarayonida tovushlar maksimal shovqin asosida emas, balki tabiiy zarurati darajasida ifodalanadi.

Tovushning balandligi tebranishning vaqtga nisbatan miqdori bilan o'lchanadi. Uning o'lchov birligi gerts (Gts) deb ataladi. Gerts tebranishning sekundga nisbatan o'lchovini belgilaydi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland, tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi. Tovushning balandligi tebranishning zichligiga bog'liq: tebranish qancha zich bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi.

Tovush tembri yoki bo'yoqdorligi. Har bir tovushning o'ziga xos ohangi, rangi yoki bo'yoqdorligi tovush tembri deyiladi. Tovush bo'yoqdorligi tovush tembrining holati va darajasi bilan o'lchanadi. Tovush tembri asosiy tonlar bilan obertonlarning murakkab qo'shilmasidan iborat.

“Tembr” – frantsuzcha – “tovush bo'yog'i” deyiladi.

“Oberton” – nemischa – “qo'shimcha ohang” deyiladi.

Nutq tovushlarining tembri, asosan, unli tovushlarga xos bo'lib, undagi farqlar unli tovushlarni bir-biridan ajratish uchun xizmat qiladi. Hamma unli tovushlarda ham ovoz bor. Lekin ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi. Bunda og'iz bo'shlig'i asosiy va eng murakkab rezonanslik vazifasini bajaradi, shu bilan birga, nutq jarayonida tovush tembrining hosil qilinishida yumshoq tanglay (xususan, burun rezonansini hosil qilish uchun) va tovush paychalari ham faol ishtirok etadi. Bulardan tashqari, nutq tovushlarini hosil qilishda til, lab, tish va boshqa nutq organlarining ham o'ziga xos roli bor.

Boshqacha aytganda, tovushning boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, nutq tovushlarini hosil qilishda tovush tembrining ham muhim ahamiyati bor. Lekin nutq tovushlarini hosil qilishda akustik jihat bilan bir qatorda fiziologik jihat ham, ya'ni nutq organlari ham muhim rol o'ynaydi. Biroq bu ikki tomon ham nutq tovushlarining to'liq qimmatini yarata olmaydi. Ularning to'liq qimmati nutq tovushlarining ma'no ajratish xususiyati tufayli, ya'ni sotsial qimmati tufayli yuzaga chiqadi.

Tovushning miqdor belgisi. Tovushning miqdor belgisi deyilganda odatda tovushning cho'ziqligi nazarda tutiladi. Tovushning cho'ziqligi uning talaffuz qilinishida ko'p vaqt ketgan tovushlar cho'ziq tovushlar deb ataladi. Lekin nutq tovushlari uchun absolyut cho'ziqlikning qimmati yo'q. Chunki nutq tovushlarining qimmati o'zining tabiiy (nisbatan cho'ziq, nisbatan qisqa) vaqti bilan belgilanadi. Lekin «miqdor belgisi» degan iboraning nutq tovushining cho'ziqliligiga nisbatan shartli ravishda qo'llanilishini unutmash kerak. Chunki ayrim tillarda, kam bo'lsa-da, ma'no ajratish uchun xizmat qiluvchi cho'ziqlik ham uchraydi. Bu esa nutq tovushining sifat belgisi demakdir.

Tovushning cho'ziqligi odatda ikkiga bo'linadi: 1) b i r l a m ch i cho'ziqlik yoki f o n o l o g i k ch o' z i q l i k. Bunday cho'ziqlik o'zi xos bo'lgan tilning tabiatiga nisbatan birlamchi hodisa bo'lib hisoblanadi va u odatda ma'no ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida yilqi ma'nosidagi **ot** so'zi bilan ism ma'nosidagi **ot** bir-biridan farq qiladi. Ism ma'nosidagi **ot** cho'ziqroq talaffuz qilinadi.

Bu tilda **i** tovushi ham ba'zan cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *qi:z*, *bi:z*. Lekin ma'no ajratmaydi. Bu xususiyat o'g'uz shevalarida ham uchraydi. Shuningdek, o'zbek tilining boshqa ba'zi bir shevalarida ham cho'ziq **i** mavjud. Masalan, Qorabuloq, Bog'don shevalarida ham *qiz*, *biz*, *bilan*, *pichoq* (*bichoq*) so'zlaridagi **i** tovushi cho'zib talaffuz qilinadi. Ularda hatto *plan*, *plyonka* so'zlarida ham **p** undoshidan keyin cho'ziq **i** tovushi qo'shib aytiladi. Lekin bu shevalardagi tovush cho'ziqligi o'zining dastlabki xususiyatini yo'qotgan — hozirgi vaqtda ma'no ajratish uchun xizmat qilmaydi. Cho'ziq **o'** qirg'iz va oltoy tillarida saqlanib qolgan. Masalan, qirg'iz tilida *tog'* so'zi *too* deb talaffuz qilinadi; 2) i k k i l a m ch i ch o' z i q l i k yoki fonetik cho'ziqlik. Fonetik cho'ziqlik ma'no ajratish uchun xizmat qilmaydi. Bu cho'ziklik, asosan, tildagi urg'u bilan va shunga o'xshash bir qancha fonetik hodisalar bilan

bog'liq. Masalan, so'zda urg'u tushgan tovush odatda cho'ziq tovush hisoblanadi. Shu bilan birga ayrim undoshlar bilan yonma-yon kelgan unli tovushlar ham o'z pozitsiyasiga ko'ra cho'ziq tovush sanaladi. Masalan, qipchoq shevalarida imon, imom kabi so'z boshida m undoshidan oldin kelgan i tovushi birmuncha cho'zib talaffuz qilinishi natijasida bir y undoshi qo'shib talaffuz kilinadi: iymon, iymom singari. Shuningdek, ba'zi shevalarda qimilladi so'zi qiymilladi tarzida qo'llanadi. Ushbu hollarda ayni vaqtda diftonglanish hodisasi ham yuz beradi. Lekin bunday cho'ziqlik bu tovushlarning doimiy belgisi emas. Chunki boshqa vaqtda bu tovushlar o'z qimmati bilan qo'llanadi. Xuddi shunga o'xshash urg'u tushgan tovushlar ham hamma vaqt emas, faqat urg'u tushgan paytda cho'ziq talaffuz qilinadi, boshqa vaqtda o'z holicha qo'llana beradi.

Fonetik cho'ziqlik yoki ikkilamchi cho'ziqlikning uchinchi turi unlilar oralig'ida kelgan biror undoshning talaffuz paytida tushirilib qoldirilishi natijasida yuzaga keladi, Masalan, *shahar* so'zining *sh:r*, *zahar* so'zining *za:ar*, *nahor* so'zining *na:ar* deb talaffuz qilinishi kabi. Aslida bu misollardagi cho'ziqlik talaffuz jarayonining ixchamlikka intilishi nati-jasida qisqarishi tufayli yuz bergan. Chunki bunda talaffuzda bir undoshning tushirilib qoldirilganligidan tashqari, yonma - yon bo'lib qolgan ikki unlidan biri ham qisqaradi, sog'lom qolgan unli esa uning qisqarishi hisobiga kuchayadi va cho'ziq talaffuz qilinadi. Shu so'nggi misollardan ham ko'rinadiki, kishi nutqining eng kichik bo'lagi va unda yuz bergan eng kichik o'zgarish ham juda murakkab akustik, fiziologik va sotsial faoliyatning natijasi sifatida yuzaga keladi va bu harakatlar hamisha bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ayrim tillarda prinsipial (ma'no ajratuvchi) cho'ziq tovushlar mavjud. Ular shu tilning tabiatiga xos bo'lgan birlamchi-fonologik cho'ziq tovushlardir. Shuningdek, ikkilamchi-fonetik cho'ziqlik ham bo'lib, ular keyingi davrda yuzaga kelgan. Bunda tovushning cho'ziqligi urg'uga yoki pozitsiyaga bog'liq bo'ladi. Bunday cho'ziqlik odatda hamma tillarga xos bo'lib, nutq jarayonida ko'p uchraydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, masalan, rus tilshunoslari fonetik cho'ziqlikni cho'ziqlikning asosiy turi deb hisoblaydilar va birinchi planga qo'yadilar. Fonemaning eshitisilish tomoni haqida darslikning akustikaga bag'ishlangan bo'limida batafsil ma'lumot berildi. Ushbu bo'limda fonemaning aytilishi yoki talaffuzi to'g'risida ma'lumot beriladi.

Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq a'zolari** deb yuritiladi. **Artikulyatsiya** deganda esa nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq a'zolariga quyidagilar kiradi:

1. **Nafas apparati:** o'pka, bronxlar (bir juft), nafas yo'li (traxeya).
2. **Bo'g'iz bo'shlig'ida** xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar hamda un paychalarini joylashgan.
3. **Og'iz bo'shlig'ida** til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan. [Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet]
4. **Burun bo'shlig'i.**
5. **Markaziy nerv sistemasi.**

Nutq a'zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a'zosining vazifasi xususida to'xtalib o'tamiz.

O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini etkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi **cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a'zolaridir. **Un paychalarini** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog'ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz**

bo'shlig'i tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (**q, g, x**) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.

4-ma'ruza: Unli va undosh tovushlarning o'zaro munosabati.
Unli tovushlar tasnifi va tavsifi, undosh tovushlar tasnifi, undosh tovushlar tavsifi
Reja:

1. Unli va undosh tovushlarning farqli tomonlari
2. Unli tovushlar tasnifi
3. Unli tovushlar tavsifi
4. Undoshlar haqida ma'lumot.
5. Undosh tovushlar tasnifi
 - a) Undosh tovushlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasniflanishi
 - b) Undosh tovushlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra tasniflanishi
 - s) Undosh tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tasniflanishi
6. Undosh tovushlar tavsifi

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Nutq tovushlari ikki xil: **unli tovushlar, undosh tovushlar**. Bular quyidagicha farqlanadi: 1) unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undosh tovushlarni hosil qilishda esa o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi. 2) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish mumkin, undoshlarni esa cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi. 3) unli tovushlar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi, undoshlar talaffuzida esa tovush paychalari titrash ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.

Unli tovushlar va ularning tasnifi. Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim **vokalizm** deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (*a, i, o, u, o', e*) uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra;

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati **gorizontal** harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) old qator unlilar: *a, e, i;*
- 2) orqa qator unlilar: *o, o', u.*

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra;

Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi **vertikal** harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, *i, u* unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; aksincha, *a, o* tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; *e, o'* tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rinadiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rta keng) belgilaydi. SHuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) yuqori tor unlilar: *i, u;*
- 2) o'rta keng unlilar: *e, o'.*

3) quyi keng unlilar: **a, o**.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra.

Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya'ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. SHunga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

1) lablangan unlilar: **u, o'**,

2) lablanmagan unlilar: **i, e, a**.

Unli tovushlar tasnifini quyidagi jaldvalda aks ettirish mumkin:

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra
	Old qator	Orqa qator	
Lablanmagan	I		YUqori tor unlilar
Lablangan		u	
Lablanmagan	E		O'rta (keng) unlilar
Lablangan		o'	
Lablanmagan	A	o	Quyi (keng) unlilar
Lablangan			

Unli tovushlar tavsifi.

Yuqori tor unlilar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: *bilan, sira*.
- 3) **k, g, x** undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: *qir, G'ïrot, oxir*.
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) **e(e)** tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*,

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan.
- 4) **i** tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

O'rta keng unlilar tavsifi

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida, so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.
- 2) jonli nutqda sheva ta'sirida **i** tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.
- 3) o'g'uz shevalarida **a** tovushiga o'tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda **e** tarzida talaffuz etiladi.

O' unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda so'zlarning asosan birinchi bo'g'inida uchraydi: *o'g'il, bo'ri, to'g'ri, o'rin, bo'yin*.
- 2) o'zlashma so'zlarning oxirgi bo'g'inida ham keladi: *ro'baro', xushro'y, gulro', kubok, (kubo'k)*.
- 3) til oldi varianti ham bor: *o'rik, ko'l, cho'l*.

Quyi keng unlilar tavsifi

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ari*), o'rtasida (*daftar*) va so'z oxirida (*qora*) keladi.

2) **q, x, g`** tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qaxr, g`azab, xabar*.

3) ba'zi so'zlarda sheva ta'sirida o' tovush kabi aytiladi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda a tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

1) so'z boshida (*olim*), o'rtasida (*toza*) va so'z oxirida (*bobo*) keladi.

5 - reja Undosh tovushlar tasnifi

Reja:

1. Undoshlar haqida ma'lumot.

2.. Undosh tovushlar tasnifi

a) Undosh tovushlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra tasniflanishi

b) Undosh tovushlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra tasniflanishi

s) Undosh tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra tasniflanishi

Undosh tovushlar tizimi tilda **konsonantizm** deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: b, v, g, d, j (*jurnal* so'zidagi birinchi tovush), **dj** (*joy, jiyda* kabi so'zlardagi birinchi tovush), **z, y, k, l, m, n, ng** (*tong* so'zidagi oxirgi tovush), **p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g`, h**. Sirg'aluvchi *j, f* tojik va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda keladi: *foyda, oftob, fabrika, tafakkur, jurnal, ajdar*. Undoshlar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undosh tovushlar uch asosiy guruhga bo'linadi:

1) lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar bo'lib, ularga **b, p, m, v, f** undoshlari kiradi.

Lab undoshlarining ba'zilari ikki lab orasida paydo bo'ladi: ba'zilari esa (masalan, *avtobus, avtor, vagon, virus, passiv* kabi so'zlardagi **v**; *telefon, kefir, fabrika, fakt, fazo, farmon, fason* kabi so'zlardagi **f**) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo'ladi. SHunga ko'ra lab undoshlarini ikki turga bo'lish mumkin:

a) lab-lab undoshlari: **b, m, p**;

b) lab-tish undoshi: **v, f**.

2) til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar bo'lib, ularga quyidagi tovushlar kiradi: **g, d, j** (*jyuri* so'zidagi kabi), **dj** (*jiyda* so'zidagi kabi), **z, y, k, l, n, ng** (*ong*), **r, s, t, x, ch, sh, q, g`** (jami 18 ta).

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi: **t, d, n** kabi tovushlar tilning old qismi bilan tish va milk orasida; **k, g** kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; **y** undoshi tilning o'rta qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; **q, g`** tovushlari esa til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi orasida (bo'g'izga yaqin joyda) hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari o'z navbatida 4 guruhga bo'linadi.

a) til oldi undoshlari: **d, j** (*jurnal*), **dj** (*jahon*), **z, l, n, r, s, t, ch, sh** (jami 11 ta);

b) til o'rta undoshi: **y**;

v) til orqa undoshlari: **k, g, ng** (*jang*);

g) chuqur til orqa undoshlari: **q, g`, x**.

3) bo'g'iz undoshi. Bo'g'iz undoshi faqat bitta **h** tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi. (jadvalga qarang).

E s l a t m a : SHuni aytilish kerakki, **v** tovushining lab-lab varianti ham mavjud: *ov, qovun, bevosita, birov*. Shuningdek **f** tovushining ham lab-lab varianti bor: *vafo, puf*,

tufurmoq, juft. Tilshunos H.A.Jamolxonov “lab-tish **v** ni lab-lab **v** ning fakultativ varianti deb qarash to‘g‘riroq bo‘ladi” degan fikrni bildirgan.¹

2. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undosh tovushlar uch turga bo‘linadi:

1) portlovchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a‘zosining o‘zaro jipslashuvi va o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu nutq a‘zolariga ma‘lum zarb bilan urilib, portlab o‘tishidan hosil bo‘ladigan tovushlar bo‘lib, ularga: **b, g, d, j** (*jo‘ja* so‘zidagi), **k, p, t, ch, q** undoshlari kiradi. Portlovchi tovushlardan **b, p** undoshlarini hosil qilishda havo oqimi ikki lab orasidagi to‘siqdan, **d, j** (*qajji* so‘zidagi), **t, ch** undoshlarini hosil qilishda tilning old qismi bilan tishlar va milk orasidagi to‘siqdan, **k, g**, undoshlarini hosil qilishda esa tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasidagi to‘siqdan portlab o‘tadi. Bu undoshlardan **ch, j** (*jadval* so‘zidagi) o‘ziga xos murakkab artikulyatsiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, **ch** undoshining hosil bo‘lishida tilning old qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, og‘iz bo‘shlig‘iga kelgan havo, asosan, sirg‘alib chiqadi. Natijada, to‘la bo‘lmagan portlash (**t + sh ch** kabi) qorishiq (**affrikativ portlovchi** ham deyiladi) portlovchini vujudga keltiradi. Qorishiq **dj** tovushi esa portlovchi **d** va sirg‘aluvchi **j** tovushlari oralig‘idagi tovushdir, shuning uchun *Juma, Jahongir* so‘zlari rus tilida *Djuma, Djaxongir* shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. SHu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi.

a) sof portlovchilar: **b, g, d, k, p, t, q**:

b) qorishiq portlovchilar: **ch, dj** (*jahon*)

2) sirg‘aluvchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a‘zosining o‘zaro yaqinlashishi va havo oqimining ana shu nutq a‘zosi orasidan sirg‘alib chiqishi bilan hosil bo‘ladigan tovushlar bo‘lib, ularga **v, j** (*jurnal, vijdon*), **z, y, s, f, x, sh, g‘, h** undoshlari kiradi.

Havo oqimining ikki lab o‘rtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraliqdan sirg‘alib o‘tishi **j** (*jirafa*), **z, s, sh** undoshlarini; til o‘rta qismi bilan qattiq tanglayning o‘rta qismi orasidagi tor oraliqdan sirg‘alib o‘tishi **y** undoshini; tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi o‘rtasidagi tor oraliqdan sirg‘alib o‘tishi **g‘, x** undoshlarini; bo‘g‘izdagi un paychalari orasidagi tor oraliqdan sirg‘alib o‘tishi esa **h** undoshini vujudga keltiradi [Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 59-bet].

3) portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlar (jami 5 ta) bir vaqtning o‘zida ham portlash, ham sirg‘alish jarayonlarining ro‘y berishi natijasida hosil bo‘ladi. Ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg‘aluvchilar) dangina emas, o‘zaro ham farq qiladi va uch guruhga bo‘linadi: **a) burun tovushlari: m, n, ng**. Bularidan **m** undoshining hosil bo‘lishida o‘pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi og‘iz bo‘shlig‘idan lablarning to‘sqinligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘idan sirg‘alib chiqadi, **n** undoshining hosil bo‘lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash ro‘y beradi, burun yo‘li ochiq bo‘lgani uchun, havo oqimining qolgan qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqadi. Tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va havo oqimining bir qismi burun bo‘shlig‘i orqali sirg‘alib chiqishi **ng** tovushini vujudga keltiradi. **b) yon tovush l** undoshini hosil qilishda til uchi yuqoriga tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg‘alib o‘tishi uning og‘iz bo‘shlig‘idan qisman portlab, qisman sirg‘alib chiqishiga sabab bo‘ladi. **v) titroq tovush r** undoshini hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo to‘lqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi esa havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘idan portlab-sirg‘alib chiqishiga olib keladi.

Demak, portlovchi-sirg'aluvchi undoshlarning hosil bo'lishida ham portlovchilarga xos bo'lgan ikki a'zoning jipslashuvi, ham sirg'aluvchilarga xos bo'lgan ikki nutq a'zosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun bo'shlig'idan) sirg'alib o'tishi sodir bo'ladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar dastlab ikki turga bo'linadi: **1) shovqinli undoshlar** (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko'p yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar bo'lib, bu guruhga **b, v, g, d, j (ajdar), j (jiyan), z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h** undoshlari kiradi. Shuning uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga, tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, ikkiga bo'linadi: **a) jarangli undoshlarni** (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar shu bilan sonorlardan farq qiladi: **v, b, g, d, j (garaj), dj (jo'xori), z, y, g'.**

b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h.** Ba'zi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar hosil bo'lish o'rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: **b – p, v – f, g – k, d – t, dj(qorishiq) – ch, j(sirg'aluvchi) – sh, z – s, g' – x.**

2) sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar (jami 5 ta) tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo'lib, ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo'lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi – bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo'ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin turadi. Ammo bu undoshlar o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo'ladi. Undosh tovushlarning tasnifini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra		Hosil boʻlish usuliga koʻra		Hosil boʻlish oʻrniga koʻra						
				Lab undoshlari		Til undoshlari				Boʻgʻiz undoshi
						lab-lab	lab-tish	til oldi	til oʻrta	
Shovqinlilar	Jarangli	Portlovchilar	Sof portlov-chilar	b		d		g		
	jarangsiz			p		t		k	q	
	jarangli		Qori-shiq portlov-chilar			dj				
	jarangsiz					ch				
	jarangli	Sirgʻaluv-chilar	v	v ¹	j, z	y		gʻ		
	jarangsiz		f	f ¹	s, sh			x	h	
Ovozdor (sonor)lar	jarangli	Portlovchi-Sirgʻaluvchi-lar	Burun tovush-lari	m		n		ng		
			Yon tovush			l				
			Titroq tovush			r				

6 – reja: Undosh tovushlar tavsifi

Reja:

1. Lab undoshlari tavsifi
2. Til undoshlari tavsifi
3. Bo‘g‘iz undoshi tavsifi
4. Qo‘sh tovushlar va ularning qo‘llanilishi

1. Lab undoshlari. B tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*bahor*), o‘rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu tovush so‘z oxirida kelganda jarangsizlashadi va **p** tovushi bilan almashadi: *maktab* – *maktap*, *odob* – *odop*. Bu tovush ko‘pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe‘l birikib talaffuz qilinganda, **v** tovushi kabi aytiladi va ba‘zan shunday yoziladi: *kabob* – *kavob*, *qobirg‘a* – *qovurg‘a*, *sabil* – *savil*, *qurbaqa* – *qurvaqa*, *ko‘ra ber* – *ko‘raver* kabi. So‘z boshida kelgan **b** tovushi ayrim shevalarda talaffuz paytida **m** tovushiga o‘tadi: *murch* > *burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan **b** va **m** tovushlarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben* – *men*, *bunga* – *munga* va h.

V tovushi –lab-lab va lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush. So‘zning boshida (*vazifa*, *vafo*), o‘rtasida (*sovun*, *lavlagi*, *taqvim*) va oxirida (*o‘tov*, *birov*) kela oladi. Sof o‘zbekcha so‘zlarda bu tovush so‘z boshida deyarli qo‘llanmaydi.

M tovushi - lab-lab, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*mehr*, *mo‘ylov*, *mulk*), o‘rtasida (*omon*, *umr*) va oxirida (*tom*, *bodom*, *qadam*) kela oladi.

P tovushi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*pilla*, *po‘choq*, *parda*), o‘rtasida (*opa*, *qipiq*, *to‘piq*) va oxirida (*cho‘p*, *top*, *sop*) kela oladi. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oxirida bu tovush deyarli uchramaydi.

F tovushi - lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, faqat o‘zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning boshida (*faqir*, *oftob*, *fabrika*), o‘rtasida (*qofiya*, *iffat*, *kofe*) va oxirida (*sarf*, *urf*) kela oladi. Ba‘zi so‘zlarda talaffuzda **p** tovushi bilan almashadi: *foyda* > *poyda*, *Farida* > *Parida*. Bunday o‘zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

2. Til undoshlari. T tovushi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*to‘ti*, *tuxum*), o‘rtasi (*katta*, *vatan*) va oxirida (*savat*, *qavat*, *harakat*) kela oladi. O‘zbek milliy tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub shevalarda **t** ba‘zan **d** ga o‘tadi: *tuz* > *duz*, *o‘t* > *o‘d* kabi. Bu o‘tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi. Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o‘zlashtirigan so‘zlardagi qo‘sh undoshlar tarkibidagi **t** tovushi talaffuzda ko‘pincha tushib qoladi: *g‘isht* > *g‘ish*, *pastqam* > *pasqam*, *taksist* > *taksis* kabi. Bu o‘zgarish yozma nutqda aks etmaydi.

D tovushi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*devor*, *do‘kon*, *dala*), o‘rtasida (*shabada*, *sodda*, *to‘da*) va oxirida (*qasd*, *hudud*, *gard*) kela oladi. So‘z oxirida kelgan **d** tovushi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va **t** tovushiga o‘tadi: *Asad* > *Asat*, *Samarqand* > *Samarqant*, *Xo‘jand* > *Xo‘jant* kabi. Bu tovush ham o‘zlashma so‘zlar tarkibidagi qo‘sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand* > *farzan*, *baland* > *balan*.

N tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*nom*, *nima*, *nusxa*), o‘rtasida (*aniq*, *tiniq*) va oxirida (*un*, *to‘n*, *son*) kela oladi. Bu tovush ayrim so‘zlar tarkibida **b** yoki **m** tovushlaridan oldin kelganda, shu tovushlar ta‘sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) **m** tovushiga o‘tadi: *manba* > *mamba*, *tanbal* > *tambal*, *ko‘nmadi* > *ko‘mmadi* kabi.

S tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*soat, semiz, sabr*), o'rtasida (*asar, mustaqil, osma*) va oxirida (*tus, mos, tovus*) kela oladi. Bu tovush o'zbek tilidagi eng faol qo'llanadigan tovushlardan biridir.

Z tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*zahar, zehn, zina*), o'rtasida (*Aziza, andoza, qiziq*) va so'z oxirida (*tig'iz, qarz, yulduz*) kela oladi; bu tovush sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Ayrim so'zlar tarkibida yonidagi jarangsiz tovushlar ta'sirida ko'pincha s tovushiga o'tadi: *rizq > risq, tuzsiz > tussis*. Bu tovush ba'zi so'zlarda y tovushiga mos kelishi mumkin: *sizlamoq > siylamoq, so'zlamog > so'ylamoq, yozmoq > yoymoq*, kabi.

Sh tovushi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*shar, shahar, sholi*), o'rtasida (*hashar, o'sha*) va oxirida (*qish, yosh, tashvish*) keladi. Bu tovush so'zlarning turli o'rinlarida ko'p qo'llanadi.

J til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushi arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning boshida (*janr*), o'rtasida (*vijdon, sajda, furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

Dj til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh tovushi so'zning boshida (*jamalak, jabr, jilov*), o'rtasida (*kajava, ojiz, o'jar*) va oxirida (*xorij, xiroj, saj*) keladi. Bu tovush o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. O'zlashma so'zlar oxirida qo'sh undoshlar tarkibida kelgan *æ* tovushi ch tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi: *mavj > mavch, avj > avch*.

CH tovushi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*chaqa, chigit, chuqur*), o'rtasida (*achchiq, ochiq, ko'cha*) va oxirida (*och, uch, kech*) keladi. Ayrim so'zlarda o'zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta'sirida talaffuzda **sh** tovushiga o'tadi: *kechdi > keshti, qochdi > qoshti, sochdi > soshti*.

L tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli (sonor) undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*lagan, latifa, lof*), o'rtasida (*olis, uloq, belgi*) va oxirida (*kasal, kel, yol*) keladi. Bu tovush so'z o'rtasida kelganda so'zlashuv nutqida ko'pincha tushib qoladi: *olsa > osa, kelsa > kesa, bo'lsa > bo'sa, kelgan > kegan*.

R tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*randa, rang, ruh*), o'rtasida (*arra, mo'ri, baraka*) va oxirida (*bozor, hozir, huzur*) keladi. Bu tovush sof o'zbekcha (turkiycha) so'zlar boshida qo'llanmaydi.

Y tovushi til o'rta, sirg'aluvchi va jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*yigit, yo'l, yil*), o'rtasida (*sayr, qayir*) va oxirida (*to'y, uy, oy*) keladi.

K tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*katta, kim, ko'p*), o'rtasida (*ikki, aka, uka*) va oxirida (*tilak, yuk, to'k*) keladi. Bu tovush bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda, **k** tovushi g tovushiga o'tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak > malagi, ko'ylak > ko'ylagim*.

G tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*gulxan, gilam, go'zal*), o'rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu tovush sof o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. G tovushi bilan boshlanadigan qo'shimchalar k tovushi bilan tugugun so'zlarga qo'shilganda k tovushiga aylanadi: *ko'k + ga > ko'kka, boq + gan > boqqan*. O'zlashma so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *geologga, biologga*.

NG tovushi til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh tovush bo'lib, so'z boshida mutlaqo uchramaydi. So'z o'rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q tovushi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*qadr, qovoq, qo'l*), o'rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o'roq, yo'q*) keladi. Bu tovush ayrim ko'p bo'g'inli so'zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilsa, **g** tovushiga almashadi: *quloq+im>qulog'im, to'yoq+i>tuyog'i*. *To'qson, maqtov, maqsad* kabi so'zlarda esa **x** tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi.

**G` tovushi** chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*g`azab, g`ildirak, g`o'za*), o'rtasida (*dag'al, og'ir, o'g'ri*) va oxirida (*tog`, bug`, tig`*) keladi.

X tovushi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o'rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo'llanadi.

H tovushi bo'g'izda hosil qilinadigan, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush bo'lib, so'z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o'rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo'llanadi. Bu tovush asosan arab, fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi. Ma'lumki, unli tovushlar so'zlarni shakllantirishda yakka holda, qo'sh holatda va ketma-ket holda qo'llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o'zbek tili tabiatiga xos bo'lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o'rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o'rinda qo'sh holda qo'llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta'siri, xalqlarning o'zaro aloqasi tufayli paydo bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o'rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira*.

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo'sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo'sh holatda (*g, x, h, g`* undoshlari bundan mustasno). qo'llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o'ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to'qqiz* Bu undoshlar talaffuzda ham qo'sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so'zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Ana, Emma, milliard, affiks*. Qo'sh unlilar so'zning o'rtasida (*manfaat*), so'z oxirida (*mutolaa*), qo'sh undoshlar esa so'z boshida (*ssenariy*), o'rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo'llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so'z oxirida ketma-ket (qator) kelishi qo'sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o'zlashdi: *daraxt, g'isht, payvand, Samarqand, keng, baxt, xursand* kabi.

O'zbek tilida oldin so'z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo'q edi, rus tili va boshqa tillarning ta'sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo'ldi: *stol, stantsiya, stakan, stul* kabi.

**5-ma'ruza: Nutqning fonetik bo'linishi, urg'uning xususiyatlari, so'z urg'usi va gap urg'usi
Ba'zi fonetik jarayonlar. Kombinator va pozitsion o'zgarishlar. Transkripsiya**

Reja:

1. Frazza-nutqning asosiy fonetik birligi sifatida
2. Takt-frazaning bir qismi
3. Fonetik so'z haqida
4. Bo'g'in, uning turlari, tuzilishi
5. Tovush
6. So'z urg'usi
7. Gap urg'usi
8. So'z ursi va gap urg'usining farqli tomonlari

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Inson nutqi uzluksiz va to'xtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni o'z ichiga oladi. Frazza, takt, fonetik so'z, bo'g'in, tovush ana shunday fonetik birliklardir.

1. Frazza nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U intonatsion va fikriy tugallikka ega bo'lganligi uchun ko'pincha gapga teng keladi. Masalan: *Dunyoda boladan aziz narsa yo'q // Bo'lmaydi // Bolalar – kelajagimiz // (Y. Hakimali)*. Bu nutqiy parchada uchta frazza bor. Frazzalar hajm jihatidan har xil bo'lib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi frazza beshta, ikkinchisi bitta, uchinchisi ikkita so'zdan tashkil topgan. Yana qiyoslang: *Ularning uyi qishloqning eng chekkasida, hovlilari baland tog'ning shundoqqina etagida. // Bahavo. // Bog'larining ortidan shovullab soy o'tadi. (To'lqin)*.

2. Takt frazaning bir qismi bo'lib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi so'z yoki so'zlar bir bosh urg'u (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *Dunyoda / xushfe'l, / olijanob, / hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar / juda ko'p (O.Husanov)*. Bu frazza tarkibida 6 ta takt bo'lib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi taktlar bir so'zdan, to'rtinchi takt olti, oltinchi takt esa ikki so'zdan tashkil topgan. Frazza ba'zan bir taktga teng bo'ladi. Masalan, *Kech kuz edi. // Qo'qqisdan qorasovuq boshlanib, / cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi (M.Qoriyev)*. Bunda birinchi frazza – *Kech kuz edi* bir taktga tengdir.

3. Fonetik so'z o'z urg'usiga ega bo'lgan so'z yoki bir urg'uga birlashadigan (bir urg'u bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq shakl-so'zlardir. Takt tarkibidagi fonetik so'zlar soni undagi so'zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg'uli so'zlar miqdori bilan belgilanadi, ya'ni takt ichida urg'uli so'z qancha bo'lsa, fonetik so'z ham shuncha bo'ladi: *Dashtda / odam aqli shoshadigan / buyuk ishlar / qilinadi // (Y.SHamsharov)*. Bu frazza tarkibida to'rtta takt bo'lib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, to'rtinchi taktda esa bitta fonetik so'z qatnashgan. Bu frazadagi so'zlarning umumiy soni fonetik so'zlarning umumiy soniga teng. Mustaqil urg'uga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar o'zlari tobe bo'lgan mustaqil so'z bilan birga bir urg'uga ega bo'ladi va bir fonetik so'zni tashkil etadi: *Dilda saqlangan adovat temir zangiga o'xshaydi, zang temirni egani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan emiradi (Oz-oz o'rganib dono bo'lur)*. Bunda 14 ta fonetik so'z bo'lib, bularning ikkitasi (*egani kabi, iztirob bilan*) ning tarkibidagi ko'makchi so'zlar qatnashgan. Bir tushunchani ifodalaydigan qo'shma so'zlar ham, tarkibidagi so'zlarning umumiy miqdoridan qat'i nazar, bir fonetik so'z sanaladi: *Qo'pol va dag'al barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang dillarni rom qilib olgandi (To'lqin)*. Frazza tarkibidagi rom qilib olgandi bo'lagi bitta fonetik so'z deb qaraladi.

4. Bo'g'in o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir Unli tovush bo'g'in hosil qiluvchi tovushdir. SHuning uchun so'zda nechta unli tovush bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Masalan, *adolat* so'zida

uch bo'g'in bor: *a-do-lat*. Birinchi bo'g'in bir tovushdan, ikkinchi bo'g'in ikki tovushdan, uchinchi bo'g'in uch tovushdan iborat. Demak, bo'g'inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'lishi mumkin. Chunonchi: *o-ta, o-na, a-ka* so'zlarining birinchi bo'g'ini bir tovushdan, ikkinchi bo'g'ini ikki tovushdan, *a-dir, o-qil, e-shit, i-dish* so'zlarining ikkinchi bo'g'ini uch tovushdan, *a-van-gard, ak-tsent, e-le-ment, an-ti-fa-shist, ar-tist, ge-o-graf* so'zlarining oxirgi bo'g'ini to'rt tovushdan, *a-le-bastr, a-git-punkt* so'zlarining oxirgi bo'g'ini besh tovushdan iborat. Bo'g'inning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi: ona: v-c. Bunda v belgisi lotincha vakolis so'zidan olingan bo'lib, aslida unli (ovoz) degan ma'noni bildiradi. S belgisi esa inglizcha constant so'zidan olingan bo'lib, undosh degan ma'noni bildiradi. Bir tovushli bo'g'inlar unli tovushdangina iborat bo'lsa, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'g'inlar unli va undosh tovushlardan tuziladi. Bo'g'inlar qanday tovushlar bilan boshlanishi va qanday tovushlari bilan tugashiga qarab turlarga ajratiladi. Qanday tovush bilan tugashiga ko'ra ikki xil: 1) ochiq bo'g'in – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan bo'g'in: *o-vo-za, o-i-la, ba-ho, bi-no, de-le-ga-tsi-ya, ja-zi-ra, Ra-hi-ma*; 2) yopiq bo'g'in undosh tovush bilan tugagan bo'g'in: *zarb-dor, zum-rad, id-rok*. Bo'g'inlari qanday tovush bilan boshlanishiga ko'ra ham ikki xil bo'ladi: **1) berkitilgan bo'g'in** undosh bilan boshlanadi: *ta-lab, tinch-lik*. **2) berkitilmagan bo'g'in**, bunday bo'g'in unli bilan boshlanadi: *o'-qish, a'-lo*.

Tarkibidagi bo'g'inlar soniga ko'ra so'zlar bir bo'g'inli (*ish, ko'k, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz*); ikki bo'g'inli (*da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qi-zil, ik-ki, ol-ti, o't-tiz, ni-ma, ham-ma, o'-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...*); ko'p bo'g'inli (*qo'-g'ir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...*) bo'ladi.

So'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she'r misralari bo'g'in sonining teng bo'lishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish davrida ham asosiy diqqat so'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozishga qaratiladi.

5. Tovush nutqning bo'g'in (yoki so'z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo'linmaydigan birligidir.

Urg'uning xususiyatlari, so'z urg'usi va gap urg'usi (2 soat)

Reja:

1. So'z urg'usi
2. Gap urg'usi
3. So'z urisi va gap urg'usining farqli tomonlari

So'z bo'g'inlaridan birining (yoki gap tarkibidagi so'zlardan birining) boshqalariga nisbatan kuchliroq (yoki cho'ziqroq) talaffuz qilinishi **urg'u** deb ataladi. Urg'u, odatda, bo'g'indagi unli tovushga tushadi. So'z nechta bo'g'indan tuzilganligidan qat'i nazar, unda bitta urg'u bo'ladi (gap bo'laklaridan birini ajratib ko'rsatish ham xuddi shunday xususiyatga ega). So'z tarkibidagi urg'u olgan bo'g'in **urg'uli bo'g'in**, urg'u olmagan bo'g'inlar esa **urg'usiz bo'g'in** deyiladi. Masalan: *Sizlarning matonatli mehnatlaringiz Ulug' Vatan urushi yillaridagi muqaddas g'alabamizni yaqinlashtirdi* (S. Karomatov). Bu gapdagi har bir so'z o'z urg'usiga ega (chunonchi, «*sizlarning*» so'zida uchta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (-ning) urg'u olgan; «*matonatli*» so'zida to'rtta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (-li) urg'u olgan va hokazo). Bundan tashqari, shu gap tarkibidagi sizlarning so'zi boshqa so'zlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi. Demak, har xil obyektga – so'z tarkibidagi biror bo'g'inga ham, gap tarkibidagi ayrim so'zga ham urg'u tushishi mumkin. Shunga ko'ra, urg'u ikki turga ajratiladi:

1) so'z urg'usi (yoki leksik urg'u) so'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'udir. Yozuvda urg'u bo'g'indagi unli ustiga qo'yiladigan maxsus belgi (o') orqali ko'rsatiladi. Masalan: Aslida insón tabiatnńng oltindán hám bebahó mo'jizası -ku! Dunyodá insondán azız, insondán qimmatlı narsá bórmı o'zı? (O.Husanov). Leksik urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) bog'liq urg'u; b) erkin urg'u.

O'zbek tilida so'z urg'usi asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga (masalan, o'qi', yozi'sh, sari'q, sakki'z, serharaka't, ishchi', ilmi' kabi) tushadi. Shuning uchun so'zlarga qo'shimchalar

qo'shila borishi bilan urg'u ham so'z oxiridagi bo'g'inga ko'cha boradi. Masalan, imzo'-imzola'- imzolamo'q, paxta'-paxtako'r- paxtakorli'k. So'zning biror bo'g'ini (masalan, oxirgi) bilan bog'liq bo'lgan urg'u bog'liq urg'u deyiladi.

O'zbek tilining so'z urg'usi, asosan, bog'liq urg'u hisoblanadi. So'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u esa erkin urg'u deyiladi. Bu asosan ruscha-internatsional so'zlarga xos. Masalan, vitam'i'n, abza'ts, avanga'rd, bato'n, operati'v, bufe't, giga'nt (oxirgi bo'g'inida), avantyu'ra, avia'tsiya, profe'ssor, akroba'tika, geo'log (o'rtadagi bo'g'inda), a'riya, va'nna, no'ta, ma'ksimum, va'xta, si'ntaksis, a'ksiya (birinchi bo'g'inda). Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'usi birinchi bo'g'inga (ba'rcha, ha'mma, do'im, a'slo, lekin kabi) o'rtadagi bo'g'inga (masalan, hami'sha, afsu'ski, alba'tta kabi) tushadigan so'zlar ham bor. Demak, o'zbek tilida bog'liq urg'u bilan bir qatorda, qisman erkin urg'u ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilida urg'u olmaydigan elementlar ham bor. Masalan, -ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi yuklamalari; o'xshatish ma'nosini ifodalaydigan -day (-dek); -cha shakl hosil qiluvchi qo'shimcha; -dir, -man, -san, -miz, -siz kabi kesimlik qo'shimchalari; bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi -ma qo'shimchasi shular jumlasiga kiradi. Urg'u tushadigan ob'ektiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Leksik urg'u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u, birinchidan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish normalarini belgilaydi; ikkinchidan, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: o'rgan - organizmning bir qismi, orga'n-cholg'u asbobi; uchinchidan, so'z shakllarini ajratishga yordam beradi: qushcha'-kichraytish oti, qu'shcha - qushdek ma'nosini ifodalovchi ravish; tarbiyachimi'z (bizning tarbiyachi) - tarbiyachi'miz (biz - tarbiyachi).

Demak, leksik urg'u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan bog'liq. Chunki so'zning urg'uli bo'g'ini buzilsa, so'zni tushunish qiyinlashadi.

2) gap urg'usi (yoki mantiqiy urg'u, ma'no urg'usi). Mantiqiy urg'u (yoki gap urg'usi) gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq tovush bilan aytilishidir. Bu urg'u, odatda, individual xarakterga ega bo'lib, so'zlovchi o'zicha muhim sanagan so'zni mantiqiy urg'u bilan talaffuz qiladi va bu bilan tinglovchining e'tiborini shu bo'lak bilan ifodalangan ma'noga tortadi (yoki o'sha bo'lakning ma'nosini bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatadi. Masalan, Ilmda ko'p narsani bilish - olimlik fazilati (S.Karomatov) gapida mantiqiy urg'u quyidagicha tus olishi mumkin: 1) Ilmda (boshqa narsada emas) ko'p narsani bilish - olimlik fazilati. 2) Ilmda ko'p narsani (oz narsani emas) bilish - olimlik fazilati. 3) Ilmda ko'p narsani bilish (bilmaslik emas) - olimlik fazilati. 4) Ilmda ko'p narsani bilish - olimlik fazilati (boshqalarning fazilati emas). Yozuvda mantiqiy urg'u olgan bo'lak kesim oldida keladi.

Urg'u sifatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) dinamik urg'u: so'z bo'g'inlaridan birining kuchli aytilishi: o'zbek va rus tili urg'usi kiradi; 2) muzikal urg'u: so'z bo'g'inlaridan birining balandroq aytilishi: yapon, xitoy tillari urg'usi kiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Urg'u nima? Uning qanday turlari bor?
2. Leksik urg'u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o'zaro qanday farq qiladi?
3. Leksik urg'uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Mantiqiy urg'u nima? U leksik urg'udan qanday farq qiladi?

Ma'ruza: Ba'zi fonetik jarayonlar. Kombinator va pozitsion o'zgarishlar.

Transkripsiya

Reja:

1. Tovush o'zgarishlarining turlari
2. Kombinator o'zgarishlar;
3. Pozitsion o'zgarishlar.
4. Transkripsiya tushunchasining mohiyati
5. Transkripsion belgilar
6. Diakritik belgi

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

So'zlar tarkibidagi tovushlar talaffuz vaqtida yakka-yakka holda emas, ma'lum bir tartibda birikkan holda talaffuz qilinadi. Tovushlar kompleksini (tizimini) bunday birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi va bu ta'sir tovush o'zgarishiga olib keladi. Masalan, institut so'ziga o'rin-payt kelishigi affiksi *-da*, chiqish kelishigi affiksi *-dan* qo'shilganda, so'z oxiridagi **t** tovushi affiksidagi **d** undoshiga ta'sir qilib, uni **t** tovushiga aylantiradi: *institut+da-institutta*, *institut+dan-instituttan* kabi (yozilishi: institutda, institutdan). Bir sanoq soniga dona son affiksi *-ta* qo'shilganda, affiksdagi **t** undoshning ta'siri bilan so'zning oxiridagi **r** tovushi **t** ga o'tadi: bir-ta-bitta kabi.

Fonetik o'zgarishlarning bu tipi *kombinator o'zgarish* deb yuritiladi. So'z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta'sir qilmagan holda ham o'zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so'z tarkibidagi o'rnini (qanday tartibda joylashganligi); so'zning boshida yoki oxirida, urg'uli yo urg'usiz bo'g'inda kelishi muhim rol o'ynaydi. Masalan, *odob*, *javob*, *niqob*, *maktab* so'zlari oxirida kelgan **b** jarangli undosh talaffuzda jarangsiz **p** tarzida talaffuz qilinadi; *negativ*, *normativ pozitiv*, *operativ* kabi ruscha-internatsional so'zlarning oxirida kelgan **v** jarangli undosh jarangsiz **f** tarzida; *oktyabr*, *olimpiada* kabi ruscha-internatsional so'zlarning urg'usiz bo'g'inda kelgan **o** unlisi esa **a** tarzida talaffuz qilinadi. Nutq tovushlarining bunday o'zgarishi pozitsion o'zgarish deb yuritiladi. Demak, nutq tovushlarining o'zgarishi ikki turga bo'linadi:

1. Kombinator o'zgarishlar.
2. Pozitsion o'zgarishlar.

Bunday hodisalarning sodir bo'lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'inda urg'uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o'tgan so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo'lishi mumkin.

So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish) kombinator o'zgarish deyiladi. Bunga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi hodisalari kiradi.

Assimilyatsiya hodisasida tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib oladi. Masalan, xat-ni-xatti (o'zakdagi **t** tovushi affiks tarkibidagi **n** ni aynan o'ziga o'xshash tovush – **t** ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ish+ga* – *ishka* (bunda o'zakdagi jarangsiz undosh **sh** affiks tarkibidagi jarangli undosh **g** ni o'ziga qisman o'xshatadi, ya'ni jarangsiz **k** ga aylantiradi, yozilishi *ishga*). Shunga ko'ra assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: 1) to'liq assimilyatsiya; 2) to'liqsiz assimilyatsiya. So'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirishi to'liq assimilyatsiyadir: *to'k+gan-to'kkan*, *et+di-etti*, *siz+ni-sizzi*, *ish+ni-ishshi*, *tuz+ni-tuzzi*, ... (yozilishi: *etdi*, *sizni*, *ishni*, *tuzni*). Bunda tovushlar moslashadi.

So'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o'ziga qisman o'xshatib olishi to'liqsiz assimilyatsiya bo'ladi: *o'ch+gan-o'chkan*, *shosh+di-shoshti*, *tush+ga-tushka* (bulara jarangsiz **ch**, **sh** undoshlari tarkibidagi jarangli **g** ni jarangsiz **k** ga, **d** ni esa **t** ga aylantirgan; yozilishi: *o'chgan*, *shoshdi*, *tushga*). To'liqsiz assimilyatsiyada ba'zan tovushlar o'rniga ko'ra ham moslashadi: *shanba* < *shamba* **b** lab tovushining ta'sirida **n** til tovushi lab-lab tovushiga aylanadi. Demak, to'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar hosil bo'lish usuliga ko'ra qisman moslashish holatiga o'tmaydi. Bunda yonma-yon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra va hosil bo'lish

oʻrniga koʻra moslashadi. Odin kelgan tovush oʻzidan keyin kelgan tovushni (masalan, *tol+ni-tolli*) shuningdek, keyin kelgan tovush oʻzidan oldin kelgan tovushni (*oʻn bir - oʻmbir*) oʻziga oʻxshatishi mumkin. Shunga koʻra assimilyatsiya yana ikki turga boʻlinadi: 1) progressiv assimilyatsiya; 2) regressiv assimilyatsiya.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *sim+ni – simmi* (yozilishi *simni*), *bilak+ga – bilakka* (yozilishi: *bilakka*), *koʻz+ni – koʻzzi* (yozilishi: *koʻzni*), *shahar+ni – shaharri* (yozilishi: *shaharni*), *qush+ni - qushshi* (yozilishi: *qushni*).

Regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush oʻzidan oldingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *tanbur – tambur*, *yigit+cha – yigichcha*, *non+voy – novoy*, *atlas – allas* (yozilishi: *tanbur*, *yigitcha*, *nonvoy*, *atlas*). *Oshni*, *tuzni*, *shanba*, *tanbur* soʻzlarini *oshshi*, *tuzi*, *shamba*, *tambur* tarzida aytilish adabiy orfoepik talaffuz qoidalariga mos kelmaydi.

Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman oʻxshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda oʻzgarib, nooʻxshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarar – zalar* // *zaral//zalal* (*zarar* soʻzi tarkibidagi ikkita bir xil **r** undoshining biri yoki har ikkalasi talaffuzda **l** ga aylangan). *Nonni>nondi* (ikkita sonor **n** tovushi yonma-yon kelib, biri ikkinchisini siqib chiqargan - oʻxshashlik yoʻqolgan); yana qiyoslang: *zarur>zaril*, *koridor>kalidor*, *devor>devol*, *roʻmol>yoʻmol*, *nodon>lodon*, *molni>moldi* (yozilishi: *zarur*, *koridor*, *devor*, *roʻmol*, *nodon*, *molni*).

Soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda oʻrin almashuvi metateza deyiladi. Masalan, *daryo (daryo) – dayro* (bunda **r** va **y** undoshlarining oʻzaro oʻrin almashuvi yuz bergan); *ahvol – avhol (hv-vh)*, *aylanay – aynalay (ln-nl)*, *tuproq-turpoq (pr-rp)*; *yomgʻir-yogʻmir (mg-gʻm)*; yozilishi: *daryo*, *ahvol*, *aylanay*, *tuproq*, *yomgʻir*.

Tovushning soʻz tarkibidagi oʻrni (joylashish tarkibi) uning pozitsiyasini tashkil qiladi. Tovush soʻzning turli oʻrinlarida kela oladi. Masalan, **d** undoshi *dono*, *dehqon*, *doston* soʻzlarining boshida; *abadiy*, *aerodrom*, *badiiy*, *bayroqdor* soʻzlarining oʻrtasida; *taqlid*, *obod* soʻzlarining esa oxirida kelgan. Shu soʻzlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, *dono*, *dehqon*, *doston*, *abadiy*, *aerodrom*, *badiiy*, *bayroqdor*...) tarkibidagi **d** undoshi hech qanday oʻzgarishga uchramaydi, ammo *taqlid*, *obod* soʻzlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz **t** tarzida (*taqlit*, *obot*) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda oʻzgarishi – jarangli tovushning jarangsizlanishi uning maʼlum bir pozitsiyada – soʻz oxirida kelishi bilan bogʻliq. *Kosmonavt*, *kosmodrom*, *limonad*, *mirofon*, *orkestr* soʻzlarining urgʻusiz boʻgʻinida kelgan **o** unlisi **a** tarzida (*kasmanavt*, *kasmadrom*, *limanad*, *arkestr*, *mikrafon* kabi) talaffuz qilinsa, *kartochka*, *direktor*, *lektor*, *diktor*, *agressor* soʻzlarining urgʻusiz boʻgʻinida kelgan **o** unlisi qisqa **i** tarzida (*kartichka*, *direktir*, *lektir*, *diktir*, *agressir* kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional soʻzlar tarkibidagi **o** tovushining goh **a**, goh **i** kabi aytilishi ularning urgʻusiz boʻgʻinda kelishi bilan bogʻliqdir.

Tovushning soʻzdagi oʻrni, urgʻuli yoki urgʻusiz boʻgʻinda kelishi bilan bogʻliq holda yuz beradigan oʻzgarishlar pozitsion oʻzgarish deyiladi. Pozitsion oʻzgarishlarning yana quyidagi turlari bor:

Proteza. Soʻz boshida bitta unlining orttirilishi proteza hodisasi sanaladi. Odatda, aksariyat sonor **r** tovushidan oldin oʻ unlisi orttiriladi: *roʻmol-oʻramol*, *roʻza-oʻraza*. Ayrim holatda soʻz boshida sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda **i** (**u**) unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf*, *stol-ustol*, *stul-ustul*, *stantsiya-istansa*.

Epenteza. Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida **i**, baʼzan **u** va **a** unlisi orttiriladi: *fikr-fikir*, *hukm-hukum*, *uzr-uzur*.

Epiteza. Soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng **a** tovushining qoʻshilish hodisasidir: *disk-diska, bank-banka, tank-tank, kiosk-kioska, otpusk-otpuska* kabi.

Prokopa. Bunda soʻz boshida baʼzan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq, yigna-igna, yagʻach-agʻach, yirik-iri*.

Sinkopa hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *traktor-traktir, direktor-direktir, generator-generatir* kabi.

Apakopa soʻz oʻzigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *doʻst-doʻs, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen* va hokazo.

Sinerezis hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz qilinadi: *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t*.

Reduktsiya soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining odatda tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi **i** unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi **i** unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi **i** unlisi kuchsizlanadi va eshitar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Reduktsiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelish hollari ham uchraydi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi – ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun-burni, boʻyin-boʻyni, egin-egni* singari.

Eliziya. Unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; v) *Abdusalom* soʻzining *Absalom, Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor, olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham elliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bunday hollarda elliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakli hosil boʻladi.

Transkripsiya

Reja:

1. Transkripsiya tushunchasining mohiyati
2. Transkripsion belgilar
3. Diakritik belgi

Foydalangan va mustaqil oʻqishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

1. Adabiy-orfografik nutqning yozma shakli odatda alfavitdagi harflar vositasida shakllanadi (ifodalanadi). Alfavitdagi harflar ogʻzaki nutqimizdagi turli-tuman tovush oʻzgarishlarini toʻliq aks ettirmaydi. Shuning uchun ham ogʻzaki nutqda tovushlarning turlicha oʻzgarishlarini, har xil variantda talaffuz etilishini yozuvda tasvirlab koʻrsatish uchun maxsus belgi-harflardan foydalaniladi. Bunday maxsus belgi-harflar yordamida nutqni aynan talaffuzdagidek tarzda yozib olish **transkripsiya** deyiladi. “Transkripsiya” lotincha “qayta yozish” demakdir.

Transkripsiya prinsiplari o'ziga xos xususiyatlari bilan orfografiya va uning prinsiplaridan farq qiladi. Birinchidan, transkripsiyaning asosiy prinsipiga ko'ra so'zlar qanday eshitilsa, shunday yoziladi. Ikkinchidan, orfografiyada odatda bir tovush bir harf bilan ifodalansa ham, lekin ba'zan bir tovush ikki harf bilan yoki, ikki tovush bitta harf bilan beriladi. Transkripsiyada esa hamma vaqt bir tovush bir harf bilan beriladi.

Transkripsion belgilar odatda ma'lum o'zgarishlar kiritish orqali traditsion alfavitlar asosida tuzuladi. Lekin ularga qo'shimcha belgilar ham kiritiladi. Shuning uchun transkripsion belgilar soni asos qilib olingan alfavitdagi harflar sonidan ko'p bo'ladi. Uchinchidan, transkripsiyada asosiy belgilar bilan bir qatorda diakritik belgilar ham ishlatiladi.

Asosiy belgiga qo'shilgan qo'shimcha belgi diakritik belgi deyiladi. M: til oldi **o'** ni (**ö**) til orqa **o'** (**o**) dan farqlash uchun asosiy belgining ustiga ikkita nuqta qo'yiladi.

Transkripsiyaning bir necha turlari ma'lum: fonetik transkripsiya, fonematik transkripsiya va boshqalar. Bular ichida eng anig'i fonetik transkripsiya bo'lib, u asosan dialektologik ishlarda qo'llanadi. Uning vazifasi tildagi tovushlarni mumkin qadar to'liq va barcha nozikliklari bilan ifodalashdir.

Faqat fonemalarnigina hisobga olish uchun ishlatiladigan transkripsiya fonematik transkripsiya deyiladi.

O'zbek tilida rus grafikasi asosida ayrim tovushlarni ifodalash ushuncha transkripsiya belgilari quyidagicha:

Unlilar uchun **a** (**ä**) –til oldi , lablashmagan, keng unli. O'zbek adabiy tilining hamma shevalarida uchraydi. Adabiy tildagi **änä** , **mänä**, **sällä**, **källä** so'zlardagi **a** ni ifodalash uchun qo'llanadi.

a til orqa, lablashmagan, keng unli. Bu belgi ko'proq o'zbek tilining qipchoq shevalaridagi **o** ni ifodalaydi. M: *ata, bala, bash*

a' - til orqa, lablashmagan, keng unli (adabiy orfografik **o**). O'zbek adabiy tilining hamma shevalarida uchraydi. Asosan, adabiy tildagi **o** tovushini, shuningdek, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Jizzax, O'sh shevalaridagi **o** tovushini ifodalash uchun qo'llaniladi: *ata, bala, bar.*

ɔ - til orqa, lablashgan, keng unli. Asosan, o'zbek tilining Samarqand, Buxoro, Qarshi shahar tipidagi shevalarda uchraydigan **o** tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Shuningdek, Toshkent, Shahrisabz va boshqa shevalarda ham ba'zan uchrab turadi: *Rä'nɔ, bəlɔ*

ə – til oldi, lablashmagan, o'rta keng unli (ad. orfo. **e**). O'zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: *kəl, kət.*

ö - til oldi, lablashgan, o'rta keng unli (ad. orfo. **o'**). O'zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: *ördak, örik.*

ø - til orqa, lablashgan, o'rta keng unli (ad. orfo. **o'**). O'zbek tilining Samarqand, Buxoro shahar tipidagi shevalardan boshqa hamma shevalarda uchraydi: *qøl, yøl.*

y- til oldi, lablashgan, tor unli (ad. orfo.u). O'zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: *kul, gul, kun.*

y'- til orqa, lablashgan, tor unli (ad. orfo.u) . O'zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: *qyl, qym.*

ɨ - til oldi, lablashmagan, tor unli(ad. orfo. **i**). O'zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: *ɨsh, tɨsh...*

ú – til oldi, lablashmagan, tor unli. Adabiy tilimizdagi **i** tovushiga nisbatan kuchliroq va cho'ziqroq aytiladi. Asosan Samarqand, Buxoro shahar shevalarida, qisman Bog'dod shevasida uchraydi: *búz, kelúng...*

Ы- til orqa, lablashmagan, tor unli(ad. orfo.i). Adabiy tildagi til orqa I tovushini bildiradi: қызық...

Transkripsiyada shartli ifodava diakritik belgilar ham ishlatiladi:

+ - bu belgi tarjima bilan originalning yoki asosiy tekst bilan kommentariyaning orasida qo'yiladi. Uning o'rniga tire (-) ishlatilishi ham mumkin.

> - biror shaklning boshqa shaklga yoki biror so'zning boshqa biror so'zga o'tganligini ko'rsatadi: *durur* > *dir*.

<- biror so'z yoki shaklning qaysi so'z yoki shakldan kelib chiqqanligini ko'rsatadi: *ila* < *bilan*.

: - bu belgi unli tovushning yonidan qo'yilganda cho'ziq talaffuz etilishini anglatadi: *sha:* *r* (*shahar*).

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Nutqdagi tovush o'zgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush o'zgarishi ro'y beradi?
- 2.Tovush o'zgarishlarining qanday turlarini bilasiz?
- 3.Kombinator o'zgarish nima? Uning qanday turlari bor?
- 4.Assimilyatsiya nima va uning ko'rinishlarini bilasiz?
- 5.Dissimilyatsiya nima?
- 6.Pozitsion o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?

6 - ma'ruza: Grafika haqida ma'lumot. Orfoepiya. Orfoepiya me'yorlari

Reja:

1. Grafika va imlo
2. Til va yozuv
3. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi
4. Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar
5. Orfografiya

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

1. Grafika va imlo. *Grafika grekcha "grafika" so'zidan olingan bo'lib, yozuv degan ma'noni bildiradi. Grafika og'zaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslikning bir sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl. Tutuq (') belgisi tovush ifoda etmaydigan shakl. Yozuvda qo'llanadigan (,) (.) (!) (?) (;) (...) (-) («») (;) (') shartli belgilar tinish belgilari deb yuritiladi. Yozuvda 1, 2, 3 kabi raqamlar ham qo'llanadi.*

Til va yozuv o'zaro uzviy bog'liq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning bo'lishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat bo'lmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat a'zolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko'p hollarda yozuv tilning o'rnini bosadi. Lekin til va yozuvning o'ziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni etkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi, shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'rnini bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga etkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Xorazm yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O'rxun-Enasoy nomli yozuvdan foydalanganlar. Bu yozuv yodgorliklari Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ilistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv o'rxun-Enasoy obidalari yozuvi deb ham yuritilgan. Turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida etuk madaniyatga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi. VI-VII asrlardan boshlab turkiy xalqlarda uyg'ur alfaviti qo'llangan. XIV-XV asrlarda yaratilgan «Baxtiyornoma», «Merojnoma», «Tazkirai avliyo» kabi asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan.

VII-VIII asrlarda arablar istilosi bilan bog'liq holda o'rta Osiyoda arab yozuvi tarqala boshladi. Bu yozuvdan 1200 yil davomida to 1929 yilga qadar foydalanildi. Arab yozuvi o'zbek tili xususiyatlariga ko'p jihatdan muvofiq kelmas edi. Arab yozuvi bilan

birga uyg'ur yozuvi ham iste'molda bo'ldi. Bu asrlarda arab va uyg'ur yozuvi baravar ishlatildi. 1929 yildan lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tildi. Bu yozuvdan qisqa muddat, 11 yil ichidagina, 1940 yilgacha foydalanildi.

1940 yil 7 maydan rus grafikasi asosidagi kirill yozuviga o'tildi. Bu yozuv o'zbek tili tovushlar tizimini to'liq ifodalay olmagan uchun unga qo'shimcha shakllar kiritildi (o', q, g', h).

1993 yil 2-3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashida lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qonun qabul qilindi. Lotin yozuvidan jahon xalqlarining 30 foizi foydalanadi. Bu esa o'zbek xalqining jahon tizimiga kirishini tezlashtiradi.

1996 yildan lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi amalga joriy etildi.

Kirill grafikasi asosidagi o'zbek alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi qisqartma so'zlarni to'g'ri o'qish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan, BMT – be – em – te.

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ьъ, Ээ, Юю, Яя, О'о', Ққ, Ғғ, Ҳҳ.

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi **alfavit** deyiladi. Bu alifboda 10 ta unli harf (**a, o, i, u, o', e, e, yo, yu, ya**) bo'lib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bularidan to'rttasi (**e, yo, yu, ya**) yolashgan (grafema) tovushlar bo'lib, ularning 2 holati farqlanadi: 1. Ba'zi so'zlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta bo'g'inni hosil qiladigan va bir tovushni (**a, u, e, o**) ifoda etadigan holati: *ter-ter, syujet-sujet, sentyabr-sentabr, rejissyor-rejissor* kabi. 2. So'z boshida va bo'g'in boshida kelib, ikki tovushni (*e, yu, ya, yo*) ifoda etadigan holati: *yostiq-yostiq, yurak-yurak, quyosh-quyosh, yanvar-yanvar* va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga o'zbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (*o', q, g', h*) qo'shilgan. Kirill yozuvida 2 ta belgi (**ъ, ь**) bo'lib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (**ъ, ')** unlidan keyin kelganda o'sha unlining cho'ziq aytilishi (ma'no, e'lon kabi), undoshdan keyin kelganda bo'g'inlarni ajratib aytilishini (sur'at, jur'at kabi); yumshatish (**ь**) belgisi esa ruscha-internatsional so'zlarda o'zidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (albom, sirkul) xizmat qiladi.

Alfavitdagi **j** harfi 2 tovushni, portlovchi **j** (jayron) va sirg'aluvchi **j** (jurnal) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi **n** va **g** harflari alohida **n** va **g** tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (**ng**) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*tong, bodring* kabi).

Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar

1996 yildan boshlab amalga lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl bo'lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (Jj harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun Jj ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi j (**d+j**) tovushini (*jo'ja, jayron, avj* kabi) va 2) sirg'aluvchi j tovushini (jurnal, jirafa) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: **ng, sh, ch**. Ular so'z tarkibida ajratilmaydi va bo'linmas bir tovushni ifoda etadi: **ng** sayoz til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang, manglay*), **ch** til oldi, qorishiq

portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (charos, tinch, sinch, choynak), sh til oldi, sirg`aluvchi, jarangsiz undoshni (shabada, shar, shahar, toshqin, bosh) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo`linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o`zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (a, o, u, i, o`, e). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko`rsatiladi (b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Hozirgi yozuvda hafrlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O`o`, G`g`, Shsh, Chch, Ngng. Harflarning alfavit taritibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. CHunki turli lug`atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro`yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (') ham qo`llanadi. Urg`u (') belgisi so`z bo`g`inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo`yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og`zaki nutqning fikrini to`liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so`zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho`ziq aytilishini (a`lo, e`tibor, iste`mol); 2) so`zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo`g`in bilan keyingi bo`g`inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so`z ma`nolarini farqlab beradi (ta`na – malomat, tana – organism); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: Is`hoq.

Orfografiya

Reja:

1. Imlo qoidalar
2. Orfografiya va uning tamoyillari

Jamiyatning har bir a`zosidan to`g`ri so`zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O`quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo`lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo`lib, u tildagi o`zak-negiz va qo`shimchalarni agona tarzda to`g`ri yozish haqidagi qoidalar yig`indisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalar 1956 yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalar quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi: 1. Ayrim harflar imlosi; 2. O`zak-negiz va qo`shimchalar imlosi; 3. Qo`shma so`z va so`z birikmalari imlosi; 4. Bo`g`in ko`chirilishi; 5. Bosh harflarning yozilishi.

1995 yil 24 avgustda lotin grafikasi asosidagi o`zbek yozuvining imlosiga doir qoidalar tasdiqlandi. Bu imlo qoidalar quyidagi bo`limlardan tuzilgan:

1. Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.
2. Asos va qo`shimchalar imlosi.
3. Qo`shib yozish.
4. Ajratib yozish.
5. CHiziqcha bilan yozish.
6. Bosh harflar bilan yozish.
7. Ko`chirish qoidalar.

Ikki xil grafikaga asoslangan imlo qoidalarini ayrim o'rinlari bilan farqlanadi. 1. Orfografiya grekcha orphos («to'g'ri») va grapho («yozaman») so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni bildiradi. Imlo qoidalarini orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differentsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil so'zlar, so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o'shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) son so'ziga fe'l yasovchi -a qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan so'z sona emas, sana tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. YOsh, ot so'zlariga fe'l yasovchi -a qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan yosha, ota so'zlari yasha, ata tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Ong so'zi fe'l yasovchi -a qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z onгла emas, angla tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi;

2) o'yin so'ziga -a fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan so'z o'yna tarzida (i tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi;

3) sariq, ulug' so'zlariga fe'l yasovchi -ay qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan so'z sarg'ay, ulg'ay tarzida aytiladi va shunday yoziladi;

4) o'qi, tani, tashi kabi fe'l formalariga -v qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'z tashuv, o'quv, tanuv tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

5) Tara, bo'ya so'zlariga ot yasovchi -q qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z taroq, bo'yoq tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

6) q va k tovushi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovushi g, k tovushi g tovushiga almashadi va shunday yoziladi: *taroq-i-tarog'i, kurak-i-kuragi, istak-i-istagi, o'rtoq-i-o'rtog'i*. **Izoh:** q va k undoshi bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q va k tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: ishtiroki, ishtiyoqi, zavqi, shavqi, choki, cheki.

7) Og'iz, qorin, o'rin, singil, ko'ngil, burun, shahar kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i, u, a unlilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: og'iz+im-og'zim, qorin+im-qornim, o'rin+im-o'rnim, singil+im-singlim, ko'ngil+im-ko'nglim, burun+im-burnim, shahar+im-shahrim (bu so'z shaharim tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) Adabiy tilda jo'nalish kelishigining -ga qo'shimchasi shakli qabul qilingan. Ba'zan bu shakl -ka, -qa tarzida eshitiladi. Masalan, bilakka, go'dakka, qishloqqa, toqqa kabi. Ko'rinib turibdiki, so'z q yoki k undoshi bilan tugaganda jo'nalish kelishigi -qa, -ka shaklini olyapti. Og'zaki talaffuzda so'z qanday tovushlardan tashkil topgan bo'lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti. **Izoh:** kirill alifbosi asosidagi o'zbek orfografiyasining imlo qoidalariga ko'ra g va k tovushi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishik qo'shimchasi -qa shaklida qo'shilgan: tog'+ga-toqqa; jo'nalish kelishigi qo'shimchasi g tovushi bilan tugagan barg so'zigagina -ka shaklida qo'shib, g tovushi bilan tugagan boshqa so'zlarga -ga shaklida qo'shilgan;

9) q va k undoshi bilan tugagan fe'l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi -gach qo'shimchasining -qach va -kach variantlari qo'shib: chiqqach, ekkach tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) Rus tilidan o'zlashgan kiosk, stolb so'zlari o'zbek tilida kioska, stolba tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) O'zlashma rama, para, minuta, sekunda, konfeta kabi so'zlarning oxiridagi a unlisi o'zbek tili og'zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (rom, par, sekund, minut, konfet kabi);

12) O'zlashma shyotka, podnos so'zlari esa cho'tka, patnis tarzida aytiladi va yoziladi;

13) U, bu, shu, o'sha olmoshlariga –da, -dan, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda i tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, undan, ungacha va hokazo;

14) Zachyot, syujet, sentyabr so'zlari og'zaki nutqda zachot, sujet, sentabr tarzida talaffuz qilinadi va talaffuzga mos shaklda yoziladi.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida umumiylikni vujudga keltiradi. Demak, fonetik tamoyilga ko'ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo'llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlarning tarkibiy qismlari: o'zak-negiz va qo'shimchalari og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, ya'ni og'zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Bu tamoyil so'z o'zagini, unga qo'shiladigan qo'shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham beradi. Bu tamoyilga ko'ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O'zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya'ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh harflar imlosi hamda asos va qo'shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan,

1) uzum, uzuk, tugun, turmush kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida u kelsa, keyingi bo'g'inida u unlisi i tarzida aytilsa ham, u yoziladi;

2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (b, d, v, g, j, j, z) so'z oxirida jarangsiz (p, t, f, k, ch, sh, s) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: maktab, ozod, avf;

3) shanba, sunbul, manba, vatanparvar kabi so'zlar o'rtasida kelgan n undoshi o'zidan keyin kelgan b, n, m undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og'zaki talaffuzda shamba, sumbul, mamba kabi m tarzida aytilsa ham, n shaklida yoziladi.

4) do'st, go'sht, to'rt, Toshkent kabi so'zlarda so'z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirigisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi;

5) pastqam so'zi o'rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (st) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi;

6) –lar ko'plik qo'shimchasi so'z oxirida kelganda, og'zaki nutqda –la tarzida aytilsa ham, yozuvda lar shaklida yoziladi;

7) uch, to'rt sonlariga –ta, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, ushta, uchchala, to'rttala tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: uchta, uchala, to'rtala kabi.

Shuningdek, qo'shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya'ni kelishik qo'shimchalari og'zaki nutqda maktabta, ishtan tarzida aytilsa ham, maktabda, ishdan; fe'llardagi –di shaxs-son hamda yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi –ti tarzida (aytipti, aytti) aytilsa ham, aytibdi, aytdi kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining asosiy va etakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta'minlaydi. Demak, morfologik tamoyilga ko'ra so'zning tovush tarkibi og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'i nazar o'zining morfologik shaklini o'zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an'anaviy tamoyil (bu tarixiy an'anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga

muvofig yoki o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalar ishlab chiqilgan:

1) manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita a yoziladi;

2) mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inida a og'zaki nutqda qisqa i tarzida aytilsa ham, an'anaga ko'ra a yoziladi;

3) tadbir, tatbiq so'zlarining birinchi bo'g'ini oxiridagi d va t undoshlari bir xil t tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda d va t undosh harflari saqlanadi;

4) dorboz, torozibon kabi so'zlardagi fors-tojik tilidan o'zlashgan -boz, -bon qo'shimchalari og'zaki nutqda -voz, -von tarzida aytilsa ham, uning an'anaviy shakli yozuvda saqlanadi;

5) an'anaviy tamoyil taqozo, hokazo kabi so'zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so'zlarni ikkinchi bo'g'inidagi o va a unlilari ba'zan a, ba'zan o unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan o (taqozo), a(hokazo) yozib kelingani uchun hozir ham yoziladi;

6) ocherk, tonna kabi so'zlarining urg'uli bo'g'inida o unlisi o'zbek tilidagi o' unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi;

7) direktor, traktor, ekspeditor kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi o unlisi og'zaki nutqda qisqa i unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi;

8) motor, otryad, limonad, kontsert, konspekt kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi talaffuzda a unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi o unlisi bilan yoziladi;

9) zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr so'zlari og'zaki nutqda zachot, sujet, rejissor, sentabr tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi;

10) rayon, mayor, Нью-Йорк so'zlaridagi yo harfiy birikmasi og'zaki nutqda yo' tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o'sha tildagi an'ana saqlanadi;

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi -r (-ar) ning -ur shakli ishlatilgan. Bu shakl ba'zan hozirgi she'riyatda ham saqlanadi.

Ba'zan tirnoqlar bezagi uchun

Sahardan shomgacha qilursiz toqat,

Ammo eringizni kutgali nechun

Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)

Mazkur she'rda maqsad ma'nosini ifodalovchi **-gani** qo'shimchasi **-gali** tarzida qo'llangan.

Eski o'zbek tilida chiqish kelishigi **-din** ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi **-dan** o'rnida qo'llaniladi: *Sendin o'zgani desam*.

So'roq ma'nosini ifodalash uchun **-mi** yuklamasi ba'zan **-mu** tarzida, ya'ni qadimgi shaklda qo'llanadi.

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differensiya tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi. Masalan:

1) urg'u vositasida farqlash: atla's-mato, material, a'tlas-geografik atlas; a'kademik-ot, akademi'k-sifat (masalan, akademik yil);

2) unlining cho‘ziq-qisqaligi orqali farqlash (bundan so‘zlarda unlining cho‘ziqligini tutuq belgisi ta‘minlaydi, demak bunday so‘zlarning shakli va ma‘nosi tutuq belgisiga ko‘ra farqlanadi): da‘vo-davo, a‘yon-ayon, a‘lam-alam kabi;

3) boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so‘z ma‘nosini farqlash: xol (yuzdagi xol) – hol (ahvol, holat);

4) kirill yozuvida so‘z ma‘nolarini yumshatish (Ь) belgisini qo‘llash va qo‘llamaslik vositasida farqlash holati mavjud: kontrol – ot, kontrol (ish) – sifat, gorizontal – ot, gorizontal (yo‘nalish) – sifat kabi.

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg‘aluvchi j tovushi bilan qorishiq portlovchi j tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan berilishi (jo‘ja-gijda kabi), sayoz til orqa –ng tovushini ifodalovchi harflar birikmasi ng va n va g tovushlarini ifodalovchi n va g harflari yonma-yon kelganda ham n va g talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: ko‘ngil, singil, senga, ingliz kabi.

Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining etakchi tamoyili bo‘lib, imloga doir ko‘pgina qoidalar ana shu tamoyilga asoslanadi.

ma‘ruza: Orfoepiya. Orfoepiya me‘yorlari

Reja:

1. Orfoepik me‘yorlar
2. Unli tovushlar orfoepiyasi.
3. Undosh tovushlar orfoepiyasi.
4. So‘z qismlari talaffuzi.
5. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim so‘zlar orfoepiyasi

Foydalangan va mustaqil o‘qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Orfoepiya so‘zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g‘ri talaffuz qilish me‘yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo‘limi ham orfoepiya deyiladi.

Orfoepik me‘yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an‘analariga, taraqqiyot tradi-tsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: *yo‘q-jo‘q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe‘li qo‘shimchasi shevalarda *–yap(ti), –op(ti), –utti, –vot(ti)* shakllarida qo‘llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo‘q, ko‘z, ota, aka, anor* boryapti variantlari adabiy talaffuz me‘yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

To‘g‘ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o‘quvchi va talabalarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarining shakllantirilishiga ta‘limning barcha bosqichlarida jiddiy e‘tibor beriladi.

Unli tovushlar orfoepiyasi.

I unlisi: 1) bir bo‘g‘inli so‘zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: til, tish, bil, sir kabi; 2) q,g,x undoshlari bilan yondosh qo‘llanganda yo‘g‘on (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: qish, g‘isht, xil kabi; 3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va bir oz cho‘ziq talaffuz etiladi: chiy, kiy, ming kabi; 4) h bilan yondosh bo‘lganda ham bir oz

cho'ziq va ingichka talaffuz qilinadi: hid, hind, his kabi; 5) ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (nozik, alik, rostlik kabi) talaffuz etiladi; b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inida bir oz kengayadi ("i"dan kengroq, "e"dan torroq unli tarzda talaffuz qilinadi): tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi kabi.

U unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (tush, tus, pul, buloq, bug'doy kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (bulut, etuk, popuk kabi) talaffuz etiladi; 2) k,g,y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzda), q, g', x undoshlaridan so'ng esa yo'-g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kul va qul, atirgul va norg'ul, yuk(yuk) va xulq kabi; 3) -uvchi, -uv affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv kabi.

O' unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: bo'r, to'r, ro'mol, so'roq kabi; 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inida) cho'ziq talaffuz qilinadi: ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, mo'l-mo'l kabi; 3) sayoz til orqa k,g, til o'rta y va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng qattiq va yo'g'on (orqa qator) unli tarzda talaffuz etiladi. Qiyos qiling: ko'l va qo'l, go'r va g'o'r, ho'l va xo'r, yo'l va qo'r kabi.

E unlisi: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (erkin, ekin, eslamoq kabi), bo'g'in ichida bir oz torroq (kecha, beda, tekin, sekin kabi) talaffuz qilinadi.

A unlisi: 1) sayoz til orqa k,g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (kam, katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat kabi), chuqur til orqa q,g',x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida (qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat kabi) talaffuz etiladi.

O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: tosh, bahor, somon, shamol kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inida "a"ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: samon, davon kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me'yor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k,g undoshlaridan so'ng yumshoq, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: kosib va qoshiq, kotib va qolip, komil va qobil, gov va g'ov, govmish va g'ovlamoq kabi; 3) urg'uli bo'g'inida kuchliroq va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: bog'bon, obod so'zlarining birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi o unlisi talaffuzini qiyoslang; 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi. Qiyos qiling: yor (yor) va qor, hokim va xolis kabi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Xususan: 1) b,d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot kabi; 2) b,d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p,t holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti; 3) j,z undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh,s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yordir: ijtimoiy>ishtimoiy, mazkur>maskur kabi; 4) b,q undoshlarining inter-vokal holatda (ikki unli orasida)

sirg'aluvchi v,g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: bora ber>boraver, keta ber>ketaver kabi.

So'z qismlari talaffuzi.

1. q , k bilan tugaydigan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda qishloq> qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak> telpagim, telpaging, telpagi kabi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: o'q>o'qi, tok>toki kabi (yoq, yo'q so'zlari bundan mustasno).

2. q, k, g, g' bilan tugagan otlarning jo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: qishloq+ga>qish-loqqa, chelak+ga>chelakka, tog'+ga>toqqa, pedagog+ga>pedagogka kabi. Boshqa barcha holatlarda: a) jarangsiz undoshlardan so'ng –ka, jarangli undoshdan va unlidan so'ng –ga talaffuz etiladi: otka, oshka, qopka, ammo uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga, akaga kabi.

3. Fe'llarda: a) ong+la>angla, son+a>sana, yosh+a>yasha kabi; b) ek+gan>ekkan, ket+gan>ketkan, oq+gan>oqqan, tush+gan>tushkan kabi.

4. Olmoshlarda: u+n+da>unda, bu+n+da>bunda, shu+n+da>shunda (bir "n" orttiriladi), men+ning>mening, sen+ning>sening (bir "n" tushirib qoldiriladi).

5. Bir so'zidan dona son yasalganda, o'zakdagi "r" undoshi "t"ga o'tadi: bir+ta>bitta kabi.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

1. Turkiy tillarda, ma'lumki, f undoshi bo'lmagan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi "f"ni "p" deb talaffuz qilish hollari uchraydi: ulfat>ulpat, faner>paner, ferma>perma kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni "f" bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos bo'lmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: shkaf>ishkop, stakan>istakon, plan>pilon, traktor>tiraktir kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: aql>aqil, fikr>fikir, ilm>ilim, hukm>hukum kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday me'yor shu tipdagi so'zlarning yozuvdagi shaklini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umumturkiy so'zlarda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa kabi so'zlar talaffuziga ta'sir qilgan: oila, doir, rais so'zlarida bitta "y" orttirilgan (oyila, doyir, rayis kabi), maorif, saodat, mutolaa so'zlari esa unlilarning diftonglashuviga – mo:rip, so:dat, mutola: kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan so'z o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo me'yorlarini o'zbek tiliga aynan singdirish tendentsiyasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi: biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya va boshqalar. Bu hol arabcha o'zlashmalarda (oilal, doir, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashtirilgan ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unlilar bo'g'iz artikulyatsiyasi bilan cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda "i" unlisi o'zbek tilining "i" unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: tish (o'zb.) – tip>ti:p (rus.), til (o'zb.) – tir>ti:r (rus.) kabi.

6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'inidagi "i" o'zbekcha "i"dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: bilan (o'zb.) – билет (rus.), kinoya (o'zb.) – kino (rus.) kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarning so'nggi ochiq, urg'uli bo'g'inida "i" unlisi o'zbekcha "i"dan tor va cho'ziq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: maxsi(o'zb.) – taksi(rus.), tepki(o'zb.)- konki(rus.) kabi. Urg'uli bo'g'inning boshqa tiplarida (yopiq, to'la yopiq bo'g'inlarda) ham ruscha "i" o'zbekcha "i"dan cho'ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: metin(o'zb)–nikotin>nikoti:n (rus), ovsin (o'zb)–apelsin>apel-si:n(rus) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashtirilgan bir bo'g'inli so'zlarda "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: dud (o'zb.) – dub>du:b (rus), pul (o'zb.) – puls>pu:ls (rus.), tush (o'zb.) – tush>tu:sh(rus.) kabi.

9. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'uli bo'g'inida "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan ancha cho'ziq va bir oz yo'g'onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: bu-da (o'zb.) – budka (rus), mangu (o'zb)-mangusta (rus), mavzu (o'zb <arab)- meduza (rus.) kabi.

10. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'ili so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "u" qisqa talaffuz qilinadi, ammo o'zbek tilidagi "u" ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha "u"dan ham qisqaroq bo'ladi. Qiyos qiling: dushman>d'shmen (o'zb)- turbine (rus), muzday>m'zdey (o'zb)-muzey(rus) kabi.

11. So'z boshidagi berkitilmagan, urg'usiz bo'g'inda "u" unlisi ruscha so'zlarda yo'g'onroq, o'zbekcha so'zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. Qiyos qiling: uklad (rus) – uxlamog (o'zb), uzual (rus)-uzum (o'zb) kabi.

12. Ruscha leksik o'zlashmalarda "u" unlisi yumshoq undoshdan so'ng o'ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Imloda ingichka "u" tovushi "yu" harfi bilan ifodalanadi. Qiyos qiling: abajur va manikyur (manikur), ultimatum va kostyum (kastum), plug va saljut (salut) kabi. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan "u" o'zbekcha "u"dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: gul (o'zb)-tyul>t ul (rus) kabi.

13. Ruscha leksik o'zlashmalarning urg'usiz bo'g'inidagi "e" unlisi o'zbekcha "e"dan ancha tor ("i"ga yaqin) talaffuz etiladi: telefon>tilifon., televizor>tiliviz'r, adres>adris kabi.

14. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda "a" unlisi o'zbekcha "a"dan yo'g'oroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: kana(o'zb.)-kanal(rus) kabi.

15. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardagi o'rta keng, lablangan "o" unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan "o"dan kengroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: ton(rus.)-to'n(o'zb.), tok(rus.)-to'q(o'zb.), tort(rus.)-to'rt(o'zb.) kabi. Urg'usiz

bo'g'inda esa ruscha "o" reduktsiyaga uchrab, o'ta kuchsizlanadi va "qisqa "i" yoki "a" tarzida talaffuz qilinadi: traktor>t'rakt'r, samolyot>samal ot kabi.

16. Jonli tilda "r" bilan boshlangan arabcha, forsha va ruscha so'zlarning boshida bir "o'" tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: ro'za>o'raza, rus>o'ris, ro'mol>o'ramol kabi. Adabiy talaffuz me'yorlari sifatida ro'za, rus, ro'mol shakllari saralangan.

17. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning oxirida lab-tish "v" undoshi jarangsiz "f" tarzida talaffuz qilinadi: aktiv>aktif, passiv>passif, ustav>ustaf, kursiv>kursif kabi; "v"ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assilyativ holatda ham yuz beradi: avtomat>aftomat, stavka>stafka kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab "v" undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham "f" ga o'tmaydi: ov, birov, ovqat, shavkat kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

18. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: atlas, trolleybus, tramvay kabi.

19. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: hamma, jami, hamisha, afsuski kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

Tekshirish savollari.

- 1.Orfoepiya nima?
- 2.Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
- 3.Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Unlilar qanday pozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
5. Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz etiladi?
6. B,d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi?
- 7.J,z undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
8. B,q undoshlarining sirg'aluvchi "v" va "g"ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
9. Qanday paytlarda o'zak oxiridagi "k" undoshi "g"ga, "q" undoshi "g"ga o'tadi?
10. "G" undoshi bilan boshlangan affikslar qanday so'zlarga qo'shilganda "--ka", "-kan", "-qa", "-qan" tarzida talaffuz qilinadi?
11. Qanday so'zlar o'zagidagi "o" fe'l yasovchilar qo'shilganda "a" ga o'tadi?
12. Boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar.

Orfoepiya – to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari tizimi.

Qisqa talaffuz – urg'usiz bo'g'indagi unlining qisqa va kuchsiz (bilinar-bilinmas) talaffuz etilishi.

Cho‘ziq talaffuz – urg‘uli bo‘g‘indagi unlining urg‘usiz bo‘g‘indagi unlidan cho‘ziqroq bo‘lishi. Bu xususiyat ruscha leksik o‘zdashmalarda, ayniqsa, sezilarli bo‘ladi.

Ingichka talaffuz – unli tovushlarning sayoz til orqa "k","g","ng", til o‘rta "y" va bo‘g‘iz undoshi "h" bilan yondosh bo‘lganda old qator fonema tarzida ingichka talaffuz etilishi.

Yo‘g‘on talaffuz – unli tovushlarning chuqur til orqa "q","g`","x" undoshlari ta'sirida orqa qator fonema tarzida yo‘g‘onlashuvi.

Jarangsizlanish – ayrim jarangli undoshlarning so‘z oxirida yoki assimilyativ holatlarda jarangsiz undosh tarzida talaffuz etilishi.

Intervokal holat – undosh fonemaning ikki unli orasida qo‘llanishi. Bunday pozitsiyada (ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda) portlovchi "q" undoshi sirg‘aluvi "g`" tarzida (qishloq>qishlog‘imiz kabi), jarangsiz "k" undoshi jarangli "g" tarzida (telpak>telpagim kabi) talaffuz qilinadi.

7-ma'ruza: Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot

Reja:

1. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi
3. So'zning leksik va grammatik ma'nolari

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Leksikologiya¹ o'zbek tili kursining lug'at tarkibi (leksikasi)ni o'rganadigan bo'limidir.

Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi leksika deyiladi. Ular shu tilning lug'at boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) **ichki** va 2) **tashqi** tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi **semasiologiya**² deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarining nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so'z hamda turg'un iboralarining ma'no xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **etimologiya**³ deb yuritiladi. U tilning lug'at tarkibidagi so'z va iboralarining tarixan kelib chiqishini, yasama so'zlarning va boshqa tillardan kirgan so'zlarning ma'noli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya so'zning ikki tomonini ham, ya'ni ichki – ma'no tomonini hamda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi.

Leksikologiya tashqi tomondan lug'at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug'at tarkibida sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni: so'zlarning qo'llanish darajasini, ba'zi so'zlarning eskirib iste'moldan chiqib ketishini (sekretar, oblast kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi so'zlar hisobiga boyishini, ba'zi so'zlar ma'nosida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni (ma'no ko'chish hodisasini) o'rganadi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi **leksikografiya**⁴ deb yuritiladi. Leksikografiyaning vazifasi tildagi so'zlarni yozma ravishda to'plashdir. Leksikografiya so'z va iboralarni ma'lum bir sohalar bo'yicha to'plab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lug'at kitoblari shaklida nashr etadi.

Leksikologiya tilning fonetika va grammatika bo'limlari bilan bevosita bog'liq. Fonetika nutq tovushlarini o'rganadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan so'zni, grammatika o'z qonun-qoidalari asosida so'zlarni o'zaro bog'laydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush bo'lmasa, so'z bo'lmaydi, so'z bo'lmasa grammatikaning ham bo'lishi mumkin emas.

Ma'lumki, so'zlovchi tilning lug'at tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan o'zaro bog'liq ekanini bildiradi.

Lug'at tarkibi shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi bilan bog'liq. SHuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

¹ Leksikologiya – grekcha – lexisikos (leksikos) – «lug'atga (so'zga) oid», logos – (logos) – «ta'limot», «fikir» elementlaridan tuzilgan.

² Semasiologiya – grekcha semasio – «belgi», «tamg'a» va logos – «ta'limot» ma'nolarini bildiradi.

³ Etimologiya – grekcha etymon (etimon) – «haqiqat», logos – «ta'minot» ma'nolarini ifodalaydi.

⁴ Leksikografiya – grekcha lexikos – «lug'at» va grapho – «yozaman» degan ma'noni bildiradi.

Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari

Soʻz nutq tovushlarining muayyan tartibda birikishidan hosil boʻlib, maʼno anglatuvchi til birligidir. Soʻzning tovush tomoni fonetikada, grammatik tomoni grammatikada, maʼno tomoni leksikologiyada oʻrganiladi. Soʻzning barcha tomonlari nazarda tutilsa, u til va nutqning eng muhim elementlaridan biri ekanligi anglashiladi.

Soʻz til birligi sifatida maʼno ifodalash xususiyatiga ega. Soʻzning maʼnosi narsa-hodisalar bilan bogʻlanishidan kelib chiqadi, bu bevosita bogʻlanish boʻlmay, borliqning inson ongida aks etishi orqali yuzaga keladi. Insonning borliqni anglashi, ongida aks ettirishi soʻz maʼnosida oʻz aksini topadi. Borliqni bilish narsa-hodisa haqida tushunchaga ega boʻlishdir. Tushunchada soʻzning umumiy va muhim belgilari mujassamlashadi. Bu belgilar uni boshqa predmetlardan ajratib turadi.

Inson maʼlum bir predmet, belgi, harakat, holat kabilarning umumiy va oʻziga xos muhim xususiyati asosida ularni boshqa shu kabi predmet, belgi, harakatlardan ajratadi. Demak, soʻz tushunchaning nomi, tushunchaga ega soʻz maʼnosining asosini tashkil etadi. Soʻz asosida yotgan tushuncha soʻzning leksik maʼnosi sanaladi. Demak, soʻzning leksik maʼnosi uning material maʼnosi boʻlib, soʻz ifoda etgan aniq bir predmet belgi, harakat, miqdor kabilardan iborat boʻladi: *anor*, *daraxt* – predmet tushunchasini, *ekdi* – harakat, *qizil* – belgi, *oʻnta*, *koʻp* – miqdorga koʻra belgi, *men*, *sen* – shaxs tushunchasini ifodalaydi.

Demak, ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish soʻz turkumlari lugʻaviy maʼno bildiradi. Soʻzlarning lugʻaviy maʼnodan tashqari, grammatik maʼnolarga ham ega boʻladi. Soʻzning lugʻaviy maʼnosi leksikologiyada oʻrganiladi. Grammatik maʼno grammatikada oʻrganiladi. Yordamchi soʻz turkumlari lugʻaviy maʼno ifodalamaydi, ular grammatik maʼno ifodalashga xizmat qiladi.

Soʻz lugʻaviy maʼno-tushunchadan tashqari, insonning narsa va hodisaga boʻlgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ham bildiradi. Insonning ijobiy va salbiy munosabati soʻz hissiy-taʼsiriy boʻyogʻi deb yuritiladi. Masalan, *yuz*, *aft*, *bashara*, *turq*, *chehra*, *oraz*, *chiroy* kabi sinonimlar qatorida *yuz* soʻzi odam aʼzosining biri haqidagi tushunchani anglatadi, bu ijobiy yoki salbiy maʼno ottenkasiga ega boʻlmagan betaraf soʻz. *Aft*, *bashara*, *turq* soʻzlarida soʻzlovchining asosiy-bosh tushunchaga qoʻshimcha salbiy munosabatini ifoda etuvchi maʼno ham mavjud.

CHIroy, *chehra*, *oraz*, *ruxsor* soʻzlariga soʻzlovchining ijobiy (hayrixoxligi, yoqimli, goʻzal kabi maʼno) munosabati ham yuklatilgan. Bunday qoʻshimcha maʼno ottenkalar kishilarning hissiyotiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Soʻzdagi salbiy hissiy-taʼsiriy boʻyoq muayyan matn tarkibida oydinlashadi. *Bet* soʻzi «*Beti qursin*» gapida salbiy maʼno, «*Beti-betiga tushsa nima deydi*» gapida bu salbiy maʼno kuchsizlanadi. *Kitobning beti* birikmasidagi beti soʻzida salbiy maʼno umuman yoʻq.

Hissiy-taʼsiriy boʻyoq tildagi hamma soʻzlarda boʻlavermaydi. Masalan, ilm-fan, texnikaga oid atamalarda hissiy-taʼsiriy boʻyoq boʻlmaydi.

Soʻzlar ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllanishiga koʻra ham farq qiladi. *Aft*, *bashara*, *turq* soʻzlari koʻproq ogʻzaki nutqda, *chiroy*, *oraz*, *ruxsor* koʻproq yozma nutqda, *yuz* soʻzi har ikkala nutqda qoʻllanadi. Koʻrinib turibdiki, soʻzlar biror nutq uslubida qoʻllanishga moslashgan boʻladi, bu ulardagi uslubiy belgi deb yuritiladi. Uslubiy belgi-soʻzning maʼlum uslubga mansubligini koʻrsatuvchi belgi. Masalan, *metro* – soʻzlashuv uslubida *metropoliten* kitobiy uslubda qoʻllaniladi.

Leksik maʼno deganda soʻz ifoda etadigan tushuncha, hissiy-taʼsiriy boʻyoq va uslubiy belgilar yigʻindisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-taʼsiriy boʻyoq, uslubiy belgi leksik maʼno komponentlari deyiladi.

8- Ma'ruza: So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Reja:

1. Bir ma'noli so'zlar
2. Ko'p ma'noli so'zlar
3. Ma'no taraqqiyoti qonunlari
4. So'z ma'nosining ko'chish yo'llari

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi o'zlar **bir ma'noli so'zlar**⁵ deyiladi. Masalan, *kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema* va b.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, *pasaymoq* so'zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa *bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi* kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar **ko'p ma'noli so'zlar**⁶ deyiladi.

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z taraqqiyoti ma'no tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlarda 2 xil ma'no farqlanadi: 1) bosh (asl, o'z) ma'no; 2) yasama (ko'chma) ma'no. Bosh ma'no so'zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma'nosi bo'lib, u boshqa ma'nolarning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Yasama ma'no bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, *og'iz* so'zining bosh ma'nosi insonning tana a'zosi, *g'orning og'zi, qopning og'zi* yasama ma'no. So'zning yasama ma'nosi gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'liq holda anglashiladi.

Ma'no taraqqiyoti qonunlariga ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi hodisalari kiradi.

So'z ma'nosining ko'chishi besh xil bo'lib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo'li bilan ko'chish.

Metafora (grekcha metaphora – «ko'chirma») narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo'lgan so'zni ikkinchisini ifodalash uchun qo'llashdir, metaforada shakliy o'xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. SHu tufayli ot, sifat va fe'l turkumlarida metafora yo'li bilan ko'chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi so'zlarining ma'nosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh ma'no);

2) arraning tishi (yasama ma'no). Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma'no); 2) *yengil ta'zim* (yasama ma'no). *Pasaydi*: 1) samolyot pasaydi (bosh ma'no); 2) bilimi pasaydi (yasama ma'no).

Metaforaga quyidagilar asos bo'ladi:

⁵ Bir ma'nolilik – monosemantizm (gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

⁶ Ko'p ma'nolilik – polisemitizm (gr. poli – «ko'p», sementikos – «belgi», «ma'no») deb yuritiladi.

- 1) odamning tana a'zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko'z, lab, tish, elka,oyoq, og'iz kabi;
- 2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;
- 3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a'zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;
- 4) o'simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;
- 5) qurol nomi: nayza, pichoq;
- 6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chish hodisasi. Bu aloqadorlik o'rin va vaqt jihatdan bo'ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo'ladi. Quyidagi gaplardagi so'zlarning ma'no munosabatini kuzating:

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o'zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma'no ko'chish hodisasidir. Masalan: Besh qo'l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o'zimizdan qoladigan tuyog'imiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig', ketmon – «jangchi» ma'nosida), hayvonlarning biror a'zosi nomini o'sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyoq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong'oq, olma, nok, uzum) qo'llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo'l so'zini «barmoq» ma'nosida) qo'llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday ko'chishlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan: *Shunaqa «do'stlar»ning kamroq bo'lgani ma'qul.*

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi asosida ma'no ko'chish hodisasidir. Ma'noning bunday ko'chishi metaforadagi kabi o'xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta'sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o'q, siyoh, qalam kabi so'zlarning ma'nolaridagi ko'chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o'xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Graftitli yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to'g'ridan to'g'ri qalam deb atay berganlar.

O'q - yoy o'qi; o'q - miltiq o'qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir).

Siyoh so'zi tojik tilida «qora» degan ma'noni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo'lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo'llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko'k, yashil) ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosi qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosi ko'k qora).

Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma'no ko'chishi kam mahsul hodisalaridir.

ma'ruza: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Tarixiy shakllanish jihatdan hozirgi o'zbek tili leksikasi

Reja:

1. Omonimlar va ularning turlari
2. Sinonimlar va ularning turlari
3. Antonimlar va ularning turlari
4. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
5. Eskirgan qatlam.
6. Yangi qatlam.

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Tildagi soʻzlar shakl va maʼno xususiyatlariga koʻra oʻzaro turli munosabatda boʻladi. Soʻzlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari maʼno jihatdan, baʼzilari esa talaffuzi jihatidan oʻxshash boʻladi. SHu xususiyatlariga koʻra soʻzlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1.Omonim soʻzlar. SHakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar omonimlar deyiladi. Omonim soʻzi grekcha «bir xil» degan maʼnoni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - ism; ogʻiz - insonning tana aʼzosi, ogʻiz - yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang - toʻzon, gard, gʻubor, chang – toʻrtburchak, yassi quti shaklidagi torlar tortilgan qoʻsh choʻp bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana aʼzosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot. Omonim soʻzlar turkumiga (yuz – insonning tana aʼzosi, ot; yuz - miqdor bildiruvchi son) oid boʻladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi: 1) lugʻaviy omonimlar; 2) grammatik omonimlar. Lugʻaviy omonimlar: 1) soʻzlar doirasida; 2) iboralar doirasida boʻladi.

1.Omonimlik hodisasi soʻz bilan soʻz doirasida boʻlsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil boʻladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun) Kul (feʼl) - zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: YUzi kuladi, koʻzlari yonadi? (H.Gʻulom)

2.Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida boʻlsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh koʻtarmoq - qarshi qoʻzgʻolon koʻtarmoq, bosh koʻtarmoq - tuzalmoq, sogʻaya boshlamoq.

Grammatik omonimlar qoʻshimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. SHakli bir xil, maʼnosi har xil qoʻshimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qoʻshimchasi bilim – ot yasovchi qoʻshimcha, feʼldan ot yasaydi. Kitobim – I shaxs, birlik qoʻshimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qoʻshimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qoʻshimcha.

Baʼzi omonim soʻzlar qoʻshimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi soʻz –ter ot turkumiga oid soʻz boʻlib, I shaxs, birlik egalik qoʻshimchasini olgan, ikkinchisi feʼl turkumiga oid soʻz ot yasovchi –im qoʻshimchasini olgan. Bu soʻzlar bir xil shaklini saqlab qolgan.

Qoʻshimchalar qoʻshilganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladigan soʻzlar omoformalar deyiladi. Omoformalar bir xil soʻz turkumiga ham, boshqa-boshqa soʻz turkumiga ham oid boʻladi. Masalan, 1) bogʻ - mevazor (ot); 2) bogʻ - bogʻich (ot). Ularning qoʻshimcha olgandan keyingi grammatik shakllari:

- 1) bogʻni, bogʻning, bogʻdan;
- 2) bogʻni, bogʻning, bogʻdan.

Qiyoslang: oq (sifat)+ar – fe'l yasovchi qo'shimcha;

oq (fe'l)+ar – sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha.

Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, og'zaki so'zlashuv nutqida so'z o'yinlari, askiyalarda qo'llanadi. Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - xordiq (ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

Sinonim so'zlar. Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sinonim deyiladi. Sinonim so'zlar bir predmet hodisaning (*taom, ovqat; baxt, iqbol, tole, saodat*), belgining (*sezgir, ziyrak, tuyg'un; aniq, ochiq-ravshan, yorqin, oydin, ayon*), harakatning (*yordamlashmoq, ko'maklashmoq*) bir necha nomi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun sinonimik hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi.

Sinonim so'zlar aynan bir predmet, belgi, harakat tushunchasini ham, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadigan predmet, belgi, harakat tushunchalarini ham anglatadi. Masalan, tilshunoslik – lingvistika sinonimlarining ma'nosi aynan bir xil. *Yig'lamoq, yig'lamsiramoq* sinonimlarining ma'nosida farq mavjud.

Bir ma'no atrofida birlashgan so'zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Masalan: *odam – kishi – inson – bashar; davolamoq, tuzatmoq; yorug' – nurli – charog'on, yorqin – munavvar.*

Sinonimik qatorni tuzishda ma'nodosh so'zlar uchu nasos qilib olingan so'z bosh so'z (dominanta) deyiladi. Sinonimik guruhdagi ma'noli, barcha nutq uslublarida qo'llanadigan, adabiy tilga mansub, ma'no doirasi keng bo'lgan so'z bosh so'z sifatida tanlab olinadi: *botir – qahramon – dov yurak – qo'rqmas – jasur.*

Sinonimik qatorni belgilashda so'zlarning yagona umumiy belgisiga asoslanadi. Masalan: *uy* va *bin* so'zlari bir-biriga yaqin ma'noli bo'lsa ham, *uy* so'ziga xos asosiy tushuncha bilan (*odam yashaydigan joy*) «*bin*» so'zi ifodalaydigan tushuncha (*imorat*) o'rtasida umumiylik yo'qligi uchun ular sinonim bo'la olmaydi.

Jins va tur munosabatidagi (*daraxt–jins, olma–tur*), predmet yoki harakatning bir tomonini obrazli qilib, bo'rttirib ifodalaydigan so'zlar o'sha predmet yoki harakat tushunchasiga kirishi mumkin bo'lgan tushunchani ifodalasa ham, predmet yoki harakatni to'raligicha anglatmaganligi, obrazlilik asosiy tushunchaga nisbatan kuchli bo'lsa (*chuldiramoq, ping'illamoq, pichirlamoq, shipshitmoq, to'ng'illamoq, vag'illamoq* so'zlari gapirmoq so'ziga sinonim bo'lmaydi), mohiyat jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan sotsial tuzumlarga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalasa (*mirshab – militsioner*) ular o'zaro sinonim bo'la olmaydi⁷. Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) lug'aviy sinonimlar; 2) grammatik sinonimlar.

1. **Lug'aviy sinonimlar:** 1) so'zlar doirasida (*bezak, ziynat, hasham*); 2) so'z va iboralar doirasida (*ayyor – mug'ambir – pixini yorgan, ilonning yog'ini yalagan*); 3) iboralar doirasida (*og'ziga talqon solmoq – og'zida qatq ivitmoq*) bo'ladi.

2. **Grammatik sinonimlar** qo'shimchalar doirasida bo'ladi. Sinonim so'zlar o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida (*kun – quyosh, ish – yumush, qari – keksa*) va boshqa tildan so'z olish natijasida (*shox* (o'zbekcha)–*muguz* (tojikcha), *orzu* (tojikcha) – *tilak* (o'zbekcha), *buloq* (o'zbekcha) – *chashma* (tojikcha), adabiy tilga xos so'z bilan

⁷ M.Mirzayev va b. O'zbek tili, T.O'qituvchi, 1978.

shevaga xos soʻzlar (*goʻzal* – *suluv* – *koʻxlik* – *xushroʻy*) yoki shevaga oid bir necha soʻzlar doirasida (*chelak* – *satil* – *paqir*) yuzaga keladi.

Antonimiya leksemalarning bir-biriga zid maʼno anglatishi asosida guruhlanishidir: oq va qora, qalin va yupqa kabi. Antonimiya hodisasi, asosan, bir soʻz turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. 1. Sifatlarda: a) hajm belgisiga koʻra: katta va kichik, baland va past; b) xarorat belgisiga koʻra: issiq va sovuq; v) yosh belgisiga koʻra: yosh va qari; g) xarakter-xususiyat belgisiga koʻra: saxiy va xasis, botir va qoʻrqoq, aqlli va axmoq; d) shakl belgisiga koʻra: toʻgʻri va egri; e) maza-taʼm belgisiga koʻra: achchiq va shirin kabi. Payt, holat, miqdor, maqsad maʼnoli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) kecha va ertaga, avval va ketin (payt belgisiga koʻra), b) tez va sekin, arang va bemalol (holat belgisiga koʻra), v) koʻp va oz, moʻl va kam (miqdor belgisiga koʻra), g) atayin va beixtiyor, joʻrttaga va bexosdan (maqsad maʼnosiga koʻra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali boʻlib qolmoqda. Otlarda: a) belgi otlarida: boylik va kambagʻallik, botirlik va qoʻrqoqlik; b) qarama-qarshi tomon nomlarda: sharq va Gʻarb, janub va shimol; v) fasl nomlarida: yoz va qish, kuz va bahor; g) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda: kecha va kunduz, tong va shom kabi.

Feʼllarda: a) qarama-qarshi harakat maʼnolarini ifodalovchi feʼllarda: bormoq va kelmoq, kirmoq va chiqmoq; b) sifat yoki ravishdan yasalgan feʼllarda: kengaymoq va toraymoq, koʻpaymoq va ozaymoq, sekinlashmoq va tezlashmoq kabi. Baʼzan feʼlning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishishi mumkin: oʻqigan va bilimsiz, oʻqimagan va bilimli kabi. Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va feʼllarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa boʻlmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno). Kontekstual antonimiya oʻzaro zid maʼno ifoda etmagan leksemalarning maʼlum kontekst ichida soʻzlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishi. Buni quyidagi sheʼriy misralar tahlilida koʻrish mumkin:

Ushoq qand oq tuzga monand erur,/Va lekin biri tuz, biri qand erur.(A.Navoiy)

Aytur soʻzni ayt, /Aytmas soʻzdan qayt! (A.Navoiy)

Sichqonlarga nisbatan/ Poyloqchiman toʻgʻriman.

Koʻrsam tekin goʻsht baʼzan/ Chidolmayman – egʻriman. (O)

Bu misollarda qoʻllangan *qand* va *tuz*, *ayt* va *qayt* hamda *toʻgʻri* va *egʻri* soʻzlari aslida (tilda) antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrada *tuz* va *qand* leksemalari muallifning leksik qoʻllanishi natijasida «*achchiq*» va «*shirin*» (demak, «*yaxshi*» va «*yomon*») maʼnolarini, ikkinchi misoldagi *ayt* va *qayt* leksemalari «*ayt*» va «*aytma*» degan zid maʼnolarni, uchinchi misoldagi *toʻgʻri* va *egʻri* leksemalari esa «*egʻri emas*» va «*toʻgʻri*» maʼnolarini ifoda etib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda *toʻgʻri* leksemasi otlashgan).

Bunday qoʻllanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: Bir u deydi, bir bu deydi, deganda u va bu olmoshlarida kontekstual zidlanish bor. Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki soʻz antonimik juftlikni hosil qiladi, ammo antonimik juftlik juft soʻz degan gap emas. qiyos qiling: katta va kichik – antonimik juftlik (undagi har bir soʻz-mustaqil leksema), katta-kichik – bitta juft soʻz, u umumlashgan bitta maʼnoga ega. Demak, katta va kichik zid maʼnoli ikkita leksema boʻlganligi uchun ular bir-biriga nisbatan antonimlardir, katta-kichik juft soʻzi esa antonimlar ishtirokida yasalgan bitta leksemadir, binobarin, bitta leksemaning yolgʻiz oʻzi antonim hisoblanmaydi. Shuningdek, bor va borma kabi soʻz shakllari ham antonimlar deb qaralmaydi, chunki antonim boʻlish uchun, yuqorida aytib oʻtilganidek, albatta ikkita soʻz

(leksema) mavjud bo'lishi, bu ikki so'z o'zaro zid ma'no ifodalashi shart, bor va borma esa ikkita leksema emas, balki bitta bor leksemasining (fe'lning) bo'lishli (bor) va bo'lishsiz (borma) shakllari, xolos. Demak, bunda ham antonimik juftlik yo'q.

Enantiosemiya bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit talabiga ko'ra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, ko'chaning boshi birikmasida bosh leksemasi ko'chaning «boshlanishi»ni ham, «oxiri»ni ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi. Antonimiya va polisemiya hodisalari o'zaro bog'liqdir: ko'p ma'noli leksema o'zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: achchiq qalampir va shirin olma birikmalarida achchiq va shirin leksemalari o'zlarining bosh ma'nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; achchiq gap va shirin gap birikmalarida esa achchiq va shirin leksemalarining hosila (ko'chma) ma'nolari antonimiyaga asos bo'lgan. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda opa va singil, aka va uka tog'a va xola kabi so'zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, ifrelyativ so'zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.

Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari (bordi va bormadi, boray va bormay, ko'rgan va ko'rmagan kabi formalari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi, biroq tilshunos Sh.Rahmatullaev bu fikrga qo'shilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning o'zi hali antonim emas. Masalan, ayt-aytma, aytar-aytmas kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni o'zaro antonimlar deb bo'lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shaklidir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma'no munosabatidir...». Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor. Mazkur darslikda ham antonimiyaga shu pozitsiyadan yondashildi.

Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullaev, N. Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu prinsipga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Masalan, kuz bilan bahor orasida qish bor, demak, kuz va bahor leksemalari o'zaro antonimlar deb qaraladi, ammo kuz bilan qish – antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) yo'q; shuningdek, qish bilan bahor antonim emas (oraliq tushuncha yo'q), qish bilan yoz – antonimlar (oraliq tushuncha – «bahor»); kecha bilan bugun – antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), kecha va ertaga – antonimlar (oraliq tushuncha – «bugun»); o'tmish va hozir antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), o'tmish va kelajak – antonimlar (oraliq tushuncha «hozir») kabi.

Tarixiy shakllanish jihatdan hozirgi o'zbek tili leksikasi

Reja:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan- ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlamga ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o'zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo'lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so'zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so'zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so'zlar yangilik bo'yog'iga ham, eskilik bo'yog'iga ham ega bo'lmaydi. Zamonaviy qatlamda so'zlarning nutqda ko'p yoki kam ishlatilishi, barcha kishilarning ishlatishi yoki ma'lum guruh kishilari nutqidagina ishlatilishi asosga olinmaydi.

Demak, yangilik va eskilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar eskirgan qatlam. So'z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo'qolishi, yoki ularning ma'nosini ifodalaydigan boshqa so'zlarning paydo bo'lishi munosabati bilan ayrim so'zlar asta-sekin qo'llanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam qo'llanadi. Ularning ba'zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko'pchilik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo'llansa, izoh talab etadi. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eskirgan leksika deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy so'zlar yoki istorizmlar.
2. Arxaik so'zlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy so'zlar o'tmishdagi narsa va hodisalarning nomi bo'lgan, ammo hozir eskirib qolgan so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi. Tarixiy so'zlar jamiyatda yo'q bo'lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda qo'llaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimii yo'q. Masalan: foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chaqirim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri (5 tiyin).

Ba'zi so'zlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bunday so'zlarning bir ma'nosi eskirsa, ikkinchi xil ma'nosi zamonaviy qatlamda ishlatiladi. Masalan: *boy* so'zining ma'nosini qiyoslang: *Boy Yo'Ichini zimdan kuzatdi (Oybek). Sen boy bo'laman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima bo'ldi?*

Arxaik so'zlar. Hozir mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so'zlar deyiladi. Arxaik so'zlar yig'indisi arxaizmlar deyiladi. Arxaizm – grekcha so'z bo'lib, archaios – «qadimgi» degan ma'noni bildiradi.

Eskirgan so'z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo'lgani uchun uning eskirgan nomini almashmay oladigan zamonaviy qatlamga oid so'z mavjud bo'ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo'lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik bo'yog'iga ega bo'lib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so'zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko'lamda qo'llanilyapti. Sekretar so'zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so'zlar so'zlovchining ko'z oldida iste'moldan chiqib ketayotgan so'zlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional). Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), o'miz (ko'krak) kabi.

So'zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma'nosi arxaiklashishi mumkin. SHunga ko'ra ular: a) leksik arxaizmlar; b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo'ladi. Leksik arxaizmda so'z eskiradi: gulgun, siymo (obraz). Semantik arxaizmda

ma'no eskiradi: chechak – «gul» ma'nosida eskirgan, bekat – karvonlar to'xtaydigan joy ma'nosida eskirgan, bag'ir – «jigar» ma'nosida eskirgan, davlat – «boylik» ma'nosida eskirgan. Arxaiklashish iboralarda ham, grammatik hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati ko'p, lekin grammatik hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif –lom qilib, gardonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdashning –din, -mish shakllari, ravishdashning –bon, -ibon shakllari, -dur – kesimlikni ko'rsatuvchi bog'lama eskirgan grammatik shakllardir. Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo'lib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq).

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi angi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so'z bo'lib, neos – «yangi» degan ma'noni bildiradi. Neologizm yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: bakalavr, magistratura, kompyuter, kompyuter texnologiyasi, marketing, supermarket kabi. Neologizmlar yangi paydo bo'lgan paytda, ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmni ma'nosi tushunarliklik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va umumxalq so'ziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt va hokazo.

Ba'zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralangan leksikadan o'rin olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha. Chunki har bir davr o'z neologizmiga ega bo'ladi. So'z yoki so'zning ma'nosi neologizm bo'lishi mumkin. So'z neologizm bo'lsa, leksik neologizm deb yuritiladi: broker. Leksik neologizmlar tamomila yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir. Bunday so'zlar: 1) o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan yangi so'zlardir: etti yillik; 2) boshqa tildan kirgan hali umumxalq tiliga singib o'zlashib ketmagan yangi so'zlardir: magistr, bakalavr.

Leksik ma'nolardan biri yangi bo'lsa, semantik neologizm deb yuritiladi. Masalan: Yo'ldosh (er yo'ldoshi), payvandchi (metallni ulovchi).

9-ma'ruza: O'zbek tilining faol va nafaol leksikasi. Hissiy-ta'siriy bo'yoqdorlik va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi Frazzeologiya haqida tushuncha. Frazzeologik iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Reja:

1. Faol so'zlar
2. Nafaol so'zlar
3. O'zbek tilining ekspressiv-stilistik leksikasi.
4. Og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar.
5. Stilistik chegaralangan leksika

Foydalangan va mustaqil o'qishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

O'zbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qo'llanmaydi. Ayrim so'z keng jamoatchilik tilida qo'llansa, ba'zilar esa ma'lum terriyoriyada yashovchi yoki ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. SHunga ko'ra o'zbek tilidagi so'zlar ikki guruhga ajratiladi: 1. Faol so'zlar.(Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika). 2. Nafaol so'zlar.(Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika).

O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismini faol so'zlar tashkil etadi. O'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo'llanadigan so'zlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar barcha o'zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko'ra ular umumiste'moldagi so'zlar deb ham yuritiladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan so'zlar ham o'zbek xalqining barchasiga tushunarli bo'lsa, ular ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan *shamol, soat, inoq, dohiy, mag'rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya* so'zlari; tojik tilidan o'zlashgan *go'sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur* kabi so'zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan *traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod* kabi so'zlar umumxalq tilida qo'llanadi.

Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar o'z qatlamga ham, o'zlashgan qatlamga ham oid bo'lishi mumkin.

Nafaol leksika. Tildagi so'zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so'zlarning ishlatilishi ma'lum sabablarga ko'ra chegaralangan bo'ladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal so'zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi.

Dialektal leksika ishlatilish terriyoriyaga ko'ra chegaralangan so'zlar bo'lib, ular adabiy tilga kirmaydi. Ma'lum bir hududdagi kishilar nutqida qo'llanib, ulargagina tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zlari deyiladi. Sheva so'zlari yig'indisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha so'z bo'lib, dialektos – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. Shuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektlarga xosdir. Misollar: *qorinja (chumoli), g'o'z (yong'oq), karvich (g'isht)*–

Xorazm; *norbon* (*narvon*), *bodrak* (*varrak*), *poku* (*ustara*)—Buxoro; *mishiq* (*mushuk*)-*Farg`ona*; *inak* (*sigir*), *mo`rcha* (*chumoli*), *pishak* (*mushuk*) - Samarqand shevasida.

Shevadagi ba`zi so`zlar adabiy tilda ham bo`lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma`nolarni bildiradi. Masalan: *kosa* so`zi Xorazm shevasida «*piyola*» ma`nosini, adabiy tilda «*suyuq ovqat soladigan idish*», *lagan* so`zi Xorazm shevasida *kir yuvadigan tog`ora*, adabiy tilda «*quyuq ovqatlarni soladigan idish*» ma`nosini bildiradi.

Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko`rsatish maqsadida sheva so`zlardan foydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. O`zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug`ullanib keladi. Shuning uchun O`zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, *kulochilik*, *qashshoqlik*, *kashtachilik*, *duradgorlik*, *terimchilik*, *ovchilik*, *chorvachilik*, *kosibchilik* va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so`zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o`zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so`zlarga boy. Masalan: kulolchilikda *dog`chil* (xum yasashda ishlatiladigan asbob), *aspak* yoki *ob yog`och*, *bandak*, *bog`ich* (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so`zlar, suvoqchilik sohasida *bozi* (tokcha yoki), *andava* (asbob), *loykash* (kishi), *mola gazcho`p* (asbob) kabi maxsus so`zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo`llanadi va ular uchun tushunarlidir.

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko`rsatishda kasb-hunarga doir so`zlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xo`jaligi, qishloq xo`jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so`zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo`llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema—matematikaga doir; sifatlash, o`xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo`llanadi va ular bir ma`noli bo`ladi.

Ba`zi atamalar o`zbek tilida so`zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo`llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so`ziga aylanadi. Masalan, o`qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O`tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o`g`rilar, firibgarlar o`z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o`zlariga tushunarli so`z va iboralardan foydalanganlar. Tilda sinfiy ayirmalikni ko`rsatib turadigan bunday so`zlar «sinfiy dialektning so`zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so`z va iboralar **jargonlar** deyiladi. Masalan, *oftobi olam* (podsho), *husni mutlaq* (xudo), *nishoni oliymon*, *shoe` qiling* (bildiring), *malhuz emas* (mulohaza qilingan emas), *ne`mati jannat* (yor, mahbuba), *shavaqqu` aylang* (umid bilan kuting), tanzil (foйда).

O`g`rilar, qimorbozlar orasida qo`llanadigan so`zlar argolar deb yuritiladi: *loy* (pul), *xit* (militsioner), *bedana* (to`pponcha), *xitola* (o`g`irla), *zamri* (jim tur), *atamri* (gapir), *atanda* (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo`lgan: *yakan* (pul), *joyi* (yo`q), *xasut* (non), *dax* (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; *sar* yoki *sari piyoz* (ming so`m), *saru nimsar* (bir ming besh yuz so`m), *kapara* (olti ming so`m).

Hissiy-ta'siriy bo'yodqorlik va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi

Reja:

1. O'zbek tilining ekspressiv-stilistik leksikasi.
2. Og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar.
3. Stilistik chegaralangan leksika.

O'zbek tilining ekspressiv-stilistik leksikasi. Lug'at sostavidagi ba'zi so'zlar ma'lum bir tushunchani ifodalashdan tashqari, qo'shimcha emotsional-ekspressiv rangga ham ega ekanligi haqida ilgari ham fikr yuritilgan edi. Masalan: *tabassum-kulgi*, *bo'sh-lapashang*, *latta*. Emotsionallikka bo'sh-tabassum, lapashang.

Ekspressiv-stilistik jihatdan hozirgi o'zbek tili lug'at sostavi 2 ta katta gruppaga bo'linadi: a) og'zaki nutqda va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar; b) stilistik jihatdan chegaralangan leksika.

2.Og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar. Kishilar uchun hayotiy zarur narsalarni anglatadigan stilistik rangi bo'lmagan so'zlar umumiste'moldagi so'zlar deyiladi. Ular stilistik jihatdan chegaralanmagani uchun ularni stilistik neytral bo'lgan leksika deb ham ataladi.

Masalan: non, uy, suv, odam, yuz, ko'z, osh, choy, tuz, oq, arra, yurmoq, bormoq, men, sen, u, bu, tu, ikki, olti.

Stilistik neytral leksika har qanday janrda ham ishlatilaveradi. Uslubiy chegaralangan leksika. Nutqning ayrim-ayrim turlari uchungina xizmat qiladigan so'zlar uslubiy chegaralangan leksika deyiladi. Bunday maxsus so'zlar dastavval og'zaki nutqqa yoki yozma nutqda qo'llanishlariga ko'ra ikkiga ajraladi. Masalan: *hazar qilmoq*, *birlashmoq*, *hunar*, *o'rin* arzimagan so'zlari ko'proq og'zaki nutqda qo'llanilsa, *jirkanmoq*, *jipslashmoq*, *kasb*, *makon*, *juz'iy* so'zlari yozma nutqda qo'llanadi.

3.Og'zaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi.Og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lgan oddiy muomaladagi so'zlar o'zlarining soddaligi, hammaga tushunarli bo'lishi bilan yozma nutqdagi so'zlardan ajralib turadi. Og'zaki nutqda stilistik rangli so'zlar ko'p ishlatiladi. Ularda soddalik, ta'sirchanlik, ba'zan erkinlik sezilib turadi. Og'zaki nutqqa oid so'zlar badiiy asarlarda, personajlar nutqida beriladi. Masalan: Nima qilib bu ezmachuriqni sudrab yuribsizlar, beti qursin. Og'zaki nutqqa xos so'zlarga dialektal so'zlar, oddiy muomaladagi so'zlar, erkalovchi so'zlar, dag'al (vulgar) so'zlar, haqorat so'zlar kiradi. Masalan: qizaloqlarim, qo'llaring nuqul baraka ekan. Boy, qiztaloq, toza ham davlat yiqqan ekan.

Og'zaki nutqqa ega leksikada kuchli emotsionallik va obrazlilik boy bo'lgan maxsus emotsional obrazli so'zlar ham bor. Bu turdagi so'zlarga emotsiya, hayajon, ruhiy keyinmalarni, turli tovush va harakatlarni, yorug'lik ko'rinishlarini ifodalaydigan obrazli taqlidiy so'zlar kiradi. Bunday so'zlar kishida turli psixologik holatlarni ko'rsatadi, voqeaga, hodisaga nisbatan bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalaydi. Bunday xususiyat: a) undovlarga va shulardan yasalgan so'zlarga xos: (oh, eh, ey, ie, if, be, obbo, dod, dodlamoq, uxlamoq); b)taqlidiy so'zlarga xos va shulardan yasalgan so'zlarga xos: (bilch-bilch, qarch-qurch, vang, tors-turs, kars, lip, xirillamoq).

4. Yozma nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi. Kitob, jurnal, gazeta va shunga o'xshash (matbuot nashr)larda qo'llanadigan, umuman, sahna asarlar uchun xarakterli bo'lgan so'zlarning nisbatan barqaror ekspressiv-stilistik ottenkasi bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Chunonchi, rasmiy ishga oid, tantanaga, notiqlikka oid so'zlarning poetik leksika, xalq dostonlariga oid so'zlarning, publitsistikaga oid

soʻzlarning biror darajadagi qoʻshimcha rangi boʻladi. Shu bilan ogʻzaki nutqqa xos soʻzlardan ajralib turadi. Masalan: saylamoq, majburiyat, modda, farmon, jarima, isbot, mazkur, shaxsan, cheksiz, buyuk, dargoh; ijozat, burch, bevosita, tabrik, boshchilik, erishmoq; zangori, ajoyib, sokin, mayin, chegara, jamol, ishq; diloʻvar, osha, ajdar, dev, zoʻravon; ekspluatator, ilgʻor, kolots, musobaqa, novator, sirdoshlik, doʻstlik, tinchlik va boshqalar.

Ammo ilmiy-texnik terminlar, tarixiy soʻzlar, professional soʻzlar va shu kabilar asosan, emotsional ottenkasiz boʻladi. Hatto avval emotsional ottenkasi bor boʻlgan soʻz ham termin tusiga kirgach emotsionalligini yoʻqotadi. Buning oʻrniga "kitobiylik" ottenkasi paydo boʻladi. Masalan, kichik tilcha lotincha (anatomya sohasida), mushtcha, yubka (avtomashina detallari), batrak (tojikcha-forscha badrag) kabi.

Tekshirish savollari:

1. Emotsional-ekspressiv leksika nima?
2. Emotsional-ekspressiv boʻyoqsiz soʻzlarni qanday tushunasiz?
3. Emotsional-ekspressiv boʻyoqdor soʻzlarni-chi?
4. Stilistik neytral leksika haqida ma'lumot bering.
5. Uslubiy chegaralangan leksikani tushuntiring.

Tayanch soʻzlar: Emotsional-ekspressiv leksika, Stilistik neytral leksika, emotsional-ekspressiv boʻyoqsiz soʻz, emotsional-ekspressiv boʻyoqdor soʻz .

Maʼruza: Frazzeologiya haqida tushuncha. Frazzeologik iboralarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari

Reja:

1. Frazzeologiya haqida umumiy maʼlumot.
2. Erkin soʻz birikmasi
3. Turgʻun soʻz birikmasi
4. Frazzeologik iboralarning tuzilishi va maʼno xususiyatiga koʻra turlari.
5. Frazzeologizmlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari:
6. Frazzeologiyada umumiy va chegaralangan qatlam

Foydalangan va mustaqil oʻqishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6 va boshqalar.

Nutqda ikki yoki undan ortiq soʻzlarning oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishidan tuzilgan birikmalar qoʻllaniladi.

Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mavjud boʻladi. Ular bir-biridan oʻziga xos belgilari bilan farq qiladi.

Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil soʻzdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday soʻz birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi soʻzlarning maʼnosi asosida yuzaga keladi: qiziqarli asar. Bunday soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlar ayrim-ayrim soʻzlarga ajrala oladi: qiziqarli asar – zerikarli asar. Shuning uchun ular *erkin soʻz* birikmasi deb yuritiladi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud: *og'zi qulog'ida*. Demak, so'z birikmalari ikki xil: a) erkin so'z birikmasi; b) turg'un so'z birikmasi. Turg'un birikmalar ikki xil: a) birikmali atamalar; b) iboralar.

Tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalar ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Birikmalargina emas, ayrim gaplar ham ibora holiga kelib qolishi mumkin: *Ishtahasi ochildi. Dili siyoh bo'ldi*.

Iboralarning barchasi ko'chma ma'no ifodalaydi va ularda emotsionallik so'zga nisbatan kuchli bo'ladi. Shuning uchun iboralar nutqning ifodalaligini va ta'sirchanligini oshiradi. Tilning iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya, iboralar yig'indisi esa frazeologizm deb yuritiladi. Iboralar o'rtasida ham o'zaro sinonimlik, antonimlik, omonimlik hodisasi bo'lishi mumkin.

Tilning lug'at tarkibida xuddi so'z singari maqsadga muvofiq tanlab ishlatish mumkin bo'lgan, shu tilda so'zlashuvchi har bir kishining xotirasida bir butun xolda saqlanadigan *til biriktirmoq, dili siyoh bo'lmoq, obro'si ko'tarilmoq, nog'orasiga o'ynamoq, ko'ngli xira bo'ldi, ko'z qirini tashladi, tomdan tarasha tushganday, yostiقدan bosh ko'tarmoq* kabi iboralar ham mavjud.

Bu tipdagi iboralar frazeologizmlar deb, ularni o'rganadigan soha frazeologiya deb ataladi. Frazeologik iboralar (frazeologizmlar) birinchidan, tilda bir qolipda ishlatilaverib, bo'linmaydigan (bir butun) holga kelib qolgan bo'ladi. Ikkinchidan, ibora tarkibida eng kamida ikkita so'z qatnashadi. Uchinchidan, ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lgani uchun obrazlilikka boy bo'ladi.

Tilning lug'at sostavidagi so'zlar ham, frazeologik iboralar ham til birliklari sanaladi. Shu jihatdan ular quyidagi umumiy xususiyatlarga ega: 1.Ibora bir butun holda bir umumiy tushunchani bildiradi, shuning uchun ham u ma'no jihatdan ko'pincha bitta so'zga teng keladi. Masalan: ko'ngli ko'tarildi-xursand, kapalagi uchib ketdi qo'rqdi, lom-mim demadi-indamadi. 2.Ibora ma'no va grammatik jihatdan ma'lum bir so'z turkumiga mos keladi, shuning uchun xam u bir butun holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi va gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan: Hamma ishlaridan ko'ngli to'q bo'lganidan (to'ldiruvchi) ikki kun ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi. (U.U). Gap qaytarishga (to'ldiruvchi) o'zingiz majbur qildingiz. (S.Z). Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi (kesim). (P.T). 3.Ibora o'z strukturasi va tarkibidagi so'zlarning joylashish o'rni (tartibi)ga barqaror bo'ladi. Masalan, xamir uchidan patir, chuchvarani xom sanamoq. Shu sababli xam ibora tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirib bo'lmaydi. (Masalan, xom chuchvarani sanamoq, patir uchidan xamir kabi). Ammo frazeologizmlar tarkibidagi ayrim so'zlar turli grammatik shakllarda qo'llanishi (ko'ngli ko'tarildi- ko'nglini ko'tardi, nog'orasiga o'ynadi-nog'orasiga o'ynatdi kabi), ba'zan so'zlar boshqa so'z bilan almashtirilishi (masalan, istarasi issiq - yulduzi issiq, ichi achidi - yuragi achidi kabi). So'zlar orasiga boshqa so'z kiritilish (masalan, ko'ngli ko'tarildi-ko'ngli tog'day ko'tarildi, to'nini teskari kiydi-to'nini juda teskari kiydi) mumkin.

Frazeologik iboralarning struktura va ma'no xususiyatiga ko'ra turlari. Frazeologik iboralar tuzilishi va ma'no xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

Frazeologik qo'shilma. frazeologik qo'shilmalarning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan kelib chiqadi. Masalan, *gap tashlamoq, gap otmoq* (gap-o'z ma'nosida, tashlamoq, otmoq-ko'chma ma'nosida), *mehri tushdi* (mehr-o'z ma'nosida, tushdi-ko'chma ma'noda), *oyog'i tortmadi* (oyoq o'z ma'nosida, tortmadi- ko'chma ma'noda). Frazeologik qo'shilma tarkibidagi so'zlar

grammatik birikish usuli odatdagi soʻz birikmalaridan farq qilmaydi. Shuning uchun ham *kuli koʻkka sovurildi* iborasi tarkibidagi gap boʻlaklarini (ega+oʻrin xoli+kesim) ajratish mumkindek koʻrinsa-da, ammo ibora tarkibidagi soʻzlar orasidagi sintaktik aloqa doimiy (oʻzgarmas)dir, shu sababli u «*butunlay shilindi*», «*yoʻq qilindi*» maʼnosini ifodalaydi. Frazеologik qoʻshilmalarda voqelik bevosita aks ettiriladi, shuning uchun tarkibidagi ayrim soʻzlar koʻchma maʼnoda ishlatilgan boʻlsa-da, ibora butun holda koʻchma maʼnoda boʻlmaydi. Masalan, *Tojiboy gapirsa, katta-kichik ixlos bilan uning ogʻziga qaraydi*.

Frazеologik birlashmalar. Frazеologizmlarning bu turida ibora butun xolda koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi, ammo iboraning umumiy maʼnosi uning tarkibidagi soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari bilan maʼlum darajada bogʻlangan boʻladi. Masalan, oralaridan qil oʻtmaydi, tepa sochi tikka boʻldi, ogʻzi qulogʻiga etdi va b. Bunday iboralarda mubolagʻa, oʻxshatish kabi tasviriy vositalarning qoʻllanishi uning obrazlilikini, taʼsirchanligini oshiradi. Masalan: Hamma ish xamirdan qil sugʻurgandan imi-jimida xal boʻldi. Bu turdagi iboralarda soʻzlar orasidagi grammatik aloqa sezilib tursa-da, ular gap boʻlaklariga ajralmaydi, balki butun holda bitta sintaktik vazifa bajaradi. Masalan. Yulduzni benarvon uradigan yigitlar - oʻshalar (O.) 1-gapdagi yulduzni benarvon uradigan iborasi toʻldiruvchi, hol va kesimga ajralmaydi, balki butun holda bitta birikmali aniqlovchi vazifasini bajaradi. Frazеologik birlashmalar tarkibidagi soʻzlar orasiga, baʼzan soʻz kiritish, tarkibidagi soʻzlar oʻrnini oʻzgartirish, soʻzlardan birini boshqa maʼnodagi soʻz bilan almashtirish mumkin. Masalan, *Yuragida kiri yoʻq, koʻnglida kiri yoʻq, qildan qiyiq axtarmoq-qildan qiyiq qidirmoq*. 4. Frazеologik chatishmalar. Frazеologizmlarning bu turida ham ibora butun xolda koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi, ammo uning maʼno tarkibidagi soʻzlarning maʼnosi bilan oʻzaro bogʻlanmaydi. Masalan, *oʻtakasi yorildi* iborasi butun holda koʻchma maʼnoni -*qattiq qoʻrqdi* maʼnosini ifodalaydi, ammo bu maʼno ibora tarkibidagi *oʻtaka(si)*, *yorildi* soʻzlarning na real, na koʻchma maʼnolari bilan bogʻliq emas. Xuddi shu singari, *yuzi shuvut boʻldi* iborasi butun holda «*uyaldi*» maʼnosini ifodalaydi, ammo bu maʼno ham iboralar tarkibidagi *yuzi shuvut* soʻzlarining maʼnolari bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Frazеologik chatishma tarkibidagi baʼzi soʻzlarning maʼnosi eskirgan (yoki unutilgan) boʻlishi mumkin. Masalan, *Gulnor doqiyunusdan qolgan kovushini kiyib, chirik paranjiga oʻralib, Yoʻlchi bilan joʻnadi* (O). Ushbu misolda qoʻllangan frazeologik ibora tarkibidagi **doqiyunus** soʻzining maʼnosi eskirgan boʻlib, u qanday maʼnoda ishlatilishi iboraning umumiy maʼnosidan anglashiladi. *Adi-badi aytishdi, obroʻsini bir pul qildi, boʻynidan soqit qildi, dong qotmoq* soʻzlari ham shunday soʻzlardandir.

Xuddi leksikada boʻlgani kabi, frazeologiyada ham omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar bor.

Omonimiya. Bir xil komponent (soʻz)lardan tuzilgan frazeologizmlar oʻzaro bogʻlanmagan (tamoman boshqa-boshqa) maʼno ifodalashi mumkin. Bu hodisa **frazеologik omonimiyadir**. Masalan: Elmurod uning gapini jiddiy, lekin ogʻirsinib tingladi. Keyin chugʻurlashib uyni **boshiga koʻtargan** bolalarga qayrildi. (P.T.) ...kun peshindan oqqanda, choʻl changini **boshiga koʻtarib**, qandaydir mototsikl chiqib qoldi. (Sh. Gʻulomov.) Siz xalqimizning baxt-saodati uchun kurashdingiz. Xalqimiz sizni hurmatlab, olqishlar bilan **boshiga koʻtaradi**. (Oydin.) Asli meni xoʻjayin oʻrgatdi. Ilgari bir qatra ogʻzimga olmas edim. (O.) Komissiya hayron boʻlib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni **ogʻziga olmas edi**. (A. Q.) Frazеologizmlar soʻzlardan tarkib topishi tufayli tilda frazeologizm - omonimlar juda kam miqdorni tashkil etadi.

Sinonimiya. Maʼnodoshlik hodisasi frazeologiya uchun ham xarakterli: kayfi buzuq - taʼbi tirriq, toqati toq boʻlmoq, sabr kosasi toʻlmoq, yaxshi koʻrmoq - koʻngil bermok

kabi: U bir qarashda yonoq suyaklari chiqqan, kampirধান yuzi tortishib, lablarining qimtinib turishidan Jonizoq otaning **ta'bi tirriq** ekanini payqadi. (S. An.) Yodgorbek, **kayfingiz buzuqroq** ko'rinadimi? (N, S.) Tojiboy o'z qiliqlari bilan uning **sabr kosasini to'ldirdi**. (P. T.) Qabulxonada kutib o'tiraverib **toqati toq bo'lgan** arzo'ylar rais oldiga kirishga intiladilar.(N. S.)

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi: tomdan tarasha tushganday — kutilmaganda, og'zi qulog'ida — xursand, joni chiqmoq — g'azablanmoq, ta'bi xira — xafa, quling urgilsin — ajoyib kabi.

Antonimiya.Qarama-qarshi ma'no ifodalovchi iboralar antonim frazeologizmlar deyiladi: *ko'kka ko'tarmoq — yerga urmoq, yuzi yorug' — yuzi shuvut, ko'ngli joyiga tushmoq — yuragiga g'ulg'ula tushmoq* kabi: Ahli majlis Otabekni **ko'klarga ko'tarib** maqtar edi. (A. Qod.) Ular ham necha yil non - qatiq bo'lgan raislarga yerga **urdilar**. (Sh. R.) G'ulomjon paxtalarning qiyg'os ochilib turganini, xali qo'shnisi terim boshlamaganini ko'rib, **ko'ngli ancha joyiga tushdi**. (M. Ism.) Rahmatilla, bir tomondan, yuragiga **g'ulg'ula tushib** va bir tomondan, ko'nglining bir burchida allanimadan bir umid paydo bo'lib, oblastga bordi. (A. Q.)

O'z va o'zlashgan qatlam. Xuddi leksikadagi kabi, frazeologiyada ham o'z va o'zlashgan qatlam bor. Frazeologiyaning asosiy qismi o'z qatlamga oid frazeologizmlardan iborat, o'zlashma qatlam kam miqdorni tashkil etadi. Lekin, birinchidan, so'z o'zlashtirishga nisbatan frazeologizmni o'zlashtirish juda kam darajada bo'lsa, ikkinchidan, frazeologizmlar o'zga tildan aynan o'zicha emas, asosan kalkalab o'zlashtiriladi. Masalan: g'isht qolipdan ko'chdi frazeologizmi tojikcha xisht az qolib barxestan frazeologizmining kalkalab o'zlashtirilganidir. Tojik va o'zbek tillarida bir xil ma'noli juda ko'p frazeologizmlar mavjudki, ularning qaysi tildan qaysinisiga o'zlashganini aniq aytish qiyin: *qanday shamol uchirdi — kadam shamol parrond, boshi toshdan bo'lsin — sarash az sang shavad, gap sotmoq — gap furo'xtan* va b. Keyingi vaqtlarda rus tilining ta'sirida xam ko'pgina frazeologizmlar paydo bo'ldi: *temirni qizig'ida bos* (*kuy jelezo, poka goryacho*), *barmoq, orasidan qaramoq* (*smotret skvoz palsi*) kabilar.

Umumiy va chegaralangan qatlam. frazeologizmlarning asosiy qismi umumiste'molga oiddir. Ilm-fan, kasb-hunar kabilarning ma'lum bir sohasidagina qo'llanuvchi frazeologizmlar yo'q darajada. Garchi ko'pgina frazeologizmlarning shakllanishi faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan bog'lansada, lekin ular umumiste'mol qatlamiga o'tib ketadi. Masalan: *pichoq suyakka yetdi, alifni kaltak deyolmaslik, xamirdan qil sug'urganday, kalavasining uchini yo'qotmoq, arpasini xom urmoq, ipidan ignasigacha, tegirmoniga suv quymoq* frazeologizmlari shunday xususiyatga ega.

Chegaralangan qatlamni asosan dialektal frazeologizmlar tashkil etadi, Masalan: Qashqadaryo oblasti. shevalaridan: *etini yeganday bo'lmoq* (juda och qolmoq), *andar-mandarshi chiqarmoq* (vayron qilmoq), *g'ujura qaynamoq* (g'ayratga to'lmoq); Toshkent oblasti shevalaridan: *toqi chalmoq* (biror ishni hammaga ovoza, oshkor qilmoq), *tandirni qizig'ida yopmoq* (*temirni qizyg'ida bosmoq*), *tirnog'iga g'arov yugurtirmoq* (*qattiq azoblamoq, terisiga somon, tiqmoq*), *tili tanglayiga yopishmoq* (*gapirmay turib olmoq*) kabilar.

Tekshirish savollari:

1. Frazeologiya nimani o'rgatadi?
2. Frazeologik ibora yoki frazeologizmlar deganda nimani tushunasiz?
3. Frazeologizmlar so'zlardan qanday farq qiladi? Qaysi xususiyatlari bilan so'zga o'xshaydi?

4. Frazeologizmlarning odatdagi soʻz birikmalaridan farqi nimada?
5. Frazeologizmlarning qanday turlari bor?
6. Frazeologik qoʻshilma haqida tushuncha bering.
7. Frazeologik birlashmalar haqida ma'lumot bering. Misol keltiring.
8. Frazeologik chatishma nima? Misol ayting.

10-ma'ruza: Leksikografiya. Morfemika haqida umumiy ma'lumot. Morfema haqida ma'lumot. Morfema va uning turlari.

Reja:

1. Leksikografiya haqida umumiy tushuncha. Lug'atlarning turlari.
2. Umumiy va maxsus lug'atlar.
3. Bir tilli va ko'p tilli lug'atlar.
4. O'zbek lug'atchiligi tarixi.
5. Morfemika haqida umumiy ma'lumot. Morfema tushunchasi va uning turlari.
6. So'zning morfema strukturasidagi o'zgarish.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Leksikografiya, lug'at, lug'atchilik, ensiklopedik lug'atlar, lingvistik lug'atlar, umumiy lug'atlar, maxsus lug'atlar, tarjima lug'atlari, o'z til lug'atlari, izohli lug'at, imlo lug'ati, orfoepik lug'at, morfem lug'ati, chastotali lug'at, ters lug'at, frazeologik lug'at, sinonimlar lug'ati, terminologik lug'at, «Devonu lug'otit turk», «Abushqa» lug'ati.

Leksikografiya o'z mohiyatiga ko'ra leksikologiyaning bir bo'limini tashkil etadi va lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanadigan bilim hisoblanadi.

U lugat tarkibiga kiruvchi so'zlar, iboralar maqol va matallar, xikmatli so'zlarni yozma ravishda to'plash, ularni alfavit, ba'zan ma'no va tematik asosda ma'lum tartibda joylashtirib, turli lug'at kitoblari tuzish haqidagi ta'limotdir.

Lug'atlar xarakteriga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- 1) qomusiy (ensiklopedik lug'at) lug'atlar; 2) lingvistik lug'atlar.

Ensiklopedik lug'atlar tushuncha lug'atlari bo'lib, bularda turli ijtimoiy-snyosiy, ilmiy-texnik, adabiy-badiiy, tarixiy voqealar haqidagi tushunchalar, ishlab chiqarishning turli sohalari, borliqdagi predmet va hodisalar haqida tushunchalar izohlanadi. Shuningdek, geografik nomlar yirik fan, madaniyat, san'at arboblari haqida birmuncha to'liq ma'lumot beriladi. 14 tomdan iborat «Uzbek ensiklopediyasi» ana shunday lugatlar qatoriga kiradi. «O'zbek milliy ensiklopediyasi», «Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi», «Salomatlik ensiklopediyasi», «U kim, bu nima?» kabi lug'atlar qomusiy lug'atlar sirasiga kiradi.

So'zlarni tilshunoslik nuqtai nazardan izohlaydigan lug'atlar lingvistik lug'at deb yuritiladi.

Lisoniy lug'atlarda so'z ma'nolari, imlosi, talaffuzi, iboralar, xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. Demak, lisoniy lug'atlarda til va nutq birliklari, til kategoriyalari haqida ma'lumot berish, maqol va matal kabi janr boyliklarini to'plash maqsad qilinadi.

Lisoniy lug'atlar ham dastlab ikki turga- umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlarga bo'linadi. Umumiy lug'atlarda umumtil birliklari, ularning ma'nolari va qo'llanish xususiyatlari izohlanadi. Bunday lug'atlar bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli, izohli va izohsiz bo'lishi mumkin. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (ikki tomli, 1981), «O'zbekcha-ruscha lug'ati» (1959), «Nemischa-o'zbekcha lug'ati» (1964) va boshqalar shular jumlasidandir.

Xususiy (maxsus) lug'atlarda tilning lug'at boyligidagi birliklar ma'lum sohalar bo'yicha yoki shu tildagi ma'lum mikrosistemalar, guruhlar bo'yicha tanlab izohlanadi. «Ruscha-o'zbekcha fizik terminlar lug'ati» (M.D. Yagudev, R.X. Malin, 1952), «Ruscha-o'zbekcha matematik terminlar lug'ati» (M.Sobirov, 1952), «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (A.Hojiev, 2002), «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Sh.Raxmatullaev, 1978), «O'zbek ismlari» (E.Begmatov, 1991), «O'zbek tili

omonimlarining izohli lug'ati» (Sh.Raxmatullaev, N. Mamatov, R.Shukurov, 1980), «Ruscha-o'zbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lug'ati» (Q. Zokirov, M.M. Nabiev, O'.Pratov, H.Jamolxonov, 1963) va boshqalar shular jumlasidandir.

Lingvistik lug'atlar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lingvistik lug'atlarda lug'aviy birliklar bir tilning - o'zbek tilining o'zida izohlanadi.

Bunday lug'atlarga sinonimlar lug'ati, omonimlar lug'ati, imlo lug'atlari, dialektologik lug'atlar, izohli lug'atlar, frazeologik lug'atlar tarixiy lug'atlar kiradi. Masalan, izohli lug'at («O'zbek tilining izohli lug'ati», M.1981), imlo lug'ati (S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Axmedov «O'zbek tilining imlo lug'ati» Toshkent, 1976). Orfoepik lug'at (M.Sodiqova, U.Usmonova «O'zbek tilining orfoepik lug'ati». Toshkent. 1977), morfem lugat (A.Fylomov, A.N.Tixonov, R.Qo'ng'urov «O'zbek tili morfem lug'ati». Toshkent, 1977), sinonimlar lug'ati (A.Xojiev «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati», Toshkent 1974.), o'zlashma so'zlar lug'ati (O.Usmonov, R.Doniyorov «Ruscha internotsional so'zlar lug'ati», Toshkent 1965, 1972), frazeologik lug'at (Sh.Rahmatullaev «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati», Toshkent, 1978), antonimlar lug'ati (Sh. Raxmatullaev, A.Mamatov, R.Shukurov «O'zbek tili antonimlarining izoxli lug'ati». Toshkent, 1980) kabilar bir tilli lingvistik lug'at tiplarini tashkil etadi.

Orfoepik lug'atlarda so'zlarning orfoepik shakli bilan birga adabiy tildagi talaffuzdagi shakllari ko'rsatiladi: adabiyotchi (adabiyochchi), buloq (bulog'), kitob (kitop)..

Morfem lug'atda so'zlarning morfematik sostavi (ma'noli qismlari) ajratib ko'rsatiladi

Dil / kash ish / la

Dil / kash lik ish / la / moq

Sinonimlar lug'atda o'zaro sinonim bo'lgan so'zlar sinonimik qator sifatida berilib, ularning birlashtiruvchi va o'ziga xos xususiyatlari izohlanadi, misollar keltiriladi:

osh, ovqat, taom.

Oldin kalom, badaz taom. (maqol).

Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga. (maqol).

Antonimlar lug'atida zid tushuncha ifodalaydigan so'z va iboralar antonimik juftliklar tarzida beriladi: yig'i-kulgu, g'amgin-shod; qovoqidan qor yog'di-og'zi qulog'ida.

Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar tarjima lug'atlari bo'lib, ular boshqa tilning lug'at tarkibini o'zbek tiliga yoki aksincha o'zbek tilining lug'at tarkibini boshqa tilga tarjima qilish uchun xizmat qiladi. Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha-nemischa kabi lug'atlar kiradi.

Ikki tilli lingvistik lug'atlarda boshqa tilning lug'at tarkibiga kiruvchi so'z o'zbek tiliga yoki o'zbek tiliga oid so'z boshqa tilga tarjima qilinadi. Masalan, S.T.Anorboev, Z.M.Ma'rufov, AT.Xo'jaxonovlarning «O'zbekcha-ruscha lug'ati (1959), Ya.R.Benjaminov, T.S.Mirsoatovlarning «Nemischa-o'zbekcha lug'ati» (1964) tipidagi lug'atlar ikki tilli lingvistik lug'atlar sanaladi.

Ko'p tilli lug'atlar o'tmishda ham tuzilganligi arabcha-forscha-turkcha lug'atlardan ma'lum. Hozirgi kunga kelib ko'p tilli lug'atlar tuzish ancha jadallashdi. Chunki ko'p tilli lug'atlar hozirgi tillarni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lugʻat fan va texnika, madaniyat, umuman jamiyatning taraqqiy etib borayotganini oʻzida aks ettiradi. Lugʻatlar muhim madaniy boylikdir, chunki lugʻat nutq madaniyati, soʻzlarning maʼnolarini aniq tushunish va ularni nutqda toʻgʻri qoʻllash, savodxonlikka erishishning asosidir.

Lugʻatlar juda muhim madaniy boylikdir, chunki, lugʻat nutq madaniyati, soʻzlarning maʼnolarini aniq tushuntirish va ularni nutkda toʻgʻri qoʻllash, savodxonlikka erishishning asosidir.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixi, aslida, eski turkiy til lugʻatchiligi va arab tili lugʻatchiligi tarixi bilan uzviy bogʻliqdir. «Devonu lugʻotit turk» (1073-1074 y), «Muqaddimatul adab» (1137 y), «Kitob ul - idrok li lisanul atrak» (1312 y), «Attuhfatuz zakiyati fil lugʻatit turkiya» (13 asr) kabi asarlar arab tilida va arab tilshunosligi anʼanalarida yozilgan boʻlsa-da, ularning barchasida qadimgi turkiy til va eski turkiy til lugʻati oʻz ifodasini topgan.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixini shartli ravishda lugʻatlar yaratilgan davrlarga qarab quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Oʻzbek lugʻatchiligining qadimgi turkiy til davri.
2. Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining chigʻatoy (eski oʻzbek tili) davri.
3. Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining XIX asrning ikkinchi yarmidagi ahvoli.
4. XX asrning birinchi yarmida oʻzbek lugʻatchiligi.
5. XX asrning ikkinchi yarmida oʻzbek lugʻatchiligi.

Oʻzbek lugʻatchiligining qadimgi turkiy til davrida «Devonu lugʻotit turk»- Mahmud Qoshgʻariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari. Unda Markaziy Osiyodan Qora dengiz boʻylarigacha choʻzilgan hududda yashovchi turkiy urugʻlar, qabilalar, elatlar, ularning tillari haqida maʼlumot beriladi. Xalq ogʻzaki ijodidan namunalar keltiriladi. Bu asar arab tilidan nemis, usmonli turk va oʻzbek tillariga tarjima qilingan. Shuningdek, bu davrda yuqorida taʼkidlangan lugʻatlar yaratilgan.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining chigʻatoy (XIV- XIX asrlar) davri oʻzbek lugʻatchiligi tarixida alohida oʻrin tutadi.

XV- XVI asrlardan boshlab Alisher Navoiy ijodiga qiziqishning ortib borishi qator lugʻatlarning yaratilishiga olib keladi. Quyida shulardan ayrimlari haqida qisqacha maʼlumot beriladi.

«Badoeul lugʻat». Bu lugʻat XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Sulton Husaynning topshirigʻi bilan hirotlik Toile Hiraviy tomonidan tuzilgan. U «Oʻzbekchaforscha lugʻat» xarakterida boʻlib, mingga yaqin soʻz va iborani oʻz ichiga oladi. Lugʻatda taʼkidlanishicha, unda Alisher Navoiy sheʼriyati tilini izohlash maqsad qilingan.

«Abushqa» (XVI asr) - chigʻatoycha-turkcha izohli lugʻat. Muallifi nomaʼlum Abushqa soʻziga izoh bilan boshlanganligi uchun, lugʻat shu nom bilan atala boshlagan. Bu soʻz eski oʻzbek tilida kekxa, qari, nuroniy chol maʼnolariga ega. Lugʻat Alisher Navoiy aarlari leksikasini izohlashga asoslangan, ammo unda Navoiy zamondoshlari asrlaridan ham misollar keltirilgan.

Shuningdek, bu davrda «Lugʻati turki»- chigʻatoycha-turkcha lugʻat (XVII asrning ikkinchi yarmi), «Kelurnoma» chigʻatoycha-forscha lugʻat (XVII asrning oxiri), «Sanglah» (1760 yilda yozib tugatilgan), «Lugʻati chigʻatoy va turkiy usmoniy» (1882 yil).

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixining XIX asrning ikkinchi yarmidagi davrida Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinadi, natijada rus maʼmurlari va harbiylari faoliyatida mahalliy xalqlarning tilini oʻrganish ehtiyoji yuzaga keladi, bu hol bir qator «Ruschasartcha» va «Sartcha-ruscha» lugʻatlarning yaratilishiga sabab boʻladi.

Masalan, V. Nalivkin va M.Nalivkina. Russko-sartovskiy i sartovsko-russkiy slovar obheupotrebitelno'x slov s prilozheniem kratkoy grammatiki. Po narechiyam namanganskogo uezda. Kazan, v universitetskoy tipografii, 1884. A.V.Starchevskiy. Perevodchik s russkogo yazo'ka na sartovskiy. (Izdana pri posobii Voennogo - uchenogo Komiteta Glavnogo Shtaba). S. -Peterburg, Tipografiya i Litografiya A.Transhelya, Stremyanna, № 12, 1886 kabilar shular jumlasidandir.

XX asrning birinchi yarmida o'zbek lug'atchiligiga quyidagilar kiradi: Kiya-Bekov. Slovar i elementarnaya grammatika sartovskogo yazo'ka. -Tashkent, 1907. L.Afanasev. Slovar sartovskix slov s glavneyhimi grammaticheskimi pravilami. -Skobelev, 1908. S.A.Lapin. Normalniy russko-sartovskiy slovar s prilozheniem kratkoy grammatiki uzbeksko-russkogo yazo'ka. Izd-e. 1-Samarkand, 1914. Ashurali Zohidiy. Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at. - Toshkent—Samarqand, O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1927-1928. XX asrning 30-yillaridan so'ng O'zbekistonda lug'atchilikka yanada ko'proq e'tibor berildi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek lug'tachiligida terminologik lug'atlar bilan birgalikda «Ruscha-o'zbekcha», «O'zbekcha-ruscha» filologik lug'atlar, qomusiy lug'atlar, izohli lug'atlar, frazeologik lug'atlar, chastotali lug'at, chappa lug'at, maqol va matallar lug'ati kabi ko'plab leksikografik asarlar yaratildi. Oxirgi yillarda «Yozuv tarixidan qisqacha lug'at-ma'lumotnoma» (N.Mahmudov, 1990), «O'zbek tilining etimologik lug'ati» (Sh.Rahmatullaev, 2000), «O'zbek tilining imlo lug'ati» (Sh.Rahmatullaev, A.Hojiev, 1995), «O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati» (R.Rasulov, I.Umirov, 1997).

Nazorat topshiriqlari

- 1.Leksikografiya o'zbek tilshunosligining qaysi bo'limlari bilan bog'liq?
- 2.Lingvistik lug'atlar deb nimaga aytiladi?
- 3.Entsiklopedik lug'atlar deb nimaga aytiladi?
- 4.Umumiy lug'atlarga misollar keltiring?
- 5.Xususiy lug'atlarning xususiyatlarini aytib o'ting?
- 6.Tillarning ishtirokiga ko'ra lug'atlarning turlarini aytib bering?
- 7.Lug'atchilik tarixi haqida gapiring.
- 8.Qaysi lug'atlar bilan tanishib chiqdingiz?
- 9.«O'zbek tilining izohli lug'ati» oxirgi marta qachon chop etildi, mualliflari kimlar?
- 10.O'zbek tilining muammolari aks ettirilishi kerak bo'lgan qaysi lug'at ishlab chiqilmagan?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7.

Morfemika haqida umumiy ma'lumot. Morfema haqida ma'lumot. Morfema va uning turlari.

Reja:

1. Morfemika haqida umumiy ma'lumot. Morfema tushunchasi va uning turlari.
2. So'zning morfema strukturasidagi o'zgarish.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Morf, morfema, morfemika, o'zak morfema, o'zakdosh so'z, negiz, affiksial morfema, qo'shimcha, so'zning ma'noli qismi.

Morfemika — soʻzning maʼnoli qismlari haqida taʼlimot. Grammatikada soʻzning maʼnoli qismlari morfemalar deb yuritiladi. Masalan: **ishchilarimiz** soʻzi **ish-**, **-chi**, **-lar**, **-imiz** qismlaridan iborat. Bulardan hir biri soʻz doirasida oʻziga xos maʼno bilan qatnashadi. **Ishchilarimiz** soʻzining maʼnoli qismlarga boʻlinishidagi oxirgi chegara shu. Bu qismlar yana boʻlinadigan boʻlsa, uning maʼnosi yoʻqoladi. Demak, morfema ~ soʻzning eng kichik boʻlinmas qismi.

Morfemalar bildiradigan maʼnolar turli-tuman. Lekin asosiy xususiyatiga 2 turga boʻlinadi: **1) oʻzak morfema; 2) affiksial morfema**

Oʻzak morfema soʻzda albatta ishtirok etadigan, leksik maʼno ifodalay oladigan morfemadir. Oʻzak morfema soʻz yasaliishi uchun ham, soʻzning Biron-bir grammatik shakli yasaliishi uchun ham asos boʻla oladi: **ishchi**, **ishchan**, **ishsiz** (**ish** soʻzi yangi soʻz yasaliishi uchun asos boʻlyapti); **ishni**, **ishga**, **ishda**, **ishdan** (**ish** soʻzi kelishik shakli yasaliishi uchun asos boʻlyapti).

Affiksial morfema mustaqil leksik maʼno ifodalay olmaydigan, soʻzning leksik yoki grammatik maʼnolarning shaklanishida xizmat qiladigan morfemadir: kuchli, harakatchan, ishla, doʻstona (soʻz yasayapti); uylar, uyim, uyga (shakl yasayapti).

Soʻz tarkibida affiksial morfema (yaʼni qoʻshimcha) har doim ishtirok etavermaydi. Masalan, **ish**, **odam**, **suv**, **havo**, **daraxt**, **qush**, **tosh** va b.

Biror soʻz shakl jihatdan oʻzak yoki qoʻshimchalarga boʻlinadigandek koʻrinishi mumkin. Lekin bu soʻz qismlarga ajratilganda har bir qismning oʻz maʼnosi boʻlmasa, bir oʻzakka teng boʻladi, yaʼni uni oʻzak va affiksial morfemaga ajratish toʻgʻri boʻlmaydi. Masalan, quloqchin soʻzidagi **quloq** mustaqil maʼno ifodalaydi. Lekin undagi **-chin** elementining maʼnosi haqida gapirish qiyin, shunga koʻra uni morfema deb boʻlmaydi. Demak, **quloqchin** soʻzi morfemalarga (maʼnoli qismlarga) ajratilmaydi. Shuningdek, tirik, tiril soʻzlaridagi **-ik**, **-il** ning qoʻshimcha ekanligi bilinib turibdi. Lekin uning tir qismi biror maʼnoga ega emas. Shu jihatdan bu soʻzlarni ham morfemalarga ajratib boʻlmaydi. **Kunda**, **chindan** soʻzlaridagi **kun** va **chin** qismi hozirgi kunda mustaqil maʼno ifodalaydi. **-da** va **-dan** qismlari kelishik maʼnosini ifodalovchi soʻz shaklini yasaydi. Lekin ular kunda, chindan soʻzi doirasida oʻz maʼno va vazifasini yoʻqotgan. Shu sababli bu soʻzlar ham morfemalarga ajratilmaydi.

Oʻzak ifodalaydigan maʼno soʻzga xos leksik maʼning yadrosini tashkil etadi. Affiksning maʼnosi esa yordamchi, qoʻshimcha maʼno boʻlib, oʻzak maʼnoga nisbatan ancha umumiyliigi bilan farqlanadi. Masalan, **suvchi**, **sportchi**, **traktorchi**, **betonchi**, **dutorchi** soʻzlarida har bir oʻzak morfema (**suv**, **sport**, **beton**, **dutor**) aniq bir predmet nomini bildirgani holda, ularga qoʻshilgan **-chi** affiksi faqat umumiy maʼnoni-bajaruvchi shaxs oti maʼnosini bildiradi.

Oʻzak morfema oʻz maʼnosidan uzoqlashib, umumiy xarakterdagi maʼno ifodalaydigan vositaga, yaʼni affiksial morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, **ishxona**, **choyxona**, **doʻxtirxona**, **bosmaxona** soʻzlaridagi **xona** elementi oʻz leksik maʼnosidan uzoqlashib, biror ish-faoliyat joyi maʼnosini bildiruvchi soʻz yasovchi vositaga aylangan. Demak, bunda **xona** elementi oʻzak morfemadan koʻra affiksial morfemaga yaqin turadi. Xuddi shuningdek, **talabnoma**, **ruxsatnoma**, **taklifnoma**, **aybnoma** soʻzlaridagi **noma** elementi; **bogʻbon**, **saroybon**, **janggoh**, **ormgoh**, **oshxoʻr**, **gʻamxoʻr** soʻzlaridagi **bon**, **goh**, **xoʻr** elementlari ham aslida mustaqil maʼnoli boʻlib, hozirda affiks holiga kelgan.

Oʻzakdosh soʻzlar deb bir yasalgan turli maʼnoni bildiruvchi yangi soʻzlar nazarda tutiladi. Masalan, **gulchi**, **guldori**, **gulzor**, **gulli**, **gulsiz**, **guldori**, **gulla** kabi soʻzlar turli soʻz turkumiga oid yasovchi qoʻshimchalar gul oʻzagiga qoʻshilib yasalgandir, ular turli maʼno ifodalaydi. Bu soʻzlar uchun umumiylik faqat oʻzagining bir xil ekanligidadir.

Lekin bir soʻzga turli grammatik shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar qoʻshilsa ular oʻzakdosh soʻzlar deyilmaydi, aksincha bir soʻzning turli grammatik koʻrinishi deb ataladi. Masalan, **gullar** (grammatik koʻplik), **gulning, gulni, gulga, gulda, guldanda** (kelishik shakli), **gulim, guling, guli, gulimiz, gulingiz** (egalik shakli).

Negiz - oʻzakka soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshilishi bilan negiz hosil boʻladi. Soʻzga qoʻshiluvchi grammatik qoʻshimchalar negizga qoʻshilaveradi. Masalan, gulzorlarimizning soʻzining oʻzagi gul soʻzi boʻlsa, negizi gulzor qismi hisoblanadi, qolgan grammatik qoʻshimchalar shu qismga qoʻshilgan.

Til taraqqiyoti jarayonida, soʻzning semantik va fonetik strukturasi boʻlgani kabi, uning morfema strukturasi ham turlicha oʻzgarishlar boʻlib turadi. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin.

1. Ikki oʻzak morfema bir oʻzak morfema holiga keladi. **Bugun-bukun.**

2. Aslida oʻzak morfemaga teng bulgan qism oʻz mustaqilligini yoʻqotib. Affiks bilan bir butun holda oʻzak morfemaga aylanadi. Masalan, **yuksak, yuksal** soʻzlaridagi -k va -l ning affiks morfema ekani sezilib turibdi. Lekin hozirgi oʻzbek tilida mustaqil qoʻllanuvchi **yuksa** leksemi yoʻq. Shu sababli yuksaklik va yuksaldi soʻzlaridagi yuksak va yuksal bir butun holda oʻzak morfema sanaladi. Aslida yuksa ning oʻzi ham ikki morfemadan -yuk («yuqori» maʼnosida) oʻzak morfemadan va feʼl yasovchi **-sa** affiks morfemadan iborat boʻlgan.

3. Soʻz tarkibida mustaqil maʼnoli qism ajralib (koʻrinib) tursa-da, lekin unga qoʻshilgan qism affiksga xos maʼno va vazifaga ega boʻlmaydi. Shu sababli bunday soʻzlar ham morfemalarga ajratilmaydi: biron (biror), bezor kabilar.

4. Soʻz tarkibida yuz bergan fonetik oʻzgarish natijasida oʻzak morfema bilan affiks morfema oʻrtasidagi aloqa sezilarsiz holga keladi. Masalan, qattiq soʻzi aslida qot (qotmoq) oʻzagiga -iq affiksining qoʻshilishidan yasalgan (qiyoslang: yumshoq). Lekin **got** va **qattiq** soʻzlaridagi o va a tovushining orttirilishi bu soʻzning **qot** soʻziga aloqasini sezilarsiz darajaga keltirib qoʻygan. Natijada **qattiq** soʻzi morfemalarga ajratilmaydigan boʻlib qolgan.

5. Biror yordamchi soʻz yoki uning biror shakli affiksga aylanadi. Masalan, boryapti, ishlayapti shaklidagi **-yap** affiksi aslida **yot** koʻmakchi feʼlining ravishdosh shaklidan kelib chiqqan: **-yotib// -yatip-yap.**

6. Aslida mustaqil morfema hisoblangan birdan ortiq affiks bir affiks holiga keladi. Masalan, ukamniki, maktabniki soʻzlaridagi -niki affiksi tarixan mustaqil -ning va -ki affikslaridan iborat boʻlgan.

Bundan tashqari oʻzakka turli qoʻshimchalar qoʻshilganda baʼzan oʻzak negizda, baʼzan qoʻshimchaning tarkibida tovush oʻzgarishi sodir boʻladi.

Bu hodisalar 3 xil boʻladi:

1) tovush almashinuvi:

a) unli tovushlar almashinuvi:

Son + a = sana, ong + la = angla, sayla + v = saylov, oʻqi + v = oʻquv, sovi + q = sovuq;

b) undosh tovushlar almashinuvi: elak + i = elagi, kurak + i = kuragi, quloq + i = qulogʻi, quloq + ga = quloqqa.

2) tovush tushishi:

a) unli tovushlar tushishi: shahar + i = shahri, ikki + ov = ikkov, oʻyin + a = oʻyna, ulugʻ + ay = ulgʻay;

b) undosh tovushlar tushishi: men + ning = mening, past + ay = pasay, sust + ay = susay.

3) tovush orttirilishi:

Ko'rsatish olmoshlari: u, bu, shu kabilarga **-ga, -da, -dan, -day, -dek, -cha**, gacha qo'shimchalari qo'shilganda bir **n** tovushi orttiriladi: unga, unda, undan, bunday, shundek, shungacha, shuncha kabi.

«isi» so'ziga - qo'shimchasini qo'shsak yana bir «s» tovushi orttiriladi.

O'zakka bir necha qo'shimcha qo'shilishi bilan birdan ortiq tovush hodisasi yuz beradi: **Sanoqsiz: son + a - sana + q -sanoq + siz;**

Buyrug`ingiz, sarg`ish kabilar shular jumlasidandir.

Nazorat topshiriqlari:

1. Morfema nima? Morfemika-chi?
2. Qanday morfemalarni bilasiz?
3. O'zak morfema nima?
4. U affiksial morfemalardan qanday farq kiladi?
5. O'zakdosh so'z deb nimaga aytiladi.
6. Negiz deb nimaga aytiladi.
7. Morfemalarga ajratilmaydigan so'zlarga misollar ayting.
8. So'zning morfemi tarkibi deganda nimani tushunasiz.
9. Ikki o'zak morfemaning bir o'zak morfema holiga kelgan holatiga misollar ayting.
10. Biror so'z yoki shaklning affiksial morfemaga aylanish holatiga misollar keltiring.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

17-ma'ruza: Affiksial morfemalarning turlari va xususiyatlari. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi va tarixiy so'z yasalishi. So'z yasash usullari. Affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya, semantik, sintaktik-leksik, fonetik usullar bilan so'z yasalishi

Mavzu rejasi:

1. Affiksial morfemalarning turlari. Affikslarning tuzilishga ko'ra turlari.
2. Affiksial morfemalarning shakl va ma'no munosabatga ko'ra turlari.
3. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot. Hozirgi so'z yasalishi va tarixiy so'z yasalishi.
4. Affiksatsiya usuli bilan so'z yasalishi.
5. Kompozitsiya usuli bilan yangi so'z yasalishi. Abbreviatsiya usuli bilan o'zbek tilida yangi so'z yasalishi.
6. Semantik va sintaktik-leksik usulda yangi so'z hosil qilish.
7. Fonetik usulda so'z yasalishi haqida ma'lumot.
8. So'z yasalishi strukturasi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimcha, sodda qo'shimcha, murakkab qo'shimcha, omonim qo'shimchalar, sinonim qo'shimchalar, antonim qo'shimchalar, sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, aloqa munosabat shakllari.

Affikslarning har biri o'ziga xos ma'noga ega. Lekin bajaradigan vazifalariga ko'ra uch turga bo'linadi: 1) so'z yasovchi; 2) so'z o'zgartiruvchi affikslar; 3) shakl yasovchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar yangi so'z hosil qiladi, so'zning leksik ma'nosini shakllantiradi. Masalan, **yaxshilik**, **mardlik**, **ahillik** so'zlaridagi — **lik** affiksi belgi ma'nosini anglatuvchi o'zaklardan ot yasagan; **odobli**, **mazmunli** so'zlaridagi — **li** affiksi ot asosidan sifat yasash uchun xizmat qilyapti.

So'z yasovchi affikslar bir turkum doirasiga mansub yangi so'z yasashga (**bola — lik**, **sir — dosh**, **archa — zor otdan ot yasagan**) va bir turkumdan boshqa turkumdagi so'z yasashga xizmat qiladi: **gul-la**, **gap—ir**, **zavq - lan** (otdan fe'l yasalgan); **bil-im**, **suz-ma** (fe'ldan ot yasalgan). So'z yasovchi qo'shimchalar o'zbek tilida ot, sifat, fe'l va ravish turkumlarida mavjud, son va olmoshda esa so'z yasovchi affikslar mavjud emas.

Bir so'zga bir necha so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi mumkin: **betinim** so'zida **tin** -o'zak morfema, **-im** ot yasovchi affiks, **be**-sifat yasovchi affiks. Yoki **terimchi** so'zida **ter**-o'zak morfema, **-im** faoliyat jarayon oti yasovchi affiks, **-chi** shaxs oti yasovchi affiks.

So'z yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Ayrim affikslar juda ko'p miqdorda yangi so'z yasash uchun xizmat qilsa, ba'zilari kamroq, so'z yasaydi yoki so'z yasash xususiyatini hozir umuman yo'qotgan. Shunga ko'ra so'z yasovchi affikslar uch turga ajartiladi: 1) unumli affikslar; 2) kamunum affikslar; 3) unumsiz affikslar.

1. Juda ko'p yangi so'z yasashga xizmat qiladigan affikslar unumli affikslar deyiladi: **tarixchi**, **sportchi**, **ishchi**; **aqli**, **g'ayratli**, **mazmunli**; **oqla**, **yangila**, **ishla**; **moslama**, **boshqarma**; **yoshlik**, **tinchlik**, **do'stlik** kabi so'zlardagi so'z yasovchilar kiradi.

2. Kamroq soʻz yasash uchun xizmat qiladigan affikslar kamunum affikslar deyiladi: **elak**, **kurak**, **taroq**; **mehnatkash**, **zahmatkash**; **ekin**, **yigʻin**, **tugun** kabi soʻzlardagi soʻz yasovchilar kiradi.

3. Hozirgi tilda yangi soʻz yasash xususiyatini yoʻqotgan affikslar unumsiz affikslar hisoblanadi. Bu affikslar oʻzbek tilida maʼlum davrlarda yangi soʻzlar yasash uchun xizmat qilgan boʻlsa ham, hozirgi paytda tilda sanoqli soʻzlar tarkibida saqlainib qolgan: **epchil**, **dardchil**, **yugurdak**, **kekirdak** kabi soʻzlardagi soʻz yasovchilar kiradi.

Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar (ayrim darsliklarda aloqa munosabat shakllari deyiladi) yangi soʻz hosil qilmaydi, ularning vazifasi tildagi mustaqil soʻzlarni bir-biri bilan grammatik jihatdan bogʻlab soʻz birikmasi va gap hosil qilishdan iborat.

Soʻz oʻzgartiruvchi affikslar ot va fe'l soʻz turkumlarida mavjud, lekin ular vaqti bilan boshqa turkumdagi soʻzlarga ham qoʻshilishi ham mumkin. Ular oʻzbek tilida quyidagilar hisoblanadi:

- a) kelishik qoʻshimchalari;
- b) egalik qoʻshimchalari;
- c) shaxs-son qoʻshimchalari.

Ular gap hosil qiladi:

Dildora maktabdan keldi. Kutubxonaga Dildorani yubordim.

1. Kelishik qoʻshimchalari-turlovchi qoʻshimchalar deyiladi, ot va otlashgan soʻzlarga qoʻshilib ularni boshqa soʻzlar bilan grammatik aloqaga kiritish uchun qoʻllanadi. Oʻzbek tilida quyidagi kelishiklar bor:

Bosh kelishik-kim? nima? qayer? kitob, ona, qishloq.

Qaratqich kelishigi-kimning? nimaning? qayerning? kitobning, onaning, qishloqning.

Tushum kelishigi-kimni? nimani? qayerni? kitoni, onani, qishloqni.

Joʻnalish kelishigi-kimga? nimaga? qayerga? kitobga, onaga, qishloqqa.

Oʻrin-payt kelishigi-kimda? nimada? qayerda? kitobda, onada, qishloqda.

Chiqish kelishigi-kimdan? nimadan? qayerdan? kitobdan, onadan, qishloqdan.

2. Egalik qoʻshimchalari otlarga qoʻshilib narsa-buyumlarning 3 shaxsdan biriga taalluqli, qarashli ekanligini bildiradi.

I shaxs - soʻzlovchi (men, biz)

II shaxs - tinglovchi (sen, siz)

III shaxs - oʻzga kishi (u, ular)

Egalik qoʻshimchalari ham shaxsni, ham soni bildiradi:

birlik

koʻplik

I shaxs- kitobim, onam

kitobimiz, onamiz

II shaxs-kitobing, onang

kitobingiz, onangiz

III shaxs-kitobi, onasi

kitoblari, onasi

Shaxs-son qoʻshimchalari fe'llarga qoʻshilib bajarilgan ish-harakatning 3 shaxsdan biriga tegishli ekanligini bildiradi.

birlik

koʻplik

I shaxs-oʻqdim, oʻqiyman

oʻqidik, oʻqiyimiz

II shaxs-oʻqiding, oʻqiysan

oʻqidingiz, oʻqiysiz

III shaxs- oʻqidi, oʻqi

oʻqidilar

Shakl yasovchi qoʻshimchalar (ayrim darsliklarda lugʻaviy shakl yasovchilar deyiladi) soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmaydi, yangi soʻz yasamaydi, soʻzlarni bir-biriga bogʻlamaydi. Faqat soʻzlarga qoʻshimcha maʼno orttiradi. Soʻzning grammatik

ma'nosini shakllantiradi yoki unga yangi grammatik mano qo'shadi. Ularga quyidagilar kiradi:

Otlarda erkalash, kichraytirish kabi har xil ma'nolarni anglatuvchi shakl yasovchi affikslar: -cha, -gina, -choq, -loq; qizcha, qizgina, qo'zichoq, bo'taloq.

Sifat va ravishlarda moyillik -gina: - yaxshigina, tezgina, sifatlarda belgining kuchsiz ekani ma'nosini anglatuvchi shakl yasovchilar: -(i)sh, -(n)mtir: ko'kish, ko'kimtir.

Sonning ma'no turlarini yasovchi affikslar: - ta, - tacha, - lab, - ov, -ala, -(i)nchi: ikkita, o'ntacha, yuzlab, beshov, uchala, to'rtinchi.

Fe'llardagi:

- a) bo'lishsizlik qo'shimchasi -ma (borma, kelma, o'qima);
- b) zamon qo'shimchalari (o'qiyapti, o'qimoqda, o'qidi, o'qiydi, o'qimoqchi);
- v) nisbat qo'shimchalari: (yuvindi, yuvildi, yuvintirdi, yuvishdi);
- g) mayl qo'shimchalari: (o'qisam, o'qiylik, o'qigin, o'qisin);
- d) sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarini yasovchi qo'shimchalar (o'qigan, borib, o'qimoq);
- e) harakatning takroriyligi, davomlilik, kuchsnzlanishi kabi shakllarini yasovchi qo'shimchalar: kulimsiramoq, turtkilamoq, oqarinqiramoq kabi.

So'z yasovchi affikslar so'zning material qismiga leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Shakl yasovchilar esa so'zning formal qismiga kiradi. Masalan, **terimchilarimizga** so'zida **terimchi**-material qism, undan keyingi qism formal qism (so'z shakli) hisoblanadi.

O'zbek tilida qo'shimchalarning so'zlarga qo'shilishida ma'lum bir tartib mavjud. Bu holat quyidagicha: asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha.

O'quvchilarimiz so'zida **o'qi+vchi+lar+imiz** (4 ta), **maktabimizda** so'zida **maktab+imiz+da** (3 ta), **dehqonchilik** so'zida **dehqon + chilik** (2 ta) morfema mavjud.

Demak so'zning morfemalarini ya'ni, ma'noli qismlarini o'zak va qo'shimchalar tashkil qilgan ekan.

Affikslar tuzilishga ko'ra sodda yoki qo'shma bo'ladi:

- 1) sodda affikslar; 2) murakkab affikslar.

Sodda affikslar bitta qo'shimcha bir ma'noli qismni tashkil etadi, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydi. Masalan, **gulzor (-zor)**, **gulni (-ni)**, **kitoblarning (-lar, -ning)**, **ishchilarimizning (-chi, -lar, -imiz, -ning)**, **haydovchilik (-vchi, -lik)** kabilar sodda affikslardir.

Murakkab affikslar ikki va undan ortiq affikslarning birikishidan hosil bo'lgan va hozirgi kunda bir ma'noli qismga aylanib ketgan affikslardir. Masalan: **mo'lichilik (-chilik)**, **odamgarchilik (-garchilik)**, **gazlashtirish (-lashtirish)** kabi affikslar murakkab affikslar hisoblanadi.

Sodda qo'shimchalar: **Ishchi**, **do'stlik**, **gulchilik**, **dardlash**, **yugurtir**, **kelish**, **do'stlar**, **kitobcha**, **zargar**, **ishchi**, **yuzta**, **o'nta**, **kitobdan**, **o'qimoq**, **menda**, **yozmoq** kabilar.

Murakkab affikslar: **dehqonchilik**, **mardlarcha**, **yog'ingarchilik**, **yuztadan**, **o'qimoqda**, **bormoqda**, **kelmoqchi**, **yozmoqchi**.

3-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga affiksial morfemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida to'liq tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar affiksial morfemalarning ham xuddi soʻzlar kabi shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari mavjud ekanligini bilib oladilar.
2. Talabalar omonim, sinonim, antonim va koʻp maʼnoli qoʻshimchalar haqida bilib oladilar.

3-reja bayoni:

Affiksial morfemalar ham xuddi soʻzlar kabi maʼno va shakl munosabatiga egadir. Affikslarni shakl va maʼno munosabatlari koʻra 3 turga:

1) omonim affikslar; 2) sinonim affikslar; 3) antonim affikslarga ajratish mumkin.

Shaklan bnr xil boʻlib, maʼnolari oʻzaro bogʻlanmagan affikslar omonim affikslar deyiladi. Qoʻshimchalarda omonimlik hodisasi 2 xil yuz beradi.

1. Bir turdagi qoʻshimchalar doirasidagi omonimlik:

a) soʻz yasovchi qoʻshimchalarning omonimligi:

-turt**ki**, tep**ki**, koʻch**ki** (ot yasovchi **-ki** qoʻshimchasi);

-ich**ki**, kech**ki**, ust**ki** (sifat yasovchi **-ki** qoʻshimchasi).

-jiz**za** (**-a** ot yasagan), koʻtar**a** (**-a** sifat yasagan), qon**a** (**-a** feʼl yasagan);

-chiz**iq** (**-iq** ot yasagan), och**iq** (**-iq** sifat yasagan)

-qizil**cha** (**-cha** ot yasagan), fargʻonach**a** (**-cha** sifat yasagan), oʻzich**a** (**-cha** ravish yasagan).

b) soʻz oʻzgartiruvchilar omonimligi:

-onam (**-m** egalik qoʻshimchasi), oʻqidim (**-m** shaxs-son qoʻshimchasi);

-oʻquvchimiz (**-miz bizning oʻquvchimiz** egalik qoʻshimchasi);

-oʻquvchimiz (**-miz biz oʻquvchimiz** feʼlning kesimlik shakli, shaxs-son yasovchi qoʻshimcha)

v) shakl yasovchi qoʻshimchalar omonimligi:

-oʻqish, soʻzlash (**-sh** feʼlning harakat nomi shakli yasagan);

-yuvish, olib borish (**-ish** birgalik nisbat qoʻshimchasi).

-egildi (**-il** oʻzlik nisbat yasovchi), ichildi (majhul nisbat yasovchi)

2) turli qoʻshimchalar doirasidagi omonimlik:

-yigʻim, terim, bilim (**-im** ot yasovchi qoʻshimcha),

-kitobim, daftarim (**-im** egalik qoʻshimchasi);

-qaynatma (**-ma** sifat yasagan), tortma (**-ma** ot yasagan), borma (**-ma** feʼlning boʻlishsizlik shakli yasovchi);

-kitobcha (**-cha** otlardagi kichraytirish shakli yasagan), yigitcha (**-cha** ravish yasagan);

toychoq (**-choq** otlardagi erkalash shakli yasagan), maqtanchoq (**-choq** sifat yasagan).

Shaklan har xil boʻlib, bir-biriga oʻxshash yoki juda yaqin maʼno bildiruvchi affikslar sinonim affikslar deyiladi. Masalan, oʻrinsiz —nooʻrin, gulli, guldor.

Qoʻshimchalar sinonimiyasi vazifasi bir xil boʻlgan qoʻshimchalar orasida yuz beradi.

Soʻz yasovchilar sinonimligi: suvli-sersuv, baodob-odobli, oʻrinsiz-nooʻrin, savlatdor-basavlat-savlatli. Lekin gʻayratdor-sergʻayrat deya olmaymiz.

Soʻz oʻzgartiruvchilar sinonimligi:

a) qaratqich kelishigi **-ning** oʻrniga chigʻish kelishigi **-dan** qoʻshimchasi qoʻllanadi:

Oʻquvchilarning bittasi-oʻquvchilardan bittasi.

b) chiqish kelishigi oʻrnida joʻnalish, oʻrin-payt, tushum kelishigi qoʻshimchalari qoʻllanadi:

Oʻqimaganimga armon qilaman-oʻqimaganimdan armon qilaman.

Choydan ichdi-choyni ichdi.

Ekin ishlari bahordan boshlanadi- ekin ishlari bahorda boshlanadi.

v) joʻnalish kelishigi oʻrnida chiqish, oʻrin-payt, tushum kelishigi qoʻshimchalari qoʻllanadi:

Maktab yon**ga** toʻplandik-maktab yon**ida** toʻplandik.

Bu voqealarga tushunmadim-bu voqealarn**i** tushunmadim.

Kelgan**ga** xursand boʻldim-kelgan**idan** xursand boʻldim.

g) shakl yasovchi qoʻshimchalar sinonimligi: **edir-egiz**, **kelyapti-** **kelmoqda-kelayotir**.

Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar yasovchi affikslar antonim affikslar deyiladi. Masalan, suvs**iz** — suv**li**, foydali — befoyda-foydas**iz** va boshqalar. Antonim qoʻshimchalar faqat soʻz yasovchi qoʻshimchalar doirasida uchraydi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Affiksal morfemalarning xususiyatlarini ayting.
2. Affikslarning bajaradigan vazifasiga koʻra qanday turlarini bilasiz?
3. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarning oʻziga xosliklarini ayting.
4. Soʻz oʻzgartiruvchi affikslarning xususiyatlarini ayting.
5. Shakl yasovchi affikslarning xususiyatlarini ayting.
6. Sodda affikslarning xususiyatlarini ayting.
7. Murakkab affikslarning xususiyatlarini ayting.
8. Sodda va murakkab affikslarga misollar keltiring.
9. Affikslar shakl va maʼno munosabatlariga kura qaysi turlarga ajratiladi?
10. Omonim affikslar qanday affikslar?
11. Sinonim affikslar-chi?
12. Antonim affikslarning xususiyatlari nimada?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Soʻz yasalishi haqida umumiy maʼlumot. Hozirgi va tarixiy soʻz yasalishi.

Mavzu rejasi:

1. Soʻz yasalishi haqida umumiy maʼlumot.
2. Hozirgi soʻz yasalishi va tarixiy soʻz yasalishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Tub soʻz, yasama soʻz, soʻz yasalishi, hozirgi soʻz yasalishi, tarixiy soʻz yasalishi, yasovchi asos, yasovchi affiks, yasalma.

1-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalarga oʻzbek tilining soʻz yasalishi boʻlimi va uning oldiga qoʻygan vazifalari haqida tushuncha berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Talabalar soʻz yasalishi oʻzbek tilining alohida bir boʻlimi ekanligini, uning ham tilning boshqa boʻlimlari kabi oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifalari mavjud ekanligini bilib oladilar.
2. Talabalar yasalmaning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi komponentlar yaʼni, yasovchi asos va yasovchi affiks yoki yasovchi asos va yasovchi asos boʻlishi kerak ekanligini bilib oladilar.

Soʻz yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri boʻlib, u yangi maʼnoli soʻz yasalishi, soʻz yasash usullari, soʻz yasalishiga aloqador boʻlgan hodisalarni oʻrganadi.

«Soʻz yasalishi» atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qoʻllanadi: 1) tilshunoslikning soʻz yasalishi bilan bogʻliq hodisalarni tekshiruvchi boʻlimini; 2) umuman soʻz yasalishi, soʻz hosil qilinishini bildiradi.

Soʻz yasash qanday usul bilan boʻlsa-da, yangi soʻz hosil qilish demakdir: **ish+chi - ishchi**, hozir + javob - **hozirjavob**, besh yil + lik - **besh yillik** kabi.

Til taraqqiyoti jarayonida uning leksikasi, grammatik qurilishi va boshqa sohalarida boʻlgani kabi, soʻz yasalishi tiplarining faol yoki nafaolligi turli davrlarda turlicha boʻlishi yoki tarixan yasama boʻlgan soʻz hozirgi yasalish nuqtai nazaridan yasama hisoblanmasligi mumkin.

Nutqda soʻzlar tub yoki yasama shaklda qoʻllanadi.

Yasovchi affikslarga yoki yasovchi qismlarga ega boʻlmagan soʻz tub soʻz deyiladi: **inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyrak, xursand, besh, oʻn, yigirma, biz, hamma, baʼzi, bormoq, kelmoq, oʻqimoq, sekin, birga, hozir va h.k.**

Soʻz yasalishi boʻlimida soʻzlarning yasalishi uchun asos boʻladigan ikki komponent oʻrganiladi:

- 1) yasovchi asos + yasovchi qoʻshimcha -yasalma;
- 2) yasovchi asos + yasovchi asos - yasalma.

Bu erda yasovchi asos soʻzning oʻzagi baʼzan negizi ham boʻlishi mumkin. Masalan, guldun soʻzida **gul** yasovchi asos + **-don** yasovchi affiks hisoblanadi. **Xontaxta** soʻzida esa **xon** yasovchi asos + **taxta** yasovchi asos hisoblanadi.

Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan soʻz **yasama soʻz** deb yuritiladi. Masalan, **tinchlik, bogʻbon, gulzor, jonlan, birlash, koʻkar, sezgir, zavqli** soʻzlari oʻzakka yasovchi affikslar (**-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li**) qoʻshish usuli bilan yasalgan boʻlsa, **Dilorom, Durbek, Oqtepa, bilakuzuk, sohibjamol, sofdil, erksevar** soʻzlari soʻzlarni yoki soʻz shakllarini qoʻshish, biriktirish usuli bilan hosil qilingan.

Tub soʻz - tarkibida yasovchi affikslari boʻlmagan soʻzlar tub soʻzlar deyiladi. Tub soʻzlarning tarkibida soʻz oʻzgartiruvchi, shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar boʻlishi mumkin. Masalan, **gulzor** yasama soʻz boʻlsa **gullar, gullarning, gullarimizda, maktabdan, oʻqimoqchiman, bolajon** kabi soʻzlarning tarkibida qoʻshimchalar boʻlsa ham tub soʻzlardir. Chunki bu qoʻshimchalar yasovchi qoʻshimcha emas.

Hozirgi (sinxron) soʻz yasalishida - yasama soʻz yasovchi komponentlarga erkin, jonli tarzda ajraladi va har biri yaʼni yasovchi asos ham, yasovchi affikslar ham oʻzicha maʼno bildiradi.

Masalan, **terim, yigʻim, oʻrim, arrala, randala, egovla, gulla, insofsiz, odobsiz, gulsiz** kabi soʻzlarni yasovchi asos va yasovchi affikslarga erkin ajrata olamiz.

Hozirgi soʻz yasalishida kamida 2 ta yasovchi qism qatnashadi. Bulardan hech boʻlmaganda bittasi mustaqil maʼnoli boʻladi. Yasama soʻzni yuzaga keltiruvchi bu qismlar yasovchilar, ularning oʻzaro birikishidan hosil boʻlgan qism esa yasalma (yasama soʻz) deyiladi.

Tarixiy (diaxron) yasalishda yasama soʻzning maʼnosi va shu maʼnoning ifodalanish usulini yasovchi asos, yasovchi qoʻshimcha yoki yasovchi asos va yasovchi asos deya komponentlarga ajrata olmaymiz. Soʻzning aslida yasama ekanligi tarixiy kuzatishlar orqali aniqlanadi.

Masalan, **koʻrpacha**: **koʻrpa** soʻzi yotganda ustga yopiladigan, ichiga paxta yoki boshqa narsa solib tayyorlanadigan narsani, **-cha** affiksi esa kichraytirish maʼnosini bildiradi. Lekin **koʻrpacha** soʻzi «kichik koʻrpa» degan maʼnoni emas, balki ichiga paxta solib tayyorlangan, oʻtirish joyiga toʻshaladigan narsani bildiradi. Demak, **koʻrpacha** soʻzining maʼnosini uning **koʻrpa** va **-cha** qismlari maʼnosi bilan asoslab boʻlmaydi.

Shuning uchun ham **ko'rpacha** so'zining yasaliishi tarixiy yasaliish hisoblanadi. Bunda hozirgi **ko'rpacha** so'zini **ko'rpa** va **-cha** komponentlarga ajratib emas, balki uning qanday qilib shunday ma'noni ifodalovchi so'zga aylanganligini aniqlash, tekshrishi kerak. Demak, tarixiy (diaxron) so'z yasaliishi bir birlikning (ya'ni kichraytirish qo'shimchasining) butun bir so'zning tarkibiga singib ketganligini o'rganadi. Agar so'z tarkibida ikki yasovchi komponent qatnashmasa, garchi bu so'z tarkibida yasovchi affiks yoki mustaqil ma'noli yoki mustaqil ma'noli qism bo'lsada, shuningdek, so'zning ma'nosi bilan so'z yasaliishning ma'lum tipi o'rtasida aloqadorlik sezilsada, bu so'z yasama bo'la olmaydi.

Masalan, **qattiq, yumshoq, silliq** so'zlariga e'tibor bering. Bulardan **yumshoq** so'zi **yumsha** fe'lga **-q** affiksining qo'shilishidan hosil bo'lganini sezish qiyin emas (**-q** affiksining ta'sirida fe'l oxiridagi **a** tovushi **o** tovushiga o'tgan.) shuningdek, **yumshoq** so'zi bildirgan ma'noni **yumsha** va **-q** yasovchi ma'nosi bilan asoslash mumkin: **-q** affiksi predmetning fe'l anglatgan harakat natijasi sifatidagi belgisini bildiradi: **yig'iq, qisiq, yopiq, yirtiq** kabi.

Qattiq so'zi ham aslida xuddi **yumshoq** so'zi tipida yasalgan. Buni yumshoq so'zi bildirgan ma'noning yumshash harakati bilan bog'liqligi, qattiq so'zi bildirgan ma'noning qotish harakati bilan bog'liqligidan va ikkalasida bir affiksning mavjudligidan sezib olish mumkin. Lekin yuz bergan fonetik o'zgarish qattiq so'zining qot fe'li bilan bog'lanishini juda xiralashtirib, sezilmas darajaga kelitirib qo'ygan. Shuning uchun bu so'zni qismlarga ajratib bo'lmaydi.

Silliq so'zi ham shu tipda yasalgan. Lekin yasamalilik bu so'zda deyarli yo'q. Chunki hozirgi o'zbek tilida «sathini ravon qilish» ma'nosidagi sili yoki sil fe'li yo'q.

Demak, hozirgi so'z yasaliishi nuqtai nazaridan **yumshoq, iliq, o'siq** kabilar yasama so'z. Lekin **suyuq, silliq, quyuq, qattiq** so'zlari yasama so'z emas.

Ba'zi so'zlarda affiks qism borligi sezilib turadi, hatto uni boshqa affiks bilan almashtirish ham mumkin. Bu hol mazkur so'zning aslida yasama bo'lganini juda aniq ko'rsatadi: **tirik, tiril**. Lekin bularda ham mustaqil ma'noli qism (yasovchi asos) bo'lmaganidan ularni yasama so'z deb bo'lmaydi.

Xullas, u yoki bu so'zning tarkibida so'z yasovchi affiks bo'lsa, hatto bu affiks bir necha so'z tarkibida uchrasa ham, lekin so'z tarkibida mustaqil ma'noli komponent (yasovchi asos) qatnashmasa, bunday so'zlarni yasama so'z deb bo'lmaydi. Ularning yasamaligi yo tarixiy nuqtai nazardan yoki boshqa til nuqtai nazaridan bo'ladi. Masalan, **g'ovla, emakla, o'dag'ayla, tarashla** so'zlaridagi **-la** affiksining fe'l yasovchi affiksligi aniq (**ishla, gulla, randala**). Demak, bu so'zlar tarixan yasama fe'l. **Mashinist, egoist; maishiy, moddiy, siyosiy** so'zlaridagi **-ist, -iy** ham so'z yasovchi affiks. Lekin bularda ham mustaqil ma'noli komponent (yasovchi asos) mavjud emas, shuning uchun yasovchi qismlarga bo'linmaydi. Demak, yasama so'z emas. Bularning yasama so'z ekani qaysi tildan o'zlashgan bo'lsa, o'sha til nuqtai nazaridagina bo'lishi mumkin.

Ba'zi so'zlar tarkibida mustaqil ma'noli qism va yasovchi affiks borligi sezilib tursa-da, bu so'zning ma'nosini uning qismlari ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi: **bezor, oqliq, sholcha, qishloq** kabilar. Bunday so'zlarni ham hozirgi so'z yasaliishi nuqtai nazaridan yasama so'z deb bo'lmaydi.

Demak, ma'lum bir so'zning tarkibida mustaqil ma'noli qism ham yasovchi affiks ham borligi sezilib tursa-da, lekin bu so'zning ma'nosini ajralishi mumkindek ko'ringan qismlari ma'nosi bilan asoslab bo'lmasa, bunday so'z hozirgi so'z yasaliishiga kirmaydi. Bunday so'zlar yasovchi qismlarga bo'linmaydi (bularda yasovchi asos + yasovchi affiks yoki yasovchi asos + yasovchi asos holati bo'lmaydi), ularda soddalashish yuz bergan.

Qizg`in** so`zi ham soddalashishga uchragan, hozirgi o`zbek tilida **qizi, chiri, achi, sovi, isi, chuchi** kabi so`zlarning oxiridagi - **i elementining aslida yasovchi affiks bo`lgani sezilib turibdi. Lekin hozirgi o`zbek tilida shu so`zlar bildirgan ma'no bilan bog`lanadigan **qiz, chir, ach, sov, is, chuch** so`zlari yo`q. Shuning uchun **qizi, chiri, achi, sovi, isi, chuchi** so`zlari hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan tub so`z hisoblanadi. Bu fe'llarga -**k (-q, -g`)** affiksining qo`shilidan (temirni qizig`ida bos), **chirik, achchiq, sovuq, issiq, chuchuk** kabi so`zlar (sifatlar) yasalgan. **Qizg`in, chirkin** so`zlarining **chirik, qiziq** («qizigan, issiq» ma'nosida) negizlariga -**in** affiksi qo`shilishidan yasalganini sezish qiyin emas. Lekin hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan bu so`zlar **qiziq + in, chirik + in** kabi qismlarga ajralmaydi. Bu tipda yasalgan so`zlardagi -**k (-q, -g`)** va -**in** affikslari birikib bir affiks holiga kelgan. Qiyoslang: **horg`in, so`lg`in** kabi. Lekin **qizg`in, chirkin** so`zlari **qiz + g`in, chir + kin** kabi qismlarga bo`inmaydi. (Bu so`zlar **chiri + kin, qizi + g`in** tarzida yasaladi, o`zakka yasovchi affiks qo`shilganda **i** tushadi, deb asoslashga urinish ham to`g`ri bo`lmaydi. Ko`rinadiki, aslida bir necha morfemadan iborat **chirkin, qizg`in** so`zlari soddalashish natijasida hozirgi o`zbek tilida tub so`z holiga kelgan.

Nazorat topshiriqlari:

1. Tub va yasama so`zning nima farqi bor?
2. So`z yasash nima?
3. So`z yasashning qandan usullarni bilasiz?
4. Yasovchi asos nima?
5. Hozirgi so`z yasalishi haqida gapiring.
6. Tarixiy so`z yasalishi haqida gapiring.
7. Yasalma yoki yasama so`z yuzaga kelishi uchun ishtirok etadigan komponentlar haqida gapiring.
8. So`zlarning soddalashishi deb nimaga aytiladi. Misollar bilan tushuntiring.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

So`z yasash usullari. Affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya, semantik, sintaktik-leksik, fonetik usullar bilan so`z yasalishi

Mavzu rejasi:

1. Affiksatsiya usuli bilan so`z yasalishi.
2. Kompozitsiya usuli bilan yangi so`z yasalishi.
3. Abbreviatsiya usuli bilan o`zbek tilida yangi so`z yasalishi.
4. Semantik va sintaktik-leksik usulda yangi so`z hosil qilish.
5. Fonetik usulda so`z yasalishi haqida ma'lumot.
6. So`z yasalishi strukturasi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

So`z yasalishi, affiksatsiya usuli bilan so`z yasash, yasovchi qo`shimcha, qo`shma so`z, juft so`z, takroriy so`z, sintaktik-leksik usul bilan yasalgan so`z, fonetik usul bilan so`z yasalishi, qisqartma usul bilan so`z yasalishi, so`z yasalishi tahlili.

Tilda mavjud bo`lgan so`z yoki so`zlar, so`z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so`zlarni hosil qilish so`z yasalishi deyiladi.

O`zbek tilida so`z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bo`lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli. Soʻzga soʻz yasovchi affiks qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan, **paxtakor, sinfdosh, quvonch, doʻstlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, oʻyla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, koʻpincha, ertalab** va boshqalar.

Soʻz yasovchi affikslar oʻzbek tilida asosan suffiks tarzida qoʻllanib, soʻz oʻzagidan soʻng qoʻshilib keladi. Baʼzan bunday affikslar oʻzak oldiga prefiks tarzida qoʻshilib, yangi maʼnodagi soʻz yasashi mumkin. Masalan, **serhosil, serunum, badavlat, baʼmani, bemʼinnat, begʼaraz, nooʻrin, nohaq, badfeʼl, badbashara** va h.k.

Oʻzbek tilida soʻz yasovchi affikslardan tashqari, oʻz xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan **xona, noma, obod** kabi soʻz-affikslar ham mavjud. Bunday soʻz-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: **ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, Yangiobod**.

Baʼzi affikslar bir xil maʼnodagi, baʼzilari esa turli maʼnodagi soʻzlar yasaydi. Masalan, **-soz** affiksi bir xil maʼnodagi ot yasasa (**asbobsoz, soatsoz** kabi), **-chi** affiksi bir necha xil maʼnodagi otlar yasaydi (**traktorch, sportchi, neftchi; jinoyatchi, tuhmatchi**).

Oʻzga tildan oʻtgan maʼlum soʻzlar tarkibida qoʻllanuvchi affikslarni oʻzbek tili nuqtai nazaridan soʻz yasovchi affiks yoki bunday emasligini baholashda ikki holatni hisobga olish kerak. Agar bunday affiks oʻzga tildan oʻtgan soʻzdagina uchrab, oʻzbek tilida yangi soʻz yasash uchun xizmat qilmasa, bunday affiks soʻz yasovchi affiks hisoblanmaydi va u qoʻshilgan soʻz oʻzbek tili nuqtai nazardan yasama soʻz deyilmaydi. Masalan, garchi oʻzbek tilida **qonun, bashar, aksar, ayni, majbur** kabi mustaqil soʻzlar boʻlsa ham **qonuniyat, bashariyat, aksariyat, ayniyat, majburiyat** kabi soʻzlar yasama soʻz hisoblanmaydi.

Lekin **-viy** qoʻshimchasi **oilaviy, majburiy, mafkuraviy** kabi arabcha soʻzlardan tashqari **texnikaviy, zamonaviy, fizikaviy** kabi soʻzlar yasash uchun ham xizmat qiladi. Demak, bu qoʻshimcha oʻzbek tili nuqtai nazaridan ham soʻz yasovchi affiksga kiradi.

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil maʼnoli soʻz yoki soʻz shakllarining qoʻshiluv, birikuvi orqali yangi soʻz yasash kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash deyiladi. Bu usul bilan qoʻshma, ayrim juft va takroriy soʻzlar hosil qilinadi. Masalan, **guldasta, gultojxoʻroz, asalari, tomorqa, xushfeʼl, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havorang, eʼlon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gal, yonma-yon, zoʻr-bazoʻr, ketma-ket** va b.

Qoʻshma soʻz

Qoʻshma soʻzning sodda soʻzdan farqi shundaki, sodda soʻzda mustaqil maʼnoli morfema bitta, qoʻshma soʻzda esa birdan ortiq boʻladi: *terimchi, koʻkalamzorlashtirish, eslatma, tortinchoq*-sodda soʻzlar; *erksevar, belbog, tomorqa, boshpana, asalari* - qoʻshma soʻzlar.

Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli morfemadan tashkil topgan qoʻshma soʻzning biror komponenti (morfemasi) hozirgi oʻzbek tilida mustaqil maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, bu qoʻshma soʻz ham qoʻshma soʻzlik xususiyatini yoʻqotadi, yaʼni sodda soʻzga aylanadi. Bu hodisani *kechqurun* soʻzida koʻrish mumkin. Aslida qoʻshma soʻz boʻlgan **kechqurun** hozirgi til nuqtai nazaridan morfemalarga boʻlinmaydi.

Boshqa tillardan sodda soʻzlar qatori qoʻshma soʻzlar ham oʻzlashgan: *zarakunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr, aeroport* kabi. Lekin bunday soʻzlar ham hozirgi oʻzbek tilida morfemalarga ajratilmaydi. Demak, bular ham sodda soʻzlar hisoblanadi.

Qo'shma so'zning *so'z birikmasidan* farqi shundaki, qo'shma so'zning komponentlari morfema, so'z birikmasining komponentlari esa so'z bo'ladi. Shu sababli qo'shma so'zning komponentlari yaxlitligicha bir lug'aviy ma'noni ifodalaydi va qismlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi: *tuyaqush, oybolta, qo'ziqorin, xushfe'l, olib kelmoq* kabi. So'z birikmasini hosil qiluvchi komponentlar (so'zlar) lug'aviy mustaqilligini saqlaydi va ular o'rtasida sintaktik aloqa ham bo'ladi: qora sumkali (yigit), atlas ko'ylakli (qiz), o'n besh qavatli (bino), tiniq suv, ukamning daftari.

Qo'shma so'zning tarkibida mustaqil ma'no ifodalaydigan birdan ortiq morfemaning bo'lishi shart. Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qo'shma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'lning birikuvidan qo'shma so'z emas, balki ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi hosil bo'ladi: o'qib bermoq, yozib bermoq, aytib bermoq kabi birikuvlarning tarkibidagi birinchi so'z o'z mustaqilligini saqlagan, lekin ikkinchi qismlar esa yordamchi vazifada kelyapti, xolos.

Qo'shma so'zlarning qismlar bir xil so'z turkumidan bo'lishi ham mumkin, har xil so'z turkumidan bo'lishi ham mumkin:

A) oshpichoq (ot + ot), o'qariq (ot + ot), suvilon (ot + ot), olib kelmoq (fe'l + fe'l), olachipor (sifat + sifat) bir xil turkumdan yasalgan;

B) uchtepa (son + ot), ko'ksulton (sifat + ot), ko'pburchak (ravish + ot), o'rinbosar (ot + fe'l) har xil so'z turkumidan yasalgan qo'shma so'zlar.

Qo'shma so'zlar yozilishida qo'shilib yozilishi ham mumkin, ajratilib yozilishi ham mumkin. Masalan, Markaziy Osiyo borib kelmoq kabilar ajratilib yozilsa, beshiktebratar, Sirdaryo, xonqizi kabilar qo'shilib yoziladi.

Juft so'zlar

Juft so'zlar ma'no jihatdan bir - biriga mos kelib, egalik, umumiylik, jamlik ma'nosini bildiradigan so'zlar hisoblanadi. Juft so'zlarning har ikkala qismi bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi va ular yozilishida chiziqcha bilan yoziladi. (Ba'zan yuklamalar bilan ham yoziladi). Shu xususiyati bilan qo'shma so'zlardan farqlanadi. Masalan, *yaxshi-yomon, omon-eson, kecha-kunduz, bordi-keldi, kuydi-pishdi*. Juft so'zlar tarkibi jihatdan 4 xil bo'ladi:

A) har ikkala qismi ham mustaqil qo'llana oladigan juft so'zlar: *yaxshi-yomon, katta-kichik, yozin-qishin, tinch-totuv*;

B) ikkinchi qismi yakka qo'llanilmaydigan juft so'zlar: *kiyim-kechak, temir-tersak*;

V) har ikkala qismi yakka qo'llanilmaydigan juft so'zlar: *adi-badi, apil-tapil, alg'ov-dalg'ov*;

G) birinchi qismi mustaqil qo'llanilmaydigan juft so'zlar: *to's-to'polon, qo'ni-qo'shni*.

Tildagi barcha so'zlar ham juftlashavermaydi. Uning ham o'z chegaralari mavjud. Masalan,

1) bir turdagi yaqin predmetlarning nomlari: *qosh-qovoq, oltin-kumush*;

2) sinonim so'zlar: *kuch-quvvat, asta-sekin*;

3) butun va bo'lak qismlarining nomlari: *oy-kun, vaqt-soat, tog'-tosh*;

4) antonim so'zlar: *yaxshi-yomon, katta-kichik, achchiq-chuchuk* kabilar.

Tildagi juftlashgan so'zlarning barchasi ham yangi ma'no ifodalaymaydi. Masalan, *ota-ona, qovun-tarvuz, qozon-tovoq* kabi juft so'zlarda yangi ma'no yasalmaygan, aksincha so'zlarning ma'nosi umumlashgan va kengaygan.

Takroriy so'zlar

Bir so'zning ikki marta takrorlanishidan takroriy so'z hosil bo'ladi. Takroriy so'zlar chiziqcha bilan yoziladi. Ular ko'plik, davomiylik, takror kabi ma'nolarni

bildiradi. Takroriy soʻz hosil qilish uchun har ikkala soʻz bir xil shaklda boʻlishi kerak: **katta-katta, shirin-shirin, bir-bir.**

Gapda istalgan soʻzni ikki marta takrorlasangiz takroriy soʻz hosil boʻlmaydi. Chunonchi, *tishni tishga qoʻyib, toshdan toshga sakramoq, sinfdan sinfga koʻchib* kabilar takroriy soʻzlar emas. *Nomma-nom, qadam-baqadam* kabilar esa takroriy soʻzlar hisoblanadi.

Tildagi barcha takroriy soʻzlar ham yangi maʼno beravermaydi. *Yor-yor (qoʻshiq nomi), yashik-yashik (koʻp), marjon-marjon (ter), elas-elas (zoʻrgʻa)* kabilar yasama takroriy soʻzlardir.

Lekin *katta-katta, ikkita-ikkita, yura-yura, ayta-ayta* kabilar tub takroriy soʻzlardir. Chunki, bir soʻzning takroridan yangi maʼnoli soʻz tashkil topmagan.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga koʻra, bir butun holda qoʻllanadigan toʻgʻri maʼnoli turgʻun birikmalarning qismlari har xil yoʻl bilan qisqartirilib soʻz hosil qilinadi. Bu usulga koʻra yasalgan otlar qisqartma otlar-abbreviaturalar deyiladi. Abbreviatsiya usuli oʻzbek tiliga rus tilidan kirgan boʻlsada, lekin hozirgi davr nuqtai nazaridan qisqartma otlar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari asosida yasalmogʻda. *BMT - Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi, ATS - Avtomatik telefon stantsiyasi, ToshMI - Toshkent meditsina instituti, filfak - filologiya fakulteti, akademitsey - akademik litsey, peduniversitet - pedagogika universiteti* va b.

Qisqartirib soʻz yasashda birikma komponentining qisqartirilishi bir necha xil koʻrinishda boʻladi asosiy koʻrinishlari quyidagilar:

1. Birikma komponentlarining bosh harfigina olinib, qisqartma ot hosil qilinadi: *GDR, BMT, DAN, AYoQSh.*
2. Birinchi soʻzning bosh qismi, qolgan soʻzning bosh harfini olish bilan: *ToshDPU, GulDU, SamDU.*
3. Qisqartma ot birikma komponentlarining bosh qismidan tuziladi: *pedsovet, Oʻzdavnashr*
4. Aralash usul: *Oʻzteleradiokompaniya.*

Semantik usulga binoan, soʻz maʼnosida oʻzgarish roʻy berib, maʼnosi boshqa-boshqa, shaklan oʻxshash yangi soʻz hosil boʻladi: *kun - sutkaning yorugʻ qismi, kun - quyosh, planeta; koʻk - osmon, koʻk - havorangga oʻxshash rang, bir - son, birga, birdan, birda - ravish.*

Shuningdek, soʻzlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga koʻchishi natijasida ham yangi soʻz hosil boʻladi. Masalan, sifat otga oʻtadi: *oʻgʻil, qiz, chol, kampir, yosh* kabilar bugungi kunda ot soʻz turkumiga kiradi. Aslida esa bular sifat turkumiga kiradi. Masalan, *oʻgʻil bola* (qanday bola?) - *oʻgʻli keldi* (Kim keldi?).

Son ravishga oʻtadi: U soat *birga* keldi (qachon?) - U akasi bilan *birga* keldi (kim bilan?).

Turdosh ot atoqli otga oʻtadi: bahor (fasl) -Bahor (qizlarning ismi), rayhon (oʻsimlik nomi) -Rayhon (qizlarning ismi).

Sifat atoqli otga oʻtadi *oʻtkir* (pichoq) *Oʻtkir* keldi (atoqli ot), *goʻzal* shahar (sifat) - *Goʻzaldan* oldim (kimdan? atoqli ot).

Sonlar atoqli otga oʻtadi: *sakson* qop olma (qancha?) *Saksonboy* ota (kim?), *oltmish* kilo (*Oltmishboy* ota yaxshi dehqon).

Feʼlining atoqli otga aylanashi: Oʻrnidan turdi (nima qildi)- Turdiqul, daftar sotib oldi (nima qildi?)- Sotiboldi keldi (kim keldi).

Yoki aksincha, atoqli otlar turdosh otga aylanadi: Rentgen - rentgen nurlari, Xosiyatxon-xosiyatxon atlaslari.

Sintaktik-leksik usulda avval soʻz birikmasi boʻlgan qismlar vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzga aylangan: tokning qaychisi-tokqaychi, mingning boshi-mingboshi, belning bogʻichi -belbogʻ, qoʻlning qopi-qoʻlqop.

Bunda soʻz birikmasining tarkibidagi bosh va ergash soʻz oʻzaro sintaktik aloqasini yoʻqotib, ikki lugʻaviy birlik bir lugʻaviy birlikka aylanib ketgan.

Fonetik usul. Bu usulga koʻra, soʻzda fonetik oʻzgarish yuz berib, yangi soʻz hosil qilinadi. Chunonchi, soʻz urgʻusining oʻrnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa soʻz turkumiga doir soʻzlar hosil boʻlishi mumkin: yoʻzma - feʼl, yozmaʼ - sifat, suʻzma - feʼl, suzmaʼ - ot, fiʼzik - ot, fiziʼk - sifat, akadeʼmik - ot, akademiʼk - sifat va b.

Bundan tashqari tovush oʻzgarishi natijasida ham yangi soʻzlar hosil boʻladi: *boʻz-boʻr, togʻ-tosh, tol-toj, tob-top*.

Soʻzlar tarkibidan tutuq belgisining tushishi natijasida ham yangi soʻz hosil boʻladi: *saʼva-sava, qalʼa-qala, surʼat-surat, sheʼr-sheer* kabilar;

Soʻz tarkibidan ikki qoʻsh undoshdan birining tushishi natijasida ham yangi soʻz hosil boʻladi: *qattiq-qatiq, tilla-tila*.

Fonetik va semantik usul hozirgi oʻzbek tili nuqtai nazaridan nafaol tarixiy soʻz yasash usullari deb qaraladi.

Yasama soʻzning tahlilida yasama soʻzning yasovchi komponentlari belgilanadi, yaʼni soʻz qismlarga ajratiladi. Shuningdek, soʻz morfologik strukturasi jihatdan ham tahlil etiladi. Bundan tashqari, soʻz morfema nuqtai nazaridan ham tahlil etiladi. Lekin soʻzning soʻz yasalishi strukturasi morfema strukturasi ham, morfologik strukturasi ham farqlanadi.

Soʻzning soʻz yasash strukturalari shu soʻzning yasovchi komponentlaridan iborat boʻladi. Soʻz yasash tahlilida yasama soʻzning qanday yasovchi komponentlardan tashkil topgani va shu komponentlar asosida yasama soʻz maʼnosining ifodalanish usuli oʻrganiladi. Masalan, **terim** soʻzida **ter** yasovchi asos, **-im** yasovchi affiks; **terimchi** soʻzida **terim** yasovchi asos, **-chi** yasovchi affiks.

Demak, soʻz yasalishi tahlilida, birinchidan, faqat soʻz yasovchi vositalar oʻrganiladi. Bunda morfologik tahlil tekshiradigan shakl yasovchi vositalar eʼtibordan chetdan qoladi. Ikkinchidan bu tahlilda yasama soʻz tarkibida nechta oʻzak va nechta yasovchi affiks borligi oʻrganilmaydi, balki yasama soʻzni yuzaga keltirgan komponentlar belgilanadi. Masalan, **terimchi** soʻzi morfema tarkibiga koʻra uch qismga boʻlinadi (**ter** + **im** + **chi**), shu soʻzning yasovchi komponentlari nuqtai nazaridan u (**terim** + **chi**) ikkiga boʻlinadi. Chunki, **terimchi** soʻzi **ter** oʻzagidan yasalayotgani yoʻq, balki **terim** va **-chi** yasovchi komponentlari yordamida yasalgan. **Paxtakorlik** soʻzining ham morfema strukturasi bilan soʻz yasalishi strukturasi bir-biridan farq qiladi. Morfema strukturasi: **paxta** + **kor** + **lik**, soʻz yasash strukturalari: **paxtakor** + **lik**.

Yasama soʻzning asosi (soʻz yasash asosi) qoʻshma soʻz yoki soʻz birikmasiga teng boʻlishi mumkin: **belbogʻli** (belbogʻ + li), **temir yoʻlchi** (temir yoʻl + chi), **besht yillik** (besht yil + lik) kabi.

Koʻrinadiki, soʻzning morfema tahlilida uning tarkibidagi ham morfema (soʻzning maʼno bildiruvchi eng kichik boʻlagi) tekshiriladi va aniqlanadi. Bunday morfemalar soʻzda bir nechta boʻlishi mumkin: **ter** + **im** + **chi** + **lar** + **imiz** + **niki** + **da**. Soʻz yasalishi tahlilida yasama soʻzning yasovchi komponentlari belgilanadi. Bunday komponent ham bir yasama soʻzda ikkitadan oshmaydi (garchi soʻz tarkibida birdan ortiq oʻzak va soʻz yasaydigan birdan ortiq qoʻshimcha boʻlsa ham). Masalan, **bichiq**: **bich**-yasovchi asos, **-iq** yasovchi affiks; **bichiqchi**: **bichiq**-yasovchi asos, **-chi** yasovchi affiks; **unum** -**un**-yasovchi asos, **-um** -yasovchi affiks; **unumdor**: **unum**-yasovchi asos, **-dor**

yasovchi qo'shimcha. **Unumdorlik:** *unumdor*-yasovchi asos, *-lik*-yasovchi affiks va boshqalar.

Nazorat topshiriqlari:

1. So'z yasallishining abbreviatsiya usuli haqida gapirib bering.
2. Qisqartirib so'z yasash qaysi turkumlarda mavjud.
3. Qisqartirib so'z yasash tiplarini sanab bering.
4. O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida yasalgan qisqartmalarga misollar keltiring.
5. So'z yasallishining affiksatsiya usulining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
6. So'z yasovchi affikslar qaysi so'z turkumlarida mavjud?
7. Serunum so'z yasovchilar deb nimaga aytiladi?
8. Kamunum so'z yasovchilar deb nimaga aytiladi?
9. So'z yasallishining kompozitsiya usuli deb nimaga aytiladi?
10. Qo'shma so'z qanday yasaladi?
11. Qo'shma so'zning yasovchi komponentlari haqida gapiring.
12. Juft so'zlarning yasallishi haqida gapiring.
13. Juft so'zning tarkibiy qismlari haqida gapiring.
14. Takroriy so'zlarning yasallish yo'llari haqida gapiring.
15. Fonetik usulda so'z yasallishi deb nimaga aytiladi?
16. Urg'u yordamida yangi so'z hosil qiling.
17. Tutuq belgisining tushirilishi natijasida yangi so'z hosil qiling.
18. So'z yasallishining semantik usuli haqida tushuncha bering.
19. Turkumdan turkumga so'z ko'chishi haqida ma'lumot bering.
20. Sintaktik-leksik usulda so'z yasallishi haqida ma'lumot bering.
21. So'z birikmasining qo'shma so'zdan farqi nimada?
22. So'z yasallishi tahlili haqida nimalarni bilib oldingiz?
23. So'z yasallishi tahlili va morfemik tahlil o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
24. So'z yasallishi tahlili va so'zning morfologik tahlili o'rtasidagi farqli jihatlarni tushuntiring.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

11-ma'ruza: Grammatika haqida umumiy ma'lumot. Morfologiya so'z turkumlariga xos bo'lim sifatida.

Mavzu rejasi:

1. O'zbek tilining grammatika bo'limi haqida umumiy ma'lumot.
2. So'zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli.
3. So'zning grammatik kategoriyasi.
4. Morfologiya grammatikaning so'z turkumlariga xos ekanligi va tildagi so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari.
5. So'zning morfologik strukturasi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Grammatika, morfologiya, sintaksis, so'zning lug'aviy ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi, grammatik shakl, grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar, grammatik kategoriya. Morfologiya, so'z turkumi, so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari, mustaqil so'zlar turkumi, yordamchi so'zlar turkumi, so'zning morfologik strukturasi.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga grammatika bo'limi va uning vazifalari, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Grammatika qonun-qoidalar har qanday tilning asosi ekanligini va uning ikki qismdan: iborat ekanligini aytib bera oladi.

1-reja bayoni

Grammatika (grekcha: gramma - harf, o'qish va yozish san'ati) tilshunoslik fanining eng muhim bo'g'ini bo'lib, u alohida olingan har bir tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos grammatik qurilishni tekshiradigan sohadir.

Tilning grammatik qurilishi ancha barqaror qonun-qoidalar va shakllar tizimidan iborat ekanligi bilan tilning boshqa sathlaridan, jumladan uning leksikasidan, fonetik-fonologik qurilishidan farq qiladi.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'z turkumlari va ularga xos bo'lgan shakllar haqida bahs yuritilsa, sintaksisda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanib, gap, so'z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi. Shu tufayli ham u so'z turkumlarini ularning muayyan ma'nolari va grammatik mezonlari, grammatik tuzilishi jihatidan tekshiradi, so'z birikmalari hamda gaplarning bir-biriga bog'lanishini mazmun munosabatiga ko'ra (grammatik tuzilishini asos qilib olib) tekshiradi.

Ma'lumki, tildagi so'zlar alohida olinganda fikr ifodalamaydi: faqat atash xususiyatiga yoki grammatik ma'noga (yordamchi so'zlar) ega bo'ladi. Ular grammatik qonun-qoidalar asosida qo'shimchalar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi va boshqa yordamchi vositalar ko'magida ma'lum sintaktik qonuniyatlar doirasida birikib - bog'lanib kelgandagina fikr shakllanadi. Masalan, **Men maktabga boraman** gapida uchta so'z bo'lib, bu gap olmosh, ot va fe'ldan tarkib topgan. Bu so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, tuslovchi bora-**man** qo'shilib kelib, ularni bog'lagandagina gap shaklini oladi va fikr ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, so'zlarning birikib gap bo'lishida grammatik qonun - qoidalarining vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko`rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so`zni o`rganadi. Ammo leksikologiya leksik so`zni - leksemani o`rgansa, grammatika grammatik so`zni - so`zning shaklini tekshiradi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Grammatikaning bo`limlarini ayting .
2. Morfologiyani predmetini tushuntiring.
3. Grammatikaning tilshunoslikning boshqa bo`limlari bilan aloqasi haqida gapiring.

**2-savol bo`yicha dars maqsadi:** talabalarga so`zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli hamda uni ifodalovchi vositalar haqida umumiy tushuncha berish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Morfologiyada grammatik ma'no va uning turlari amal qilinishini so`zlab bera oladi.
2. So`zning lug`aviy va grammatik ma'nolari o`rtasidagi farqni tushuntirib bera oladi.
3. So`zning grammatik ma'nosini ifodalovchi vositalarni aytib bera oladi.
4. Talabalar so`zning grammatik shaklini tushuntirib bera oladilar.
5. Talabalar so`zning grammatik shaklining: affikslar yordamida yuzaga keluvchi, yordamchi vositalar bilan yuzaga keluvchi, juft va takroriy shakllari kabi turlari bor ekanligini bilib oladilar.
6. O`zbek tilida so`zlarning maxsus grammatik ko`rsatkichga ega bo`lmagan shakllari ham mavjud ekanligini bilib oladilar.

2-reja bayoni:

Leksik so`z yoki leksema ma'no va ifoda birligidan iborat bo`lganidek («kitob» leksemasining ma'nosi, yoki mazmun plani - «o`qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda plani k, i, t, o, b tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so`z, yoki so`z shakl ham grammatik ma'no ham grammatik ifoda (shakl) birligidan iboratdir. Jumladan, kitob so`zi «o`qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik tushunchalarini ham bildiradi. Bunda kitob so`zining «o`qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning *leksik ma'nosi* sanaladi va shu so`zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma'nosidir.

So`zning grammatik ma'nosi uning leksik ma'nosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi so`zlarning leksik ma'nolari turlicha, lekin grammatik ma'nolari bir xil, ya'ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, birgina leksik so`z, leksema, ma'lum leksik ma'no anglatgani holda turli shakllarda qo`llanib, har xil grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, o`qimoq fe'lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma'nolarni bildiradi: o`qiyapman so`z shakli hozirgi zamon davom fe'lining I shaxs birlik ma'nosini, o`qiyapsan so`z shakli hozirgi zamon davom fe'lining II shaxs birlik ma'nosini va h.k.

So`zning u yoki bu turkumga mansubligini ko`rsatuvchi, shuningdek, so`zning ma'lum bir grammatik shakl ifodalaydigan ma'nosi grammatik ma'no hisoblanadi. Demak, grammatik ma'no asosiy xususiyatiga ko'ra ikki turlidir:

1) Ma'lum bir so`z turkumi uchun umumiy bo`lgan ma'no (umumiy kategorial ma'no). Masalan, **qalam**, **suv**, **tosh**, **olma**, **uy**, **bog'** so`zlarining har biriga xos ma'no - leksik ma'no, ularning hammasi uchun umumiy bo`lgan ma'no, ya'ni predmet ma'nosi grammatik ma'nodir. Xuddi shu umumiy grammatik ma'no ularni bir turkumga (ot turkumiga) birlashtiradi. Shuningdek, **yaxshi**, **shirin**, **kichik**, **baland**, **oq**, **yashil**,

ko'rkam so'zlari uchun umumiy bo'lgan belgi ma'nosi va **ishla, o'rgan, sakra, kel, yedir, ushla** so'zlari uchun umumiy bo'lgan harakat ma'nosi grammatik ma'no.

2) So'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzdagi ma'no (yoki ma'nolar) ham grammatik ma'nodir. Bunday ma'no (yoki ma'nolar) so'zning maxsus shakllari orqali ifodalanadi. Masalan, **qalamim, qalaming, qalamni, qalamda qalamdan** so'zlarida egalik va kelishik shakllar ifodalayotgan ma'no **o'qidim, o'qiyapman, o'qiyman** so'zlarida zamon va shaxs - son shakllari ifodalayotgan ma'nolar grammatik ma'nolardir.

Grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari

O'zbek tilida grammatik ma'no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik ma'no so'zning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qo'shish bilan ifodalanadi: **maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi** va h.k.

2. Yordamchi so'zlardan foydalanish. Mustaqil ma'noli so'zlar yordamchi so'zlar orqali grammatik ma'noga ega bo'lishi mumkin: Daraxt mevasi bilan ko'rkam, odam - mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So'zlarni takrorlash ham grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so'zlarini takrorlash bilan ko'plik, mo'llik ma'nosi ifodlangan.

4. Suppletivizm. Bu - o'zaro bog'langan, ma'lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so'zdan foydalanish usuli. Masalan, o'zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so'zlari orqali, ko'pligi biz va siz so'zlari orqali ifodalanadi.

5. Urg'u so'zining grammatik ma'nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: akade'mik (ot), - akademi'k (sifat), yangi' (sifat) - ya'ngi (ravish), terma' (sifat) - te'rma (fe'l)ning bo'lishsiz shakli.

6. So'z tartibi. So'zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba'zan grammatik ma'no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so'zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so'z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Intonatsiya ham grammatik ma'no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma'no so'zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog'liq. Masalan: Hamma keldi. (Darak gap) - Hamma keldi? (so'roq gap) - Hamma keldi! (undov gap).

So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi shakli (ko'rinishi) so'zning grammatik shakli deyiladi. Masalan, **kitoblar** so'zida konkret bir predmet (leksik) ma'nosidan tashqari, shu predmetning ko'pligi ham ifodalanadi. Ko'plik ma'nosi leksik ma'noga qo'shiluvchi grammatik ma'no bo'lib, - **lar** affiksli shakl orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra, **kitob** so'zining ko'plik shakli hisoblanuvchi kitoblar so'zi grammatik ko'plik ma'nosini anglatadi.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki birdan ortiq grammatik ko'rsatkichli shakl bo'lishi mumkin (har bir grammatik ma'noni ifodalovchi morfema grammatik (morfologik) ko'rsatkichdir). Qiyoslang; kitob - bosh kelishik, birlik shakli: kitoblar - bosh kelishik, ko'plik shakli; kitoblarim - bosh kelishik, ko'plik, birinchi shaxs shakli; kitoblarimni - ko'plik, birinchi shaxs, tushum kelishigi shakli;

O'zbek tilida so'zlar bir grammatik ko'rsatkichli, ko'p grammatik ko'rsatkichli yoki grammatik ko'rsatkichsiz shaklda bo'lishi mumkin. Masalan: mamlakat - grammatik

ko'rsatkichsiz so'z shakli; mamlakatlari - bir grammatik ko'rsatkichli so'z shakli; mamlakatlarida - ko'p grammatik ko'rsatkichli so'z shakl.

Hozirgi o'zbek tilida so'zlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi so'zlar vositasida, so'zlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. Shunga ko'ra so'zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1). Affikslar yordamida hosil bo'luvchi shakl; uyni, uyda, uydan, uyga; o'qiyapman, o'qiyapsan, o'qiyapti kabi. Affikslar yordamida yasaluvchi shakl sintetik shakl deyiladi;

2) yordamchi so'zlar orqali hosil bo'luvchi shakl ukam uchun, park tomon, o'qib ko'r, o'qib chiq kabi. Yordamchi so'z vositasida yasaluvchi shakl analitik shakl deyiladi.

Analitik shaklning yasalishida yordamchi so'z qo'shiladigan so'zning o'zi ham biror grammatik shaklda bo'ladi: maktab uchun (maktab - bosh kelishik shaklida), maktabga qadar (maktabga - jo'nalish kelishigi shakli); tekshirib ko'rdi (tekshirib-ravishdosh shakli) va h. demak, yordamchi so'zlar so'zning ma'lum bir shaklisiga birikib, analitik shakl hosil qiladi. Bunda yordamchi so'z birikkan so'z o'zicha mustaqil shakl hisoblanmaydi, balki u yordamchi so'z bilan birlikda yaxlit bir shaklni hosil qiladi. Masalan, kela qoldi, xabarlashib turibdi birikuvlarida kela va xabarlashib mustaqil shakl emas, balki ular qol va tur ko'makchi fe'llari bilan birga bir shaklni tashkil etadi.

So'zning morfologik strukturasi (11-§ga qarang) yordamchi so'z va affikslardan hosil bo'lgan bo'lishi mumkin: tekshirib ko'ryapmiz: tekshir + ib - ko'r + yap- miz kabi:

3). Juft va takroriy shakl. Bu turdagi shakllar ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, qozon - tovoq, yaxshi - yomon juft shakllari umulashtirish ma'nosini: baland - baland (imorat), qator - qator (daraxtlar), kula - kula kabilar ko'plik, takror ma'nosini ifodalaydi.

Juft va takroriy shakllar oziga xos xususiyatga ega.

Juft shakl:

1. Ikki komponentdan tashkil topadi va har ikkala komponent bir so'z turkumidan bo'ladi; baxt - saodat, ota - ona, bo'lar - bo'lmas, erta - kech kabi.

2. Bir turkumga oid har qanday so'z juftlashavermaydi. So'zlarning juft shakl hosil qilish - qilmasligida ularning ma'no munosabati muhim rol o'ynaydi;

sinonimlar juft shakl hosil qiladi: asta - sekin, sarson - sargardon kabi; antonimlar juft shakl hosil qiladi; uzoq - yaqin, katta - kichik kabi; 3) biror turga, to'daga oid (umumiyligi bo'lgan) narsalarni bildiruvchi so'zlar juft shakl hosil qiladi: qozon - tovoq, qovun - tarvuz, ko'rpa - yostiqlik kabi.

3. Juft so'zlarning komponentlari mustaqil ma'noli so'zlar bo'lishi, shuningdek, komponentlaridan biri yoki har ikkisi leksik ma'noga ega bo'lmasligi mumkin; 1) ikkala komponenti mustaqil ma'noli bo'lgan juft shaklda jamlik, umulashtirish ifodalanadi; yor - do'st, tovoq - qoshiq, yaxshi - yomon, yosh - qari, idish - tovoq kabi;

2) bir komponenti mustaqil qo'llanmaydigan juft so'zlarda ikki hodisani ko'rish mumkin:

a) ikkala komponenti aslida mustaqil ma'noli bo'lib, hozirda komponentlaridan biri mustaqil ma'nosini yo'qotgan juft shakllar. Bunday juft shakllar umulashtirish ma'nosini ifodalaydi, ma'noni kuchaytiradi: gina - kudrat, bog' - rog', temir - tersak, to's - to'polon kabi;

b) ikkinchi komponenti birinchi komponentining fonetik o'zgarishidan iborat bo'lgan juft so'zlar: chala - chulpa, mayda - chuyda, kalta - kulta, qora - qura, avrab - savrab kabi. Juft so'zlarning bu turi hamma vaqt jamlik, umulashtirish ma'nosini ifodalaydi. Mustaqil qo'llanadigan komponent o'z ma'nosida qo'llanmasa, yangi ma'no

ifodalashi (yangi soʻz hosil boʻlishi) mumkin. Lekin bunday soʻzlar ham sanoqli darajada: mayda - chuyda (baʼzi arziyas narsalar), ora - sira kabi;

v) ikkala komponenti mustaqil maʼnoga ega boʻlmagan juft soʻzlar juda ham koʻp emas: gʻidi - bidi, oʻlda - joʻda, alpong - talpong, adi - badi, ikir - chikir, azza - bazza, apil - tapil, alang - jalang, aji - buji, apoq - chapoq, imi - jimida, lash - lush va boshqalar.

Bunday juft soʻzlarda leksik maʼno bilan birga, umumlashtirish, jamlik maʼnosining ifodalashnishi ham seziladi. (Yuqoridagi misollarga qarang.)

Takroriy shakl: leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi, takror holda qoʻllangan soʻz takroriy shakl deyiladi: *ombor-ombor* (gʻalla), *joy-joyiga* (qoʻymoq), *oʻsha-oʻsha*, *ming-ming* (tomoshabin) kabi.

Bir soʻzning takror holda (ketma-ket ikki marta) qoʻllanishi bilan soʻzning takroriy shakl hosil boʻlavermaydi, yaʼni takror holda qoʻllangan soʻz hamma vaqt ham takroriy shakl hosil qilavermaydi. Takroriy shaklda ayni bir soʻzning takror holda qoʻllanishi natijasida maʼlum grammatik maʼnolar (shu soʻzning leksik maʼnosidan yana boshqa maʼnolar) ifodalanadi. Shunga koʻra, biror maʼnoni ifodalash uchun qoʻllangan bunday takroriy soʻzlar leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi: *Quyuc yaproqlar orasidan shoda-shoda osilib, moʻralab turgan olchalar yashil gilamga nuqta-nuqta qizil gulchalar tikib qoʻyganga oʻxshab tovlanadi.* (H. N.)

Shamol bu yerda mastdi,

Gullarni qucha-qucha. (O.)

Keltirilgan misollardagi *shoda-shoda*, *nuqta-nuqta* takroriy shakllari koʻplik maʼnosini, *qucha-qucha* takroriy shakli harakatning takroriyligini bildiradi.

Ayni bir soʻz takror holda (yonma-yon) qoʻllangani bilan, uning oʻz leksik maʼnosidan boshqa maʼno ifodalanmasligi mumkin. Bunday holda takroriy shakl hosil boʻlmaydi, balki u bir soʻzning oddiy takrori hisoblanadi: *Qoʻrqma, qoʻrqma!-deb takrorladi Arslon aka.* (Yo. Shukurov.)— *E, keling, keling! Qanday boʻlib kirib qoldingiz, direktor opa?* (S. 3.)

Maʼlum boʻladiki, soʻz shakli (grammatik shakl) grammatik maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi.

Odatda, soʻzning har bir shakli (sintetik va analitik shakl) maxsus vosita (affiks yoki yordamchi soʻz) orqali hosil qilinadi (yuqorida koʻrib oʻtildi). Lekin oʻzbek tilida soʻzning maxsus koʻrsatkichga ega boʻlmagan shakllari ham bor. Masalan, otlarda koʻplik shakl -lar affiksi yordamida yasalgani holda, birlikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: *kitob* (birlik shakl) — *kitoblar* (koʻplik shakl); feʼllarda boʻlishsizlik shakl -ma affiksi orqali yasaladi. Lekin boʻlishlilikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: *ishla* (boʻlishli shakl)— *ishlama* (boʻlishsiz shakl); oʻtgan zamon feʼlining -di affiksi yordamida yasaluvchi turida birinchi va ikkinchi shaxs shakli maxsus affikslar orqali yasalgani holda, uchunchi shaxs shaklining shaxs bildiruvchi maxsus koʻrsatkichi yoʻq: *oʻqidim, oʻqiding, oʻqidi.*

Demak, soʻzning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo oʻzbek tilida soʻzlarning maxsus grammatik koʻrsatkichga ega boʻlmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar - institut Ø (birlik son);

institutda - institut Ø (bosh kelishik);

ishlama - ishla Ø (boʻlishli feʼl shakli) kabi.

Soʻzning shakllari tizimida koʻrsatkichga ega boʻlmagan soʻzning maxsus koʻrinishi nol koʻrsatkichli (Ø koʻrsatkichli) shakl deb yuritiladi. Soʻzning bunday koʻrinishi soʻz shakllari tizimida belgilanadi.

Soʻzning grammatik shakllari tizimi paradigma (yunoncha paradeima - «namuna») deyiladi.

Paradigma oʻz xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi: 1) xususiy paradigma; 2) toʻliq paradigma.

Bir turkumga oid soʻzning muayyan shakllari tizimi xususiy paradigmmani yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (kitob-kitoblar), otlardagi kelishik paradigmasi (kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan) va boshqalar xususiy paradigmalar hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalar yigʻindisi toʻliq paradigmmani hosil qiladi. Masalan, otga xos toʻliq paradigma: kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz.

3-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalarga grammatik kategoriya va uning turlari haqida tushuncha berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Grammatik kategoriya-morfologiya oʻrgatishi lozim boʻlgan taʼlimotning asosi ekanligini tushuntirib bera oladi.
2. Grammatik kategoriyaning toʻrt turi haqida bilib oladilar va uni amalda qoʻllay biladilar.
3. Turkumlar doirasida grammatik kategoriyalarni tushuntirib bera oladilar.
4. Grammatik maʼno va grammatik forma bir butun falsafiy-grammatik hodisa ekanligini gapirib bera oladi.

3-reja bayoni

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno bilan shu maʼnoni ifodalovchi shakl birgalikda grammatik kategoriyani hosil qiladi. Grammatik kategoriya soʻzlarni, soʻz shakllarni, soʻz oʻrinlarini, soʻz qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. Shunga koʻra grammatik kategoriyalarning toʻrt turi farqlanadi: 1) soʻzning grammatik kategoriyalari; 2) soʻz shakllarning grammatik kategoriyalari; 3) soʻz oʻrinlarining grammatik kategoriyalari; 4) soʻz qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

Soʻz va soʻz shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, soʻz oʻrinlari va soʻz qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyani morfologik kategoriya va sintaktik kategoriyaga ajratish mumkin.

Morfologik, grammatik kategoriyaga, birinchidan, soʻz turkumlarining oʻzi, yaʼni ot, sifat, son, feʼl kabilar kirsa, ikkinchidan, maʼlum bir turkumga xos boʻlgan kategoriyalar, yaʼni otlarga xos boʻlgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, feʼllarga xos boʻlgan boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari kiradi.

Sintaktik, grammatik kategoriyalar deyilganda, gap, gap boʻlaklari: ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqllovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

Masalan, otlarda birlik bilan koʻplik maʼnosi va shu maʼnoni ifodalovchi shakl birgalikda son kategoriyasini tashkil etadi: *kitob* — birlik (nol shakli), *kitoblar* — koʻplik. Harakatning oʻtgan, hozirgi va kelgusiga oidligi maʼnosi va bu maʼnoni ifodalovchi shakllar birgalikda feʼlning zamon kategoriyasini hosil qiladi: *keldi* — oʻtgan zamon, *kelyapti* — hozirgi zamon, *keladi* — kelasi zamon.

Ma'lum bir so'z umumiy leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no ifodalovchi shaklda bo'lishi mumkin. Lekin bu ma'no va shakl boshqa biror ma'no va shakl bilan munosabatda bo'lmasa (u bilan birlik hosil qilmasa), u holda grammatik kategoriya haqida gapirib bo'lmaydi. Masalan, -niki affiksi otlarga qo'shiladi. Lekin yangi so'z yasamaydi, balki xoslik ma'nosini ifodalovchi shakl yasaydi: *o'zirniki, ukamniki, maktabniki* kabi. Demak, bunda xoslik ma'nosi va shu ma'noni ifodalovchi shakl butunligi bor. Lekin shu ma'no va shakl qarama-qarshi qo'yilib, u bilan ma'lum birlikni hosil qiladigan boshqa bir ma'no va shakl yo'q. Shunga ko'ra, otning -niki affiksi yordamida yasaluvchi xoslik ifodalaydigan shakli bo'lsa ham, lekin otlar xoslik kategoriyasiga ega deb bo'lmaydi.

Demak, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (bir-biriga nisbatan olinishi, oppozitsiya hosil qilishi) mumkin bo'lgan ikki va undan ortiq grammatik ma'no va shu ma'nolarga xos shakllargina grammatik kategoriyaning hosil qila oladi

Nazorat topshiriqlari

1. Grammatikaning bo'limlarini ayting .
2. Morfologiyaning predmetini tushuntiring.
3. So'zning grammatik ma'nosini tushuntiring.
4. So'zning grammatik ma'nosini yuzaga keltiruvchi vositalarni aytib o'ting.
5. So'zning grammatik shakli haqida gapirib bering.
6. So'zlarning grammatik kategoriyasini tushuntiring.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

4-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga morfologiya bo'limi va uning vazifalari, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari haqida tushuncha berish, shuningdek tildagi so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlarini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. So'z turkumlari kategorial belgilar haqidagi ta'limot ekanligini ayta oladi.
2. So'zning turkumlarga guruhlash va guruhlariga ajratish mezonlarini ayta oladi.
3. O'zbek tilidagi so'z turkumlarini to'liq, tartibli sanab bera oladi.
4. So'zlarni guruhlariga turkumlash mezonlarini aytib bera oladi.
5. So'z turkumlarini umumiy kategorial grammatik ma'no ifodalovchi va shunday belgi-xususiyatlarga ega bo'lmagan so'zlar turkumlariga ajrata oladi.
6. Mustaqil so'z turkumlari va ularga xos umumiy kategorial grammatik ma'no (U K G M)larni aytib bera oladi.
7. Yordamchi so'z turkumlarining UKGM ifodalay olmasligini izohlab bera oladi.
8. Alohida so'z turkumlarining semantik-grammatik tabiatini aytib bera oladi.

4-reja bayoni

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalarini, so'zning shakllar sistemasi va shu shaklning hosil bo'lish yo'llari hamda hosil qiluvchi vositalarni o'rganadi. Demak, morfologiya so'zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. Grammatik birlik sifatida so'z grammatik ma'nosi va grammatik formasiga ega bo'ladi.

Nutqimizda mavjud so'zlar bir-biridan ma'no va grammatik xususiyatlari jihatdan farq qiladi. Shu jihatdan so'zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlariga, turkumlarga ajratiladi. So'zlarning ma'no va grammatik belgilarining o'xshashligiga qarab

guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

- 1) leksik-semantik tamoyil;
- 2) morfologik tamoyil;
- 3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor beriladi. Masalan: **tuz, non, tinchlik, daryo, tog', osmon** kabi so'zlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday so'zlar ot so'z turkumi deb nomlangan); **katta** ko'cha, **shirin** olma, **tiniqu** osmon, **ko'k** ko'ylak kabi ajratilgan so'zlar predmetning belgisini (bunday so'zlar sifat deb nomlangan), **beshta** daftar, **yuzlab** odam, **o'ntadan** o'quvchi, **ikkinchi** kurs kabilarda ajratilgan so'zlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday so'zlar son deb nomlangan); ayrim so'zlar **bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlammoq** kabi harakat va holat tushunchasini (bunday so'zlar fe'l deb nomlangan); **asta** o'qidi, **do'stona** gapirdi, **piyoda** yurdi kabi ajratilgan so'zlar esa ish-harakatning belgisini (bunday so'zlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

Chunonchi, ayrim so'zlar predmet, belgi, miqdor ma'nosini nomlab ko'rsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: **men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir** kabi (bunday so'zlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday so'zlar ham (bilan, va, ammo, uchun, chunki, albatta, yo'q, -mi, -chi, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult kabi) borki, ular mustaqil holda leksik ma'no ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi bo'la olmaydi. Bunday so'zlar hozirgi o'zbek tilida ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid so'zlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. So'zlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning ma'no xususiyati bilan bog'liq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan so'zlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan so'zlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat ma'nosini bildirgan so'zlar (fe'l) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi so'zlar (olmosh) ham morfologik jihatdan o'zgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi so'zlar (son) morfologik jihatdan o'zgarmaydi. Shuningdek, leksik ma'no anglatmaydigan so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal so'z, undov va taqlid so'zlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga ko'ra so'zlarni guruhlarga ajratish esa uning sintaktik tomoni, ya'ni qanday so'zlar bilan grammatik munosabatga kirishuvi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga ko'ra belgilanadi. Masalan: predmet ma'nosini anglatuvchi so'zlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shakllarida to'ldiruvchi va hol vazifalarida keladi: **dars** boshlandi, **odamning** ko'rki, **xatni** yozdi, **universitetda** o'qiydi kabi.

Belgi bildiradigan so'zlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi so'zlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (**to'g'ri** so'z, **beshta** bola, **ko'p** kitob, **yaxshi** o'qiydi, **birinchi** keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular o'rnida almashinib qo'llanuvchi so'zlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday so'zlar bilan birikishiga ko'ra gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (**men** gapirdim, maqsadim - **shu, bu** bino, **nimani** o'qiding, **qaerda** yashaydi kabi).

Tilda mavjud leksik ma'no ifoda etmaydigan so'zlar esa (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama) leksik ma'no ifodalovchi so'zlar orasidagi grammatik munosabatni shakllantiradi, gap yoki uning tarkibidagi ayrim so'zlarga qo'shimcha ma'no qo'shadi. Bunday so'zlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

Shuningdek, leksik ma'no ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) bo'lmasa ham, leksik gap bo'lagi sifatida yoki mustaqil holda so'z-gap sifatida qo'llana oladigan so'zlar (modal, undov, taqlid so'zlar) ham mavjud (kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur kabi).

Demak, so'zlarning gapda qanday gap bo'lagi bo'lib kelishi, uning qanday so'zlar bilan aloqaga kira olishi, ma'nosiga va grammatik shakliga bog'liqdir.

So'z turkumlari tildagi so'zlar ma'nolari, morfologik belgilari va gapda bajaradigan vazifalariga ko'ra ma'lum to'dalarga guruhlanadi. So'zlarning ma'lum grammatik ma'no, morfologik belgi va sintaktik vazifasiga qarab guruhlanga bo'linishi so'z turkumi deyiladi.

Har bir turkum o'ziga xos grammatik ma'no anglatadi va shu grammatik ma'nolarni ifodalovchi grammatik shakllarga ega bo'ladi. Jumladan, ot turkumi "predmetlik" ma'nosini (uy, bino, inson, do'stlik, sevgi, istiqloq kabi) fe'l turkumi "harakat"ni (yoz, o'qi, ishla, boshla, ichir kabi), sifat "belgi"ni (qizil, oq, yaxshi, odobli kabi), ravish holatni (tez, sekin, mo'l, oz kabi) anglatadi. So'z turkumlari ifodalayotgan bunday mavhum grammatik ma'nolar so'zlarni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek tilida so'zlar umumiy kategorial ma'nosidan tashqari konkret narsa, belgi, harakat kabilarni ataydi, ya'ni mustaqil leksik ma'no tashiydi va gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela oladi. Bunday so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Mustaqil so'zlarga xos bosh belgi biror voqea- hodisa (predmet, belgi, harakat, miqdor) haqidagi tushunchalarni ifodalaydi, demak, lug'aviy ma'no anglatadi. Ikkinchi, umumiy belgi gap bo'lagi vazifasida kelishdir. Uchunchi juz'iy, lekin muhim belgi - so'z yasash va shakl yasash va forma o'zgartish xususiyatining mavjudligidir. Morfologik belgi (kategoriya)ga ega bo'lishi barcha so'z turkumlari uchun birdek xos emas. Masalan, ot va fe'l turkumidagi so'zlar uchun har uchala hodisa - so'z yasash, shakl yasash va so'z o'zgartish (turlanish va tuslanish) mavjud bo'lsa, sifatlar uchun esa ikkitasi so'z yasash va shakl yasash xos, ravishda asosan so'z yasash, qisman shakl yasash (daraja yasalishi) bor.

Xullas, mustaqil so'zlar umumiy kategorial ma'nolariga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish.

O'zbek tilida umumiy kategorial ma'noga ega bo'lmagan so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar mustaqil lug'aviy ma'noga ega emasligi, gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela olmasligi bilan xarakterlanadi. Ular gapda turli xil grammatik ma'nolarni ifodalaydi, xolos. Shunga ko'ra bu so'zlar yordamchi so'zlar deb yuritiladi.

Yordamchi so'zlarni umumiy vazifalariga ko'ra 3 ga: ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga bo'lib qaraladi.

Ko'makchi - maqsad, sabab, vaqt, makon, vosita kabi modal ma'nolarni anglatadi: uchun, tomon, orqali, maqsadida kabilar.

Bog'lovchi - gaplar va gap bo'laklarini bog'lovchi, ular orasidagi turli grammatik aloqa_munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi: va chunki, shuning uchun kabilar.

Yuklama - so'zga va gapga qo'shimcha ma'no beruvchi so'zlardir: axir, xuddi, -u, -yu, -ku, -mi, -chi kabilar.

Tilimizda soʻzlovchining gapda ifodalanayotgan fikrga, fikrning borliqqa munosabatini koʻrsatadigan: balki, albatta, soʻzsiz, chamamda kabi soʻzlar guruhi borki, ularni bir guruhga jamlab modal soʻzlar deb yuritamiz. Modal soʻzlar tasdiq, ishonch, gumon, taxmin kabi modal ottenkalarni ifodalaydi.

Shuningdek, oʻzbek tilida turli - tuman his-tuygʻularni, xitob, chaqiriq, undash kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻzlar guruhi ham bor boʻlib, ular undov soʻzlar deb yuritiladi. Undov soʻzlar lugʻaviy maʼno (nominativ maʼno)ga ega emasligi va yordamchi soʻzlarga xos vazifada kelmasligi bilan alohida guruh tashkil qiladi: ofarin, barakallo, eh, oh kabilar.

Borliqdagi jonli va jonsiz predmetlarning ixtiyoriy-ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlari va ularning koʻrinishi hamda holatiga taqlidni bildirgan taq -tuq, yilt - yilt, lov -lov, lip-lip kabi soʻzlar guruhi borki, ular taqlid soʻzlar deb yuritiladi.

Shunday qilib tilimizda quyidagi soʻz turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish (mustaqil soʻzlar), koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama (yordamchi soʻzlar), modal, undov, taqlid soʻzlar (alohida soʻzlar)ga boʻlinadi.

Quyida ularning har biri haqida alohida - alohida toʻxtalamiz.

Nazorat savollari:

1. Hozirgi tilimizdagi soʻzlar asosan qanday belgi (meʼzon)larga koʻra turkumlarga guruhlanishini tushuntiring
2. Mustaqil soʻz turkumiga xos boʻlgan umumiy kategorial grammatik maʼnolarni tushuntiring.
3. Yordamchi soʻzlar qanday belgilarga koʻra turkumlarga guruhlanishini toping.
4. Qaysi bandedagi javoblar lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, koʻmakchi, bogʻlovchi yuklamaga aylangan?

5-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalarga soʻzning morfologik strukturasi haqida tushuncha berish hamda uning morfemik struktura va soʻz yasalishi strukturasidan farqli jihatlarini tushuntirib berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Talabalar soʻzning morfologik strukturasi bilan uning morfemik strukturasi, yasallish strukturasi oʻrtasidagi farqlarni bilib oladilar va amalda qoʻllay biladilar.
2. Soʻzning morfologik struktusi 2 komponentdan: forma yasallish uchun asos boʻlgan qism va forma yasovchi qismlardan iborat ekanligini bilib oladilar.

5-reja bayoni

Soʻzning morfologik strukturasi soʻz formasining yasallishida qatnashadigan komponentlardan iborat. Masalan, **ishlarimizni** soʻzining morfologik strukturasi ish+lar+imiz+ni dan iborat. Bunda ish-forma yasallish asosi, -lar - koʻplik formasini yasovchi, -imiz- egalik formasini yasovchi, -ni kelishik formasini yasovchi; keldik fe'lida kel-forma yasallish asosi, -di - zamon formasini yasovchi, -k- shaxs-son formasini yasovchi. Ishchilarimizni va ishladik soʻzlariga esa ishchi va ishla forma yasallish asosi, undan soʻnggi qismlar esa forma yasovchi affiksalar hisoblanadi.

Demak, soʻzning morfologik strukturasi forma yasallishida asos boʻladigan komponent bilan forma yasovchi komponentdan (affiks yoki yordamchi soʻzdan) iborat boʻladi. Forma yasallishiga asos boʻladigan qism qoʻshma soʻz yoki sodda yasama soʻz boʻlishi mumkin. Lekin soʻz yasovchi komponentlar (soʻz yasallishida ishtirok etadigan

komponentlar) soʻzning morfologik strukturasi kirmaydi. Shunga koʻra, terimchilarni soʻzi morfologik strukturasi nuqtai nazaridan, terimchi+lar+ni kabi qismlarga ajaraladi.

Soʻz shaklining asosi soʻz birikmasiga teng boʻlishi ham mumkin: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi+ning.

Soʻzning morfologik strukturasi murakkab koʻrinishli boʻlishi mumkin, yaʼni bir soʻz tarkibida birdan ortiq grammatik shakl yasovchi komponentlar (affiks yoki yordamchi soʻzlar) ishtirok etishi mumkin. Lekin soʻzning har bir formasini ikki komponent tashkil etadi: 1) shu formaning yasalishi uchun asos boʻlayotgan komponent, 2) shu formani yasovchi komponent (yordamchi soʻz yoki affiks). Masalan, **terimchilarni** soʻzida tushum kelishigi formasining yasalishi uchun asos boʻlayotgan komponent (asos) **terimchilardir**, -ni tushum kelishigi formasini yasovchi affiks. Demak, **terimchilarimizni** otining tushum kelishigi formasi ana shu ikki komponentdan iborat: 1) kelishik formasining yasalish asosi (terimchilarimiz), 2) kelishik formasini yasovchi affiks (-ni). Bu soʻzda koʻplik formasi uchun asos boʻlayotgan qism terimchidir. -lar esa koʻplik formasini yasovchi affiks. Demak, bu otning son formasining yasalishida ham ikki komponent ishtirok etadi: 1) son formasining yasalishida ishtirok etadigan asos (terimchi), 2) son formasini yasovchi affiks (-lar). Shuningdek, ishlatdik soʻzida shaxs-son formasining yasalish asosi ishlatdi, shaxs-son formasini yasovchi esa -k affiksi; zamon formasining yasalish asosi ishlat, -di zamon formasini yasovchi affiks; nisbat formasining yasalish asosi ishla, -t daraja formasini yasovchi affiks.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

12-ma'ruza: Ot soʻz turkumi. Otning grammatik ma'nosi. Otlarda son va egalik kategoriyasi

Mavzu rejasi:

1. Otning umumiy grammatik xususiyatlari.
2. Otning grammatik kategoriyalari.
3. Otlarning ma'nosiga koʻra turlari.
4. Otlarda son va egalik kategoriyasi
5. Otlarda kelishik kategoriyasi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: ot, predmetlik ma'nosi, otning sintaktik vazifasi, otning predmetlik-grammatik ma'nosi, otning ma'no turlari, atoqli va turdosh otlar, kishi va narsa otlari, sanaladigan va sanalmaydigan otlar, aniq va mavhum otlar, yakka va toʻda otlar, modda otlari, otlarda son kategoriyasi, grammatik va logik son, birlik va koʻplik shaklga ega otlar, faqat birlik shaklga ega otlar, otning egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, otning funksional shakllari.

1-savol boʻyicha dars maqsadlari: hozirgi oʻzbek adabiy tili lugʻat boyligidagi ot turkumiga oid soʻzlarning semantik-grammatik tabiati bilan talabalarni tanishtirish va ularda ot soʻzlarning grammatik kategoriyalari va funksional shakllarini oʻz nutqlarida uslubiy jihatdan toʻgʻri qoʻllash malakalarini shakllantirish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Ot va uning taʼrifini aytib bera oladi.
2. Otning predmetlik ma'nosi grammatik ma'no ekanligi, logik tushuncha emasligini ajrata oladi.
3. Otning oʻziga xos, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini ajrata biladilar.

1-reja bayoni

Predmetlik ma'nosini anglatib, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga, turli ma'no va vazifa uchun qoʻllanuvchi funksional formalarga, shuningdek, oʻziga xos soʻz yasaliş sistemasiga ega soʻzlar ot deb yuritiladi.

Ot morfologiyada katta oʻrin tutadi, chunki boshqa soʻz turkumlari otning belgi xususiyatlarini koʻrsatadi. Jumladan, sifat otning belgisini, son miqdori va tartibini, fe'l harakatini bildiradi: *katta bino, 3 - kurs, oʻnta kitob, kitobni oʻqimoq* kabi.

Predmetning nomini (keng maʼnoda) bildiruvchi mustaqil soʻz turkumiga ot deyiladi. Ot soʻz turkumiga oid soʻzlar kim? nima? kimlar? nimalar? savollaridan biriga javob beradi: *oʻqituvchi, xonanda, tilshunos - kim?, er, suv, tuz, non - nima?* kabi.

Keng maʼnoda predmet maʼnosini ifodalash otning *leksik xususiyatidir*. Predmetlik maʼnosini tirik mavjudotlar (parranda, qush, chumoli kabi), yer va osmonga oid narsalarning nomi (quyosh, oy, togʻ, tosh, daryo kabi), kundalik turmushga oid narsalarning nomi (tuz, non, choynak, qatiq kabi), oʻsimliklarning nomi (paxta, sholi, joʻxori, beda kabi), voqea-hodisa, belgi, xususiyat va munosabatlarning nomi (toʻy, anjuman, majlis, shodlik, ishonch, kurash kabi), oʻrin va vaqt nomlari (yoz, kuz, pastlik, tepalik kabi), shuningdek atab qoʻyilgan shaxs va predmet nomlari (Toshkent, Zulfiya, Sirdaryo, «Oʻqituvchi» nashriyoti kabi) ifoda etadi.

Ot shu ma'no xususiyati jihatidan ikki turga bo'linadi: turdosh otlar va atoqli otlar. Kitob, daftar, tinchlik - turdosh otlar; Samarqand, Akmal, «Qora ko'zlar» (roman), «Fan» (nashriyot) - atoqli otlar.

Ot o'ziga xos *morfologik xususiyatlarga* ega, ya'ni:

1) Ot son kategoriyasiga ega, ya'ni predmet anglatuvchi so'zlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Otlar birlik sonda yakka bir predmetni ifodalaydi: daraxt - yakka bir predmet, birlik son shaklida kelgan; daraxtlar - noaniq ko'plik son shaklida kelgan;

2) ot egalik kategoriyasiga ega, ya'ni predmetning uch shaxsdan biriga (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga shaxsga) taalluqliligini, qarashliligini, mansubligini bildiradi: mening daftarim, sening ukang, uning quvonchi kabi;

3) ot kelishik kategoriyasiga ega. Otlar oltita kelishik ma'nosiga ega bo'lib, bu kelishik shakllari otning boshqa so'zlarga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalaydi (Barnoning kitobi, kitobni o'qidi, kitobdan foydalandi kabi);

Ot o'ziga xos *sintaktik belgilarga* ham ega:

1) ot ot bilan bog'lanadi. Bosh va qaratqich kelishigidagi otlar ana shunday xususiyatga ega: *paxta g'ururimiz, farzandning baxti* kabi;

2) ot fe'l bilan bog'lanadi, ya'ni tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar fe'l bilan birikadi: *xatni o'qidi, xatga qaradi, xatda yozilgan, xatdan ko'chirdi* kabi;

3) ot ba'zan sifat, ravish, son, olmosh, taqlid va undov so'zlar bilan ham birika oladi: *osmon tiniq, uylar ko'p, beshta bola, maqsadim shu, dupur-dupur ovoz, holiga voy* kabi;

4) bosh kelishik shaklidagi ot gapda asosan, ega va kesim, ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi, izohlovchi kabi gap bo'laklari vazifasida, shuningdek, undalma, nominativ gap tarzida keladi. Masalan: O'zbekiston - kelajagi buyuk *davlat* (I.Karimov). *Olim* kishi o'zining ilmi va odobiga tayanadi. (Oz-oz o'rganib dono bo'lur). Seni ulug'layman, ey *ona* xalqim (A.O.) *Subhidam*. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi (P.Q.);

5) Qaratqich kelishigidagi ot qaratuvchi aniqlovchi vazifasida keladi: Sen *Pushkinning* sevgan malagi (A.O.);

6) tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi shaklidagi otlar to'ldiruvchi, hol, ba'zan kesim vazifasini bajaradi. Masalan: *Bayramni* munosib mehnat tortiqlari bilan nishonlashdi (S.A.). *Bog'chada* daraxtlar oltin rang bilan tovlanardi (O.). Oltin o'tda bilinadi, odam *mehnatda*. (Maqol).

Demak, otning qanday *sintaktik vazifada* kelishi uning qaysi kelishik shaklida kelishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, ot so'z turkumi *yasalish xususiyatiga* ega. Ot so'z turkumi faol so'z yasalish usullari morfologik, sintaktik va faqat ot so'z turkumi yasaydigan abbreviatsiya usuli bilan yasaladi: *xizmatchi, kulgi, taroq, gulzor, sevinch* (morfologik usul bilan); *belbog', ko'zoynak, baxt-saodat, ota-ona* (sintaktik usul); *DAN, ToshDPU* (abbreviatsiya usuli bilan) kabi.

Otlarda modal shakl yasalishi ham mavjud. Otlarda modal ma'no otning leksik ma'nosiga kichraytirish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik, kesatiq, ta'kid, umumlashtirish kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shish bilan hosil qilinadi: qizcha, qo'zichoq, bo'taloq, bolagina, Karimjon, Ra'noxon, un-pun, non-pon kabi.

Ot so'zning kim, nima, qayer olmoshlari bilan munosabatda bo'lishi, ya'ni gapda mutloq bosh bo'lak vazifasida kelishi ham uning muhim grammatik xususiyati hisoblanadi.

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at boyligidagi ot turkumiga oid so'zlarning grammatik kategoriyalari haqida tushuncha berish, nutqda uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llash malakalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar ot so'z turkumining grammatik kategoriyalar tizimini bilib oladilar.
2. Talabalar otlarning nutqda doimo son va kelishik shaklida bo'lishini bilib oladilar.

2-reja bayoni:

Ot uchta grammatik kategoriyaga ega: son, egalik va kelishik kategoriyalari. Ot nutqda doimo son va kelishik kategoriyasi shaklida bo'ladi. Bu otning nutqdagi ko'rinishidir. Egalik kategoriyasi esa otning grammatik shakllanishida doim ham qatnashavermaydi. Otning nol ko'rsatkichli formasi ham bor. Birlik formadagi otlar bir jinsdagi predmetlarning bittasini anglatadi. Nol ko'rsatkichli forma birlikdadir. Masalan, *shahar, odam, daftar, dur*. Lekin ba'zi otlar birlik formada bo'lib, ayrim predmetlarning to'dasini anglatadi: *xalq, armiya, olomon*. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deb yuritiladi. Bu otlar grammatik jihatdan birlik deb qaraladi.

3-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarni ot so'z turkumining ma'no jihatdan turlari: atoqli va turdosh otlar, shaxs va narsa otlari, yakka va to'da otlari, sanaladigan va sanalmaydigan otlar bilan tanishtirish va tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Otning ma'nosiga ko'ra tasnif mezonlarini ajratib va aytib bera oladi.
2. Otlarning atoqli va turdosh otga bo'linishi sababini biladi.
3. Otlarning shaxs (kishi) va narsa otlariga bo'linishini ayta oladi.
4. Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari haqida tushunchaga ega.

3-reja bayoni:

Otlarning ma'nosiga ko'ra turlari. Otlarni ma'nosiga ko'ra turlicha tasnif qilish mumkin: bunda otlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asosga olinadi:

- 1) bir turdagi predmetlarning umumiy nomini yoki birinchi nomini bildirishga ko'ra (atoqli va turdosh otlar);
- 2) kim yoki nima olmoshlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra (atoqli va turdosh otlar);
- 3) sanalish va sanalmasligiga ko'ra (sanaladigan: *daftar, qalam*; sanalmaydigan: *havo, bulut, un, qum, tuproq* kabi);
- 4) narsa buyumlarni alohida yoki jamlab ko'rsatishiga ko'ra (yakka va jamlovchi otlar).

Atoqli otlar. Bu xildagi predmet yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi.

Atoqli otlar atab qo'yilgan nomlardir. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kishilarning ismi va familiyalari: Murod, O'ktam, O'tkir, Mahmudov, Ahmedov kabi;
- 2) yozuvchi va shoirlarning taxalluslari: Oybek, Uyg'un, Muqimiy, Furqat kabi;
- 3) uy hayvonlariga atab qo'yilgan nomlar: Olapar, To'rtko'z, Mosh kabi;
- 4) planeta, yulduz va sayyoralarning nomi: yer, Zuhra, Etti qaroqchi, Mirrix kabi.
- 5) geografik nomlar (shahar, qishloq, tog', daryo, ko'l, cho'l, qit'a nomlari): Samarqand, Chotqol, Pomir, Ohangaron, Chirchiq, Osiy kabi;
- 6) oliy davlat va yuqori tashkilotlarning nomlari: O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Kengashi kabi;

7) ilmiy muassasalar, oliy o`quv yurtlari, vazirliklar va korxonalar nomi: Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Moliya vazirligi, Davlat banki kabi;

8) yuqori mansab, oliy faxriy unvon nomlari: O`zbekiston Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi Raisi, Bosh Qo`mondon kabi;

9) turli anjuman, hujjat va rezolyutsiyalar, tarixiy voqealar nomi: Ulug` Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Toshkent anjumani kabi;

10) fabrika, zavod, jamoa xo`jaligi, sport jamiyatlari, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal nomlari: «Sharq yulduzi» xo`jaligi, «O`rtoq» konditer fabrikasi, «Yosh kuch» sport jamiyati, «Turkiston» konsert zali, «Yulduzli tunlar» romani, «Ma`rifat» gazetasi, «Guliston» jurnali kabi.

Atoqli otlar, odatda, bosh harf bilan yoziladi, shuningdek, ko`plik son shaklida qo`llanmaydi. Shu xususiyatlari bilan turdosh otlardan farq qiladi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh ot deyiladi: *ishchi, kitob, daraxt, gul* kabi. Otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Turdosh va atoqli otlar ma'nosiga ko`ra farq qilib qolmay, ularning har biri o`zigagina xos ba'zi grammatik xususiyatlarga ham ega. Masalan, atoqli otlar faqat birlik formada qo`llanadi. Agar ko`plik formasini olsa, grammatik ko`plik emas, balki boshqa ma'no ottenkalariga ega bo`ladi: *Umidalar kelishdi* kabi. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi.

Atoqli otlar turdosh otlarga yoki aksincha, turdosh otlar atoqli otga o`tishi mumkin. Atoqli otlarning deyarli ko`pchiligi turdosh otlardan, bir qismi boshqa so`z guruhlaridan kelib chiqqan: *Rayhon, Anora, Go`zal, Sotiboldi* kabi. Ba'zi atoqli otlar turdosh otlarga aylangan: *rentgen, xosiyatxon, bo`ston* kabi. Bu otlar atoqli otlar safidan chiqib, leksik ma'no ifodalashga ko`chgan.

Turdosh otlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko`ra *aniq va mavhum* otlarga bo`linadi. To`g`ridan-to`g`ri predmetni anglatadigan otlar *aniq otlar* deyiladi. Aniq otlar anglatgan predmetlarni bevosita sanash va ko`rish mumkin. Shu sababli bunday otlar sanoq sonlar bilan, masalan, *beshta daftar, minglab odamlar* kabi, sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shuningdek, aniq otlar sub'ektiv baho formalari va ko`plik qo`shimchalarini olishi mumkin: *uycha, tuynik, bolagina, kitoblar* kabi.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar **mavhum otlar** deyiladi. Bu otlar odatda mavhum belgi va xususiyatlarni ataydi: *sevgi, oqim, tuyg`u, yaxshilik* kabi. Mavhum otlar ko`plik ko`rsatgichi **-lar** qo`shimchasini ham oladi. Agar bu qo`shimcha bilan kelsa ko`plikni ifodalamay, boshqa ottenkalarini anglatadi.

2. Otlar birlik shaklda bir turdagi predmetning o`zini yoki ularning to`dasi (jami)ni bildirishiga ko`ra **yakka va to`da** otlariga ajratiladi.

Bir turdagi predmetning o`zini bildiruvchi *kitob, uy, daraxt* kabi so`zlar yakka ot, bir xil predmetlarning jamini ifodalovchi *armiya, xalq, qo`shin* kabi otlar to`da otlari deb yuritiladi.

3. Kim yoki nima so`zlariga bo`lgan munosabatiga ko`ra otlar **kishi va narsa otlariga** bo`linadi. Kishi otlari kim? so`rog`ini, narsa otlari nima? so`rog`ini qabul qilib, ular atoqli va turdosh otlardan bo`lishi mumkin.

Otlarni kishi otlari va narsa otlariga ajratish ularda son kategoriyasining ifodalanishinigina emas, balki turlana olish darajasini belgilashda ham muhim rol o`ynaydi.

Sanalish - sanalmasligiga ko`ra otlar, yuqorida aytganimizday ikkiga, **sanaladigan va sanalmaydigan otlarga** bo`linadi. Sanaladigan otlar asosan aniq otlar, sanalmaydigan otlar asosan modda otlarini tashkil qiladi: *beshta daftar, o`nta qalam; havo, bulut, shamol* kabi. Atoqli otlarning ham aksariyati sanalmaydigan otlardir: *Tinch okean, Qora dengiz, Amudaryo, Dilbar G`ulomova, Oybek* kabi.

Nazorat savollari:

1. Ot va uning ta`rifini ayting.
2. Otning ma`nosiga ko`ra tasnif mezonlarini ajratib bering.
3. Otlarning atoqli va turdosh otga bo`linishini tushuntiring .
4. Otning birlik va ko`plik son shakllarining ta`rifini ayting.
5. Otlarning shaxs (kishi) va narsa otlariga bo`linishini tushuntiring.
6. Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari haqida tushuncha bering.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Otlarda son va egalik kategoriyasi

Mavzu rejasi:

1. Otlardagi grammatik son kategoriyasi haqida umumiy tushuncha va uning ifodalanish yo`llari.
2. Otlardagi egalik kategoriyasi va uning ifodalanish usullari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: ot, otlarda son kategoriyasi, grammatik va logik son, birlik va ko`plik shaklga ega otlar, faqat birlik shaklga ega otlar, otning egalik kategoriyasi.

1-savol bo`yicha dars maqsadi: Otlardagi son kategoriyasi haqida talabalar bilimini mukammallashtirish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Son kategoriyasi va uning semantik grammatik tabiati haqida tushunchaga ega bo`ladilar.
2. Otlardagi grammatik son kategoriyasining ifodalanish usullari haqida ma'lumotga ega bo`ladilar.
3. O`zbek tilida ko`plikda qo`llanilmaydigan otlar haqida ma'lumotga ega bo`ladilar.
4. **-lar** qo`shimchasining vazifalarini bilib oladilar.

1-reja bayoni:

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan *birlik son shakli va ko`plik son shakli* tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo`llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikka ajratilmaydigan predmetni anglatadi: *qalam, daftar, tog`, uy, talaba* kabi. Birlik son shaklida qo`llangan ot maxsus grammatik ko`rsatkichga ega emas. Shuning uchun, otning bunday qo`shimcha olmagan shakli (nol ko`rsatkichli shakl) grammatik jihatdan *birlik son shakli* deb qaraladi.

Ko`plik son shaklida qo`llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko`plikni) anglatadi: *qalamlar, daftarlar, tog`lar, uylar, talabalar* kabi.

Otlarda grammatik ko`plik son shakli **-lar** affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko`rinadiki, otlardagi birlik ma`nosi va ko`plik ma`nosi hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig`indisi *son kategoriyasini* hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasini birlik va ko`plik ma`nosida qo`llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo`lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko`plik son shaklida ham qo`llanadi: *xona - uchta xona - xonalar; bola - besh bola - bolalar* kabi.

O`zbek tilida birlik va ko`plik son shakliga ega bo`lgan otlar bilan bir qatorda *faqat birlik shaklida qo`llanadigan otlar* ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (sevgi, ishonch, ko`ngil kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (un, suv, yog`, guruch kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (til, bosh, yurak kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (ko`z, qosh, qo`l, etik, paypoq kabi), atoqli otlar (Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga **-lar** ko`plik affiksi qo`shila oladi. Bunday holda **-lar** ko`plik ma`nosini emas, balki quyidagi ma`nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda **-lar** affiksi qo`shilganda ma`noni kuchaytiradi yoki ta`kidlaydi: *Kumushning qoshlari chimirildi* (A.Qodiriy).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga **-lar** affiksi qo`shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo`llik kabi ma`nolarni bildiradi: *Zilol suvlar*, eram kabi bog`u-bo`stonlar (G`ayratiy).

3. Atoqli otlarga qo`shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma`nolarni bildiradi: *Saidalar* kelishdi kabi.

Shuningdek, qarindosh-urug`lik munosabatini bildiruvchi (ota, ona, buvi, aka, opa kabi) otlarga egalik qo`shimchasidan keyin **-lar** affiksi qo`shilganda, bu otlar hurmat ma`nosini anglatadi: *otamlar, opamlar, buvimlar* kabi.

Otlarda ko`plik ma`nosi turli xil usullar bilan ifodalanad:

1. Otlarda ko`plik ma`nosi, asosan, **-lar** affiksini qo`shish bilan hosil qilinadi. Ko`plik ma`nosining bunday maxsus grammatik ko`rsatkich bilan ifodalanishi ko`plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: *eshiklar, ko`chalar* kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko`plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko`plik ma`nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko`plik ma`nosi leksik ma`nosi ko`p predmetni bildiradigan *otlar* orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo`lsa ham, bir turdagi predmetlarning to`dasini, jamini bildiradi: *to`da, gala, aholi, xalq, olomon* kabi. Ko`plik ma`nosining bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday ma`nodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shaklda, lekin semantik jihatdan ko`plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko`plik ma`nosi ot oldidan *miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so`zlarni takrorlash* bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko`plik ma`nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: *ko`p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, to`da-to`da odam* kabi.

Otlarning ko`plik formasi ikki va undan ortiq predmetlarning noaniq miqdorini bildiradi. Bu forma **-lar** affiksi orqali hosil bo`ladi: *shaharlar, kitoblar, odamlar*. Sanash mumkin bo`lgan predmetlarning hammasi birlik va ko`plik formada kela oladilar. Otlar faqat birlik formada qo`llanishi asosan donalab sanash mumkin bo`lmagan predmetlarga xosdir. Bular quyidagilar:

Abstrakt otlar ko`plik affiksini olmaydi: *muhabbat, mardlik, o`qituvchilik*.

Sanash mumkin bo'lmay, faqat o'lganadigan jismlarni anglatadigan otlar: *tuz, yog, asal, neft, uzum, choy*. Bunday otlarga **-lar** qo'shilganda ularning turi anglashiladi.

Organizmdagi juft organlarni, shuningdek, juft predmetlarni bildiruvchi otlar: *qo'l, ko'z, etik, kalish*. Bu otlarga **-lar** affiksi qo'shilganda, bo'lingan ko'plikni bildiradi: *o'ng va chap qo'llar*.

Aslida bittadan ortiq bo'lmaydigan predmetlarning nomi ham faqat birlikda ishlatiladi: *yurak, til* kabi.

Atoqli otlar ichida **-lar** affiksini oladiganlari ham bor. Atoqli otlardan planeta va yulduz nomlari: Quyosh, Mars kabilar **-lar** olmaydi. Farxodlar - Farxod bir necha kishi ma'nosini ifodalaydi.

O'xshash *ottenkali ko'plik*. Bulardan tashqari -lar ko'plikni emas, hurmat (dadamlar), chama (uch kilolar), kuchaytirish (balolarga qoldim), kengroq joy tushunchasini (Mirzacho'llar) va boshqa ma'nolarni bildiradi. Son kategoriyasi otdan boshqa turkumdlarga ham xos. Olmoshlarda: nima- nimalar?, kim- kimlar?, sizlar. Sifatlar otlashganda: kattalar, qizillar. Son otlashganda: soat to'qqizlar. Sifatdoshlar otlashganda: o'qiganlar hurmatda. Tuslovchi tarkibida **-lar** . ikki ma'noni ifodalaydi:

1. Ko'plik ma'nosi: odamlar, bir -birlariga ko'mak beradilar,
2. Hurmat, (sizlash) ma'nosida: Sizni Xursand, akam so'rab keldilar. Bu ayol onangiz bo'ladilarmi? (J, Abdullaxonov.)

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: Otning egalik kategoriyasi haqida talabalar bilimini mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Egalik kategoriyasi va uning semantik grammatik tabiati haqida tushunchaga ega.
2. Egalik qo'shimchalarining shaxs-son ma'nosini ifodalashini tushuntirib bera oladi.
3. Egalik qo'shimchalarining joylashish o'rnini aytib bera oladi.

3-reja bayoni:

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba'zan predmetga) taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi umumiy ma'nolar va bu ma'nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya'ni so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodalaydigan affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma'nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko'plik ma'nosini) ham ifodalaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

a)	SHaxs	b)	Birlik	c)	Ko'plik
d)	I shaxs	e)	-(i)m	f)	-(i)miz
g)	II shaxs	h)	-(i)ng	i)	-(i)ngiz
j)	III shaxs	k)	-i, -si	l)	-i, -si

Jadvaldan ko'rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko'plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko'p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog'lanib kelgan so'zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: *uning kitobi* - birlik, *ularning kitobi* - ko'plikdir.

Shuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo'llanadi.

m) SHaxs	n) Birlik		o) Ko`plik	
	p) unlida n so`ng	q) Undoshda n so`ng	r) unlida n so`ng	t) undoshda n so`ng
v) I shaxs	w) sovg`a + -m	x) daftar+ -im	y) sovg`a + -miz	z) daftar+ -imiz
aa) II shaxs	bb) sovg`a + -ng	cc) daftar+ -ing	dd) sovg`a + -ngiz	ee) daftar+ -ingiz
ff) III shaxs	gg) sovg`a + -si	hh) Daftar+ -i	ii) sovg`a + -si	jj) daftar+ -i

Egalik affikslari odatda, ko`plik affiksidan keyin qo`shiladi: kitob+ -lar+ -im kabi.

Egalik affiksi qo`shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so`z bilan bog`lanadi: *daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so`zi* kabi. Bu bog`lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so`zga qarashli ekanligini ko`rsatadi.

Egalik affiksini olgan ot ba`zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog`lanishi mumkin. Masalan: *talabalardan bir guruhi* kabi. Bunday bog`lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma`nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma`nosini ifodalaydi. Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma`nosi mavjud.

Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniq ko`rsatadi. Chunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: *mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz* kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so`zlar bilan ham bog`lana oladi: *uning burchi, farzandning baxti, ko`plarning orzusi* kabi.

Ba`zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o`zgacha bo`lishi mumkin, ya`ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko`pligi uchun qo`llanishi mumkin: *senlarning maqsading* kabi. Yoki, aksincha, otning II shaxs ko`plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo`llanishi mumkin: *sizning opangiz* kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatiq kabi ma`nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma`nosi ifodalanadi.

Ot ko`plik son shaklida kelib, ko`plik ma`nosini ifodalaganda, egalik affiksi **-lar** qo`shimchasidan keyin qo`shiladi: *opalarim* kabi. Lekin hurmat ma`nosi ifodalanganda, egalik affikslari **-lar** qo`shimchasidan oldin qo`shiladi: **opamlar, akamlar** kabi.

Egalik affikslari otning gapdagi sintaktik vazifasini ko`rsatmaydi.

Ba`zi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida turli fonetik o`zgarishlar ro`y beradi. Bular quyidagilar:

1. **k, q** undoshi bilan tugagan ko`p bo`g`inli so`zlarga, shuningdek, *bek* kabi ayrim bir bo`g`inli so`zlarga egalik affikslari qo`shilganda, **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g`** undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: *tilak - tilagi, yurak - yuragi, bek - begi, kubok - kubogi, qishloq - qishlog`i* kabi. Lekin ko`p bo`g`inli o`zlashma so`zlarga, bir bo`g`inli so`zlarga (ko`p hollarda) egalik affikslari qo`shilganda **k, q** undoshi asliga mos holda aytiladi va yoziladi: *ishtirok - ishtiroki, ocherk - ocherking, erk - erki; huquq - huquqim, zavq - zavqi* kabi.

2. *O`rin, qorin, burun, o`g`il, bo`yin, ko`ngil, singil* kabi otlarga egalik affikslari qo`shilganda, ikkinchi bo`g`indagi **i, u** unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: *o`rin - o`rnim, qorin - qornim, burun - burning, o`g`il - o`g`lim, ko`ngil - ko`ngli, singil - singlim* kabi.

3. *Parvo, obro`, mavqe, avzo, mavzu* so`zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo`shilganda, so`z tarkibida bir **y** tovushi qo`shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, obro`yim, obro`ying* kabi; III shaxsda esa *parvo, obro`, mavqe, avzo* so`zlari *parvoyi, obro`yi, mavqeyi, avzoyi* kabi, *mavzu* so`zi esa mavzusi tarzida aytiladi va yoziladi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida egalik affikslari morfologik variantlari deyarli yo`q. Egalik affikslari ichida II shaxsning ko`plik formasigina variantlarga ega: *kitobingiz - kitobinglar- kitoblaring*.

Egalik affiksini olgan so`z bosh kelishik formasidagi so`z bilan ham bog`lanishi mumkin: *Volga daryosi, Toshkent shahri, yog`moy kombinati, pedagogika institut* va boshqalar. Bunday hollarda u egalik ma'nosini bildirmaydi, balki xoslik, umundan ajratilganlik ma'nosini bildiradi.

Nazorat savollari:

1. Ot va uning tarifini ayting
 2. Otning ma'nosiga ko`ra tasnif mezonlarini ajrating.
 3. Otlarning atoqli va turdosh otga bo`linishini tushuntiring .
 4. Otning birlik va ko`plik son shakllarining ta'rifini ayting.
 5. Otlarning shaxs (kishi) va narsa otlariga bo`linishini tushuntiring.
 6. Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari haqida tushuncha bering.
 7. Egalik kategoriyasi va uning smenatik grammatik tabiati haqida tushuntiring.
 8. Egalik qo`shimchalarining shaxs-son ma'nosini ifodalashini tushuntirib bering.
 9. Egalik qo`shimchalarining joylashishi o`rnini aytib bering.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Otlarda kelishik kategoriyasi.

Mavzu rejasi:

1. Otlardagi kelishik kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot.
2. Bosh va qaratqich kelishigining ifodalanishi.
3. Tushum kelishining ifodalanishi.
4. Jo`nalish kelishigining ifodalanishi.
5. O`rin-payt kelishining ifodalanishi.
6. Chiqish kelishining ifodalanishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: ot, otlarda kelishik kategoriyasi, bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo`nalish kelishigi, o`rin-payt kelishig, chiqish kelishigi, turlanish.

**1 - savol bo`yicha dars maqsadlari:** talabalarning otning kelishik kategoriyasi bo`yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash;

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko`ra turlarini aytib bera oladi.

1-reja bayoni:

Ot (yoki otlashgan soʻz)ning boshqa soʻzlarga boʻlgan sintaktik munosabatini koʻrsatuvchi maʼnolar va bu maʼnolarni ifodalovchi shakllar tizimiga *kelishik kategoriyasi* deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltita grammatik maʼno va uni ifoda etuvchi shakllarni oʻz ichiga oladi. Bularga bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, joʻnalish kelishigi, oʻrin-payt kelishigi va chiqish kelishigi kabi grammatik maʼnolar hamda bu maʼnolarni ifodalovchi *-ning, -ni, -ga (-ka,-qa), -da, -dan* kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik oʻz nomi, ifoda shakliga ega, maʼlum bir soʻroqlarga javob beradi.

Kelishiklar	Turlanishi	Soʻroqlari
Bosh kelishik	<i>Saida, kitob, Toshkent</i>	<i>kim? nima? qayer?</i>
Qaratqich kelishik	<i>Saidaning, kitobning, Toshkentning</i>	<i>kimning? nimaning? qayerning?</i>
Tushum kelishik	<i>Saidani, kitobni, Toshkentni</i>	<i>kimni? nimani? qayerni?</i>
Joʻnalish kelishik	<i>Saidaga, kitobga, Toshkentga</i>	<i>kimga? nimaga? qayerga</i>
Oʻrin-payt kelishik	<i>Saidada, kitobda, Toshkentda</i>	<i>kimda? nimada? qayerda</i>
Chiqish kelishik	<i>Saidadan, kitobdan, Toshkentdan</i>	<i>kimdan? nimadan? qayerdan?</i>

Otlarda kelishik affikslari *turlovchi affikslar* deb ham yuritiladi. Otlarning kelishiklar bilan oʻzgarishi turlanish deb yuritiladi.

Kelishik affiksi yoʻq holat bosh kelishik boʻlib, bunday shakldagi ot koʻpincha boshqa soʻzni oʻziga tobelaydi. Shuning uchun ham bosh kelishik deb yuritiladi. Qaratqich, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shaklidagi ot gapda boshqa soʻzlarga grammatik jihatdan tobe boʻladi. Bu kelishiklar vositali kelishiklar deyiladi. Masalan: *Pokiza aql insonni ayb va kamchiliklardan qutqaradi (U.Mahkamov)*. Bu gapda *aql* soʻzi bosh kelishikda boʻlib, affiksi boʻlmagan shaklda *qutqaradi* feʼliga nisbatan tobe holatda; *insonni* soʻzi *-ni* tushum kelishigi shakli vositasida, *ayb (-dan)*, *kamchiliklardan* soʻzlari *-dan* chiqish kelishigi vositasida *qutqaradi* feʼliga tobe boʻlib kelgan.

Kelishik shaklidagi otlar boshqa soʻzlar bilan oʻzaro sintaktik munosabatga kirishadi.

Qaratqich va qisman bosh kelishik shakli ot bilan otning, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklari, odatda, ot bilan feʼlning sintaktik munosabatini koʻrsatadi: *oilaning koʻrki, onani ardoqlamoq, sayohatga bordi, maktabdan qaytdi*.

Baʼzan kelishik shaklidagi otlar sifat, son, olmosh, ravish, undov bilan ham bogʻlanib, ularga tobe boʻlib keladi: *ipakdan mayin, talabalardan beshtasi, Barnoning oʻzi, xonada koʻp, holiga voy* kabi.

Kelishik formasidagi soʻzlar gapda boshqa soʻzlar bilan quyidagicha munosabatda boʻladi:

1. Qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi: *kitobning varagʻi, odamning gavgasi*.

2. Tushum, joʻnalish, oʻrin, chiqish kelishiklari otni feʼl bilan aloqaga kiritadi: *kitobni oʻqidi, bozorga bordim, maktabda koʻrdim, institutdan keldim*.

Kelishik formasidagi otlar ot va feʼldan boshqa turkumdagi soʻzlar bilan ham munosabatga kirishadi: *Otdan baland, itdan past*.(Topishmoq.) *Uyat oʻlimdan qattiq*.(Maqol.)

Kelishiklarning ma'nolari va vazifalari ko'makchilarning ma'nolari va vazifalari bilan munosabatdor bo'lishi mumkin. Bu hol nutqda kelishikli va ko'makchili qurilmalar sinonimiyasini yuzaga keltiradi: *telefonda tanishdim-telefon orqali tanishdim, onamga oldim - onam uchun oldim*.

Kelishik affikslari so'zga son va egalik (agar u bo'lsa) shakllaridan keyin qo'shiladi: *maktablarimizda, kitoblarini, qog'ozlarimdan* kabi. Odatda, kelishik formasidagi so'zlarga boshqa affikslar qo'shilmaydi. Faqat affiks shaklidagi yuklamalargina qo'shilishi mumkin: *Bu kitob Zulfiyaga-mi?* Kelishik kategoriyasi hamma turkumlarga birdek xos emas. Kelishik avvalo otlarga xos bo'lib, ularning nutq birligiga aylanishi uchun zaruriy shakldir.

Kelishik olmoshlar, fe'lning harakat nomi shakli, jamlovchi sonning ba'zi ko'rinishlari uchun xosdir: *barchaga, o'ziga, menga, o'qishga, beshovmizga* va boshqalar.

Kelishik otlashgan so'zlar (sifat, olmosh, fe'lning sifatdosh formasi)ga ham taalluqli. Lekin bu so'zlar uchun u asosiy shakl bo'lmay, ular nutqda biror sintaktik vazifa talabiga ko'ra kelishik formasini oladi:

Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. (Maqol) *O'qiganning tili uzun bo'ladi.* (Maqol.) Mana shunda gap ko'p.

2 - savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalar otning kelishik kategoriyasi bo'yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash:

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra turlarini aytib bera oladi.
2. Bosh kelishikdagi otlar va ularning grammatik ma'nosi, sintaktik vazifasini aytib bera oladi.
3. Qaratqich kelishigi va uning semantik-grammatik xususiyatlarini so'zlab bera oladi.

2-reja bayoni:

Bosh kelishikdagi ot shaxs, predmet, voqea-hodisalarning nomini ataydi. *Kim? nima? qayer?* kabi so'roqlardan biriga javob beradi. Bu kelishikning ko'rsatkichi yo`q, ya'ni nol ko'rsatkichli shaklda keladi. Bunday shakl tahlilda Ø belgisi bilan ifodalanadi.

Bosh kelishik shaklida kelgan otning asosiy sintaktik vazifasi ega bo'lib kelishdir. Masalan: *Himmatlilik* o'zining saxovati bilan odamlar qalbiga singib ketadi. (O'.Mahkamov)

Nutqda oz uchasada, ega vazifasidagi so'z qayer? so'rog'iga ham javob bo'lib keladi, bunday holda o'rin predmeti ma'nosi anglashiladi. Masalan: *Toshkent* - tinchlik shahri.

O'zbek tilida bosh kelishikdagi ot yana bir necha sintaktik vazifani bajaradi.

1. Kesim vazifasida keladi: *Ilm - insoniyat gavhari* (Bedil).
2. Izohlovchi vazifasida keladi: Navro`zda *ona* tabiat uyg'onadi.
3. Sifatlovchi vazifasida keladi: *Po`lat* pichoq qinsiz qolmas (Maqol). Bunda bosh kelishik shaklida kelgan ot boshqa ot oldida kelib, qanday? qanaqa? so'roqlaridan biriga javob beradi.
4. Hol vazifasida keladi: Yulduzlar *chaman-chaman* yonadi (O).

5. Undalma vazifasida keladi: Yaxshilik qil, *bolam*, yomonlikni ot! Undalma vazifasida kelgan bosh kelishikdagi ot gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi.

6. Nominativ (atov) gap vazifasida keladi: *Subhidam*. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi (T.Q.).

Bundan tashqari bosh kelishikdagi otlar ko'makchi shaklda kelib to'ldiruvchi va hol vazifasini ham bajaradi. Masalan: *Igna bilan quduq qazib bo'lmas* (Maqol). *Yuksak quyosh kabi, yuksak oy kabi. Sep bilan bezalsin yurtning fazosi* (Uyg'un).

Qaratqich kelishigining ifodalanishi:

Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga yoki shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. Qaratqich kelishigida kelgan ot *kimning? nimaning? qayerning?* kabi so'roqlardan biriga javob beradi. *-ning* affiksi bilan shakllanadi. Masalan: Bilim va donishmandlik *insonning* bezagidir (A.Navoiy).

Ba'zan she'riyatda qaratqich kelishigi egalik affiksida so'ng *-n* shaklida ham qo'llanadi: Har bolam ufurgan *nafasin* atri. She'rimning eng yetuk, eng yaxshi satri (G'.G'ulom).

Qaratqich kelishigidagi ot egalik affiksini olgan ot bilan grammatik jihatdan bog'lanib, gapda aniqlovchining turi qaratuvchi vazifasida keladi. Qaratqich kelishigidagi so'z qaratuvchi, unga bog'lanib kelgan egalik affiksini olgan ot esa qaralmish sanaladi. Masalan: *Guruchning* kurmagi bor, *yomonning* to'g'mog'i bor (Maqol).

Qaratqich kelishigi ikki xil - belgili yoki belgisiz shaklda qo'llanadi.

Qaratqich kelishigi **-ning (-n)** affiksi bilan qo'llansa, *belgili* sanaladi. Belgili qaratqich kelishigidagi ot aniq qarashlilik ma'nosini ifodalaydi: *daraxtning ildizi, onaning baxti* kabi.

Qaratqich kelishigi **-ning** affiksi bilan qo'llanmasa, *belgisiz* sanaladi: *umid uchquni, bahor fasli* kabi. Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o'zi bog'lanib kelgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigidagi ot anglatgan predmetga aloqador hodisa ekanligini ifodalaydi.

Belgisiz qaratqich kelishigidagi ot o'zi bog'langan ot bilan ma'no va grammatik jihatdan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'z kiritish mumkin emas.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgili qo'llanadi:

1.Qaratqich kelishigidagi ot shaxs otlari bo'lganda: *Zulfiyaning xati, talabaning bahosi* kabi.

2.Butunning qismini anglatgan otlar: *uzukning ko'zi, stolning oyog'i* kabi.

3.Qaratqich kelishigidagi so'z o'zi bog'langan otdan anglashilgan predmet bilan o'zaro genetik aloqada bo'lsa: *buvining nevarasi, sherning bolasi* kabi.

4.Qaratqich kelishigidagi so'z manba ma'nosini ifodalaganda: *olimning ma'ruzasi, talabaning fikri* kabi.

5.Qaratqich kelishigidagi so'z bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'zlar kelganda: *shaharning baland imoratlari, yozning issiq shamoli* kabi.

6. Qaratqich kelishigida ot o'zining maxsus aniqlovchisiga ega bo'lganda: *alo'chi o'quvchining xulqi* kabi.

7. Qaratqich kelishigidagi so'z tarkibida **-lar** ko'plik affiksi qo'llanganda: *qizlarning raqsi, gullarning hidi* kabi.

8. Qaralmish otlashgan so'zlar bilan ifodalanganda: *olmaning shirini, so'zning ozi, do'stlarning uchtasi* kabi.

Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgisiz qo'llanadi:

1. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot mavhum otlar bilan ifodalanganda: *muhabbat sehri, bilim manbai, ilm ahli, tafakkur gulshani* kabi.

2. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi otlar payt ma'nosini anglatganda: *bahor fasli, oqshom payti, tong chog'i, yakshanba kuni* kabi.

3. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot ifodalagan predmetning qaralmish ifodalagan predmetga umumiy xosligini bildirganda: *ipak qurti, yer islohoti* kabi.

4. Qaratqich kelishigi shaklidagi ot nomiga qo'yilgan, atab qo'yilgan otlar bilan ifodalanganda: *Navoiy teatri, Orol dengizi, Toshkent shahri* kabi.

5. Qaratqich kelishigi shaklidagi otlar bir-biriga tobe holda birin-ketin kelganda, eng so'nggisidan oldingilari belgisiz shaklda qo'llanadi: Toshkent davlat pedagogika universiteti, boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakulteti, boshlang'ich ta'lim bo'limining talabasi kabi.

3-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning otning kelishik kategoriyasi bo'yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash;

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra turlarini aytib bera oladi.

2. Tushum kelishigidagi otlar va ularning grammatik ma'nosi, sintaktik vazifasini aytib bera oladi.

2-reja bayoni:

Tushum kelishigidagi ot, odatda, ish-harakatni o'z ustiga olgan predmetni, ya'ni ob'ekt ma'nosini ifodalaganda kimni? nimani? so'rog'iga javob beradi: Hayot *harakatni* talab qiladi (Arastu).

Tushum kelishigidagi otning negizi o'rin ma'nosini anglatga, qaerni? so'rog'iga javob beradi: *Hujrani* yasatganmisan? (A.Qahhor). To'rtta karnay, oltita surnayning shovqini *ko'kni* tutdi (O.).

Tushum kelishigi **-ni** affiksi bilan shakllanadi: Ulug' *kishilarni* mehnat yetishtiradi («Tafakkur gulshani»).

Ba'zan she'riyatda egalik affiksidan so'ng **-n** shaklida ham uchraydi: Olmazorlar *gulin* to'kadi, Meva bog'lab *shoxin* bukadi (H.O.).

Tushum kelishigida kelgan ot fe'l bilan bog'lanadi va gapda asosan, vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Tushum kelishigi ham qaratqich kelishigi singari 2 xil shaklda qo'llanadi: belgili tushum kelishigi va belgisiz tushum kelishigi.

Belgili tushum kelishigi shaklidagi ot **-ni (-n)** affiksini olgan holda keladi: Xushro'yni rahmsiz muhokamasidan oqqan bu haqiqatlar Zaynabni yig'latdi (A.Qodiriy).

Belgisiz tushum kelishigi shaklidagi otda esa **-ni** affiksi qo'llanmaydi: Gul tufayli tikon suv ichar (Maqol).

Tushum kelishigining ham belgili va belgisiz shaklda qo'llanishi ma'no talabi va grammatik holatga ko'ra belgilanadi. Belgisiz tushum kelishigidagi otning tushum kelishigida ekanligi uning mazmunidan va fe'lga bog'lanishidan bilinib turadi.

Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe'l kesim bilan juda zich bog'langan bo'lib, ular orasiga boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi: Nazira singlisiga xat yozdi.

Tushum kelishigi quyidagi hollarda faqat belgili qo'llanadi:

1. Tushum kelishigi shaklidagi ot atoqli ot bilan ifodalangan holda: *Saidani o'z qanoti ostiga oldi* (A.Qahhor).

2. Tushum kelishigidagi ot payt bildiruvchi otlar bilan ifodalansa: *Zulfiya ta'tilni yaxshi o'tkazdi*.

3. Tushum kelishigidagi ot o'z aniqlovchisiga ega bo'lsa: *Bu kuchli irodani, bu jahoniy qudratni har kimki mensimasa, o'ziga-o'zi zolim* (G'.G'ulom).

4. Tushum kelishigidagi ot bilan uni boshqargan fe'l o'rtasida boshqa so'zlar kelsa: *Bog'ni bir bog'bon yaratadi, Ming odam bahramand bo'ladi* (Hikmatlar xazinasi).

5. Tushum kelishigi shaklidagi ot, ya'ni kelishik affiksidan oldin egalik affiksi bo'lsa, belgili qo'llanadi: ... *Uzoq vaqt hayotda yo'lini topolmay yuribdi* (A.Qahhor).

Shuningdek, boshqa so'z turkumlari (olmosh, fe'ning harakat nomi shakli, otlashgan so'zlar) faqat belgili tushum kelishigi shaklida keladi.

4-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning otning kelishik kategoriyasi bo'yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash;

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra turlarini aytib bera oladi.

2. Jo'nalish kelishigidagi otlar va ularning grammatik ma'nosi, sintaktik vazifasini aytib bera oladi.

4-reja bayoni:

Jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni, shuningdek, harakatning bajarilish payti, ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Otlarda jo'nalish kelishigining asosiy ma'nosi harakatning yo'nalish nuqtasini ifodalashdir. Ob'ekt, payt, sabab, maqsad kabi ma'no xususiyatlarining ifodalanishi bu kelishik shaklini olgan va uni boshqargan so'zning leksik ma'nosiga bog'liq. Shu ma'nolariga ko'ra jo'nalish kishilik shaklidagi ot *kimga? nimaga? qayerga? qachon?* kabi so'roqlarga javob beradi.

Jo'nalish kelishigi **-ga** affiksi bilan shakllanadi: *daftarga, osmonga* kabi. Lekin so'z negizi **k** tovushi bilan tugasa, **-ka** shaklida: **q** tovushi bilan tugasa, **-qa** shaklida qo'shiladi: *terak-terakka, qishloq-qishloqqa* kabi.

Jo'nalish kelishigidagi otlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatganda, kimga? yoki nimaga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: *Mahmadona, valdirovchi odam ochiq bir maktubga o'xshaydi* (Oz-oz o'rganib dono bo'lur).

2. Harakatning yo'nalish o'rnini anglatganda, qayerga? so'rog'iga javob bo'ladi va o'rin holi vazifasida keladi: *Qishloqqa shahar tutash, ikkov birga hamnafas* (G'.G'ulom). *Inson agar jahl qilsa osmonni ham yerga olib tushadi* (Bedil).

3. Harakatning bajarilishi vaqtini anglatganda qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi: *To'y ko'klamga belgilandi*.

Shuningdek, jo'nalish kelishigi shakli fe'ning harakat nomi, otlashgan sifatdoshlarga qo'shib harakatning bajarilish sababi va maqsadini anglatib, nega? nima maqsadda? so'roqlariga javob beradi va gapda sabab, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Men Farg'onadan ataylab siz bilan ko'rishishga, rozi bo'lsangiz, otpuska ichida to'y qilishga kelgan edim* (Oydin). *Turmushning qaynab turgan joyiga tushib qolganimga xursandman* (As.M.).

5-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning o'tning kelishik kategoriyasi bo'yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash:

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra turlarini aytib bera oladi.
2. O'rin-payt kelishigidagi otlar va ularning grammatik ma'nosi, sintaktik vazifasini aytib bera oladi.

5-reja bayoni:

O'rin-payt kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish o'rnini, paytini va ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Bu kelishik shaklidagi ot qanday leksik ma'noni anglatishiga qarab o'rin, payt, ob'ekt ma'nolari haqida gapiriladi. Shu ma'nolariga ko'ra o'rin-payt kelishigi shaklidagi ot kimda? nimada? qayerda? qachon? kabi so'roqlarga javob beradi. O'rin-payt kelishigi *-da* affiksi bilan shakllanadi: Sada tagidagi hovuzning zilol suvida yaproqlar suzadi (S.Z.). Ayvonda bosma guli bo'z ko'rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o'tiradi (O.). Shovvozlarda shuncha hunar bor ekan-ku, bilmay yurgan ekanmiz (H.N.).

O'rin-payt kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1. Ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatib, kimda? nimada? so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Bolaga otaning mehnati singgan bo'lsa, so'ng u bolaning xulq-atvorida bilinadi* (Yusuf Xos Hojib).

2. Ish-harakatning bajarilish o'rnini anglatib qayerda? so'rog'iga javob beradi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi: *Vohidlarning qishlog'ida boshqa yerlarda juda kam uchraydigan halim va shirin olma bor.* (O.Yo.)

3. Ish-harakatning bajarilish paytini anglatib, qachon? so'rog'iga javob beradi va gapda payt holi vazifasini bajaradi: *Bahorda shaftoli gullari ko'm-ko'k maysalar ustiga to'kilib qoladi* (M.I.).

4. Ish-harakatning bajarilish holatini anglatib qanday? so'rog'iga javob beradi va gapda ravish holi vazifasini bajaradi: *Ular musiqani chuqur sukutda tinglar edi* (O.).

Ba'zan predmet yoki hodisaning bo'lish o'rnini, yoshini, holatini ifodalab, qayerda? nechada? kimda? nimada? so'roqlaridan biriga javob berib, gapda kesim vazifasini bajaradi: *Singlim uyda. Barno yigirma yoshda. Kuch birlikda.*

6-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning o'tning kelishik kategoriyasi bo'yicha olgan bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitish va mustahkamlash:

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra turlarini aytib bera oladi.
2. Chiqish kelishigidagi otlar va ularning grammatik ma'nosi, sintaktik vazifasini aytib bera oladi.

6-reja bayoni:

Chiqish kelishigi shaklidagi ot ish-harakatning kelib chiqish o'rnini, manbai, payti, sababi, holati yoki ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Shu ma'nolariga ko'ra chiqish kelishigi shaklidagi ot kimdan? nimadan? qaerdan?

qachondan? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi. Chiqish kelishigi **-dan** affiksi bilan shakllanadi: *Insonga bilimdan durustroq biror narsa topilmaydi* («Hikmatlar xazinasi»).

Chiqish kelishigidagi ot gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1. Harakatning bajarilishida vosita boʻlgan predmetni, bir predmetni boshqa bir predmet bilan chogʻishtirish maʼnolarini anglatib, kimdan? nimadan? soʻrogʻiga javob beradi va gapda vositali toʻldiruvchi vazifasini bajaradi:

Ilmdan bir shuʻla dilga tushgan on,

Shunda bilursankim, ilm bepoyon (Firdavsiy).

2. Harakatning boshlanish oʻrni, payti, harakatning bajarilish holati, sababini anglatib *qayerdan? qachondan? qanday? nega?* kabi soʻroqlardan biriga javob beradi va gapda oʻrin, payt, holat, sabab holi boʻlib keladi: *Ulugʻ musavvir Kamoliddin Behzod hali yoshlikdan Hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulgʻaydilar* (P.Q.). *Zumrad ignani palakka toʻgʻnadi-da, oʻrnidan turdi* (O.). *Umaralining yurakdan yozgan iliq soʻzlari uning koʻnglini shodlikka toʻldirib yubordi* (O.). *El tikilar va sevinchidan javdiraydi koʻzlarida yosh* (H.O.).

3. Kimdan? yoki nimadan? kabi soʻroqlarga javob berib, gapda kesim vazifasida keladi: *Shaxnoza, zerikmaydigan boʻldingiz, bu opangiz havaskor alpinistlardan ekan* (S.Abdullaeva).

Nazorat savollari:

1. Kelishik kategoriyasi va uning maʼno ifodalash xususiyatiga koʻra turlarini ayting.
2. Bosh kelishikdagi otlar va ularning maʼnosi, sintaktik vazifasini tushuntiring.
3. Qaratqich kelishigi va uning sematik-grammatik xususiyatlarini aytib bering.
4. Tushum kelishigida kelgan otlarning grammatik maʼno-vazifalarini aytib bering.
5. Joʻnalish kelishigi maʼnosi, qoʻshimchasi, soʻrogʻi va vazifasini aytib bering.
6. Chiqish kelishigining maʼnosi, qoʻshimchasi, soʻrogʻi, vazifasini soʻzlab bering.
7. Oʻrin-payt kelishigining maʼnosi, qoʻshimchasi, soʻrogʻi va vazifasini tushuntiring.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

13 - ma'ruza: Sifat. Uning o'ziga xos ma'nosi, morfologik xususiyatlari. Sifatlarning yasalishi va ularning otlashuvi

Mavzu rejasi:

1. Sifat so'z turkumining o'ziga xos morfologik, sintaktik xususiyatlari.
2. Sifatlarning ma'no turlari, asliy va nisbiy sifatlar.
3. Sifatlarda daraja kategoriyasi, ozaytirma va kuchaytirma sifatlar
4. Sifatlarning yasalishi va ularning otlashuvi

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: asliy sifatlar, nisbiy sifatlar, intensiv forma, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, sifatning ma'no guruhlari, ma'za-ta'm sifatleri va x.

1- savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning sifat so'zlarning o'ziga xos morfologik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish:

Identiv o'quv maqsadlari:

1. O'zbek tilidagi sifat so'zlarning belgi ifodalashi (ma'no guruhlari)ga ko'ra turlarini aytib bera oladi.
2. Sifat so'zlarning umumkategorial ma'nosi va uning so'roqlarini aytib bera oladi.
3. Sifatning o'ziga xos grammatik belgilarni ajrata oladi.

1-reja bayoni:

Predmetning belgisini bildirib *qanday? qanaqa? qaysi?* so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar sifat deyiladi. Sifat mustaqil so'z turkumi sifatida uch xil belgiga ega: Leksik-semantik belgi. Sifat belgi ma'nosini bildiradi. Sifatlarning morfologik xususiyatlari:

- 1) sifat qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.
- 2) belgining darajasini ko'rsatadi: sho'x, sho'xroq, eng sho'x.
- 3) otlashadi: *Kattalarni hurmat qiling.*
- 4) ravish o'rnida keladi: *Sattor chiroyli yozadi.*

Sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi keng bo'lib, ma'nosiga ko'ra bir necha guruhga ajratiladi:

- a) rang-tus ma'nosini bildiradigan sifatlar: oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori;
- b) hajm ma'nosini bildiradi: keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda;
- v) shakl va ko'rinish ma'nosini bildiradi: dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do'ng;
- g) maza-ta'm ma'nosini bildiradi: shirin, achchiq, nordon, sho'r, taxir, chuchmal, bemaza;
- d) xarakter-xususiyat ma'nosini bildiradi: muloyim, odobli, shirinso'z, chaqqon, sho'x, yalqov, dangasa, chechan, qo'rs, qaysar. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodalaydi;
- e) hid ma'nosini bildiradi: sassiq, qo'lansa, badbo'y, xushbo'y, muattar;
- j) holat ma'nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo'ladi:
 - 1) psixik holatni ifodalaydi: xursand, xafa, shod, kasal, injiq;
 - 2) tabiiy holatni ifodalaydi: yosh, qari, kekxa.

3. *Sifatning sintaktik belgisi.* Sifat gapda otga, ba'zan fe'lga bitishuv usuli orqali bog'lanadi va o'zi bog'lanib kelayotgan so'zga tobelanadi.

Sifat otga bog'lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi, aniqlab kelayotgan so'zi bilan moslashmaydi. Misol: *Biz do'stlarning eng yaxshi do'sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin.* (Yo.Shukurov).

Sifat fe'lga bog'lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: *Yulduzlar odatdagidan ko'ra toza, kattaroq, yorqinroq ko'rinardi.* (P.Qodirov).

Kesim vazifasini bajaradi: *Yoqimli shamol esa boshladi. Tabiat go'zal.*
Demak, predmetning doimiy, o'zgarmas belgisini ifodalaydigan so'zlar sifat deyiladi.

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning sifat so'zlarning ma'no guruhlarini bo'yicha bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish:

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Asliy sifat va nisbiy sifatlarni farqlay oladilar.
2. O'zbek tilidagi sifat so'zlarning belgi ifodalashi (ma'no guruhlariga ko'ra turlarini aytib bera oladi).

2-reja bayoni:

Sifat belgini bevosita yoki bilvosita ifodalaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodalaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko'rsata oladi: *katta, kattaroq, eng katta* kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: *yosh-qari, yaxshi-yomon* kabi.

Belgini bilvosita, ya'ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o'xshatish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o'xshashlik, o'rin yoki paytga munosabat, mo'ljallanish ma'nolarini bildiradi:

a) xoslik ma'nosini ifodalaydigan sifat ot turkumidagi so'zga *-iy, -viy* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: *zamonaviy, oilaviy, ma'naviy, siyosiy;*

b) o'xshashlik ma'nosini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zga *-simon, -sifat* affiksini qo'shish bilan yasaladi: *odamsimon, hayvonsifat, devsifat;*

v) o'rin va payt ma'nolarini ifodalaydigan sifatlar ot turkumidagi so'zlarga *-gi, -qi, -ki, -dagi* affiksini qo'shish bilan yasaladi: *qishki, yozgi, bahorgi, bulturgi, tushki, kechki;*

g) mo'ljallanganlik, xoslik, o'lchov ma'nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so'zlarga *-lik* affiksini qo'shish bilan yasaladi: *ko'rpalik, ko'rpachalik, toshkentlik, ko'ylaklik.*

Sifat ba'zan ravish o'rnida qo'llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: *ma'noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o'qimoq* kabi. Demak, narsalarning belgisini bevosita, to'g'ridan to'g'ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko'rsata oladigan (ya'ni -roq qo'shimchasini qabul qila oladigan) sifatlar asliy sifatlar deb ataladi: *kichik, aqliy, qora, ortiq* va boshqalari.

Narsalarning belgisini bevosita emas, balki o'rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko'pincha daraja ko'rsata olmaydigan sifatlar nisbiy sifatlar deb ataladi. Bunday sifatlar yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan bo'ladi: *Sharsimon. Yozgi, uydagi, oilaviy, ilmiy, Toshkentlik* va boshqalar.

Predmetning belgisini bildirgan mustaqil so'zlar sifat deyiladi. O'zbek tilidagi sifat so'zlar esa belgi to'dalariga ko'ra 9 turga bo'linadi:

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar. Bu to`daga mansub sifatlar insonlarning turli xarakter-xususiyatlarni, shuningdek, predmetlarning belgisini bildiradi: *Kamtarin, mug`ombir, sodda, sho`x, ziqna, ayyor* va h.k. bu xil sifatlardan ba'zilar insonlarga, ham hayvonlarga, shuningdek, predmetlarga ham ishlatiladi: *Yuvosh odam, yuvosh ot* kabi.

Xususiyat bildiruvchi sifatlardan ayrimlari harakat belgisini ifodalashi ham mumkin: *Mayin gapirmoq, yaxshi ishlamoq* kabi.

2. Holat bildiruvchi sifatlar. Bu to`daga mansub sifatlar inson, hayvon va predmetlarning turli holat belgisini ifodalaydi: *Xursand, badavlat, ma'yus, keksa* va h.k. Bu to`daga oid sifatlar ko`proq harakat belgisini ifodalashga moyilroq bo`ladi: *Iliq qarshiladi, ma'yus so`zladi*.

3. Shakl-ko`rinish bildiruvchi sifatlar turli tashqi qiyofa va tuzilishlarni predmetlarning shakliy ko`rinishlarni bildiradi: *gavdali, novcha, uzunroq, yassi* kabilar.

4. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Bu guruhga tegishli sifatlar predmet belgisini ifodalashgagina xoslangan: *oq, qora, qizil, sariq, ko`k, pushti*.

5. Hajm-o`lchov bildiruvchi sifatlar. *Keng, tor, uzun, yaqin, katta*.

6. Maza- ta'm bildiruvchi sifatlar: *shirin, nordon, achchiq, chuchuk, ta'msiz*.

7. Hid bildiruvchi sifatlar: *xushbo`y, badbo`y, qo`lansa, sassiq* va bq.

8. Predmetning o`rin va vaqtiga nisbatan belgisini bildiruvchi sifatlar: *yozgi, qishki, kuzgi, ichki, sirtqi* kabi.

9. Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlar: *yosh, qari, keksa, o`rta yosh*.

Sifatlarning ma'no guruhlari va ularning ma'no ifodalash xususiyatlaridan ko`rinib turibdiki, sifat so`zlar nafaqat predmet belgisini, balki ularning ayrimlari harakat belgisini ifodalash xususiyatlariga ham ega bo`lar ekan. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, sifat turkumiga oid so`zlarning asosiy xususiyati predmetga xos belgini ifodalashdir. Demak, sifat uchun umumkategorial ma'no predmet belgisini ifodalashdir. Sifatlar boshqa so`z turkumlaridan o`ziga xos ma'nosi, maxsus shakl yasovchi va so`z yasovchi qo`shimchalariga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

3-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning sifat darajalari bo'yicha bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish;

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Sifatlarda predmet belgisini darajalab ko`rsatish xususiyati bor ekanligini aytib bera oladi.
2. Sifatning oddiy, qiyosiy, orttirma darajalari va ularning yasaliish tiplarini tushuntirib bera oladi.
3. Sifatlardagi ozaytirma va kuchaytirma shakllarni, ularning hosil bo`lish yo`llarini aytib bera oladilar.
4. Sifat darajalarining ozaytirma va kuchaytirma shakllardan farqli xususiyatlarini aytib bera oladilar.

3-reja bayoni:

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko`ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor:

- 1) oddiy daraja
- 2) qiyosiy daraja
- 3) orttirma daraja

Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko`rsatadi va u maxsus ko`rsatkichga ega bo`lmaydi: *go`zal tabiat, shirin qovun, keng hovli*.

2) qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodalaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja leksik-morfologik usul bilan hosil qilinadi.

Oddiy darajadagi sifatga **-roq** affiksini qo'shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog'ishtirish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turadi. Misol: *Shu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan **donoroq** va hatto **savlatliroq** ko'rinib ketdi.* Donoroq, savlatliroq sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so'z (*har vaqtdagidan*) qiyoslash mazmun munosabatini ifodalayapti. *O'shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o'rtadan ko'ra pastroq... xo'jaligi bor.* (A.Qahhor). Bu misolda *pastroq* belgining kamligi bildiriyapti, qiyoslash ma'nosini *o'rtadan ko'ra* so'zlari ifodalayapti.

Qiyosiy darajadagi sifat oldidan *sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli* so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: *sal baland, bir oz baland, picha kattaroq, xiyol achchiqroq.*

Fonetik usul. Unlilar cho'zib, undoshlar esa ikkilantirilib aytiladi: *baaland, chuquur, tekkis* kabi.

3) Orttirma daraja. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgiga nisbatan eng ko'p, oliy darajada ekanligini ifodalash orttirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli leksik usul bilan ifoda qilinadi.

Oddiy darajadagi sifat oldidan *eng, juda, nihoyatda, behad, g'oyat, g'oyatda, hammadan kabi* so'zlarni keltirish bilan: *juda chiroyli, nihoyatda shirin, g'oyatda mehribon* kabi.

Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.

Sifat belgini ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- a) ozaytirma sifat;
- b) kuchaytirma sifat.

Ozaytirma sifat o'zakdan anglashilgan belgining me'yoridan ozligini bildiradi. Ular morfologik va leksik usullar bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. Sifatlarga **-ish, -imtir, -mtir** affikslarini qo'shib ozaytirma sifat hosil qilinadi: *ko'kish, qizg'ish, oqimtir, qoramtir.* **-ish** qo'shimchasi qo'shilgan ba'zi sifatlar o'zagida tovush o'zgarishlari sodir bo'ladi: *sariq+ish-sarg'ish.* Bu so'zda o'zakdagi **i** unlisi tushib qolgan, **q** undoshi **g'** undoshiga almashgan. *Qizil* sifatiga **-ish** qo'shilishi bilan o'zakdagi **-il** tovushlari tushib, **g'** tovushi orttirilgan.

Sifatlarga **-gina, -kina, -qina** affikslari qo'shib, belgilarni kuchsizlantirish ozaytirishi mumkin. Bunda **-k** bilan tugagan sifatlariga **-kina, -q** bilan tugagan sifatlariga **-qina**, qolgan sifat shakllariga **-gina** affiksi qo'shiladi. Misol: *tuzukkina, oriqqina, sariqqina, kattagina.*

2. Leksik usul. Sifatning oldidan *och, nim* so'zlarini keltirish bilan belgi kamaytiriladi: *och pushti, nim qizil.*

Kuchaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan belgining ortiqqligini bildiradi. Kuchaytirma sifatlar leksik va morfologik usul bilan hosil qilinadi:

a) morfologik usul. Bu usulda sifatni tovush o'zgarishlari orqali takrorlash yo'li bilan:

- sifatning birinchi bo'g'ini ikkinchi bo'g'inidagi undosh bilan takrorlanadi: *dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun;*

- sifatning birinchi bo'g'iniga **-p** undoshi qo'shib takrorlanadi: *sap-sariq, qip-qizil.*

- Sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib unga **p, m** tovushlaridan biri qo'shiladi va undan keyin so'zning o'zi takrorlanadi: *yap-yangi, ko'm-ko'k.*

- Sifatning birinchi bo'g'inidan keyin **ppa** shakli qo'shiladi: *soppasog', to'ppato'g'ri.*

b) leksik usul. Sifat tovush o'zgarishlarisiz takrorlanib orttirma daraja hosil qilinadi: *katta-katta*.

Qiyosiy darajadagi sifat oldida ma'noni kuchaytiruvchi *yana, yanada, yana ham* so'zlari kelishi mumkin: *yanada yaxshiroq, yana ham balandroq, yana jonliroq*.

Nazorat topshiriqlari:

Matndan sifat shakllarini aniqlash.

1. Yana qandaydir kichkina qog'oz korobka ham oldi.
 2. Zo'r kostyum.
 3. Zo'r ashullani yozvolib eshitib yurasan.
 4. Sizni yomon ko'raman.
 5. Mirvali tog'aniyam yomon ko'raman.
 6. Azizbek onasiga siz buzuv xotinsiz, deb aytolmadi.
 7. -Mirvali tog'a seni yaxshi ko'radi.
 8. Mirvalining erkalashlaridan xuddi tush ko'rayotgandek mavhum bir olamda yasharkan, qishloqda Azizbek ismli bolasi borligini biror daqiqa xayoliga keltirmagandi-yu
 9. Bodomgul ko'ksini isitgan, ko'zlariga anvoyi nurlar jilvasini namoyish qilgan, faqat tushlaridagina bo'ladigan bir sirli olam asta-sekin asli holiga qaytayotgan edi.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Sifatlarning yasalishi va ularning otlashuvi

Mavzu rejasi:

1. Sifatlarning yasallish usullari:
 - a) affiksatsiya usuli bilan yasallishi;
 - b) kompozitsiya usuli bilan sifat yasallishi;
2. Sifatlarning otlashuvi.
3. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: Tub sifat, yasama sifat, sifat yasovchi qo'shimcha, kompozitsiya usulida sifat yasallishi, qo'shma sifat, juft va takroriy sifatlar, otlashgan sifat, sifatlarning sintaktik vazifasi, aniqllovchi, kesim.

1-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning sifat so'zlarning yasallishi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sifatlarning yasallish xususiyati bor ekanligini, jumladan, yasovchi affikslar yordamida hamda kompozitsiya usulida sifat yasallishi mumkinligini bilib oladilar va aytib bera oladilar.

1-reja bayoni:

Sifatlar quyidagicha yasalladi: 1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan. 2. So'zlarni qo'shish bilan. 3. So'zlarni juftlash va takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

1) *otdan sifat yasovchi qo'shimchalar:*

- li: rasml*li* kitob, kuchl*li* shamol
- dor: aybdor, vafodor
- ba-: badavlat, baquvvat
- ser-: serhosil olma.
- mand: kasalmand, davlatmand

Yuqoridagi qo'shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

- siz: tuzsiz ovqat.
- be-: begubor, bexabar

Bu qo`shimchalar esa (no- qo`shimchasi bilan birgalikda: noaniq, notinch.) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodalaydi.

-lik:	toshkent <u>lik</u> (bola)
-iy,-viy:	tarbiyaviy soat, devoriy soat.
-gi,-ki,-qi:	bahorgi ishlar, qishki kiyim (paytga xos bel. bildiradi).
-aki, -oqi:	jizzaki, jirttaki, pistoqi
-yi:	havoyi.
-chan:	ishchan bola.
-simon:	odamsimon maymun (o`xshashlik ma`nosini bildiradi).
-kor,-gar:	isyonkor, zulmkor, javobgar, ig`vogar.
-i:	qishloqi, qozoqi, jannati
-cha:	farg`onacha, erkakcha, arabcha (o`yin)
-namo:	avliyonomo, darveshnamo
-parvar:	xalqparvar, adolatparvar
-on:	charog`on, za`faron
-aki:	dahanaki, og`zaki
bad-:	badbaxt, badnafs
-shumul	olamshumul, jahonshumul
-don:	gapdon, bilimdon
-kash:	dilkash, hazilkash
-bop:	palovbop, qishbop
xush-:	xushfe`l, xushhavo
-in:	erkin, otashin
-vor:	devonavor, afsonavor
-parast:	mansabparast, maishatparast
bar-:	barhayot, barvaqt
-chil:	xalqchil, izchil.
-lik(-liq):	ko`ylaklik(chit), bolalik(chog`lar)
-i:	jannati(kampir)
-loq:	baqaloq, qo`shaloq (g`o`za)
-kor:	devkor(ish), fusunkor(husn)
-kash:	zahmatkash(odam), noskash(kampir)
-chi:	gapchi(odam), vahimachi(ayol)
-von:	zo`rayon(odam)
-qa:	loyqa(suv)
-omuz:	hazilomuz(gap), zaharomuz(hazil)
-xo`r:	g`amxo`r(odam), go`shtxo`r(hayvon)
-soz:	soatsoz(usta)
-dek(-day):	muzdek(suv), jo`jabirday(jon)

2) *fe`ldan sifat yasovchi qo`shimchalar:*

-choq,-chak,-chiq:	maqtanchoq, kuyunchak, qizg`anchiq
-gir,-g`ir,-kir,-qir,-qur:	sezgir, topqir, o`tkir, olg`ir, uchqur
-ma:	qaynatma sho`rva, burma ko`ylak
-k (-uk, -ik,-ak)	chirik, teshik, tuzuk, g`alvirak
-q(-uq,-iq,-a/oq):	iliq, siniq, buzuq, qoloq.
-oq:	qochoq, qo`rqoq, baqiroq
-qi:	sayroqi qush,
-qoq, -g`oq:	tirishqoq, uyushqoq, toyg`oq

-ag`on:	bilag`on, chopag`on
-mon:	bilarmon, qirarmon
-kun, -qin, -g`in,	tushkun, ozg`in, jo`shqin,
-g`un, -qun:	turg`un, tutqun
-(a)rli:	etarli, zerikarli
-ch:	tinch, jirkanch
-g`ich:	yulg`ich (odam)
-ong`ich:	tepong`ich, suzong`ich
-ovuch:	hurkovuch, iskovuch
-mas:	o`tm ^{as} (pich ^{oq}), indama ^s (odam)
-(i)ndi:	asrandi (bola)
-a:	ko`ta ^a (savdo)
-msiq:	qarimsiq, achimsiq

3) *Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo`shimchalar :*

Ravishdan:	-gi:	kechagi, dastlabki
Sifatdan:	no-:	noma`lum, noto`g`ri.
	-lom:	sog`lom

Taqlid so`zdan: -ildoq: bijildoq, likildoq

2. So`zlarni qo`shish, bog`lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) qo`shma sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo`shib yoziladi: *bodomqovoq, sheryurak;*

b) sifat va otdan. Bular qo`shib yoziladi: *qimmatbaho;*

v) ot yoki ravishga *-ar* qo`shimchali fe`lni qo`shish bilan yasaladi. Bular qo`shib yoziladi: *tezoqar daryo, ertapishar (o`rik)*

g) otga *aro, umum, yarim, g`ayri, nim, rang* so`zlarini qo`shish bilan. Bular qo`shib yoziladi: *xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g`ayridin, nimpushti.*

Qo`shma sifatlar a) ikki tub so`zdan tashkil topadi: sovuqqon, xom semiz, kamgap; b) biri tub, ikkinchisi yasama so`zdan iborat bo`ladi: ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o`zbilarmon.

2) birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so`zdan iborat bo`ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo`ladi, bunday sifatlar *aralash, yo`q, ko`p, oliy, och, to`q, to`la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so`zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash (loy), tengi yo`q, ko`p tarmoqli, oliy ma`lumotli, och qizil, qorni to`q, to`q qizil, to`la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli (dala), uzun tolali (paxta), yoshi ulug` (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).*

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: a) qarama-qarshi ma`noli so`zlardan: *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi;* b) sinonim ko`rinishdagi so`zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog`-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo`min-qobil, xor-zor;* v) yaqin ma`noli so`zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o`ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.* Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *-u, -yu* yuklamalari bilan bog`lansa, ulardan oldin chiziqcha qo`yiladi: *yakka-yu yagona farzand.*

So`zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlargina yasaladi: *yo`l-yo`l (ko`ylak), manman (odam), shiqshiq (tugma), liplip (chiroq), chaqchaq (odam).*

**2-savol bo`yicha dars maqsadlari:** talabalarning sifat so`zlarning otlashuvi va gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Sifatlarning otlashuv xususiyati bor ekanligini, otlashgan sifatlar ot ega bo'lgan grammatik shakllarni o'ziga qabul qila olishini bilib oladilar.

2-reja bayoni:

Sifat turkumidagi so'zlar ba'zan ot turkumidagi so'zlarning ma'nosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat o'zining leksik va grammatik ma'nosini yo'qotib, predmetlik ma'nosini ifodalaydi. Gapda sifat bog'lanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik ma'nosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham o'z ustiga oladi. Misol: *Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi* gapida yaxshi (odam), yomon (odam) sifatlari tushib qolgan kim? so'rog'iga javob bo'lgan, bosh kelishikdagi, ega vazivasidagi ot vazifasini bajargan. Odam oti gapda tushib qolgani tufayli *yaxshi, yomon* sifatlari otlashishgan. Bu hodisa gap tarkibida yuz bergan. Bunga nutqning ixchamlikka intilishi sabab bo'ladi. Sifatlarga oid so'zlarning hammasi ham otlashavermaydi. Asosan belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar, kishilarning laqabini bildiruvchi (tajang, maymoq, cho'tir, darroz) sifatlar, hayvonlarning tusini bildiruvchi (saman, to'riq, bo'z, qashqa) sifatlari otlashadi.

Otlashgan sifatlar aniqlovchilik vazifasidan chiqib, otga xos ega, kesim, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma vazifasini bajaradi. Misol: *Aqlsizlar gap bermaydi otasiga.* (A.Po'lat) *Mard bo'lgandan keyin yomonni ham yaxshilik bilan yengar ekan.* (P.Qodirov) *Yaxshining so'zi qaymoq, yomonning so'zi to'qmoq.* (Maqol) *Yaxshilar, uni eslang!*

3-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning sifat so'zlarning tuzilish jihatdan turlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

3-reja bayoni:

Sifatlar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'libadi:

1. Sodda sifatlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *aqlli, yaxshi*.
2. Qo'shma sifatlar - *rahmdil, ertapishar, havo rang*.
3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug'* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).
4. Juft sifatlar - *o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq*.
5. Takroriy sifatlar - *baland-baland, uzun-uzun, yo'l-yo'l* (ko'ylak).

Sifat tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	4. Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2. Darajasi.	5. Tuzilish turi.
3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?	6. Tub yoki yasamaligi.
	7. Gapdagi sintaktik vazifasi

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

14- ma'ruza: Son. Sonning grammatik ma'nosi, morfologik belgilari

Mavzu rejasi:

1. Son soʻz turkumining morfologik xususiyatlari.
2. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari.
3. Sonlarning otlashuvi va gapdagi vazifasi.
4. Sonning ma'no jihatdan turlari

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: son, miqdor son, tartib son, donason, chama son, taqsim son, miqdor soʻzlar (numerativlar), sonlarning tuzilish jihatdan turlari, sonlarning gapdagi vazifasi, sonlarning yozilishi.

1- savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning tildagi son soʻzlarning oʻziga xos morfologik xususiyatlari, tuzilish jihatdan turlari va gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar son tartib va miqdor bildiruvchi mustaqil soʻz turkumi ekanligini bilib oladilar va aytib bera oladilar.
2. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari va ularning qanday yozilishini bilib oladilar va amalda qoʻllay oladilar.
3. Sonlarning gapdagi vazifasi nimalardan iborat ekanligini bilib oladilar.

1-reja bayoni:

Predmetning miqdorini, sanogʻini, joylashish tartibini, baʼzan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil soʻz turkumi son deyiladi. Son *necha? nechanchi? nechta? qancha?* kabi soʻroqlardan biriga javob beradi.

Son otga bogʻlanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, baʼzan feʼlga bogʻlanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: *toʻrtta daftar, ikki oy oʻqidi, birinchi keldi* kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, feʼlga bogʻlanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum maʼnoga ega boʻladi: *ikki qoʻshuv uch besh*. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qoʻshilishi bilan besh hosil boʻlishi aniq emas.

Sonlar koʻpincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

2) rim raqamlari bilan: *birliklar: I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); oʻnliklar: X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90); yuzliklar: C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900); mingliklar: M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...*

Badiiy asarlarda sonlar soʻz bilan yoziladi: *Toʻrt yil kutdi*.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23 ta sodda son boʻlib, boshqa sonlar shularning qoʻshilishidan hosil boʻladi: nol, bir, ikki, uch, toʻrt, besh, olti, etti, sakkiz, toʻqqiz, oʻn, yigirma, oʻttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, toʻqson, yuz, ming, million, milliard.

Eski yozuv tilida tuman (oʻn ming), lak (yuz ming) kabi sonlar boʻlgan. Tarixiy asarlarda mana shu sonlar uchraydi.

Son predmetning aniq (*beshta daftar*) yoki noaniq (*besh-oltita daftar*) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalanagan. Ravish soʻz turkumiga doir *koʻp, oz, kam, moʻl* kabi soʻzlar ham predmetning noaniq

miqdorini bildiradi, lekin bu soʻzlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu soʻzlar son soʻz turkumiga oid emas.

Son soʻz turkumi oʻziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi maʼnosini ifodalashidir, yaʼni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga koʻra (baʼzan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi boʻladi.

2. Son maʼno jihatdan predmetning sanogʻini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi, shuningdek, ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal maʼnolarni ifodalaydi. Shu maʼno xususiyatlariga koʻra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga boʻlinadi. Sonning maʼno turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: *uchta*, *beshovlon*, *ikkala*, *yuzlab*, *toʻrttadan*, *uch-toʻrt*, *oʻninchi* kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qoʻshiladi.

3. Son morfologik jihatdan oʻzgarmaydi, yaʼni egalik, kelishik, koʻplik affikslarini olmaydi, chunki son asosan otga bogʻlanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi Otabekning yoniga ikkita yostiq olib qoʻydi va bittani oʻz yonboshiga ham oldi.* (A.Qodiriy.)

Son hech qachon belgi ifodalovchi soʻzni oʻziga tobe qilib kelmaydi - aniqlovchi olmaydi.

Son baʼzan feʼlga bogʻlanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Margʻilonga etti-sakkiz marta kelibdi* (A.Qodiriy.)

4. Son bogʻlanib kelgan ot qoʻllanmaganda, otga qoʻshilib kelgan soʻz oʻzgartiruvchi affikslar, yaʼni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi koʻplik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan oʻzgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, toʻldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, oʻz joyida ikkovi ham yaxshi* (Shukrullo). *Bilagi zoʻr birni yiqar, bilimi zoʻr mingni.* (Amir Temur oʻgʻitlari). *Oʻnning yarmi* besh.

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi (maqol, matal, aforizmlarda koʻp uchraydi). Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan oʻzgarmaydi (chama son -tacha, -lab, -lar kasr songa qoʻshilmaydi).

5. Sonlarning hisob soʻzlari (numerativlar) bilan birga qoʻllanishi uni boshqa soʻz turkumlaridan ajralib turuvchi oʻziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob soʻzlari ot soʻz turkumiga doir boʻlib, u son bilan bogʻlanib kelgan ot va feʼl orasida ishlatiladi: *ikki tup daraxt, besh kilogramm olma, oʻn kilometr yurdi, toʻrt sahifa oʻqidi* kabi.

Sonlar hisob soʻzlari bilan ham, hisob soʻzlarisiz ham qoʻllanadi (Bu soʻzlar haqida quyida toʻxtalamiz).

6. Son soʻz yasaliş tizimiga ega emas. Boshqa soʻz turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa soʻz turkumlari yasalişı mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (feʼl), bittalab (ravish) kabi.

Sonlarda quyidagi xususiyatlar ham mavjud:

Omonimlik: yuz (son)- yuz (chexra), uch (son) - uch (xarakat);

Sinonimlik: bir - yakka, ikki - juft;

Paronimlik: etti - etdi.

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning tildagi son so'zlarning o'ziga xos morfologik xususiyatlari, tuzilish jihatdan turlari va gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari va ularning qanday yozilishini bilib oladilar va amalda qo'llay oladilar.

2-reja bayoni:

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda sonlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *bir, uch*.
2. Qo'shma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: *o'n uch, bir yuz o'n sakkiz*.
3. Juft sonlar ikkita turli o'zakning juftlashishidan tuziladi: *besht-olti, o'n besht-o'n olti*.
4. Takroriy so'zlar bir o'zakning takrorlanishidan tuziladi: *ikki-ikki, turtta-turtta, o'nta-o'nta*.

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Tilshunos olimlar *sakson* va *to'qson* sonlarining *sakkiz va o'n, to'qqiz va o'n* so'zlaridan tuzilganligini aniqlashgan.

Butun son, kasr son, aralash son va ularning yozilishi.

Butun son narsa - buyumning sanog'ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydi: 1,3,5,12 kabi.

Kasr son - butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi $\frac{1}{2}$ (yarim), $\frac{1}{4}$ (chorak), $\frac{1}{8}$ (nimchorak).

Kasr son ikki xil buladi: 1. Ikki son chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan bog'langan bo'ladi: *ikkidan bir*. 2. O'z holicha kasrni anglatadigan so'z bo'ladi: *yarim, chorak, nimchorak*.

Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son hosil bo'ladi: *bir yarim, ikki butun undan uch*. Butun, aralash sonlar ajratib yoziladi: *bir yarim kilogramm*.

3- savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning tildagi son so'zlarning otlashuvi va gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sonlarning otlashuvi, otlashganda ot ega bo'lgan grammatik shakllarni o'ziga qabul qila olishi mumkinligini bilib oladilar.
2. Sonlarning gapdagi vazifasi nimalardan iborat ekanligini bilib oladilar.

3-reja bayoni

Son so'zning ot turkumi vazifasini bajarishga xoslangani uning otlashuvi (substantivatsiya) deyiladi.

Son so'z mavhum tushuncha ifodalasa, u ko'pincha otga yaqinlashadi, uning vazifasini bajaradi. Aniq predmet tushunchasini ifodalagan so'z bilan biriksa, belgini ko'rsatadi- aniqlovchi bo'lib keladi.

Son so'z otlashib, ot turkumi uchun xos bo'lgan egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalarini olib, gapda ega, to'ldiruvchi va qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan, *Besh o'ning yarmi. Olti ikkiga qoldiqsiz bo'linadi* kabi. Son so'zlar otlashib aniqlanmish olganda ot sondan oldin kelishi mumkin: *Olmadan to'rttasini oldim deb qo'llash mumkin (to'rtta olma oldim o'rnida)*.

Sonlarning sintaktik xususiyatlari:

Son gapda aniqllovchi, otlashganda ot kabi sintaktik vazifalarni bajarib keladi.

1. Sonlar odatda otlar bilan qo'llanib, ularning aniqllovchisi bo'lib keladi. Bu ularning asosiy sintaktik xususiyatlaridan biridir.
2. Sonlar hech qachon o'ziga belgi ifodalovchi so'zlarni tobe qilib kelmaydi - aniqllovchi olmaydi. Chiroyli beshta daftar ol emas, balki beshta chiroyli daftar ol.
3. Sonlar ot oldida aniqllovchi bo'lib kelganda, ko'pincha keyingi hokim bo'lakka nisbatan ot bilan birikmali bo'lak hosil qilgan holatda munosabatga kirishadi: *Uchta odam kelmadi* gapini aniqllovchisiz *odam kelmadi* holida qo'llab bo'lmaydi. Bunday hollarda ot oldidagi son aniqllovchi birga qo'llanishi shart.
4. Ba'zan son va sifat birga ot aniqllovchisi vazifasida keladi. Bunday vaqtda o'zbek adabiy tili normasiga ko'ra ko'pincha oldin son aniqllovchi, keyin sifat aniqllovchi keladi: ikkita baland uy, uch dugona kelishyapti, o'nta qora paxta gulli piyola.
5. Sonlar gapda ko'pincha aniqllovchi, kesim va ega vazifasida keladi: Maqsadimiz bitta. Beshta qalam oldi.

Nazorat savollari:

1. O'lchov so'zlarni tushuntiring.
 2. Berilgan raqamlarni so'zlar bilan yozib ularning sanoq sonlarning qaysi turiga mansubligini tushuntiring. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90.
 3. Gaplardagi son so'zlarni ajratib, ularning sonning qaysi ma'no guruhiga oidligini aniqlang.
 4. Bolalarning uchalasi ham sportchi edi.
 5. Salima va Rahimalarning ikkalasi ham a'lochi.
 6. Uchala komanda ham faxrli o'rin olishdi.
 7. O'quvchilarning to'rtalasi masalani o'z vaqtida yechib bo'ldilar.
 8. Beshala dastgoh birdan guvullab ishlab ketdi.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Sonning ma'no jihatdan turlari

Mavzu rejasi:

1. Sanoq sonlar haqida ma'lumot.
2. Tartib sonlar haqida ma'lumot.
3. Bir soning ma'nolari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: son, miqdor son, tartib son, donason, chama son, taqsim son, miqdor so'zlar (numerativlar), bir sonining usulubiy ma'nolari.

1-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning miqdor so'zlar haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar sanoq sonlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2. Sanoq sonlar va tartib sonlarning farqli xususiyatlarini bilib oladilar.
3. Mavjud hisob (numerativ) so'zlarning mazmunini bilib oladilar.
4. Sonlarning turlarini hosil qiluvchi affikslarning xususiyatlarini bilib oladilar.

1-reja bayoni:

Son ma'no jihatdan va grammatik xususiyatlarga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: *sanoq sonlar va tartib sonlar*.

Sanoq son predmet yoki ish-harakatning sonini, miqdorini, belgisini bildiradi: *uch bola, ikkita kitob, besh tonna paxta, olti kilogramm sotib oldi* kabi.

Tartib sonlar esa ularning tartibini, sirasiga ko'ra belgisini ko'rsatadi.

Sanoq sonlar predmetlarni sanash, donalash, taqsimlab ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Sonning bu turi quyidagicha grammatik xususiyatlariga ko'ra tartib sonlardan farqlanadi:

-miqdor sonlar o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlarga ega. Tartib sonlar esa - **(i)nchi** affiksi orqali yasaladi.

-miqdor sonlar hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanadi. Tartib sonlar esa bu xil so'zlar bilan ishlatilmaydi.

-miqdor sonlar juftlashib kela oladi, tartib sonlarda bu xususiyat yo'q.

-miqdor sonlar birikmali holda *uchdan bir, to'rt dan uch* kabi shakllarda ishlatiladi, tartib sonlar esa bunday qo'llanmaydi.

-miqdor sonlar **-lar** affiksini olib ko'pincha taxminiy miqdor bildiradi, tartib sonlar esa ba'zan **-lar** affiksini olib otlashadi, ko'plikni ifodalovchi ot vazifasida keladi: *Soat uchlarda yig'ilish boshlandi. Qodirning yoshi 30 larda bo'lsa kerak. Birinchilarga mukofot berildi.*

Sanoq sonlar hisob so'zlarisiz va hisob so'zlari bilan qo'llanish xususiyatiga ega: *ikkita qalam, besh talaba, o'ntacha o'quvchi* - hisob so'zlarisiz; *olti tup daraxt, uch litr sut, o'n oy o'tdi, ikki marta chaqirdi* - hisob so'zlari bilan kelgan.

Hisob so'zlari ko'p hollarda predmetning, ba'zan ish-harakatning hisobini ko'rsatuvchi o'lchov birligi bo'lib, u orqali predmetning ish-harakatning miqdori belgilanadi. Hisob so'zlar sanoq son bilan sanaladigan predmet, ish-harakat anglatuvchi so'z orasida kelib, ularni og'irligiga, uzunligiga, hajmiga, vaqtiga va shunga o'xshash xususiyatlariga ko'ra o'lchovini bildiradi: *ikki bosh uzum, uch kilogramm olma, bir qultum suv, ikki gektar yer* kabi.

O'zbek tilida hisob so'zlari ot so'z turkumiga oid bo'lib, ular qo'llanilishiga ko'ra quyidagi ma'nodagi otlarni o'z ichiga oladi:

1. Predmetni yakkalab, donalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *dona, nusxa, bosh, tup, nafar* kabi.

2. Butunning bo'lagini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *burda, parcha, varaq, og'iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, xarch, qop, arava, mashina, chaqmoq* kabi.

3. Juft predmetlar hisobini ko'rsatuvchi hisob so'zlari: *juft, para, jo'ra* kabi.

4. Og'irlikni o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *gramm, kilogramm, sentner, tonna* kabi.

Eski o'zbek tilida *misqol, qadoq, botmon* kabi otlar og'irlik miqdorini hisoblash uchun ishlatilgan: *Namangan va Andijon tumanlarida ikki ming botmongacha yer sug'orilar edi.* (A.Qodiriy)

5. Uzunlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlari: *millimetr, santimetr, metr, kilometr, qadam, qarich, quloq* kabi.

Bu hisob so'zlarining *gaz, tanob, tosh, chaqirim* kabi sinonimlari mavjud bo'lib, hozir bu so'zlar arxaiklashgan hisob so'zlari sanaladi.

6. Suyuqlik hajmini ifodalovchi hisob so'zlari: *litrlar, kosa, stakan, piyola, qoshiq, xo'plam, hovuch, chelak* kabi.

7. Pul qiymatini ifodalovchi hisob so'zlari: *tiyin, so'm, dollar* kabi.

Tanga, chaqa, tilla soʻzlari ilgari pul qiymatini hisoblash uchun ishlatilgan boʻlib, hozirgi kunda arxaik soʻzlar qatoridan oʻrin olgan: *Solih mahdum ... bir tangalik goʻsht, sakkiz pullik piyoz olib hovliga kirdi* (A.Qodiriy).

8. Vaqt oʻlchovi uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: *asr, yil, oy, hafta, sutka, kun* soʻzlari hamda *sutkaning boʻlaklarini ifodalovchi soat, daqiqa, minut, sekund* kabi soʻzlar kiradi.

Asr, yil, oy, hafta, sutka, kun soʻzlari turli kelishik affikslerini olib kelishi, shuningdek, koʻmakchilar bilan birga ham qoʻllanishi mumkin: *Oybek 30-yillardan boshlab Alisher Navoiy hayoti va ijodi toʻgʻrisida materiallar yigʻa boshlagan edi* (Z.Saidnosirova).

9. Yosh hisobi uchun qoʻllanadigan hisob soʻzlari: *yosh, yashar, kunlik, oylik* kabi.

10. Harakat miqdorini koʻrsatish uchun ishlatiladigan hisob soʻzlari: *marta, karra, bor, hissa, qatla, daʼfa, sidra* kabi.

Sanoq son maʼno xususiyatlariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

1) miqdor son; 2) dona son; 3) chama son; 4) jamlovchi son; 5) taqsim son.

1. Miqdor son bir turdagi predmetlarning umumiy miqdorini, baʼzan ish-harakatning umumiy miqdoriy belgisini anglatadi: *uch kishi, ikki qop guruch, besh yil oʻqimoq* kabi.

Sizga munosib yigit, balki yetti iqlimda ham yoʻqdir (P.Qodirov). *Tejamkor kishi pulini keragidan ortiqcha sarflamaydi, oʻn soʻmga olinadigan narsa uchun hovliqib yuz soʻm sarf etmaydi* «Odob boʻstoni va axloq gulistonini».

Miqdor sonlar hisob soʻzlarisiz va hisob soʻzlari bilan qoʻllanadi.

Miqdor sonni hosil qiluvchi shakl yasovchi affikslar mavjud emas.

Dona son bir xil predmetlarning yakka, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatadi.

Dona son miqdor son negiziga **-ta** affiksini qoʻshish bilan yasaladi: *oʻnta oʻquvchi, beshta daftar* kabi. Shuningdek, dona son miqdor son dan soʻng donalikni ifodalaydigan *dona, tup, nusxa, nafar, tuyoq, bosh* kabi hisob soʻzlarini keltirish bilan hosil qilinadi: *yuz nusxa kitob, ikki bosh qoʻy, besh dona qalam, uch tup daraxt* kabi.

Gʻavvoslarning rahmi kelib, unga bitta qimmatbaho tosh hadya qildilar («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»). *Vaqt kelib, oʻnta quruq gapdan bitta dalil, oʻnta qonun-qoidadan bitta amaliy mashgʻulot aʼlo* (A.Soliev). *Gulshan kirganida uch nafar kaniz sanoliya tikmoqda edi* (A.Qodiriy). *Javonda Abu Ali ibn Sino hazratlarining tibbiyot masalalariga oid yigirma jildlik «Kitob ush shifo» si turardi.* (O.Yoqubov).

Jamlovchi son bir turdagi predmetlarning miqdorini jamlab, toʻdalab koʻrsatadi.

Jamlovchi son miqdor songa quyidagi affikslarni qoʻshish bilan hosil qilinadi:

1. Miqdor songa **-ov** affiksini (ikkidan yettigacha boʻlgan sonlarga) qoʻshish bilan: *ikkov, uchov, toʻrtov, beshov, oltov, yettov* kabi. Baʼzan oʻn sonidan ham yasaladi *oʻnovi* kabi. Bu affiks bilan yasalgan son otlashgan holda kelib, doimo egalik affikslari bilan birga (I shaxs birlik egalik affiksidan tashqari) qoʻllanadi. Yaʼni ular koʻpchiligi predmetning miqdoriga koʻra belgisini koʻrsatmaydi, miqdor maʼnosi bilan birga predmetlik maʼnosini anglatadi: *Ular ikkovi birining ogʻzidan biri olib, Qobilni past urib, Anvarni maqtab ketdilar* (A.Qodiriy). *Maqsud akaning qaytganini eshitganimiz hamon Oybek men Mirtemir uchchovimiz suyunib yugurdik* (Z.Saidnosirova).

2. Miqdor songa **-ala** affiksini qoʻshish bilan yasaladi: *ikkala, uchala, toʻrtala, beshala* kabi. Olti va yetti sonlariga ham qoʻshiladi. (Ikki va olti sonlariga qoʻshilganda negiz oxiridagi i unlisi tushib qoladi). *Toʻshaboy ikkala otni jilovidan ushlab tolning naryogʻiga olib oʻtib ketdi* (S.Ahmad).

3. Miqdor songa **-ovlon** affiksini qo'shish bilan yasaladi: *ikkovlon, uchovlon*. Bu affiks ham ikkidana yettigacha bo'lgan sonlarga qo'shiladi: *Oltovlon ola bo'lsa og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa tepadagin endirar* (Maqol).

Otga bog'lanib kelgan jamlovchi son sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *Haqiqat uchun, Vatan uchun jonini ayamagan ikkala pahlavon sal o'tmay jangda mardona halok bo'ldi*. (Shukrullo)

Lekin jamlovchi son gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: *Ikkovlari kech salqinda adir tagida bitta-bitta yurib ketishyapti* (S.Ahmad.). *Uchalasining maqsadi bir. Talabalarning beshoviga ham mukofot topshirildi*.

Taqsim son predmetlarning miqdor jihatdan teng taqsimlanishini, guruhlanish miqdorini anglatadi.

Taqsim son quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga **-tadan** affiksini qo'shish bilan: *Azim har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan yigit bo'libdi* (A.Qahhor).

2. Donalik anglatadigan sonni takrorlash yo'li bilan: *bitta-bitta, uchta-uchta* kabi. Ba'zan so'nggi qismga **-dan** chiqish kelishigi affiksi qo'shilishi ham mumkin: *bitta-bittadan, uchta-uchtadan* kabi.

Chama sonlar predmetning, ish-harakatning noaniq, taxminiy miqdorini anglatadi.

Chama sonlar quyidagicha yasaladi:

1. Miqdor son negiziga **-tacha** affiksini qo'shish bilan: *beshtacha, o'ntacha, yuztacha* kabi. *Ikki tomonga uch qavatdan oltmishtacha joy qilingan*. (A.Q.)

Hisob so'zlari bilan birga qo'llanadigan sonlarda **-cha** affiksi hisob so'ziga qo'shib keladi: *Ikkala to'rg'ay taxminan bir-birlaridan ellik metrcha narida uchib sayrashyapti* (S.Ahmad).

2. Miqdor son negiziga **-larcha** affiksini qo'shish bilan (miqdor jihatdan yirik sonlarga qo'shiladi): *o'nlar, yuzlar, minglar* kabi: *Menga bir bechora, notavonning sevinch ko'z yoshi minglar qimmatbaho toshlardan afzaldir* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

3. Miqdor son negiziga **-lab** affiksini qo'shish bilan (bu affiks ham miqdor jihatdan yirik sonlarga qo'shiladi): *o'nlab, yuzlab, minglab* kabi: *O'zbekistonda butun jahondan yig'ilgan yuzlab millatlar va elatlar yashaydi* («O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh»).

4. Ketma-ket kelgan ikki sonni juft holda keltirish orqali: *bir-ikki, uch-to'rt* kabi: *Hanifa xolaning sandig'ida bo'lajak kelinga atab yig'ilgan besh-o'n kiyimlik atlas va boshqa yaxshi matolar bor edi* (B.Qodirov).

Ba'zan **-ta** affiksi bu juft sonlarning har bir qismiga yoki ikkinchi qismiga qo'shib keladi: *bitta-ikkita, uch-to'rtta* kabi: *Daraxtlar orasidan sarg'ayib bir-ikkita yulduz ko'rindi* (O'.Umarbekov).

5. Hisob so'zlari bilan qo'llangan miqdor sonlarga **-lar** ko'plik affiksi hamda kelishik affiksini qo'shish bilan yasaladi. Bunda ko'pincha vaqt bildiruvchi hisob so'zi oldin keladi: *Saida uyga kech soat o'n birlarda qaytdi* (A.Qahhor). bunda ish-harakatning bajarilishidagi payt, vaqtga nisbatan taxmin ma'nosi ifodalanadi. Ba'zan bu affikslar hisob so'ziga ham qo'shiladi: *Ro'zimat qorong'ida ko'ziga yigirma besh yoshlarda ko'ringan edi*. (A.Qahhor)

6. Chama sonlar taxmin ma'nosini ifodalovchi *chamasi, chog'li, taxminan, qariyb, shuningdek, yaqin, ortiq, kamida* kabi so'zlarning ishtiroki bilan ham hosil

qilinadi: *Maktabda o`n chog`li bola yig`ilgan (O). Ko`chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiqroq ko`chat o`tkazildi (A.Qahhor).*

**2-savol bo`yicha dars maqsadlari:** talabalarning tartib so`zlar haqidagi bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Talabalar tartib sonlar haqida ma'lumotga ega bo`ladilar.
2. Sanoq sonlar va tartib sonlarning farqli xususiyatlarini bilib oladilar.

2 - reja bayoni:

Tartib sonlar. Predmetning tartibini bildirgan son so`zlar tartib sonlardir. Tartib sonlar sifat so`zlarga yaqin bo`lib, ulardek predmet belgisini bildiradi.

Tartib sonlar sanoq sonlarga **-nchi** yoki **-inchi** qo`shimchalarini qo`shish bilan hosil qilinadi: *to`rtinchi bosqich* kabi. Tarkibli sonlardan tartib son yasalganda **-nchi** yoki **-inchi** qo`shimchasi eng so`nggi so`zga qo`shiladi: *bir ming to`qqiz yuz to`qson uchunchi yil* kabi.

Ba'zan **-lamchi** qo`shimchasi ham tartib son hosil qilishda ishtirok etadi. Bunda predmetning tartibiga ko`ra belgisi emas, balki sanaladigan voqea hodisalarning tartibi, sirasini ifodalaydi. *Uning ikkita aybi bor: birlamchi jussadan bergan emas, ikkilamchi xotinidan ko`p urush eshitadi* (A. K.) **-nchi**, **-inchi** qo`shimchalari so`z yasash ham mumkin, buni uning tartib son hosil qilishdagi vazifasidan farqlash lozim bo`ladi. M: *Gulning birinchi gunchasi kuttirib ochildi* (S. A.) *Bu shubhasiz, bizning yutug`imiz, lekin ikkinchi tomoni ham bor, esdan chiqarmaslik kerak* (A. K.) Bunda «*ilk*», «*oldingi*», «*avvalgi*», «*boshqa*» kabi modal ma'nolar yasaladi.

Tartib sonlar otlar bilan grammatik munosabatga kirishganda, ikki holat seziladi: a) sonni ifodalovchi tartib son: *4-bosqich, 10- sinf* kabi, b) mazmunan sifatga yaqin turgan belgi ma'nosini bildiradi. Bunda predmet tartibi emas, uning xususiyati, belgisi e'tiborga olinadi M: *birinchi sort paxta, ikkinchi nav urug* kabi.

Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo`shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo`yiladi; rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo`yilmaydi: 2-brigada, VI sinf.

Krillcha yozuvda yil va oyni ko`rsatuvchi arab raqamlaridan keyin chiziqcha qo`ilmaydi: 1998 йил, 15 феврал.

Lotincha yozuvda yil va oyni ko`rsatuvchi arab raqamlaridan keyin chiziqcha qo`yiladi: 1998-yil, 15-fevral.

3- savol bo`yicha dars maqsadlari: talabalarga bir sonining asl ma'nosi va uslubiy vazifalari haqida ma'lumot berish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Talabalar bir soning avvalo miqdor va tartib bilidirishini bilib oladilar va bu holat uning o`z vazifasi ekanligini anglab etadilar.
2. Bir soni o`z vazifasidan tashqari uslubiy vazifalarni ham bajarishi mumkinligini bilib oladilar.

3 - reja bayoni:

Sonlar ichida *bir* soni o`ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bir soni yuqorida qayd etilgan sonlarga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo`lishi bilan birga o`ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega:

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, gumon noaniqlik ma'nosini ifodalaydi: *Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergan edi.* (Z.Saidnosirova.)

Miqdor anglatadigan so'zlar so'roq olmoshlari yoki narsa so'zidan oldin bir so'zini kiritish bilan gumon, noaniqlik ma'nosidagi ravishlar yasaladi: *bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa, bir zum, bir payt* kabi.

Bir so'ziga **-ov, -on, -or** affiksi qo'shilishi bilan ham gumon ma'nosini bildiruvchi gumon olmoshlari yasaladi: *birov, biron, biror* kabi.

2. Bir soni fe'l, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (juda, g'oyat) va kuchaytiruv yuklamasi (hatto) kabi ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi* (Said Ahmad).

3. Bir soni sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham ma'noni kuchaytiradi: *Gulnor uchun ulug' bir baxt shu uchrashuv bo'ldi* (A.Q.) *Juvon asabiy bir harakat bilan ro'molini olib o'radi* (A.Q.).

4. Ayiruv chegaralov yuklamalari (*-gina, faqat*) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham bir xislat* («Tafakkur gulshani»). *Mening ishonchim bir sensan.* Bunda bir so'zi **-gina**, faqat vazifasini bajargan.

5. Bog'lovchi vazifasida kelib, uyushiq gap bo'laklarini yoki qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning* (Maqol).

6. Bir soni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlar ma'nosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. Kesim vazifasini bajarib kelganda, birdamlik, o'xshashlik, umumiylik ma'nosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir* (Maqol). *Odamning tili bilan dili bir bo'lsin.*

Bir sonidan olmosh, ravish, ot va fe'l yasaladi: bir necha, bir narsa, bir zum, bir payt, bir vaqt, birlik kabi.

Son tahlili namunasi	
1. So'rog'i. 2. Butun yoki kasrligi. 3. Ma'no turi. 4. Hisob so'zi bor-yo'qligi.	5. Otlashgan yoki otlashmaganligi. 6. Tuzilish turi. 7. Gapdagi sintaktik vazifasi.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

15 - ma'ruza: Olmosh mustaqil soʻz turkumi sifatida. Olmoshlarning ma'no turlari.

Mavzu rejasi:

1. Olmosh soʻz turkumining oʻziga xos morfologik xususiyatlari.
2. Kishilik olmoshlari haqida ma'lumot.
3. Koʻrsatish olmoshlari.
4. Olmoshlarning ma'no turlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Lugʻaviy ma'no, lugʻaviy ma'noga ishora, olmosh, ot oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, sifat oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, son oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, ravish oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar, olmoshlarning morfologik xususiyatlari, kishilik olmoshlari, koʻrsatish olmoshlari.

1-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalarga olmosh soʻz turkumi va uning oʻziga xos morfologik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identivoʻquv maqsadlari:

1. Talabalar olmoshning mustaqil soʻz turkumi ekanligini bilib oladilar.
2. Olmosh mustaqil soʻz turkumi sifatida oʻzining morfologik, sintaktik xususiyatlariga ega ekanligini bilib oladilar.
3. Olmoshning mustaqil holda lugʻaviy ma'no bildirmasdan, balki mustaqil soʻzlarga ishora qilib kelishini bilib oladilar.

1-reja bayoni:

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, baʼzan soʻz birikmasi va gap oʻrnida qoʻllana oladigan, aniq lugʻaviy ma'noga ega boʻlmagan soʻz turkumi **olmosh** deb ataladi: 1) ot oʻrnida: *Karim juda quvondi, chunki u oʻz orzusiga erishgan edi.* 2) sifat oʻrnida: *Kechagi kitobingni berib tur, men **shu** kitobdan misollar olmoqchiman.* 3) son oʻrnida: *Menda ikkita qalam bor, senda **nechta** bor?* 4) ravish oʻrnida: *Men bugun ketaman, sen **qachon** ketasan?* 5) soʻz birikmasi oʻrnida: *Yomon soʻz bosh qozigʻidir, **shunday** soʻzni gapirmagan maʼqul.* 6) gap oʻrnida: *Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, **bu** esa insondagi eng yomon xislatdir.* Olmoshlar turlanadi, gapda koʻpincha ega, toʻldiruvchi, aniqllovchi va undalma boʻlib keladi: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering. Hoy, sen, beri kel!*

Olmoshlar gapda soʻzlarni oʻrinsiz takrorlashdan qutqaradi, fikrni ixcham, qisqa qilib ifodalashga yordam beradi. Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlarga ega: 1) soʻz yasaliş xususiyati yoʻq (lekin olmoshlar asosida ot, feʼl, ravish, sifat yasalişı mumkin: *oʻzlik, sensirama, oʻzicha, menbop*); 2) juftlanib, boshqa soʻz turkumi vazifasida keladi: *oʻsha-oʻsha, shu-shu* (ravish); 3) olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni olishı mumkin: *unga, shunisi*; 4) olmosh hech vaqt oʻzidan oldin aniqllovchi olmaydi. Olmoshlarnı gapda bajargan vazifasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlsa boʻladi: 1) ot toifasidagi olmoshlar. Bular otlarning soʻroqlariga javob boʻladi, otlarga oʻxshab soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarnı qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifalarnı bajaradi. 2) sifat toifasidagi olmoshlar. Bular sıfatlarga oʻxshab sıfatlovchi-aniqllovchi, kesim va hol vazıfalarını bajaradi, otlashish xususiyatiga ega. 3) son toifasidagi olmoshlar. Bular miqdorni ifodalash uchun qoʻllanadi va gapda sıfatlovchi aniqllovchi, kesim, baʼzan hol vazıfalarını bajaradi.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga kishilik olmoshlari va uning grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar o'zbek tilida shaxslarga ishora qiluvchi so'zlarning kishilik olmoshlari ekanligini bilib oladilar.
2. Kishilik olmoshlari ot so'z turkumining o'rnida qo'llanib, ularga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarni qabul qila olishini bilib oladilar va amalda qo'llay biladilar.

2-reja bayoni:

Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. **U** kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda, bir **n** orttiriladi: unga, unda, undan. Qaratqich, tushum kelishigi va qarashlilik shakli qo'shimchasi **-niki** qo'shilganida esa, **-n** tushiriladi: *men+ning=mening, sen+ni=seni, sen+niki=seniki*. Ayrim vaqtlarda *biz, siz, ular* olmoshlari birlik ma'nosida ham ishlatiladi, bunda *biz* olmoshi kamtarlik, bajarilgan ishda o'zining rolini oshirmaslik kabi ma'nolarni ifodalaydi. *Siz, ular* esa hurmat ma'nosini bildiradi, bunda *siz* olmoshiga ko'plikni ifodalash uchun **-lar** qo'shimchasi qo'shiladi. Bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari deyarli qo'shilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega Men keldim, to'ldiruvchi Senga aytaman, qaratqich aniqlovchi Uning ukasi kelibdi, ot-kesim *Mening do'stim sensan* vazifalarini bajaradi.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga ko'rsatish olmoshlari va uning grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar o'zbek tilida narsa-buyumlarga ishora qiluvchi so'zlarning ko'rsatish olmoshlari ekanligini bilib oladilar.
2. Ko'rsatish olmoshlari sifat so'z turkumining o'rnida qo'llanib, ularga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarni qabul qila olishini bilib oladilar va amalda qo'llay biladilar.

3-reja bayoni:

Ko'rsatish olmoshlari narsa-buyumni, kimsani ko'rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: *u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana u, anovi, mana bu, manavi, ushbu* (ko'tarinki, tantanali ma'no ifodalaydi). Ko'rsatish olmoshlari oldingi gap, gap ichidagi ma'lum bir so'z yoki so'z birikmasi o'rnida qo'llanadi va ularga ishora qiladi yoxud biror-bir so'zni aniqlab keladi. So'z ma'nosini aniqlab keluvchi bunday olmoshlar aniqlanayotgan so'zdan oldin keladi: *o'sha* odam.

Kishilik olmoshi *u* bilan ko'rsatish olmoshi *u* ni gapdagi ma'nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda *u* kishilik olmoshi *kim?* so'rog'iga *U* keldi, ko'rsatish olmoshi *u* esa *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi *U* kishi keldi. *U, bu, shu, o'sha* olmoshlari jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga **-day, -dek, -aqa, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir **n** tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o'shanday, uncha, shunaqa, o'shandedek*.

U, bu olmoshlari juftlanib har xil narsa va shaxs, unaqa-bunaqa tarzida belgining ortiqqligi, uncha-muncha tarzida oz miqdor ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi Bu kitob ukamniki va kesim *Men aytgan odam shu* vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega Shu mening maqsadimdir, to'ldiruvchi Buni tushundim, qaratqich aniqlovchi Shuning egasi sensan, hol Bunda bulbul kitob o'qiydi bo'lib ham kela oladi.

Nazorat savollari:

1. Olmoshlarning leksik-semantik xususiyati va morfologik belgilarini tushuntirib bering.
 2. Matnda kelgan olmoshlarning gapdagi vazifalarini aniqlangan.
Muhabbat shunday bir kudratli, kuchli, kimning qalbiga yo`l topgan bo`lsa, uni ham o`z yo`liga boshlaydi. (S. Axmad) Mening yuragimda cho`g` yo`q. Hech kim o`t solmagan. (S. Axmad) Tabiat allaqanday hidga to`lgan. (S. Axmad) Skameykada o`tirgan xotin nimadir dedi. (S. Axmad) Xu ana u tepaning tagida salqin bir skameyka bor. (P. Qodirov)
 4. Olmoshlarni topib, gapdagi vazifasini aniqlang, ularning qaysi so`z o`rnida kelganini aytib bering. Shabboda ko`zg`aldi. U jonga orom berdi. Gerasim kuchukchasini juda yaxshi ko`rar edi, unga Mumu deb ot qo`ydi. Po`lat Kamolov botir yigit, uni hamma hurmat qiladi. O`tgan yig`ilishimizga 80 ota-ona kelgan edi, biz yig`ilishimizga ham shuncha keldi.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Olmoshlarning ma'no turlari.

Mavzu rejasi:

1. So`roq olmoshlari.
2. O`zlik olmoshi.
3. Belgilash-jamlash olmoshi.
4. Bo`lishsizlik olmoshi.
5. Gumon olmoshlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Olmoshning ma'no turlari, so`roq olmoshlari, o`zlik olmoshlari, bo`lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari, belgilash-jamlash olmoshlari, olmoshlarning sintaktik vazifalari.

**1-savol bo`yicha dars maqsadi:** talabalarga so`roq olmoshlari va uning o`ziga xos grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identivo`quv maqsadlari:

1. Talabalar so`roq olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari haqida bilib oladilar.
2. So`roq olmoshlarining ot, sifat va son o`rnida qo`llanishini bilib oladilar va amalda qo`llaydilar.

1-reja bayoni:

So`roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so`roqni bildirgan olmoshlardir. So`roq olmoshlarining nimaga nisbatan so`roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo`ladi:

№	So`roq turi	Olmoshlar
1.	Shaxsga so`roq	<i>Kim?</i>
2.	Narsaga so`roq	<i>Nima?</i>
3.	Belgi-xususiyatga so`roq	<i>Qanday? Qanaqa? Qaysi?</i>
4.	Miqdorga so`roq	<i>Qancha? Necha? Nechta?</i>
5.	Tartibga so`roq	<i>Nechanchi?</i>
6.	Sabab-maqсадga so`roq	<i>Nega? Nimaga ?</i>
7.	O`rin-joyga so`roq	<i>Qaerda? Qayda? Qayoqqa?</i>
8.	Paytga so`roq	<i>Qachon?</i>
9.	Mavjudlikka so`roq	<i>Qani?</i>

O'zbek tilida qo'llaniladigan so'roq olmoshlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Kim olmoshi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda: 1) shaxsga nisbatan so'roq ifodalagani uchun ot xarakterida keladi va otlar kabi egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi: *Mening kimim bor?* (S. Axm.) - *Zulfiqorovni kimingiz deb bilasiz?* (A. Q) Lekin ko'plik affiksi – **larni** olganda otlarga o'xshash bir predmetning birdan ortiq ekanligini bildirmaydi, shaxsning kimligini yoki unga nisbatan hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Majlisda kimlar so'zladi? Bu kishi kimlar?*; 2) ba'zan takrorlanib kelib, shaxslarning kimligini aniqlash uchun qo'llanadi. Takrorlanib kelganda har ikkisi birlikda yoki oldingisi birlik, keyingisi ko'plik formasida qo'llanishi mumkin: *Kim-kim keldi? Kim-kimlar so'zladi?* 3) nisbiy so'z vazifasida kelganda ma'noni kuchaytirish uchun **-ki** yoki **-da-ki(m)** yordamchilari qo'shib ishlatiladi: *Kimki ko'p ishlasa, u ko'p haq oladi. Kimdagi(m) vijdonan ishlasa, u hurmatga sazovor bo'ladi.* Ba'zan ma'noni yana ham kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun **-ki** yuklamasidan oldin **-i(y)** elementi orttirib ishlatiladi: *Kimiyki Nu'monxoji Qalandarovning xo'jaligi tugatilsin, o'zi bu yerdan badarg'a qilinsin desa, qo'lini ko'tarsin.* (A.Q.); 4) kim olmoshi **-sa** affiksini olib, otga ko'chadi: *kimsa so'zi hech, har so'zlari bilan kelishi yoki -siz affiksini olishi mumkin: Ammo uning qo'shig'ini hech kimsa eshitmasdi.* (R.Tagor.) *Zo'rligimni har kimsaga yetkazmas, shohning hojat ishlarini bitirsam.* (Islom shoir.); 5) kim olmoshi **-lik** affiksi yoki ekanlik to'liqsiz fe'li bilan birga qo'llanib, otlashadi: *Shu xat mening kimligimni ko'rsatib qo'ydi.* (S.Ahm.) *Qodirov Mehrining kim ekanligini bilmas edi.* (A.Q.)

Kim olmoshi gapda ko'pincha ega, kesim, to'ldiruvchi, ba'zan aniqlovchi va hol bo'lib keladi: *Kim keldi? Bunaqa gaplar kimdan chiqadi?* (A.Q.) *Kimning ovozi baland? Kimday ishlashim kerak? Boyvachchang kim?* (O.)

2. Nima olmoshi narsa, buyum yoki voqealarga nisbatan so'roqni bildiradi. Nima olmoshi quyidagi xususiyatlarga ega: 1) bir so'zi bilan kelib noaniq narsa-predmet ma'nosini anglatadi: *Ikkovi ikki yoqda yerdan bosh ko'tarmay, bir nima bilan ovora bo'lganday o'tira berishdi.* (As.M.) *Bir nimadan shu tobda qo'rqdi, shekilli....* (O.) *Odam bolasi bir nimaga jazm qilgandan keyin...* (S.Ahm.) Bir nima so'zi ishtirok etgan gap odatda so'roqni emas, darak mazmunini bildiradi; 2) nima olmoshi hech qanday affikssiz ot oldida kelganda predmetning belgisi qandayligini aniqlashga xizmat qiladi: *Sening nima ishing bor?* (O.) *Sizning nima dardingiz bor?* (A.Q.) *...bu ishni qilishdan nima foyda?* (A.Q.) *Bu nima masxarabozlik?* (As.M.) Bunday gaplarda so'roq mazmuni (qisman ritorik so'roq gap mazmuni) ifodalangan bo'ladi; 3) otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini olib, so'roq ma'nosini yoki noaniq narsa-predmet ma'nosini ifodalaydi. Shunga ko'ra bu xildagi so'zlar ishtirok etgan gaplar ifoda maqsadiga ko'ra so'roq yoki darak gap bo'lishi mumkin: *Siz nimani yoqtirasiz? Yana nimam bor?* (A.Q.) *Nimasini talashadi?* (S.Ahm.) *Nimadan gap ochishini bilmay turdi.* (A.Q.); 4) nima olmoshi takrorlanib, har ikkisi bir xil formada yoki oldingisi birlikda, keyingisi ko'plik affiksini olgan holda keladi: *nima-nima olding, nima-nimalar olding?*; 5) nima olmoshi, garchi predmet haqidagi so'roqni ifodalasa ham, kesimni ifodalovchi shaxs qo'shimchalarini olmaydi. Ba'zan shaxsga nisbatan so'roq ifodalab, kim o'rnida qo'llanganida kesimni ifodalovchi affikslarni olishi mumkin: *Sen o'zing odammisan? Nimasan?*; 6) o'xshatish ottenkasini beruvchi **-day** affiksini oladi: *Kattaligi nimaday keladi?*; 7) ayrim vaqtda faqat predmetga nisbatan emas, butun bir gapga nisbatan so'roqni ifodalab, so'roq so'z-gap bo'lib qoldi. Aytilgan gapni to'la anglamaslik natijasida yana takrorlash, qaytarish («nima deding» ma'nosida) so'raladi:

- *Men ertaga ketaman.*

- *Nima?*

- *Men ertaga ketaman, deyapman;* 8) nima olmoshi so'roqdan tashqari narsa, predmetlar ma'nosini ifodalagani uchun ayrim vaqtlarda tushum kelishik qo'shimchasini olmay belgisiz ishlatilishi mumkin: *Nima istaysiz? Nima oldingiz?*; 9) ba'zan gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmay, modal so'z xarakteriga ega bo'ladi: *Nima, hamma ishni mendan so'rab qilarmidingiz? So'ramagan edingiz-ku.* (A.Q.); 10) nima so'zi III shaxs birlikda egalik affiksini olib, gapda otlarga o'xshash vazifani bajaradi: *Nimasidan hijolat bo'lasiz? Buning nimasi yomon?*; 11) ba'zi vaqtda esa taajjub ma'nosini ifodalovchi so'roq gaplarning kesimi bo'lib keladi: *Qizimga uylanishini man qilshing nimasi?* (R. Tagor.) *Iya, bu nimasi?* (O.) Bu xil ishlatishda **-si** affiksi hech qanday xoslikni ifodalamaydi. Ba'zan bu birikma taajjub ma'nosini ifodalab, kirish ibora vazifasida keladi: *Bu nimasi, kolxozga chiqsang bo'lmaydimi?* (A. Q.) *Bu nimasi kap-katta odam, birovning gulini uzgani uyalmadimi?* (S. Ahm.) Ba'zan bu so'zdan keyin edi to'liqsiz fe'li kelishi mumkin: Bu nimasiydi?; 12) jo'nalish kelishigi formasidagi so'zdan keyin kelib, e'tiborsizlik, biror narsaga befarq qarash kabi ma'noni bildiradi: *Unga nima, olamni suv olib ketsa to'pig'iga chiqmaydi deb shuni aytadi-da.* («Mushtum».) *Senga nima, sendan artist chiqarmidi?*; 13) **-i +ki** affiksi qo'shilib jamlik ma'nosini - «hamma narsa» degan ma'noni bildiradi: *Dunyoda nimaiki bo'lsa, hammasi yaxshilikka olib boradi.* (R. Tagor.) *Uyda nimaiki bo'lsa, hammasi onasini eslatardi.* (P.T.); 14) *ne* (nima) o'zagiga uchun ko'makchisi qo'shilib kelib, sabab ifodalovchi yordamchi so'z hosil qiladi: *Ne uchunki, u tug'ilganda, Sobirga deb non sindirilgan.* (H.O.); 15) jo'nalish kelishigi formasida «qotib qolib», sababni aniqlash uchun beriladigan so'roq so'zi funksiyasini bajaradi: *Nimaga jahlingiz keldi?* (A.Q.); 16) *nima* so'zi ba'zan *ne* shaklida (yolg'iz yo takrorlangan holda) kelib: a) predmetga nisbatan qo'llanadigan *nima* so'roq olmoshi o'rnida ishlatiladi: *...tuz aynisa ne soladi?* b) predmet belgisini ifodalovchi qanday olmoshiga yaqin vazifada yoki gapning mazmuniga qarab yomon, ko'p degan ma'nolarda ishlatiladi: *U qo'rquvdan ne ahvolda ekanini o'zi bilar edi.* (A.Q.) *-yomon ahvolda ekanini...; Zunnunxo'ja ne mashaqqat bilan iljaydi.* (A.Q.) *-ko'p mashaqqat bilan...; v) harakat belgisini ifodalaydi: Keksa qalbda nimalar borligini o'zgalar ne bilsin!* (S.Ahm.) *...qanday bilsin! Saida bechoraning holi ne kechdi ekan?* (A.Q.) *...holi qanday bo'ldi ekan? Siz bilan biz ne qilamiz?* (S.Ahm.) - qanday qilamiz?

Ne-ne formasida ishlatilganda ma'noning ortiqligini, emotsionallikning kuchliligini bildiradi: *U qizini Toshkentga ne-ne umidlar bilan yubormadi.* (S.Ahm.)

Bu olmosh gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, ba'zan qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi: *Seni nima qiziqtiradi? Oting nima? Nimani istaysan? Nimaning foydasi ko'p?*

3. *Nega* (*ne*), *nima* (*-ga*) olmoshi voqea-harakatning sodir bo'lishidagi sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi. Bu olmosh quyidagi xususiyatlarga ega: 1) deyarli hamma vaqt ravish xarakteriga ega bo'lib, bo'lishli formadagi fe'llar oldida keladi va sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so'roqni ifodalaydi: *Nega kelding? Nega kechikding? Nima maqsadda kelding? Nima sababdan kechikding?*; 2) bo'lishsiz fe'l oldida kelib, deyarli hamma vaqt sababni bildiradi: *Nega kuzatmadi? Nega men shunday qilolmayman?* (S.Ahm.); 3) *nimagaki, negaki, nega desangiz, neki* formalarida sabab bog'lovchisi vazifasini bajaradi: *Oyqiz buning sabablarini surishtirmadi, negaki, hozir boshqa brigadalarning boshliqlari ham kelishlari kerak edi.* (Sh.R.) *Nega bunga Chittak deb laqab qo'ydilaring?* -*Nimagaki, shohdan-shoxga sakrab yuradi.* (A.Q.);

4) *nega* so'zi **-dir** affiksining qo'shilishi bilan modallik xarakteriga ega bo'lib, voqea-hodisaning sodir bo'lish sababi

so'zlovchi uchun noma'lum ekanligini bildiradi: *Yomg'ir aralash qor yog'ib turgan bo'lsa ham, u negadir shoshilmas, xayol bilan band edi.* (S. 3.); 5) *nega* olmoshi ravish xarakterida bo'lgani uchun ham so'z o'zgartuvchi affikslarni olmaydi. Takrorlanib kelganda so'roqdan boshqa ma'no ifodalamaydi.

Nega olmoshining sintaktik xususiyati quyidagicha: a) gapda sabab yoki maqsad holi bo'lib keladi. *Nega kechikdingiz? Nega keldingiz?* b) *nega* so'zi yolg'iz so'roq mazmunini ifodalovchi so'z-gap bo'lib keladi:—*Yaxishsini topsak, uni haydamoqchimiz.— Nega?* (I. R.)

4. *Necha* (*ne* + *cha*) olmoshi *ne* o'zagi bilan bog'liq bo'lib, predmetning miqdoriga nisbatan so'roq ifodalaydi. *Necha* olmoshining qo'llanishida quyidagi xususiyatlar mavjud: 1) o'zidan keyingi ot (aniqlanmish) deyarli hamma vaqt birlik formada qo'llanadi: *necha kitob? necha uy?*; 2) bu olmosh sonlarga o'xshash tartibni ko'rsatish uchun **-nchi**, donalikni ifodalash uchun **-ta**, taqsimlash ma'nosini bildirish uchun **-tadan** affikslarini oladi: *nechanchi, nechta, nechtdan*; 3) sonlarga o'xshab ravish xarakterida qo'llanganda, *marta, hissa* so'zlari bilan birga qo'llanadi: *...olomon necha hissa ko'payib,...* (A.Q.) *Paxta terganimda necha marta o'tirib turdim ekan.* (A. Q.); 4) ba'zan kuchli intonatsiya bilan aytilib miqdorning ortiqligini ifodalaydi. Bu holat ko'pincha ritorik so'roq, gaplarda uchraydi: *Necha voqealar bo'lib o'tmadi?* Ba'zan shu ma'noni ifodalash uchun *necha* olmoshi takrorlanib, predmetning miqdori ortiqligini yoki harakatning bajarilish miqdori ortiqligini bildiradi: *Bu orada shaharning chekka mahallalarini necha-necha bosmachi bosdi, necha-necha otishmalar bo'ldi.* (A.Q.) *...necha-necha qomatini rostlab, necha-necha engashdi.* (A.Q.); 5) *necha* olmoshi otlashib, kelishikning hamma formalarida kela oladi: *nechanchi, nechaga, nechaning, nechadan, nechaga*; 6) ko'plik affiksi **-lar** ni qabul qilganda noaniq, taxminiy miqdor va paytni ko'rsatadi: *Yoshingiz nechalarda? Soat nechalarda yig'ilasiz?* 7) bir so'zi bilan birga kelib, noaniq ko'plik ma'nosini bildiradi: *Bir necha kishi, bir necha kitob*; 8) *necha* so'zi predmet miqdoriga nisbatan so'roqni ifodalaganda, sonlar kabi numerativlar bilan birga qo'llanadi: *Necha sarjin o'tin qilishni keyin aytaman.* (A. Q.) *Necha gektar yerga nimalar ekar ekan?* (A. Q.) *...Necha kilometr yo'l bosdim ekan?* (A. Q.); 9) gapda aniqlovchi va kesim bo'lib keladi: *Necha kishi keldi? O'quvchilarning soni necha (nechta)?* Ba'zan kesim bo'lib kelganda, o'rin-payt kelishigi ko'rsatkichi **-da** qo'shilib keladi: *Yoshingiz nechada?* Ko'plik va o'rin kelishiklari qo'shimchasini olib, payt holi vazifasida keladi: *Soat nechalarda kelasiz?* Otlashib ega va to'ldiruvchi vazifasida ham kela oladi: *O'quvchilarning nechitasi keldi? Bolalarning nechtasiga javob berildi?*

Ba'zi vaqtda so'roq, gapdagi sababning so'zlovchi uchun noaniq ekanligini ifodalashda *nechuk* (*nuchuk*) so'zi ham ishlatiladi. *Negadir* so'zi ko'proq darak gaplarda ishlatilsa, *nechuk* so'zi ko'pincha taajjub ma'nosini ifodalovchi so'roq gaplar tarkibida ishtirok etadi: *Mendan beso'roq kampir bunga nechuk rozi bo'ldi ekan?* (A. Q.) *...qori shunday qilishga nuchuk jur'at qildi?* (A. Q.) Ba'zan *ne* olmoshidan yasalgan *netmoq, naylamoq* fe'llari juftlangan fe'llarning «yo'ldosh» elementi bo'lib keladi: *Yana sizni oyimlar ko'rib-netib yurishmasin.* (M. Muhamedov.) *Qorong'ida yiqilib-netib yurmang.*

6. *Qanday* olmoshi predmet yoki harakatning belgisiga nisbatan so'roqni bildiradi. Bu so'z *qanaqa, qandoq* shaklida ham kelib yuqoridagi ma'noni ifodalashi mumkin: *Ko'ngilni yoritadigan qanday niyatlaring bor.* (S.Ahm.) *U qanaqa omonat ekanini bildi.* (A.Q.)

Qanday so'zi quyidagi xususiyatlarga ega: 1) sifat oldida kelib, belgining belgisini, ortiqligini bildiradi. Odatda bunday qo'llanish undov gaplarda uchraydi:

Qanday chiroyli ko'rinish! Qanday achinarli holatga tushmasin. (A.Q.); 2) ot oldida kelib, predmetning belgisiga nisbatan so'roqni, undov gaplar tarkibida belgining ortiqligini, darak gaplar tarkibida esa predmet belgisiga nisbatan so'roqni bildiradi: Bu chiroyli guldasta qanaqa gullardan bog'langanini bilmaymiz. (A. Q.) Oramizda qanday odamlar bor ediki, ...qanday fikrlaringiz bor?; 3) fe'l kesim oldida kelib harakatninig yuzaga kelishidagi holatga nisbatan so'roq, yoki belgining ortiqligini bildiradi: Qandoq totuv yashadik! (S.Ahm.) Qanday o'qiyapti? Meni shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?! (A.Q.); 4) qanday so'roq olmoshi ba'zan predmet miqdorini aniqlash uchun ham ishlatiladi: Do'ppilarning narxi qanday? (O.); 5) ergashgan qo'shma gaplarda nisbiy so'zlarning oldingi komponenti bo'lib keladi: Siz qanday ko'rsatgan bo'lsangiz, men shunday ishladim; 6) sintaktik vazifasiga ko'ra gapda aniqllovchi, hol va kesim bo'lib keladi. Otlashganda esa boshqa bo'laklar vazifasida ham kela oladi: Qurilishga qanday odamlarni yuboraylik? (Sh.R.) Qanday o'rgatishdi? Sog'ligi qanday? Atlasning qanaqasi sizga ma'qul?

7. Qaysi olmoshi predmetning tartibga yoki o'rniga ko'ra belgisini aniqlash uchun qo'llanadi: *qaysi kishi?, qaysi uy?* Hozirgi o'zbek tilida bu so'z sostavidagi egalik affiksi qotib qolgan bo'lib, III shaxs formalarida yana **-si, -lari** affikslari qo'shilib ishlatiladi: *qaysisi, qaysilari*, ba'zan bu so'z otlashib *qaysinisi* shaklida ham ishlatiladi.

Qaysi olmoshining qo'llanishida quyidagi xususiyatlar mavjud: 1) qaysi olmoshi sifat xarakteriga ega bo'lgani uchun otlashgandagina egalik va kelishik affikslarini oladi. Lekin bu so'z shaxs yoki predmetlar qatoridan birini belgilash, ayirib ko'rsatish uchun beriladigan so'roq bo'lgani uchun ham hech vaqt birinchi shaxs birlik formasida kelmaydi: *qaysing?, qaysisi?, qaysimiz?, qaysingiz?, qaysilari?*; 2) ba'zan gumon ma'nosini bildiradi: *Qaysi kuni men yo'lda uchta otliqni ko'rdim*; 3) vaqt so'zi bilan birga kelib, ba'zan yordamchisiga yaqin vazifani bajaradi: *Qaysi vaqtda piyoda, qaysi vaqtda mashinada qatnardi*; 4) gapda aniqllovchi, kesim; otlashganda ega, to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Qaysi kitobni o'qidingiz? Yangi bitgan imorat qaysi? Bularning avzoyidan qaysisi kolxozda qolmoqchi, qaysisi chiqmoqchi ekanini bilish qiyin edi. (A.Q.) Byuro a'zoliciga qaysingizni ko'rsatishdi?*; 5) ergashgan qo'shma gaplarda qaysi olmoshi nisbiy so'zlarning birinchi komponenti bo'lib keladi: *Qaysi kishi tirishib halol ishlasa, u hurmatga sazovor bo'ladi.*

Qancha olmoshi son-ravish xarakteriga ega bo'lib, predmet yoki harakatning miqdoriga ko'ra belgisini aniqlash uchun beriladigan so'roqni ifodalaydi. Bu olmosh quyidagi xususiyatlarga ega: 1) ko'p predmetning miqdorini aniqlash uchun qo'llanganda, o'zidan keyingi ot ko'pincha birlikda keladi: *Qancha kitob olding? Qancha kishi yig'ildi?*; 2) yakka holda yoki takrorlanib kelib, miqdorning ortiqligini bildiradi: *Kolxozimiz juda badavlat: qancha sigir, qancha yilqi bor. (U.) Qo'riqlar ochilib, Oltinsoy cho'llari paxtazor bo'lgach, Umrzoq ota qancha-qancha sevindi. (Sh.R.); 3) taxminiy miqdorni anglash uchun qo'llanganda, ba'zan **-cha** affiksi qo'shilib keladi: *Qanchacha yerni xaydadingiz?*; 4) nisbiy so'zlarning birinchi komponenti bo'lib kelib, daraja-miqdor ifodalaydi: *Yerda qancha nam ko'p bo'lsa, urug' shuncha tez unib chiqadi*; 5) bu olmosh juftlashib kelganda, birinchi olmosh chiqish kelishigi qo'shimchasini olishi mumkin: *Yer qimirlaganda, qanchadan-qancha binolar shikast yedi. Qanchadan-qancha bolalar safni buzib...* (A.Q); 6) gapda aniqllovchi, hol, kesim; otlashganda ega va to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Qancha o'quvchi kelmadi? Qancha ishladik? Bolalarning soni qancha? Qanchasi komsomol? Qanchasiga topshiriq berilgan?**

9. *Qachon* olmoshi harakat, voqeaning bajarilish vaqtini aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi. Bu so'z asosan fe'lga bog'lanib, payt holi vazifasida keladi: *Abduxalilni ko'rgani qachon bormoqchimiz? Yig'ilishimiz qachon o'tkaziladi?*

Bu olmosh boshqa olmoshlarga o'xshash otlashish xususiyatiga ega emas.

Qachondan qachongacha tipida qator kelib ikki gap bo'lagiga-ikki payt holiga beriladigan so'roqni ifodalaydi: *Musobaqa qachondan qachongacha davom etdi?*

Ba'zan jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olib qo'llanadi. Bunday vaqtda muddatning qaysi vaqtga belgilanishini bildiradi: *Mehmonlar qachongacha turishadi? - lar* affiksini olib: a) taxminiy vaqtga nisbatan so'roqni bildiradi: *Qachonlar kelasiz?*; b) biror harakatning yuzaga kelganiga ko'p vaqt o'tganligini bildiradi: *Qachonlar kelgan edim. Qachon* so'zi gapda payt holi, kesim bo'lib keladi: *Endi siz qachon hisob berasiz? (A.Q.) Moskvaga ketishingiz qachon? qachon* so'zi o'rnida ba'zan *qay kuni, vaqt, mahal* kabi birikmalar ham ishlatiladi: *Qachon keldingiz? Qay kuni keldingiz?*

10. *Qani* olmoshi ko'pincha shaxs yoki predmet, voqea-hodisalarning mavjudlik o'rnini aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi. *Qani* so'zi quyidagi xususiyatga ega: 1) predmet, shaxsning joylashish o'rniga ko'ra so'roq ifodalagani uchun gapda ko'pincha kesim bo'lib keladi: *Doringiz qani? (A.Q.)* 2) *qani* olmoshi turli xildagi modal ottenkalarni ifodalovchi kirish so'z bo'lib keladi: *Qani, Sinchalakxon qizim, mana buni kiyib oling-chi (A.Q.) Qani, Boltaboy, siz nima deysiz? (A.Q.);* 3) shart ergash gapli konstruksiyalar sostavida qo'llanib, biror voqea-hodisaning yuzaga kelish shartini bildiradi. Ko'pincha, *qani* so'zidan so'ng *edi, endi* so'zlari qo'shib ishlatiladi: *Qani endi, mana bu dashtlarga ham suv chiqa qolsa. (Sh.R.) Qani endi, ko'zim ochiq bo'lsa-yu,... (A.Q.)*

11. *Qalay* olmoshi voqea-hodisaning va harakatning bajarilish holatini aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi. Bu so'z quyidagi xususiyatlarga ega: 1) holatni so'rash uchun qo'llanib, gapda ko'pincha kesim bo'lib keladi: *Tojixonlar oilasi qalay? (A.Q.) Tinchlikmi, Odiljonning ahvoli qalay? (S.Ahm.) O'qishlaring qalay?;* 2) harakatning bajarilish holatiga nisbatan so'roq sifatida qo'llanganda, gapda hol vazifasini bajarishi mumkin: *Singlimiz qalay o'qiyapti? Qalay* so'zi ko'pincha *qanday* olmoshiga sinonim bo'ladi, biroq u otlar belgisini aniqlash uchun qo'llanmaydi; 3) ba'zan kirish so'z vazifasida keladi: *Qalay, fikrimiz sizga ma'qulmi?*

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga o'zlik olmoshi va uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar o'zlik olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari haqida bilib oladilar.
2. O'zlik olmoshlarining ot o'rnida qo'llanishini bilib oladilar va amalda qo'llaydilar.

2-reja bayoni:

O'zlik olmoshi. Olmoshning bu turi bir so'z-o'z so'zidan iborat. Bu so'z tarixan negiz, mohiyat ma'nosini ifodalagan (o'zak so'zi ham shu ma'no bilan bog'liq).

O'z olmoshi har uchala shaxs, birlik va ko'plikdagi kishilik olmoshlari o'rnida ishlatilib, ko'pincha. shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatadi. Barcha kelishik qo'shimchalari va ba'zi ko'makchilar bilan qo'llanadi: *Biz o'zimiznigina o'ylamaymiz. O'zingiz bilan birgamiz. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.* (Maqol.) O'z olmoshining qo'llanishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1) *o'z* olmoshi bosh kelishik formasida egalik bilan kelib, turli shaxsni ifodalashi mumkin. Ayrim vaqtda *o'z* olmoshining ma'lum shaxsga taalluqligini ta'kidlab ko'rsatish

uchun undan oldin bosh kelishik, ba'zan qaratqich kelishik qo'shimchasini olgan kishilik olmoshlari qo'llanadi: *men(ing) o'zim bajardim, sen(ing) o'zing bajarding; u(ning) o'zi bajardi; biz(ning) o'zimiz bajardik, siz(ning) o'zingiz bajardingiz, ular(ning) o'zlari bajardilar.*

Ba'zan o'z olmoshi o'rnida kishilik olmoshi ishlatilsa yo uslubda ancha o'zgarish sodir bo'ladi, yoki ularni almashtirib bo'lmaydi: *Modomiki, shundoq ekan, o'zingiz bergan maslahatga o'zingiz ovoz berishingiz shartmi?! (A. K.,) Nima chalsam ham men o'zim bilaman. Idorangizga bormoqchi bo'lib tursam, o'zingiz kelib qoldingiz. (S. Ahm.) O'zingiz gapiring, o'rganing. (A.Q.)*

Boshqa kelishik formasidagi o'z olmoshi ham ba'zan shu kelishiklar formasida kelgan kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanganda, ularning sinonimi bo'lib keladi: *...Hammasi o'zingizga ma'lum. (O.) -...sizga ma'lum. O'zlaringizga qiyin bo'ladi. (S.Ahm.) -Sizlarga qiyin bo'ladi. Shu choq ko'zlarimga (o'zimning domlam ko'ringanday bo'lib ketdi. (O.) -...mening domlam ko'ringanday bo'lib ketdi. Ayb o'zingda! -Ayb sizda! Kelin o'zimizdan chiqdi. (A.Q.) -Kelin bizdan chiqdi. Biz raislikka o'zingizni taklif qilamiz. (A.Q.) -...sizni taklif qilamiz; 2) otlar oldida qo'llangan o'z olmoshi ular anglatgan predmetni aniqlab, sub'yektga xos ekanligini ko'rsatadi: Bu kunlarda har kim o'z dard-alami, o'z g'am-hasrati bilan band edi. (A.Q.) Maktablardagi kommunistlarni o'z hisobimizga ko'chirdik. (A.Q.) Men o'z tilagimni unga bildirsam. (O.) Qiz o'z qilmishiga iqror bo'ldi. (A. Q.); 3) o'z olmoshi qaratqich kelishigi formasidagi kishilik olmoshidan keyin kelib, kishilik olmoshini qat'iy ayirib, ta'kidlab ko'rsatadi, uning izohlovchisi bo'ladi: Sening o'zing hamma narsaga darrov tushuna qolganmisan? (A.Q.); 4) o'z olmoshi turli xildagi modal ottenkalarni ifodalash uchun ham qo'llanadi: Nima qilmoqchi o'zi? (S.Ahm.) -qiziqmisan o'zi? (A.Q.) Xo'sh, nima gap o'zi? (A.Q.) Miyang bormi o'zi? (A.Q.) Shu funksiyada ba'zan ko'rsatish olmoshlari bilan birga keladi: -A, nimani so'ray beradi bu o'zi? (O.) Bunday hollarda fakultativ xarakterda qo'llangani uchun o'z olmoshi sonda moslashmaydi: Bular qanaqa odamoxun kishilar o'zi! (S.Ahm) 5) o'z olmoshi payt yoki o'ringa nisbatan aniqlikni ta'kidlash uchun ham qo'llanadi: Hovuz yaqin, guzarning o'zida. (O.) Soat 12 ning o'zida park oldida to'plandik. Hozirning o'zida planni bo'p yuz o'n olti protsent bajardi. (A.Q.)*

Bu so'z egalik qo'shimchasini olib, ruscha «prosto» yoki «prosto tak» degan ma'noni bildiradi: -Nimaga turibsiz? -O'zim, shunday... (A.Q.) Nima uchun jim bo'lib qolding? -O'zim... (O.); 6) predmet, shaxs yoki harakat-hodisa qiyoslanganda «aynan», «bir xil» degan ma'noni bildiradi:—Xuddi o'zi, Kenjaginamning o'zi. Bir tuki o'zgamas. (S.Ahm.) Kulishi, yurishi, qiliqlari xuddi onasining o'zi-ya! Bunday hollarda o'z olmoshidan so'ng -gina elementi qo'llanishi ham mumkin: Satang chumchuq qarqunoqning xuddi o'zginasi. (S.Ahm.) «O'lgan» ham shu Boqining o'zginasi edi. (S.Ahm.); 7) o'z olmoshi ham (-yam) yordamchisini olib, ma'lum darajada modallik ottenkasiga ega bo'lib, ma'noni kuchaytirish uchun ishlatiladi: *O'ziyam miqti kelgan, tiqmachiq kishi edi. (S.Ahm.) Asl shaftoli! Arzon o'ziyam. (O.) 8) o'z olmoshi II shaxs birlik, III shaxs ko'plik formasida kelganda ba'zan undagi shaxs ko'chadi: O'zing nima g'amdasan-ku, buning kulishini qara -men nima g'amdaman-ku... Mavsumni o'tkazmasdan kuyov qilsalar, o'zlariga ham yaxshi, bizga ham yaxshi bo'lardi. (A.Q.) -...sizga yaxshi... O'zlaridan ibrat olsak, kamina uchun ham durust edi. (A.Q.) - sizdan ibrat olsak... Yo'llari bo'lsin, mehmon, o'zlarini bu biydalaga qaysi shamol boshlab keldi? (S.Ahm.) -sizni... qaysi shamol boshlab keldi? 9) o'z so'zi yolg'iz degan ma'noni ham bildiradi: *Uyda faqat o'zi o'tiripti (...bir o'zi, yolg'iz o'zi o'tiripti); 10) o'z olmoshi takrorlanib juft holda ham qo'llanishi mumkin. Bunday vaqtda uning bir komponenta**

biror kelishik qo'shimchasini olib keladi. Komponentlarning bu xildagi affikslar bilan qo'llanishi shu so'zning ma'nosiga va grammatik holatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Agar birinchi komponent hech qanday affikssiz, keyingisi affiksli qo'llansa, birgina o'z so'zining ma'nosi kuchaytirilib, ta'kidlab ko'rsatiladi. Bu juftlik bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *O'z-o'zimizga hukumat uy berdi.* (A.Q.)

Birinchi komponenti belgisiz qo'llangan bunday juftlik *-cha, -niki* kabi affikslar bilan ham keladi: *...o'z-o'zicha gapirib ketdi.* (O.) *Bu narsa o'z-o'zimizniki.*

Oldingi komponentlar egalik va kelishik qo'shimchalarini olgan holda, keyingisi esa belgisiz qo'llanadi. Bunday holatda bu kompleks ikki gap bo'lagi vazifasini bajaradi: *O'zini o'zi sud qildi.* (S.Ahm.) *O'zingizga o'zingiz hisob berasiz.* (A.Q.) *O'zimga o'zim tuhmat qilib, o'zimni o'zim xaqorat qilishim ham siz uchun edi.* (S.Ahm) *...o'zidan o'zi savol berib so'rardi.* (A.Q.)

Takrorlangan o'z olmoshi tarkibidagi *-dan* affiksi qotib qolgan shaklga kelib, o'z olmoshi ma'nosidan chetlashib ravish vazifasini bajaradi: *O'zidan-o'zi yig'lab yubordi. ...bekorga yig'lab yubordi;* 11) o'zlik olmoshiga kelishik qo'shimchasi faqat egalik affiksidan so'nggina qo'shiladi: *o'zini, o'ziga.*

O'z so'zi ba'zi birikma va qo'shma so'z tarkibida ham keladi: *o'zboshimcha, o'zbilarmonlik, o'zaro* kabi.

Ba'zan o'z olmoshi turli kelishik formasida turli gap bo'lagi vazifasida qator kelishi ham mumkin: *Bu qutlug' uyda meni o'zimga o'zimni tanitgan... odamlar yashaydi.* (S. Ahm.)

O'z olmoshi gapda hamma gap bo'lagi vazifasida kela oladi: *Bu ishni o'zim bajardim. O'z uyim-o'lan to'shagim.* (Maqol.) *Meni tug'ri yo'lga boshlagan tarbiyachim o'zingsan. O'zimning ham, ra'yim yo'q.* (S.A.)

3-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga belgilash-jamlash olmoshlari va uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar belgilash-jamlash olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari haqida bilib oladilar.
2. Belgilash-jamlash olmoshlarining ot o'rnida qo'llanishini bilib oladilar va amalda qo'llaydilar.

3-reja bayoni:

Jamlash-belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yig'indisini, to'dasini bildiradi yoki ularni ayirib, ta'kidlab ko'rsatadi. Shunga ko'ra ularni ikki kichik gruppaga-jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olmoshlar jamliknigina ifodalasa, ikkinchi guruhga kiruvchi olmoshlar esa predmetni qisman jamlash bilan birga ta'kidlab, belgilab, aniqlab ham ko'rsatadi.

1. Jamlash olmoshlariga *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi* so'zlari kiradi.

1) *hamma* olmoshi predmet hamda shaxslar o'rnida qo'llanib, ot xarakterida, predmet belgisini ko'rsatib, sifat xarakterida keladi va predmet yoki shaxslar to'dasini, yoki ularning belgisini ifodalaydi.

Ot vazifasida qo'llanganda egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi: *Hammalari qotib-qotib kulishadi.* (O.) *Hammaning ham shunday laqabi bo'ladi, parvo qilma, hammasi hazil* (O.) *Hammaning eti jimarlashib ketdi.* (A. Q.)

Hamma so'zi shaxsga nisbatan ishlatilganda egalik affiksisiz kelishik qo'shimchasini qabul qiladi. Predmetga nisbatan ishlatilganda esa, kelishik qo'shimchasi

egalik affiksidan so'nggina qo'shilib keladi: *Hammaga kelgan bayram. (O.) Shularning hammasi pul bilan bitadi. (A.Q.)*

Hamma olmoshi predmetlar belgisini-jamini ko'rsatib, sifat xarakterida bo'ladi: Ekilgan hamma daraxtlar ko'karibdi. Hamma mehmonlar biznikida.

Bunday birikmalarda aniqlovchi vazifasida kelgan *hamma* olmoshi otlashib aniqlanmish vazifasida, aniqlovchi esa o'rin almashib qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi. Bu xildagi almashish bilan ma'no o'zgarmaydi: *hamma* qizlar shu yerda. - *Qizlarning hammasi shu yerda.*

Hamma olmoshi yoq, vaqt so'zlari bilan birga qo'llanib, o'rin va paytga munosabatni ko'rsatuvchi ravish yasaydi: Hamma vaqt yurtidan o'zingizni chetga tortasizda, usta! (A. Q) Hamma yoqda kulgi, xursandchilik.

Hamma olmoshi gapning uyushiq bo'laklaridan keyin yoki oldin qo'llanib, umumlashtiruvchi so'z vazifasida keladi: Onam, opam, akam, bobom, buvim va men — hammamiz ayvonda dasturxon atrofida davra qurganmiz. (O.) Qurt-qumursqa, kapalak, qo'ngiz — hammasini himoya qilardi. (O.) ...zavod, fabrika, yer-suv — hammasi bizniki, deyahyapti. (O.)

Ba'zan jamlash ma'nosini kuchaytirish uchun umumlashtiruvchi so'z vazifasida kelgan *hamma* olmoshidan oldin jamiyki so'zi ishlatiladi. *Petrograd ishchilari zavod, fabrikalar, yer-suv-jamiyki hammasi boylardan tortib olinsin deyapti. (O.)*

Hamma olmoshi inkor gaplar tarkibida kelganda to'la jamlikni va qisman jamlikni ifodalaydi. Masalan, hamma kelmadi gapini ikki ma'noda tushunish mumkin: a) «hech kim kelmadi» ma'nosida; b) to'liq, hamma emas, ba'zilar kelmadi» degan ma'noda.

Bu so'z chiqish kelishigi formasida kelib, olmosh ma'nosidan tashqari belgining ortiqqligini bildiradi: *hammadan* baland, modal so'z vazifasini bajaradi: *Hammadan cholning tadbirkorligi ajablantirdi. (O.)* *Hamma olmoshi egalik affiksini olishda ma'lum xususiyatga ega bo'ladi. Bu olmoshning o'zagi ko'plik ma'nosini ifodalagani uchun egalikning birlik formalarini olganda ham shu ma'no saqlanadi: Ertaga hammang bir tangadan pul olib kelasanlar. (O.)*

2) *bari* olmoshi ko'pincha ot xarakterida qo'llanib, predmet va shaxslarning yig'indisini ifodalaydi, gapda otga xos vazifalarda keladi. Bu olmosh aslan «bor» («mavjud») ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, keyingi *i* tovushi egalik affiksidadir. Boshqa jamlash olmoshlaridan shu xususiyati bilan ham ajralib turadi.

Bari so'zining tarkibida *III* shaxs birlikni ifodalovchi egalik affiksi bo'lganligi uchun ko'pincha qaratqich kelishigi formasidagi so'z bilan birga ishlatiladi: *Bularning barini tarix shamollari uchirib ketdi. (S. Ahm.) Bari bizning qishloqdan ekan.*

Egalik affiksi ba'zan takrorlanib (ikki darajali) ham qo'shiladi: *Odamlarning barisi avval bo'z kiyardi. (O.) «Barisi bo'rdoqi» deydi qo'y egalari. (O.)*

Bari olmoshi uyushgan bo'laklar yoki birikmalardan keyin kelib, umumlashtiruvchi so'z vazifasini ham bajaradi: O'ng qo'lim, so'l qo'lim - bari o'z qo'lim. (A. Q.) Ha deb buzilaverganidan keyin u yog'ini kovlaydi, bu yog'ini kovlaydi, xullas, ichida nimasi bo'lsa, barini bilib oladi. (S. Ahm.) Boshimdan zar sochsalar, oyoqlarim ostiga poyondoz yozsalar, nurdan ko'ylak tikib kiydirsalar, baridan kechardim-u, shu bir og'iz so'z bilan qolardim. (S. Ahm.)

Bari olmoshi gapda ega, qaratqichli aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifasida keladi: qizlarning barisi shu yerda. Barisining egnida atlas ko'ylak. Ularning barisini tanidim, barimiz kulgidan qotib qolamiz. (O.);

3) *jami* olmoshi ham yuqoridagi olmoshga o'xshash ko'pincha ot xarakterida qo'llanadi. Uning tarkibidagi **i** tovushi asli III shaxs birlikdagi egalik affiksidadir. Bu so'z ham ko'pincha qaratqich kelishigidagi so'z bilan birga qo'llanganda, egalik affiksi takrorlanib (ikki darajali) keladi: *Bolalarning jami (jamisi) dalada. Kelganlarning jamisi 18 ta.*

Bu so'z ba'zan **-ki** yuklamasini olib hamma olmoshidan oldin qo'llanadi va to'dalash ma'nosini ta'kidlab, qat'iy chegaralab ko'rsatadi: *Zavod-fabrikalar, yer-suv jamiyki hammasi boylardan tortib olindi.* (O.);

4) *barcha* (bor-i-cha) olmoshi ko'proq sifat xarakterida qo'llanib, predmetning miqdoriga ko'ra belgisini ifodalaydi. *Barcha odamlar maydonga chiqdi. U barcha qilmishlariga iqrar bo'ldi.*

Barcha olmoshi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelib, miqdor belgisining ortiqqligini ko'rsatgani uchun uning aniqlanmishi deyarli hamma vaqt ko'plik affiksilarini qabul qiladi: *Barcha mushkulotlar oson bo'ladi.* (O.)

Bu so'z otlashib, otlarga xos egalik, kelishik affikslarini oladi va gapda otlarga xos vazifada keladi. Masalan: *Qalandarov barchaga birday bo'lgan emas.* (A. Q.) *Barchamiz birga ishlab, miqsadimizga yetaylik.* (O.)

Barcha so'zi ham yuqoridagi jamlash olmoshlari kabi uyushgan bo'laklardan keyin umumlashtiruvchi so'z vazifasida keladi: *Katta boyonlar, chor hukumat vakillari-barchasi ishga tushdi.* (O.);

5) *butun* (but-un) olmoshi sifat va ravish xarakterida qo'llanib, miqdorga ko'ra predmet yoki harakatning belgisini ifodalaydi: *Hali butun qishloq vazmin uyquda.* (U.) *Butun gap shu, ustod,— dedi Ibrohim tavoze bilan.* (A.Q.) *Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas Bo'taboy akaning butun umidi puchga chiqadigan ko'rinib qoldi.* (A.Q.) *Akramjon butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi.* (A, Q.) Butun so'zi ravish xarakterida, **-lay** affiksini olib ham ishlatiladi: *Ko'zi butunlay ko'radigan bo'libdi.*

Butun olmoshi, garchand, *barcha*, hamma olmoshlari kabi jamlikni ifodalovchi so'z hisoblansa ham, ayrim o'rinlarda ularniig o'rnini bosa olmaydi. *Barcha*, hamma olmoshlari gapda ot xarakterida-ot bajargan vazifani (ega, to'ldiruvchi vazifasini) bajaradi. *Butun* so'zi esa jamlikni ifodalab shu vazifada qo'llanmaydi. Masalan, hamma yig'ildi, barchani barobar ko'radi kabi gaplardagi *barcha*, *hamma* olmoshlari o'rnida *butun* olmoshi ishlatilmaydi.

Boshqa jamlik olmoshlaridan yana bir farqi shundaki, *butun* so'zi orttirma daraja shaklida ham keladi: *but-butun, bus-butun. -kul* elementini olib, ravish vazifasida keladi: *...uyga nimaga kirganini butkul unutdi.* (A.Q.) Shuningdek, *butun* so'zi «to'la» (seliy) degan ma'noni ham bildirib, sifat xarakterida keladi: *Butun idishlarni bir yoqqa, siniqlarini boshqa tomonga olib qo'ydi.* Butun so'zi ba'zan but shaklida qo'llanib, «tayyor», «taxt», «to'liq» degan ma'noni bildiradi: *Hamma narsangiz butmi?— Ha, but;*

6) *yalpi* so'zi ham butun olmoshi kabi sifat xarakterida qo'llanib, predmet yoki shaxslarni jamlab ko'rsatadi: *Yalpi kolxozchilar shu maydonga to'planishdi.* *Yalpi* so'zi egalik affiksini olib, ot xarakterida keladi: Daladagi ishga yaroqli odamlarning yalpisi paxta terimi bilan band. Ba'zan egalik affiksidan so'ng qotib qolgan jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilib keladi: *Domla xabar topib qolsa, hammamizni yalpisiga qamchin bilan shaq-shaq solib o'tadi.* (O.)

II. Belgilash olmoshlariga har so'zi va shu so'zning ayrim so'roq olmoshlari, shuningdek, bir, narsa kabi so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zlar kiradi. Bular bir qancha shaxs yoki predmetdan istalganini ayirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Demak, belgilash olmoshlari tuzilishiga ko'ra 2 xil: tub so'z holida (har), ikki o'zakning birikishidan tuzilgan qo'shma so'z holida (har so'roq olmoshlari, har bir, har-narsa shaklida) qo'llanadi:

1) Har so'zining o'zi yakka holda qo'llanib, predmetni sanab, ta'kidlab ko'rsatish orqali uning belgisini ifodalaydi: *Har daraxtning shirasini so'radigan qurti bo'lganidek, Naymanchaning ham tepasida o'z tekinxo'rlari bo'lgan. (As. M)* Har so'zi otlar oldida kelib, uning ma'nosini ayirib, ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatganda, otlar kuchantiruv yuklamasi **-ki** ni olib qo'llanishi mumkin: *Har toshlarki, odamning vahmi keladi. (S.Ahm.) Har shaftoliki, palaxmonga solib otsang, taxta devorni ag'daradi. (A.Q.)*

Bu so'z ba'zan fe'llar oldida ravish xarakterida ham qo'llana oladi: *Har sog'inganda xatlariga qarab qo'yaman. Har tashlaganda bir ux deb qo'yadi. (O.) Har ko'rganda yuragim shuv etib ketadi, degin! (A. Q.);*

2) boshqa so'zlar bilan birikib, qo'shma so'z shaklida ishlatiladi. *Har so'zi so'roq olmoshlaridan kim so'zi bilan birga kelib, «hamma», «har qanday odam» degan ma'noni ifodalaydi. Bu so'z otlar o'rnida qo'llangani uchun ham egalik va kelishik affiksini qabul qiladi: Har kim o'z holicha yasangan. (O.) Yalinganday har kimga termuladi. (O.) Har kimning o'z orzusi bor. (A. Q.)*

Nima, narsa so'zlari bilan birga kelib, «har xil, narsa», «hamma narsa» degan ma'noni bildiradi: *Shu vaqt har narsa bir-bir xayolimdan o'tdi. (O.) Magazindagi har nimalar Dildorani qiziqtirar edi. Durbek yosh bo'lsa ham har nimani bilishga qiziqar edi. U har nimadan xadiksiray bermaydi. Qanday (qanaqa) so'zi bilan birga sifat xarakterida qo'llanadi va predmet, shaxslarni umumlashtirgan holda belgisini ko'rsatadi: ...har qanday ayolning Tojixonga havasi kelar edi. (A. Q.) Har qanaqa masala ko'pchilikning ra'yiga qarab hal qilinishi kerak. (A. Q.) Hozir uning fikri-yodi har qanday azobni yengishda edi. (A. Q.) Qaysi olmoshi bilan birga sifat xarakterida keladi va ma'nosi jihatdan har bir olmoshiga o'xshaydi: Har qaysi guruh suvning boshida bo'lishni istardi. (A. Q.)*

Bu olmosh ko'pincha egalik affiksini olib, ot xarakterida qo'llanadi: *Har qaysimiz o'z izzatimizda qolsak. (A. Q.) Bularni bilmasak, har qaysisini o'ziga munosib joyda qo'ya olmaymiz... (A. Q.) Har qaysimizning dilimizda andisha bor edi. Qancha olmoshi bilan birga qo'llanib miqdorning ortiqqligini ko'rsatadi: Ikkovi bu munosabatni har qancha yashirsa ham, baribir hamma eshitib qoldi. (A. Q.) Salomat ko'rishganimiz uchun har qancha xizmat qilsak ham oz. (S. Ahm.) Qachon olmoshi bilan birga keladi va «hamma vaqt» degan ma'noni bildirib, ravish xarakterida bo'ladi: U har qachon o'z hukmini o'tkazib o'rgangan odam. (A. Q.) Bu gapni har qachon takrorlay bersa kerak.*

Har so'zi payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar bilan birga keladi. Masalan: *Zveno a'zolari paxta xosilini har yili oshirib bajarib, ikki marta hukumat mukofotini olishga sazovor bo'ldilar. (Gazetadan.) U har zamonda ingichka soqolini silab, ich-ichidan yig'lardi. (Sh.P.) Biz makkajo'xoridan har yili ikki marta hosil olamiz. (Gazetadan.) O'rtanur har dam Navoiy nola qilmog'i bila. (Navoiy.)* Shuningdek, bu so'z har on, hargiz shaklida paytga munosabat bildiradi: *Biz ham hargiz sen sari yuzni burmaymiz. Har on sizni eslab yurarman.* Ayrim holatlarda har so'zi qo'llanmay, payt bildiruvchi ot jo'nalish kelishigi yoki o'rin-payt kelishigi formasida keladi: *Har kuni 250 kilo paxta terdim — Kuniga 250 kilo paxta terdim — Kunda 250 kilo paxta terdim.*

O'ringa munosabat bildiruvchi ayrim otlar ham har so'zi bilan birga qo'llanishi mumkin: *Oh tortib o'zimni har yerga urdim. (Islom shoir.) Bola har tomonga olazarak bo'lib, kimnidir qidirar edi. (Oydin.)*

Sari soʻzi hozirgi tilda maʼlum yoʻnalishni koʻrsatadigan koʻmakchi sanalsa ham, har soʻzi bilan birga oʻz asl («tomon») maʼnosida ishlatiladi: *Har sari yeldim-yugurdim.*

Ayrim sonlar har soʻzi bilan birga yoki unga qarashli boʻlak sifatida qoʻllanishi mumkin: Bir soʻzi bilan birga kelib, maʼnoni taʼkidlab koʻrsatish uchun qoʻllanadi va qoʻshma soʻzni hosil qiladi: *Har bir soʻz ularning ogʻzidan emas, qalbidan chiqayotganday edi. (O.)*

Bir, ikki, uch yoki undan ortiq miqdorni koʻrsatuvchi birgalik, donalik sonlarga qoʻshilganda qoʻshma soʻz hosil qilmay, har soʻzi shu sonlarning izohlovchisi vazifasini bajaradi, miqdorni ayirib, taʼkidlab koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Misollar: *Unib chiqqan har bitta nihol Tursunoyga olam-olam sevinch baxsh etar edi. (Gazetadan.) Oʻgʻillarning har uchulasi ham bedarak ketdi. (Ertakdan.) Qizlarning har ikkovi ham odobli, andishali boʻlib yetishdilar.*

Baʼzi sifatlar ham har soʻzi bilan birga qoʻllanishi mumkin: ...oldiga dasturxon yozib, har turli ovqatlardan olib kelib qoʻydi. Baʼzan har soʻzi sifat oldida kelsa ham, shu sifatning-aniqlovchiniig oʻziga emas, aniqlovchi aniqlanmish birikmasiga qarashli boʻladi: *Yumush der bogʻdagi har toza yaproq.*

Bulardan tashqari, har soʻzi har holda, har qalay, harna, har nechuk, har tugur, har ehtimol (har ehtimolga qarshi) kabi soʻzlar tarkibida kelib, turli modal ottenkalar ifodalaydi: *Har ehtimolga qarshi, siz aytgan narsalarni keltirdim. (Oydin.) Har holda, biz bir-birimiz bilan bogʻlangan kishilar edik. (A. Q.) Har qalay bemaslahat ish boʻldi, Nasiba har tugur oʻzlari ham kelib qolishdi.*

Belgilash olmoshlari gapda ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol boʻlib keladi: *Yigʻilishda har kim oʻz fikrini birma-bir aytib oʻtdi. (A. Q.) Har qanday fikrlar uni bezovtalantirardi. (O.) Hosil xazina ekanligi har birimizga maʼlum.. (Sh.R.) ...Har vaqt qizi bilan Karim esiga tushib ketardi. (Sh.R.)*

4-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalarga boʻlishsizlik olmoshlari va uning oʻziga xos grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

1. Talabalar boʻlishsizlik olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari haqida bilib oladilar.
2. Boʻlishsizlik olmoshlarining ot va sifat oʻrnida qoʻllanishini bilib oladilar va amalda qoʻllaydilar.

4-reja bayoni:

Boʻlishsizlik olmoshlari. Boʻlishsizlik olmoshlari maʼno jihatidan belgilash olmoshlarining zidi boʻlib, barcha yoki belgiga nisbatan inkor maʼnosini boʻlishsizlikni bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi boʻlishsiz formada kelib, gap inkor gap hisoblanadi. Inkor olmoshlariga hech soʻzi va shu soʻzning baʼzi soʻroq olmoshlari, shuningdek, bir, narsa kabi soʻzlar bilan birikishidan hosil boʻlgan olmoshlar kiradi. Demak, boʻlishsizlik olmoshlari ham tuzilishiga koʻra 2 turga ega: a) tub soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshi; b) qoʻshma soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshi.

Tub soʻz shaklida qoʻllanadigan boʻlishsizlik olmoshiga **hech** soʻzi kiradi.

Qoʻshma soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshlari esa hech soʻziga *kim, nima, qachon* kabi soʻroq olmoshlarining yoki bir, narsa soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻladi: *hech kim, hech nima, hech bir, hech narsa* kabi:

1) *hech* so'zi yakka holda qo'llanganda ko'pincha fe'llar oldida kelib, ravish funksiyasini bajaradi va ish-harakatning, batamom inkorini bildiradi: *Bu to'g'rida hech tashvishlanmang. (O.) Onasi juda xursand bo'lsa ham hech uxlay olmaydi. (As.M.) Bu kunlarda Oksana hech tinib-tinchimaydi. (As.M.)*

Hech so'zi bo'lmasa so'zidan oldin kelib, gapda eng minimal shart ma'nosi ifodalanganligini bildiradi: *hech bo'lmasa, bitta elevator bo'lsa edi. (Sh.R.);*

2) so'roq, olmoshlari *hech* so'zi bilan birikib kelganda so'roq, olmoshlarining ma'nosi o'zgarib, shaxs (*hech kim*), predmet (*hech nima*), miqdor (*hech qancha*), belgi (*hech qanday, hech qaysi*)ga nisbatan inkorni ifodalovchi so'zlar hosil bo'ladi.

Hech kim olmoshi shaxsga nisbatan inkorni ifodalaydi: *Idorada hech kim yo'q edi. (A.Q.) Atrofda Saodatdan boshqa hech kim yo'q edi. (As. M.) Hech kim* olmoshi shaxsga nisbatan qo'llangani uchun ham egalik, shuningdek, kelishik qo'shimchalarini olib, gapda otlar kabi vazifani bajarib keladi: *Qarashadigai hech kimim yo'qligini bilib, nevarasi tushlik olib keldi. (S.Ahm.) Hech kimim yo'q. Hech kimdan so'ramay-netmay chiqdi-ketdi. (A.Q.) Sizdan boshsa hech kimga gapira olmayman. (A.Q.) Hech kim bilan kengashmay-netmay shaharga borib apparatura sotib olibdi. (A.Q.) Ko'ngliga tugib yurganini hech kimning fikri bilan hisoblashmasdan aytdi. (A.Q.) Hech kim* olmoshi inkor gaplar tarkibida uyushgan Bo'laklarning umumlashtiruvchi so'zi vazifasida ham kela oladi: *Unga na yo'lovchi, na samovarchi — hech kim e'tibor qilmadi. (As.M.)*

Hech nima olmoshi predmet yoki voqea-hodisaga nisbatan inkorni ifodalaydi: Men sizga *hech nimani* ko'rsatganim yo'q edi-ku! *Hech nima* olmoshi ham ko'pincha otlar o'rnida kelib, otlarga xos egalik va kelishik affikslarini oladi. Gapda otlar kabi vazifa bajaradi: *Mening hech nimam yo'q. Hech nimadan tap tortmaydigan odam.*

Hech qanday olmoshi predmet belgisiga nisbatan inkorni bildiradi: *Biroq Saidaning yuzida hech qanday o'zgarish yo'q edi. (A.Q.) Ular inson muhabbati hech qanday chegarani tan olmasligini bilishardi. (S. Ahm.) Kozimbek hech qanday, dori bermoqchi emas ekan. (A.Q.)*

Hech qaysi olmoshi ham predmet belgisiga nisbatan inkor ifodalaydi: *Hali ham hech qaysi kolxozning qurti nishona bergani yo'q. (A.Q.)*

Hech qaysi olmoshi *hech qanday* olmoshi kabi predmet belgisiga nisbatan inkorni ifodalasa ham, otlashish xususiyati kuchli: *Bularning hech qaysisi paxtana bilmaydi. (A.Q.) Hech qaysimiz ham oldirmadik. (A.Q.)*

Hech qachon olmoshi paytga nisbatan inkor ma'nosini bildiradi va gapda ravish xarakterida qo'llanadi, ish-harakatning *hech* vaqt yuzaga kelmaganligini bildiradi: *Men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! (A.Q.) Malohat uni hech qachon bu ahvolda ko'rmagan bo'lsa kerak, yumshadi. (A.Q.) Qalandarov hech qachon bunaqa mehmonni kutgan emas edi. (A.Q.)*

Hech so'zi vaqt, mahal so'zlari bilan ham birikib paytga nisbatan inkorni ifodalaydi: *Oramizda hech vaqt shu xildagi achchiq gaplar aytilmagan edi. (S.Ahm.) Uning nazarida bunday odamlar bir-birini hech vaqt kamsitmas, hech vaqt aldamasday ko'rinar edi. (As.M.) Hech mahal bo'lmaysan menga barobar. («Doston»dan.)*

Hech qayer so'zi o'ringa nisbatan inkor ma'nosini bildiradi va gapda o'rin-payt, jo'nalish va chiqish kelishiklari affikslarini olib, o'rin ravishlari xarakterida bo'ladi: *Hech qayerga bormasam deymen. (A.Q.) Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak. (A.Q.)*

Hech qayer so'zi bosh va tushum kelishiklari formasida qo'llanganda ot vazifasida: **Hech qayer** ham bizning qishloqcha obod va ko'rkam emas ekan. Boshqa **hech**

qayerni orzu qilmayman. Qaratqich kelishigi qo'shimchasida esa qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: **Hech qayerning** havosi menga yoqmadi.

Hech so'zi bir soni bilan birga kelib predmet belgisiga nisbatan inkorni, otlashib predmet yoki shaxsga nisbatan inkorni bildiradi: *Rais ikki zvenoning g'o'zasini oralab, hech bir qusur topolmay, chehrasi ochilib, shiyponga tomon yurdi. (A.Q.) Anzirat xola hech birimizga gap bermay, nevarasini ta'riflab maqtab ketardi. (As.M.)*

Hech so'zi narsa so'zi bilan birga kelib predmetga nisbatan inkorni bildiradi. Gapda ot kabi vazifada keladi: *...hech narsa anglay olmasdim. (O.) Bu tomonlarning oqshomiga hech narsa teng kelolmaydi. (S.Ahm.) Biz hech narsaga ovora bo'lmadik. ...o'g'ilginang hech narsani ko'rmaganday, otday bo'lib ketadi. (O.)* Bunday konstruksiyalardagi narsa so'zi nima so'roq olmoshi o'rnida ham qo'llana olishi mumkin: Qopning tagida hech narsa qolmagan -...hech nima qolmagan.

Qo'shma so'z shaklida qo'llangan inkor olmoshlari gapda birdan ortiq kelishi mumkin. Bunday gaplarda bir necha inkor ifodalangan bo'ladi: *Men hech qachon hech kimning ustidan hech qayerga arz qilgan emasman. (A.Q.) ...hech kim hech bir nomzodning saylov ro'yxatida qoldirilishiga qarshi chiqmadi. (A.Q.) Bu haqda bizda hech narsa demay qo'ydi. (A.Q.) Hech kim hech qachon hech narsani bilmaydi. (O.)*

Yuqorida sanab o'tilgan bo'lishsizlik olmoshlaridan tashqari, bir narsa (bir nima) tipida tuzilgan qo'shilmalar ishtirok etgan gaplarning kesimi bo'lishsizlikni ifodalasa, inkor olmoshi vazifasini bajaradi: *Turg'unoy to Maston olib bermaguncha qo'l uzatib bir narsa olmas edi. (A.Q.) -...hech narsa olmas edi. Lekin hech kim yorilib bir nima demas edi, (A.Q.) -...hech nima demas edi. U menga qarab bir nima dedi - ...allanima dedi. Qo'l uzatib bir narsa oldi - ...nimanidir oldi.*

Kimsa so'zi ham inkor olmoshi o'rnida qo'llanib, shaxsga nisbatan inkor ma'nosini bildiradi: *Lekin shaftoliga kimsa boqmaydi. (O.)— ...hech kim boqmaydi. Uyda kimsa yo'q edi.— ...hech kim yo'q edi.*

5-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga gumon olmoshlari va uning o'ziga xos grammatik xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar gumon olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari haqida bilib oladilar.
2. Gumon olmoshlarining ot va sifat o'rnida qo'llanishini bilib oladilar va amalda qo'llaydilar.

5-reja bayoni

Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari predmet, belgi yoki xodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy (abstrakt) va taxminli ishora qiladi. Gumon olmoshlari asosan ot va sifat xarakterida qo'llanadi: *Muxiddin aka allanimadan xursand bo'lib chiqib ketdi. (A.Q.) Qosim bilan Sobirjon ko'proq allaqanday notanish shaharlar, yana qandaydir dehqonlar haqida gaplashar edi (As.M.)*

Gumon olmoshlari bir necha xil yo'l bilan yasaladi:

I. **-alla** elementi ba'zi so'roq, olmoshlari bilan birga gumon olmoshlarini yasaydi: *allakim, allanima, allaqanday* va o.

Allanima olmoshi ko'pincha ot xarakterida ishlatilib, turli kelishik affikslari, egalik va ko'plik qo'shimchalarini oladi: *Bobom goho behushday allanimalarni shivirlab qo'yadi. (O.) Mehri yuragini zulukday so'rib yotgan allanimalardan qutulib chiqdi. (A.Q.) Allanima olmoshi ba'zan uyushgan bo'laklardan keyin yoki oldin umumlashtiruvchi so'z vazifasida*

ham keladi: *G'altak aravada gullik qora las ko'rpa, qizil lola bolish, yana allanimalar bor ekan. (A.Q.) O'z singlisiga Hamida allanimalarni o'rgatar-goh rasm solar; goh hisob chiqarar, goh ertak aytar, goh ashula yodlatar edi. (Sh.R.) Allanima olmoshiga xos ma'no va vazifada allanarsa olmoshi ham qo'llanadi: Allanarsaning portlashidan uyg'onib ketdim. (S.Ahm.) Agronom allanarsasini allanima bo'ldi debdi. (A.Q.)*

Allakim olmoshi shaxslarga nisbatan noaniqlik ifodalaydi: Tursunoy kabinetga kirganda, u allakim bilan, gaplashayotgan edi. (As.M.) Lekim usta Mo'min bu gapi shu mahallalik allakimdan eshitgan ekan. (A.Q.)

Allaqanday (allaqanaqa) olmoshi predmetning belgisi noaniq ekanligini ko'rsatadi: Shunday kunlarga allaqanday mo'jiza kuchi bilan darrov yetisha qolishni o'ylardim. (S.Ahm.) Allaqanday bir aravakash qumni ko'chaga tushirdida, ketib qoldi. (O.) Ko'pincha bunday konstruksiyalarda aniqllovchi allaqanday so'zi bilan aniqlanmish orasida noaniqlikni ifodalovchi bir so'zi ham ishlatiladi. Bu so'z olmoshdagi noaniqlik ma'nosini yanada ta'kidlaydi: U allaqanday bir delegatsiya sostavida uch oy muddat bilan ketayotgan ekan. (A.Q.) Uning ko'ksida allaqanday bar adovat paydo bo'lgan edi. (A.Q.)

Allaqanday olmoshi sifatlar oldida kelib, qisman noaniqlik ma'nosini ifodalasa ham, belgining ortiq darajada ekanligini ko'rsatadi: Uzoqdan allaqanday vahimali bir tovush eshitildi. (A.Q.)

Allaqaysi olmoshi ham, yuqoridagi olmosh kabi, predmet belgisining noaniqligini bildiradi: Qodirov allaqaysi maktabning direktori bo'lib,.. (A.Q.) Mirvali allaqaysi bazada ekspeditor. (S.Ahm.) Ko'ngilning allaqaysi burchida alangalanayotgan g'azab... (A.Q.) Allaqaysi olmoshining qo'llanish doirasi allaqanday olmoshiga nisbatan tor. Bu olmosh belgining ortiqchiligini ifodalamaydi. Shuning bilan birga sifatlar oldidan ham qo'llanmaydi.

Allaqayer olmoshi o'ringa nisbatan noaniqlikni anglatadi.

Bu olmosh turli kelishik formasida kelishiga qarab, turli gap bo'lagi vazifasini o'taydi: O'zi uncha chiroyli bo'lmasa ham, allaqayeri odamga juda yoqadi. (S.Ahm.) Bir pasda yuragining allaqayeri jiz etib ketdi. (S.Ahm.) -ega vazifasida; Allaqayerdan o'lan yangraydi. (O.) To'g'ri yo'l qolib allaqayerdan yurdik. (A.Q.) -o'rin holi. Allaqayer olmoshi allaqayoq va allaqay shaklida o'rin kelishiklari affiksini olib qo'llanadi. Bu olmoshlar bosh kelishik formasida ishlatilmaydi: Xayolan allaqayoqlardan katta pul topib olgandek,... (S.Ahm.) Ular darrov allaqaydan yetib keladilar. (O.) Allanechuk olmoshi ko'pincha harakatning noaniq, holatda yuzaga keleshini, tushunarsiz holda sodir bo'lishini ko'rsatadi. Bu olmosh holat ravishiga xos xususiyatga ega: Vahobjonga bu hashamlar allanechuk ko'rinib ketdi. (S.Ahm.) Bu gap Qalandarovning qulog'iga allanechuk erish tuyuldi. (A.Q.)

Ba'zan allanechuk so'zi noaniq belgi ma'nosini ham ifodalaydi: Ayvonda xira osma chiroq allanechuk kir yog'du cho'kib turipti. (A.Q.) Ko'zlari allanechuk besaranjom. (O.)

*Allaqachon olmoshi noaniqlikni emas, biror voqea-hodisaning sodir bo'lganiga ko'p vaqt bo'lganligini bildiradi: Shahar allaqachon uxlagan. (O.) Uka, u vaqtlar allaqachon o'tib ketgan. (A.Q.) Ba'zan bu olmosh **-lar** affiksini olib keladi: Yoshlarga xos hislar uning qalbiga allaqachonlar singib ketgan. (A.Q.) **-gi** affiksini olib, sifat vazifasida keladi: Bular allaqachongi narsalar edi. (A.Q.)*

Allaqancha olmoshi miqdorga nisbatan noaniqlikni ifodalaydi: U kishi tog' yo'lidan allaqancha yo'l bosishi kerak. (S.Ahm.)

Allaqancha olmoshi ham paytgacha nisbatan belgining ortiq ekanligini, ko'pligini ham bildiradi: Otasining o'lganiga va o'zi shaharga kelib qolganiga allaqancha vaqt o'tdi.

-**alla** elementi bilan qo'llangan necha so'ziga tartib sonini yasovchi -nchi affiksi qo'shilib, tartibga nisbatan noaniqlikni bildiradi: *...jinoyat qonunlari majmuasining allanechanchi moddasi to'g'risida gapirdi. (A.Q.)*

-**alla** elementi narsa so'zi bilan birga kelib, predmet nomining noaniqligini bildiradi: *Allanarsaning portlashidan uyg'ondim. (S.Ahm.)*

Payt bildiruvchi vaqt, mahol, palla kabi so'zlar ham -**alla** elementi bilan qo'shilib, paytga nisbatan noaniqlikni ifodalaydi: *Saodat allavaqtgacha xat yozib o'tirdi. (J.Sh.) Allamahalgacha sizni kutdi,— dedi. (J.Sh.)*

2. Gumon olmoshi ko'pincha so'roq, olmoshlariga -**dir** elementini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu forma ot, sifat va ravish xarakteridagi olmoshlarni yasaydi; *kimdir, nimadir, qandaydir, qaydaydir, qaysidir: Kimdir betimga suv sepdi. (A.Q.) ...qandaydir bir qo'shiqni sekin aytadi. (O.)*

Ma'lumki, -**dir** elementi kesimlikni ko'rsatuvchi bog'lama vazifasida, ayrim so'roq olmoshlariga qo'shilib kelishi mumkin. Bunday paytda -**dir** elementini olgan olmosh gumon olmoshi hisoblanmaydi. Chog'ishtiring: *Kimdir* eishkni taqillatdi.— Kim bu?— so'rayman eshikka yaqinroq kelib. (O.) O'zbekistonning poytaxti Toshkent**dir**.

Noaniqlik formasi ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalaridan so'ng qo'shilib keladi: *Nimanidir mulohaza qilib, hech narsa demadi. (A.Q.) Shu payt kimningdir dodlagan tovushi eshitildi. (A.Q.) Shirin orzular shu topdayoq qayoqqadir g'oyib bo'ldi. (S.Ahm.) Qayerdadir chaqaloq yig'lamoqda, qayerdadir chilim, qurillaydi. (A.Q.) Niso buvi qayerdandir yangi bir chora topib keldi. (A.Q.) Qizcha nimalardir deb javrayapti. (S.Ahm.) Direktor nimalarnidir sanay boshladi. (S.Ahm.)*

Kim, nima olmoshlariga qo'shilib, noaniq shaxs yoki predmetni ko'rsatadi: *Kimdir nosfurushning nomini atab chaqirdi Kampir chevarasining jingalak sochlariga termilib nimalarnidir pichirlaydi. (S.Ahm.) Chol hamon nimaningdir xayolini suradi. (S.Ahm.) -dir elementi jo'nalish kelishik qo'shimchasini olgan nima olmoshiga qo'shilganda noaniq predmetni (mashina nimagadir urildi), noaniq sababni ko'rsatadi: Qalandarov nimagadir ko'ngli g'ash edi. (A.Q.)*

Qanday so'ziga qo'shilib, noaniq belgini ifodalaydi. Ko'pincha bu xildagi gumon olmoshi belgini ifodalovchi so'zlar oldida keladi: *Buvim birdan qandaydir vahimali tovush bilan qichqirdi (O.) Ko'chamizda qandaydir notanish ovozlari eshitildi. (O.)*

Qayer, qayoq so'zlariga qo'shilib, o'ringa nisbatan noaniqlikni ko'rsatadi. Bunda ular o'rin kelishiklari (o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari o'rin kelishiklari nomi bilan yuritiladi) affiksining birini albatta qabul qilgan bo'ladi: *Qayoqdandir xaloyiq yig'ilibdi. (O.) Saidam bu xotinni qayerdadir ko'rganday bo'ldi. (A.Q.) Qayergadir bormoqchilar, (O.)*

Qayer olmoshi bosh, tushum kelishiklari formasida kelib, -**dir** elementini qabul qilsa o'ringa nisbatan emas, predmetga nisbatan qo'llanadi va noaniq predmet nomini ifodalaydi: *Shipning qayeridir «qirs» etdi, (A.Q.) U qo'li bilan qayoqnidir ko'rsatdi. Qachon so'zi -dir formasini olib, paytga nisbatan noaniqlikni bildiradi: Shiypon qachondir bir bo'yalgan ekan (A.Q.) Qachondir yana bag'ringga qaytaman. (S.Ahm.) Ba'zan qachon so'zi va -dir elementi orasida -lar affiksi ishlatilib, uzoq vaqt ma'nosini ifodalaydi: Qachonlardir yaxshi kun keliishga ishonar edim. (S.Ahm.) Qachonlardir bir kun ilk muhabbat egasi esga keladi. (S.Ahm.)*

Nega olmoshi -**dir** formasi bilan birga kelib, noaniq sabab ma'nosini ifodalaydi: *Negadir maktub o'ziga bachkanaroq yozilganday tuyuldi. (A.Q.) Faxriddin negadir dam*

kular, dam burnini artib yo'talar edi. (A.Q.) Bobo har gal negadir o'sha bolani eslaydi. (S.Ahm.)

Xuddi shunga o'xshash noaniq sabab ma'nosi va noaniq belgi ma'nosi *nechukdir*, nima uchundir olmoshlari orqali ham anglashiladi: *Oksana nima uchundir shu belgilarni tushunishga bel bog'lab,... (As.M.) Hamma nechukdir o'ng'aysizlanar edi. (A.Q.) Odamlar nechukdir andishasiz bo'lib ketayotganini payqadi. (A.Q.) Hurinisoning eriga qilgan muomalasidan uyda nechukdir ko'ngilsiz bir g'ubor qoldi. (A.Q.)*

3. Gumon olmoshi ba'zi so'roq olmoshlariga ham yordamchisining qo'shilishidan hosil qilinadi. Bu yordamchi ham so'z o'zgartuvchi affiksalar yoki ko'makchilardan keyin qo'shib keladi: *Sizni kecha kim ham eslayotgan edi-ya. Kimniyam chaqirishayotgan edi. Nima bilan ham isbotlamoqchi bo'ldi, lekin isbotlay olmadi.*

Shu xilda yasalgan gumon olmoshlaridan keyin ham noaniqlikni ifodalovchi **-dir** formani qo'shib ishlatilishi mumkin: *Sizni kim (h)amdir eslayotgan edi.*

4. Gumon olmoshlarini hosil qilishda ba'zan **bir** so'zining ma'lum darajada roli bor. Bu so'z nima so'roq olmoshi bilan birga kelib, noaniq predmetni ko'rsatadi: *Ko'zimga bir nima ko'rindi. -Ko'zimga bir narsa ko'rindi. Ko'zimga allanima (allanarsa) ko'rindi.*

Bir nima hamma vaqt noaniqlik ma'nosini ifodalay bermaydi. Uning qanday ma'noda kelishi gapning mazmuni, kesimlarning shakllanishiga ham bog'liq. Agar gapning kesimi bo'lishli forma bilan ifodalansa (gap tasdiq mazmunini bildiradi), *bir nima* so'zi noaniqlik olmoshi vazifasida qo'llanadi: *Bu odam tong otguncha yurtga bir nima sovg'a oladi. (S.Ahm.) Saida yotgan joyida daftariga shoshib-pishib bir nimalar yozayotibdi. (A.Q.) Samandarov stolning tortmasidan bir nima qidirar ekan... (A.Q.)*

5. Birov so'zi birgalik sonini yasovchi **-ov** affiksining bir soniga qo'shilishidan hosil qilingan asli son turkumiga xos so'z hisoblansa ham, deyarli hamma vaqt noaniq shaxsni bildiradi. Shuning uchun ham bu so'zning qo'llanishidagi ko'pgina, xususiyatlariga ko'ra uni gumon olmoshlari qatoriga kiritish mumkin.

Birov so'zi ko'pincha «begona», «boshqa», «notanish», «noaniq odam», «kimdir» degan ma'noni ifodalaydi: *Birov eshikni qoqdi. (A.Q.) Uyga qaytay desa etagidan birov tortganday bo'ldi. (A.Q.) — Juft bo'lsin! — qichqiradi birov. (O.)*

Birov so'zi ba'zan uyushiq bo'laklar yoki qo'shma gaplar tarkibida takrorlanib kelib, turli xil noaniq shaxslarni ifolaydi. Bunday gaplar tarkibida ikki, uch, hatto to'rtta birov so'zi ishlatilishi mumkin: *Birov ro'y-rost, birov yer ostidan unga qaradi, (A.Q.) Birov ro'paradagi tomga, birov devorga, birov tolning kallagiga chiqdi. (A.Q.) Mahallamizda birov bo'zchi, birov mahsido'z, birov baqqol. (O.) Birov muomalani biladi, birov bilmaydi: birov gapni yog'lab gapiradi, birov tikanak bog'lab gapiradi. (A.Q.) Birov so'zi ba'zan kesimlari bo'lishsiz formada kelgan inkor gaplar tarkibida kelib, bo'lishsizlik olmoshi vazifasini ham bajaradi: Bunga birov tushuna olmas, birov ishonmas edi. (A.Q.) Albatta, mening bo'ynimga birov arqon solayotgani yo'q. (A.Q.) Demak, birov so'zi noaniq shaxs yoki «begona» ma'nosini bildirganda bir biridan ko'p jihatdan farq qiladi.*

6. Ko'plik affiksini olgan *ba'zi* so'zi gumon olmoshi vazifasida kela oladi. Ba'zi so'zi aslida noaniq belgini ko'rsatib, gapda sifat vazifasida keladi: *Ba'zi odamlar. Ba'zi uylar* kabi. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olib, noaniq payt ma'nosini bildiradi: - Ba'zida shoshib qolardi. Bu so'z -lar affiksini olish bilan otlashib, noaniq shaxs ma'nosini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, gumon olmoshi vazifasini o'taydi: *Ba'zilar raisning ko'nishiga shubha bilan qarar edilar. (A.Q.) Ba'zilari paranjida, ba'zilari chopon yopgan. (O.)*

7. *Falon* so'zi ham shaxs yoki belgi haqidagi noaniq tasavvurni ifodalab keladi. Bu so'z ot oldida kelib, belgi ma'nosini (Men falon joyda yashayman), **-chi** affiksini olib,

shaxs ma'nosini (Falonchini uchratdim), qilmoq fe'li bilan birga noaniq harakat ma'nosini (...falon qildi) bildiradi. Gumon olmoshi formantlari aralash holda ham ishlatiladi: *Onaxon bu gaplarni tinglarkan, allanimalardandir quvonar, nimalardandir qo'r qar edi.* (As.M.) Allaqaysidir burchakdan yosh bolaning ovozi eshitildi.

Ayrim darsliklarda ot-olmoshlari ham ajratiladi. Bunga *kamina, faqir, banda* so'zlari kiritiladi.

Boshqa turkumga oid so'zlarning olmoshlarga ko'chishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so'zlar olmoshga ko'chadi: 1) ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish*; 2) sifat: *ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi*; 3) son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so'zlari bilan keladigan ko'pgina so'zlar olmoshga ko'chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har yerda*.

Eski o'zbek tilida *men* olmoshi o'rnida *kamina* (hozir ham ishlatiladi), *faqir, kaminai kamtarin, qulingiz, bandai ojizingiz* kabi so'zlar qo'llangan.

Olmoshlarning tuzilish turlari

1. Sodda olmoshlar barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o'z, kim, hamma, hech, birov*.
2. Qo'shma olmoshlar faqat ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima*.
3. Juft olmoshlar faqat kishilik, ko'rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu*.
4. Takroriy olmoshlar ko'rsatish, o'zlik, so'roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o'z-o'zini, kim-kim, barcha-barchasi*.

Olmosh tahlili namunasi	
1. So'rog'i.	4. Tuzilish turi.
2. Qaysi turkum o'rnida kelganligi.	5. Gapdagi sintaktik vazifasi
3. Ma'no guruhi.	

Nazorat topshiriqlari:

1. Kishilik olmoshlarini tushuntiring.
 2. O'zlik olmoshlarini tushuntirib bering.
 3. Ko'rsatish olmoshlarining ma'nosini tushuntiring.
 4. So'roq olmoshlarining ma'nosini tushuntiring.
 5. Matndagi belgilash-jamlash olmoshlarini aniqlang va ularning ma'nosini tushuntiring.
- Biz istaymiz: barcha ellar, elatlar, Bir-biriga bo'lsin yana yaqinroq.
Sizning taklifingiz go'yo hammaning nomidan bo'ladi. (O.)
Har bir qishloq shiringina shaharcha bo'lishi lozim. (O.)
Bog'chamizdagi gullarning bari ochildi.
Xadicha xola qishloqning hamma qariyalaridek tetik kampir edi.

16 - ma'ruza: Fe'l. Fe'lning grammatik xususiyatlari . Fe'l kategoriyalari.

Mavzu rejasi:

1. Fe'l soʻz turkumining oʻziga xos morfologik xususiyatlari.
2. Boʻlishli va boʻlishsiz fe'llar.
3. Oʻtimli va oʻtimsiz fe'llar.
4. Fe'l mayllari
5. Fe'l kategoriyalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Harakat bildiruvchi soʻzlar, boʻlishli fe'llar, boʻlishsiz fe'llar, oʻtimli fe'llar, oʻtimsiz fe'llar, fe'l mayllari: xabar mayli, shart mayli, buyruq-istak mayli.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l soʻz turkumi, uning oʻziga xos xususiyatlari va grammatik kategoriyalari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fe'lning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funktsional formalarini aytib bera oladi.
2. Fe'llarni semantik guruhlariga ajrata oladi.
3. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlariga koʻra turlarini tushuntirib bera oladi.

1-reja bayoni

Shaxs va predmetning ish-harakati va holatini ifodalaydigan mustaqil soʻzlar fe'l deyiladi. Masalan: *Men olimlarga, ilohiyotchilarga, tarixshunoslarga hurmat-ehtirom koʻrsatdim va eʼzozladim. (A.Temur). Mehnat insonda ijodiy kuch uygʻotadi (Tafakkur jurnali).*

Grammatikada harakat va holat tushunchasi juda keng. Ya'ni fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, oʻzgarishi kabi jarayonlarni ham harakat tarzida anglatadi: *oʻrik gulladi, yaproqlar sargʻaydi, bola uxlayapti* kabi.

Fe'llarning barchasi bir umumiy soʻroqqa nima qilmoq? soʻrogʻiga javob beradi.

Fe'l oʻziga xos boʻlgan morfologik belgilarga ega, ya'ni:

1) ish-harakatning predmetga (toʻldiruvchiga) munosabati fe'ldagi oʻtimli va oʻtimsizlik maʼnosini hosil qiladi: *oʻqimoq, yozmoq* - oʻtimli fe'l; *oʻtirmoq, chiniqmoq* - oʻtimsiz fe'l;

2) ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkorni anglashilishiga koʻra fe'llar boʻlishli va boʻlishsizlik maʼnosini bildiradi: *ayt* - boʻlishli, *aytma* - boʻlishsiz; *bilgan* - boʻlishli, *bilgani yoʻq* - boʻlishsiz fe'l;

3) ish-harakat bilan uning bajaruvchisi, obyekt va subyektlar orasidagi munosabat nisbat maʼnosini hosil qiladi: *kiydi* - aniq nisbat, *kiyindi* - oʻzlik nisbat, *kiyildi* - majhullik nisbat, *kiydirdi* - orttirma nisbat;

4) ish-harakatning voqelikka munosabati mayl maʼnosida aks etadi: *bordi*, *bormoqda*, *bormoqchi* - aniqlik mayli; *boray*, *borgin*, *borsin* - buyruq-istak mayli; *borsa* - shart mayli;

5) ish-harakatning nutq soʻzlanib turgan payt bilan munosabati fe'ldagi zamon maʼnosini hosil qiladi: *oʻrgandim* - oʻtgan zamon, *oʻrganayapman* - hozirgi zamon, *oʻrganmoqchiman* - kelasi zamon;

6) ish-harakatning biror grammatik shaxs (birlik yoki koʻplikda) tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligi fe'ldagi shaxs-son maʼnosida aks etadi. Fe'l shaxs-son

qo'shimchalari bilan tuslanadi: *qiziqdim*, *qiziqding*, *qiziqdi*; *qiziqdik*, *qiziqdingiz*, *qiziqdilar*.

Demak, fe'l o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalash kabi o'ziga xos morfologik belgilarga ega.

Shu bilan birga fe'lning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi o'ziga xos vazifadagi shakllari ham mavjud (*ishongan odam* - sifatdosh; *ishonib*, *ishongach* - ravishdosh; *ishonish*, *ishonmoq kerak* - harakat nomi). Fe'lning bu vazifadagi shakllari gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajarishga moslashgan bo'ladi.

Fe'l o'ziga xos maxsus so'z yasaliş tizimiga ham ega: *bahola*, *ulg'ay*, *tinchi*, *suvsira* - affiksatsiya usul bilan yasalgan fe'llar; *xursand bo'lmoq*, *javob bermoq*, *sotib olmoq* - kompozitsiya usul bilan yasalgan yasama fe'llar.

Fe'llarda modal shakl yasaliş ham mavjud, u o'z ichida turli xil qo'shimcha ma'nolarni aks ettiradi: *kulimsira* - kuchsizlik, *turtkila* - davomiylik, *yozib bo'ldi* - tugallanganlik kabi.

Fe'l o'ziga xos sintaktik vazifalarga ham ega, ya'ni:

1) sof fe'l gapda, asosan, kesim vazifasini bajarib keladi. Masalan: *Insonni mehnat, odobni yaxshi fazilat bezaydi* (*Hikmatlar xazinasi*);

2) fe'lning vazifadosh shakllari sifatdosh, sifatlovchi-aniqlovchi, ravishdosh, hol, harakat nomi, ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi kabi gap bo'laklari vazifasini ham bajarib keladi. Masalan: *O'zingga **yoqqan** narsani boshqalarga ham ravo ko'r* (*Hadis namunalari*). *Dunyoda eng yomoni faqat o'zini bilib o'zgani unutib **yashashdir*** (*I.Karimov*). *Ilm-fanga **intilish** insonning eng oliy ma'naviy harkatlaridandir* (*Pedagogika tarixi*).

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l so'z turkumidagi so'zlar ba'zan harakatning bajarilishi haqida, ba'zan bajarilmasligi haqida ma'lumot berishini bu esa fe'llardagi bo'lishlilik hamda bo'lishsizlik shaklini hosil qilishi haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar fe'l so'z turkumidagi bo'lishlilik va bo'lishsizlik shakli haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2. Fe'l turkumining bo'lishsizlik shaklining hosil bo'lish yo'llari va usullari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

2-reja bayoni:

Fe'l turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan boy va murakkab grammatik kategoriyalar sistemasiga ega. Hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilar: 1) darajada; 2) bo'lishli bo'lishsizlik; 3) mayl; 4) zamon; 5) shaxs-son.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkor tushunchasi fe'ldagi bo'lishli va bo'lishsizlik ma'nosini anglatadi.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi. Fe'ldagi bo'lishlilik ma'nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkich yo'q: *o'qi*, *eslat*, *qolgan*, *borsa*, *aytib bergan*, *o'qib chiqdi*, *hurmat qil* kabi. Masalan: *Ona so'zining o'zi har yurakka jarangli sado beradi* (*Hikmatlar guldastasi*). *O'z burchini bajarishdan mamnun odamligina erkin yashaydi* (*Tafakkur gulshani*).

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi inkorni anglatuvchi fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi. Bo'lishli fe'l bo'lishsiz fe'lni hosil qilish uchun asos bo'ladi. Fe'lning bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi:

1. fe'l negiziga **-ma** (bu affiks urg'u olmaydi), *-may, -mas, -masdan, -maslik* affikslarini qo'shish bilan fe'ldagi bo'lishsizlik ma'nosi hosil qilinadi: *ko'rsatma, kelmagach, bajarmadi, yoqmas, avaylamasdan, o'smaslik* kabi.

Ko'rinadiki **-ma** elementi **-may, -mas, -masdan, maslik** affikslarining tarkibida uchraydi. Bu affikslar sof fe'lga va fe'l shakllariga (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) qo'shilib inkor ma'nosini ifodalashda asosiy morfologik ko'rsatkich sanaladi. Masalan: *G'ulomjon darpardasi yonidan qalin qorni g'irchillatib o'tgan dupurni ham eshitmadi. (M.Ismoilij).* *Tog' arqon bilan eshilmaydi (M.Qoshg'ariy).* *Mehnat qilmagan rohat ko'rmas (O'zbek xalq maqoli).* *Uydagilarga aytmasdan do'sti bilan Qudratnikiga ketibdi. Kasal tabib kasalni davolay olmas (Abu Ali ibn Sino).* *Bu voqeani ko'rmaslik uchun bolalar ko'zlarini chirt yumdilar.*

-ma, -may affikslari ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasiga quyidagicha qo'shiladi:

a) asosiy qismga yetakchi fe'lga qo'shiladi: *eshitmay qoldi, uxlamay chiqdi, ko'rmay qoldi* kabi;

b) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *o'qiy olmadi, o'qib bermadi, o'qib chiqmadi* kabi;

v) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining har ikkala qismiga qo'shiladi: *aytmay qo'ymaydi, bormay qolmaydi.* Bunday holda bo'lishsiz shakl orqali bo'lishlilik ma'nosi anglashiladi, ya'ni *aytadi, boradi* kabi.

Masalan: *Buvijonimning aytishicha, astoydil yaxshi niyat qilgan odam murodi maqsadiga etmasdan qolmas ekan (X.To'xtaboev).*

Eslatma: ravishdoshning **-gani (-kani, -qani)** affikslari bilan yasalgan shakliga bo'lishsizlik ifodalovchi affikslar qo'shilmaydi.

2. Fe'lning ayrim sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllaridan so'ng *emas, yo'q* so'zlarini kiritish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi: *hayratlangan emas, boradigan emas, tinchigani yo'q, ishonish emas* kabi. Masalan: *Lekin ularning nima o'qiganini ko'rgan ham, qanday o'qiganini eshitgan ham emas (P.Tursun).*

3. Na inkor yuklamasini uyushiq bo'lak sifatida qo'llangan bo'lishli fe'ldan oldin keltirish bilan bo'lishsiz fe'l hosil qilinadi: *na o'qiydi, na yozadi.* Masalan: *Keksa cholning kesatq gapidan u dong qotib qoldi: na o'tirdi, na ketdi (A.Qodiriy).*

4. Ba'zan intonatsiya yoki fe'lga yuklama (**-mi, -a, -ya**) qo'shish hamda fe'lni takrorlash orqali bo'lishsizlik ma'nosi ifodalanadi: *oladi-ya oladi (olmaydi); aytasan-a aytasan (aytmaysan)* kabi.

Masalan: *Bolasi tushmagur-ey, chumchuqning uyasini buzib rohat toparmidi? (G'ayratiy).* «*Katta bo'lsam, akamga o'xshab, albatta komandir bo'lamam*», - dedi Sobir. *Bo'lasan-a, bo'lasan. Komandir bo'lishga yurak kerak... (H.Nazir).*

3-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l so'z turkumidagi mayl kategoriyasi haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar fe'l so'z turkumidagi mayl kategoriyasi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
2. Fe'l turkumining mayl kategoriyasini hosil qiluvchi shakllar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va amalda qo'llay oladilar.

2-reja bayoni:

Mayl kategoriyasi harakat bilan sub'ekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabat turlicha bo'lgani uchun maylning ham

bir necha turi bo'lib, ularga xos ma'nolar maxsus formalar orqali ifodalanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida maylning quyidagi turlari bor:

- 1) Buyruq-istak mayli
- 2) Shart mayli
- 3) Maqsad mayli
- 4) Shartli mayl
- 5) Ijro mayli

1. Buyruq-istak mayli

Buyruq-istak maylidagi fe'lning tuslanishi quyidagicha:

<i>I yozay, ishlay</i>	<i>I yozaylik, ishlaylik</i>
<i>II yozgin, ishlagin</i>	<i>II yozing, ishlang ishlangiz,</i>
<i>III yozsin, ishlasin</i>	<i>III yozsinlar, ishlashsin</i>

Buyruq-istak formalarining asosiy xususiyati so'zlovchining istagi bilan bog'liq holdagi harakatga undash, shu harakatga da'vat etishni ifodalashdir, harakat bajaruvchisining qaysi shaxs ekani va boshqa holatlarni keltirib chiqaradi.

Birinchi shaxs birligining **-(a)y** va **-(a)yin** affiksi yordamida yasaluvchi formalari bor: *borayin, so'zlayin*. Birinchi shaxs formasida so'zlovchining harakatni bajarish istagi, harakatga bo'lgan rag'batini ifodalanadi: *Quloq sol, chiroq, ota-buvamizdan qolgan bir ilm bor, aytay. Siz shiyponga borib bir zum dam oling. Men mana bu kitoblarni qizlarga etkazay.*

So'zlovchining o'ziga o'zi buyruq berishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi, shuning uchun birinchi shaxsning sof buyruq uchun qo'llanishi uchramaydi. O'zgaga bo'lgan murojaatda istak bilan birga iltimos ham ifodaladi: *Siz bilan boray*. Birinchi shaxs formasi o'zgaga qarata so'zlangan hollarda buyruq, do'q ham ifodalanishi mumkin: *Sovxoz territoriyasida ikkinchi marta basharangizni ko'rmay*. Birinchi shaxs formasi so'roq gapning kesimi vazifasida kelganda so'zlovchining istagidan boshqa ma'no ifodalanadi. Bunday hollarda harakatning bajarilishi zaminida o'zganing buyrug'i, iltimosi, da'vati, istagi yotadi. So'zlovchi shu harakatning bajarilishini biror jihatdan aniqlashtirish uchun so'roq bilan murojaat etadi: *qachon boray, kimga aytay?* kabi. Agar harakatni bajarish boshqa biror kishi tomonidan aytilmagan bo'lsa, so'zlovchi bu harakatga tinglovchining istagini yoki boshqa munosabatini bilish uchun murojaat qilgan bo'ladi: *Eshik sekin ochilib Yodgorbek kirdi.* - Choy beraymi, dada? Birinchi shaxsning ko'pligi **-(a)ylik**, ba'zan **-(a)yik** affiksi vositasida ifodalanadi: *boraylik, uxlaylik*. Lekin bu forma hozirgi o'zbek adabiy tili uchun norma emas.

Birinchi shaxsning ko'pligi formasi faqat istakni emas, harakatga da'vat, iltimos kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Chunki bu forma so'zlovchidan tashqari u bilan bir guruhdagi, jamoadagi shaxslarni ham o'z ichiga oladi. *Bir yoqadan bosh chiqaraylik, chekinish yo'q! Bir oz dam olaylik, charchaganga o'xshaysan.*

Haqiqiy buyruq ma'nosi ikkinchi shaxs formasi vositasida ifodalanadi. Chunki bunda nutq qaratilgan shaxsning o'zi qatnashadi. Lekin ikkinchi shaxs formasida hamma vaqt ham buyruq ifodalanavermaydi. Bunda ham harakatga da'vat etish, undash asosiy o'rinda bo'ladi. Bu formada sof buyruq, do'q qilish, iltimos, hatto, yalinish kabi munosabatlar ifodalanishi mumkin: *Ayvonga qo'ya qol, xolang o'rgilsin. Buni ko'p sog'intirma, bolam.*

Demak, ikkinchi shaxs formasini ham faqat buyruq ma'nosini ifodalovchi forma deb bo'lmaydi. Ikkinchi shaxsning **-gin** affiksi bilan yasaluvchi formasida esa buyruq ma'nosi juda kuchsizlanadi. Bu forma ko'proq iltimos yoki oddiy undash uchun qo'llaniladi: *Ro'zimat, uka, shu yaxshi gapingga yana bitta gapni qistirib o'tgin.* **-gin**

affiksi bialn yasaluvchi formada iltimos, undash, yalinish ottenkalari, odatda, alohida ta'kid bilan ifodalanadi. Bunda **-gin** affiksi tarkibidagi **i** unlisi cho'ziq talaffuz etiladi: *bor-borgin, ol-olgin* kabi.

Uchunchi shaxsda harakatga undash, buyruq ma'nolarini ikkinchi shaxs orqali ifodalanadi: *Kolxoz bilan, odamlar bilan yaxshi tanishsin, keyin menga uchrasin.*

Uchunchi shaxsning sof buyruq uchun qo'llanilishi asosan majhul darajada uchraydi: *Tuyaning dumiga bog'lab sazoyi qilinsin.*

Xullas, istak, iltimos harakatga undash kabi ma'nolar buyruq-istak maylining uchala shaxs formasi uchun ham xos. Sof ma'nodagi buyruq asosan ikkinchi shaxs formasi uchun xarakterlidir.

Buyruq-istak maylining birinchi va uchunchi shaxs formalari so'roq taxmin, o'ylash kabi ma'nolarni ifodalovchi vositalar bilan qo'llana oladi. Ikkinchi shaxs formasi esa bunday vositalar bilan qo'lanmaydi. Bunga bu shaxs formalarining ma'no xususiyatlari sabab bo'ladi. Masalan, *ertaga kelaymi, ertaga kelsinmi, ertaga kelaymikin, ertaga kelsinmikin* kabi qo'llanish ko'p uchraydi. Lekin *ertaga kelmi, ertaga kelmikin* tipidagi forma yo'q. Bunday ma'noda ikkinchi shaxsning hozargi-kelasi zamon yoki shart mayli formasi qo'llaniladi: *ertaga kelasanmi, ertaga borsangmikin* kabi.

2 . Shart mayli.

Shart mayli formasi **-sa** affiksi va shaxs-son qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
borsam	borsak
borsang	borsangiz
borsa	borsalar

Fe'ning bu formasi hozirgi o'zbek tilida bir necha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. *Men ham doim qishloqda turganimda, mashinani o'rganib olardim.*

O'tgan zamon va hozirgi zamon sifatdoshi bilan *bo'l* fe'li yordamida yasalgan shart mayli formasidagi fe'l bildirgan harakat ma'lum bir vaqtda tugagan yoki davom etayotgan bo'lishi mumkin: *kelgan bo'lsa, kelayotgan bo'lsa* kabi. Lekin *kelgan bo'lsa* tipidagi forma ham, *kelayotgan bo'lsa* tipidagi forma ham, *kelayotgan* tipidagi forma ham harakatning nutq vaqtiga munosabatini ko'rsatmaydi, harakatning bajarilgan yoki bajarilayotgan ekani boshqa bir vaqtga nisbatan belgilanadi va uning o'tgan yoki hozirgi zamon deb qaralishi ham o'sha vaqtga nisbatan bo'ladi. Demak, bular nisbiy zamon formalari hisoblanadi.

Shart ma'nosini ifodalovchi **-sa** affiksli fe'l **edi** to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilishi mumkin. Lekin bundagi **edi** ham zamon ifodalovchi sifatida qatnashmaydi. Bunda **-sa** affiksli fe'l bilan **-sa edi** yordamida yasaluvchi formaning o'zaro farqli xususiyati, avvalo, qo'llanilish doirasida bo'ladi. **-sa** affiksli forma qo'llanganda, bosh gapning kesimi deyarli barcha mayl turlarida qo'llana oladi: *Xabar kelsa, menga ayt. Xabar kelsa menga aytar edi. Xabar kelsa menga aytmoqchi. Xabar kelsa, menga aytadi.* Ergash gapning kesimi **-sa edi** yordamida yasaluvchi formada bo'lganida, bosh gapning kesimi faqat shartli mayl formasida qo'llana oladi: *Xabar kelsa edi, menga aytar edi.*

Bundan tashqari **-sa edi** yordamida yasaluvchi forma qo'llanganda ko'pincha harakatning bajarilish bajarilmasligi noaniq holda ekani ta'kidlanadi: *Tuzalsa edi, odamlardek yura olsa edi, boshiga ko'tarardi.*

Shart maylining hech qanday zamon ko'rsatkichiga ega bo'lmagan *borsam, kelsang, aytsa, so'rasak* tipidagi formasi zamon ma'nosiga ega emas va u shart maylining biror zamon formasi sifatida qaralmaydi.

Fe'lning **-sa** affiksli formasi shart ma'nosini bildirganda, harakatning bajarilishi so'zlovchiga aniq bo'lmaydi, ya'ni so'zlovchi uni bilmaydi. Masalan: *kelgan bo'lsa, ketayotgan bo'lsa, kelsa* formasining uchallasida ham harakatning bajarilganligini, bajarilayotganligini yoki endi bajarilishini so'zlovchi bilmaydi, harakatning bajarilishi so'zlovchiga ma'lum bo'lsa, u holda shart ma'nosini ifodalovchi forma qo'llanmaydi.

Shart mayliga xos ma'no **-gan** va **-r** affiksli fe'lning **ekan** to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilishi orqali ham ifodalanadi: *Qayerdagi omma o'rtasida g'oyaviy va siyosiy-tarbiyaviy ishlar bo'sh qo'yilgan ekan, ana shunday bo'sh joylarda eskilik sarqitlari ildiz otaveradi.*

Bunda **-gan ekan** yordamida yasaluvchi formaning ma'nosi **-gan** bo'lsa ma'nosiga, **-r ekan** yordamida yasaluvchi formaning ma'nosi esa **-sa** affiksli formaning ma'nosiga to'g'ri keladi: *Qizil qo'shin mendan harbiy doktor bo'lishlikni talab qilgan ekan, men bu vazifani a'lo darajada tez fursatda bajaraman.*

Tarkibida **-ki** yuklamasini olgan inkor formasidagi so'z bo'lgan gaplarda harakatning bajarilish-bajarilmasligiga inkor formasidagi so'z bildirgan harakat-hodisa yo'l qo'ymasligi ma'nosi ifodalanadi: *Axir yangi kelgan emassizki, tirtibni bilmasangiz.*

-chi yuklamasi bilan qo'llanganda, buyruq-istak mayliga xos ma'nolar ifodalanadi: *Bu yoqqa kelsangizchi, quda, birpas chaqchaqlashaylik.*

-sa affiksli fe'l bir necha turdagi analitik formaning yasallishida qatnashadi: *ko'nsa kerak, olsa bo'ladi, bormasang bo'lmaydi, ketsa ketsin* kabi. Bunday analitik formalarning ma'nosi **-sa** affiksli fe'l bilan unga birikkan yordamchi so'zning ma'nolari yig'indisidan kelib chiqadi.

3. Shartli mayli.

Shartli mayl formasi **-(a)r (-mas)** formali sifatdosh va **edi** to'liqsiz fe'lining birikuvidan hosil bo'ladi: *ishlar edi, kellar edi*. Bu mayl turi bajarilishining biror sharti bo'lgan harakatni anglatadi: *Agar buning tagiga etsak, alomat ish bo'lar edi.*

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi ijro mayli formasidagi fe'llardan bo'lganda bosh gapdagi harakatning biror shart bilan bog'langanligi ifodalanadi. Shunga ko'ra shart bilan bog'langanlik ma'nosining ifodalanishi jihatdan shartli mayl formasi boshqa mayl formalaridan farqlanmaydigandek ko'rinadi: *Ertaroq kelsa edi, kinoga borar edik va ertaroq kelsa, kinoga boramiz*. Gaplarning ikkalasi ham bosh gapdagi harakatning yuzaga kelishi ergash gapdagi harakatning ro'yobga chiqishiga bog'liq.

Shartli mayl formasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, bu formadagi fe'l bildirgan harakat hamma vaqt bajarilmagan, yuzaga chiqmagan harakat bo'ladi, hatto qo'shma gap bildirgan harakat-hodisa o'tgan zamonga oid bo'lganda ham, shartli mayl formasidagi fe'l bildirgan harakat bajarilmagan bo'ladi: *Agar aloqamiz ilgariroq bog'langanda edi, biz bu qora yuz sharmandalarni ilgariroq fosh qilgan bo'lar edik.*

Yuqoridagi misollarning hammasida ham bevosita shartli mayl formasi xos bo'lgan ma'no harakatning biror shart bilan bog'liq ekani ma'nosi bo'lib, boshqa qo'shimcha ma'nolar turli faktorlarning ta'sirida kelib chiqadigan ma'nolar bo'ladi.

4. Maqsad mayli.

Maqsad mayli formasi **-moqchi** affiksi yordamida yasaladi va sub'ektning harakatini bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljali bildiradi: *bormoqchiman, bormoqchimiz*.

Fe'ning bu formasi faqat maqsad, mo'ljali ma'nosini bildirib, zamon ma'nosiga daxli yo'q. **-moqchi** affiksi bilan yasaluvchi forma zamon ma'nosiga ega bo'lgan biror vosita bilan qo'llanmaganda, u bildirgan maqsad hozirgi vaqtga oid bo'ladi. qiyoslang: *U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli, deb ko'rsatmoqchi. Uyalish u yoqda tursin, o'zi o'yinini ko'rsatmoqchi bo'lyapti.* **-moqchi** affiksli fe'l **edi** to'liqsiz fe'li bilan qo'llanganda, o'tgan zamon ifodalanishi mumkin. Lekin bunda harakat o'tgan zamonga emas, balki, maqsad o'tgan zamonga oid bo'ladi: *Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi ham emas edi.*

-moqchi affiksi bilan yasaluvchi forma **bo'l** yordamchi fe'li bilan qo'llanganda, yordamchi fe'ning qanday zamon formasida qo'llanishiga qarab maqsad ma'nosiga zamon ma'nosi qo'shiladi: *Endi daryoga to'g'on solmoqchi bo'lib turibmiz.*

-moqchi affiksi bilan yasalgan forma **bo'l** fe'lining o'tgan va hozirgi zamon formalari bilan qo'llanganda ham harakatning emas, balki maqsadning hozirgi zamon yoki o'tgan zamonga oidligi ifodalanadi: *Bormoqchi bo'lyapman emas, boryapman deyaver.*

5. Ijro mayli.

Ijro mayli harakat holatni uning bajarilish vaqti bilan bog'liq holda ifodalaydi. Bu maylda harakatning bajarilishi tushunchasi mavjud. Shuning uchun ham bu mayldagi fe'l albatta biror zamon formasida bo'ladi: *keldi, kelyapti, keladi.*

Ijro maylining maxsus grammatik ko'rsatkichi yo'q. U fe'lga zamon va shaxs-son qo'shimchalarining qo'shilishi orqali shakllanadi. Bu mayl grammatik ko'rsatkichining yo'qligi ham tabiiy, chunki zamon formalarining o'zi harakatning voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

Ijro maylidagi fe'ning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishidir. *Dildora onasiga xat yozdi.*

Nazorat savollari:

1. Fe'ning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funksional formalarini aytib bering.
 2. Fe'llarni semantik guruhlarga ajrating.
 3. Fe'ning leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra turlarini tushuntirib bering.
 4. Fe'llarning bo'lishli-bo'lishsiz shakllarda ishlatilishini aytib bering.
 5. Fe'llarda bo'lishsizlik ma'nosini keltirib chiqaruvchi vositalar va ularning turlarini ajrating.
 6. Hozirgi o'zbek tilida fe'ning mayl kategoriyasining semantik va grammatik kategoriyasini aytib bering.
 7. Ma'no ifodalash xususiyatlariga ko'ra mayl turlari va ularni yasovchi vositalarni aytib bering.
 8. Buyruq-istak maylidagi fe'llarning hosil bo'lishini misollar bilan tushuntiring.
- Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Fe'l kategoriyalari.

Mavzu rejasi:

1. Shaxs-son kategoriyasi
2. Zamon kategoriyasi.
3. Fe'l nisbatlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: fe'l kategoriyalari, tuslanish, shaxs-son, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, zamon shakllari, fe'l nisbatlari, aniq nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbati, birgalik nisbati.

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: fe'l so'zlarning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi haqidagi talabalar bilimini mukammallashtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Harakatning bajaruvchi shaxsga va uning son miqdoriga munosabatini to'g'ri aytib bera oladi.
2. Fe'llarning shaxs ko'rsatkichga bo'lgan munosabatiga ko'ra turlarini ajrata oladi.
3. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan ifodalanish usullari (tuslanish qo'shimchalari) bo'ladi.

1-reja bayoni:

Ish-harakat ma'lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so'zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o'zga (III shaxs syoki predmet) bo'lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko'plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe'llardagi bunday grammatik shaxs va son ma'nosi ma'lum bir grammatik ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: *o'qidim, o'qisam, o'qisang, o'qiyapman, o'qibman, o'qiy* fe'llari tarkibidagi **-m, -man, -y** qo'shimchalari ish-harakatning I shaxs so'zlovchi, ya'ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko'rsatsa; *o'qidik, o'qisak, o'qiyapmiz, o'qibmiz, o'qiylik* fe'llari tarkibidagi **-k, -miz, -ylik** affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin ko'p so'zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslari deb yuritiladi. Fe'llarning shaxs-son affikslari bilan o'zgarishi esa tuslanish deyiladi. Shaxs-son affikslari tilshunoslikda tuslovchi affikslar deb ham yuritiladi.

O'zbek tilida tuslovchi affikslar fe'l shakllariga turlicha ko'rinishda qo'shiladi. Shu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo'linadi.

1. Birinchi guruh tuslovchilar aniqlik va shart-istak maylidagi **-di, -sa** qo'shimchalarini olgan sof fe'l negizidan so'ng va edi to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *keldim, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar)* kabi.

Fe'llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	<i>yozdim, yozsam, yozgan edim</i>	<i>zdik, yozsak, yozgan edik</i>
II	<i>yozding, yozsang, yozgan eding</i>	<i>yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz</i>
III	<i>yozdi, yozsa, yozgan edi</i>	<i>yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)</i>

Ikkinchi guruh tuslovchi affikslar **-b(-ib), -a(-y)** qo'shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan (*-yotgan* qo'shimchasidan tashqari), shuningdek, *-yap, -moqda, -yotib, -moqchi* bilan shakllangan fe'l negizidan so'ng qo'shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni birinchi xil ko'rinishda **-b(-ib), -a(-y)** qo'shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda *-yap, -*

yotib bilan shakllangan fe'llar III shaxs birlikda -di (-ti), ko`plikda -di(lar), -ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko`rinishda esa fe'lning sifatdash shakllariga (-gan, -r (-ar), -digan, -vchi(-uvchi bilan hosil qilingan shakllariga), -moqda, -moqchi, -yotir bilan shakllangan fe'l negizlari, shuningdek, fe'llar ekan, emish to'liqsiz fe'llari bilan birga qo'llansa, III shaxsda shaxs ko'rsatkichi shakllanmaydi (nol ko'rsatkichli shaklda keladi).

Fe'llarning ikkinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

«A» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	yozib- <u>man</u> , yozayotib- <u>man</u> , yoza- <u>man</u> yozyap- <u>man</u>	yozib- <u>miz</u> , yozayotib- <u>miz</u> , yoza- <u>miz</u> , yozyap- <u>miz</u>
II	yozib- <u>san</u> , yozayotib- <u>san</u> , yoza- <u>san</u> , yozyap- <u>san</u>	yozib- <u>siz</u> , yozayotib- <u>siz</u> , yoza- <u>siz</u> , yozyap- <u>siz</u>
III	yozib- <u>di</u> , yozayotib- <u>di</u> , yoza- <u>di</u> , yozyap- <u>ti</u>	yozib <u>dilar</u> , yozayotib <u>dilar</u> , yozadilar, yozyap <u>tilar</u>

«B» ko`rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	yozgan- <u>man</u> , yozar- <u>man</u> , yozadigan- <u>man</u> , yozmoqda- <u>man</u> , yozmoqchi- <u>man</u>	yozgan- <u>miz</u> , yozar- <u>miz</u> , yozadigan- <u>miz</u> , yozmoqda- <u>miz</u> , yozmoqchi- <u>miz</u>
II	yozgan- <u>san</u> , yozar- <u>san</u> , yozadigan- <u>san</u> , yozmoqda- <u>san</u> , yozmoqchi- <u>san</u>	yozgan- <u>siz</u> , yozar- <u>siz</u> , yozadigan- <u>siz</u> , yozmoqda- <u>siz</u> , yozmoqchi- <u>siz</u>
III	yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi	yozgan- <u>lar</u> , yozar- <u>lar</u> , yozadigan- <u>lar</u> , yozmoqda- <u>lar</u> , yozmoqchi- <u>lar</u>

Uchunchi guruh tuslovchilar buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so'ng qo'shiladi. Fe'llarning uchunchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko`plik
I	yozay, yozayin, o`qiy, o`qiyin	yozaylik, o`qiylik
II	yoza, yozgin, o`qi, o`qigin	yozingiz, o`qingiz,
III	yoza, yozgin, o`qisin	yoza, yozgin, o`qisinlar,

2-savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarning fe'l zamonlari haqidagi bilimlarini mukammallashtirish va mustahkamlash:

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Fe'l so'zlar ifodalangan grammatik zamon tushunchasi va uning uch zamonga bo'linishini aytib bera oladi.
2. O'tgan zamon fe'llarini yasovchi qo'shimchalar, ularning ma'nolari va har bir shaklining qanday atalishini aytib bera oladi.
3. Hozirgi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va har bir shaklning qanday atalishini tushuntirib bera oladi.

4. Kelasi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va atalishini so'zlab bera oladi.

2-reja bayoni:

Fe'l zamoni harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutq momenti ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, obyektiv zamonning so'zlovchi gapi, so'zi to'g'ri kelgan bo'lagidir. Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lining uch xil zamoni farqlanadi: 1. Nutq momentigacha bo'lgan harakat - o'tgan zamon; 2. Nutq momentida davom etayotgan harakat - hozirgi zamon; 3. Nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat - kelasi zamon. Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va bu formalar fe'lining zamon formalari deb ataladi.

Harakatning nutq paytiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fe'lining zamon fo'rmalari uch asosiy guruhga bo'linadi:

1. O'tgan zamon shakli (bordi, borgan, boribdi, borgan edi).
2. Hozirgi, zamon shakli (borayapti, bormoqda borib turibdi).
3. Kelasi zamon shakli(boradi, ishlaydi).

O'tgan zamon fe'li.

1. Yaqin o'tgan zamon fe'llari.
2. Uzoq o'tgan zamon fe'llari.
3. O'tgan zamon hikoya fe'llari.
4. O'tgan zamon maqsad fellari.
5. O'tgan zamon davom fellari.

O'tgan zamon fe'llari nutq paytidan oldin bajarilgan ish harakatni bildiradi. Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamon fe'lining bir necha shakllari bo'lib, ular o'ziga xos ma'no va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu shakllar quyidagilar: 1. Yaqin o'tgan zamon fe'llari **-di**. 2. Uzoq o'tgan fe'llari **-gan, edi, ekan**. 3. O'tgan zamon hikoya fe'llari **-(i)b**. 4. O'tgan zamon maqsad fe'llari **-moqchi** va **edi** feli. 5. O'tgan zamon davom fe'llari **-(a)r** va **edi** fe'llari. **-di** qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl: *yozdim, yozding, yozdi*. **-gan** qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl: *yozganman, yozgansan, yozgan*. **-ib** qo'shimchali ravishdoshni shaxs-son bilan tushlash orqali hosil qiluvchi shakl: *yozibman, yozibsan, yozibdi*.

Edi to'liqsiz fe'li yordamida hosil qiluvchi shakl *yozgan edim, yozgan eding, yozgan edi; yozib edim, yozib eding, yozib edi; yozayotgan edim, yozayotgan eding, yozayotgan edi; yozar edim, yozar eding, yozar edi; yozayotib edim, yozayotib eding, yozayotib edi; yozmoqda edim, yozmoqda eding yozmoqda edi; yozguvchi edim, yozguvchi eding, yozguvchi edi*.

Ko'rinadiki o'tgan zamon fe'lining uchta shaklgina qo'shimchalar yordamida yasaladi. Qolgan yetti shaklining yasashida *edi* to'liqsiz fe'li qatnashadi. Bu shakllarning har biri ma'no va boshqa jihatdan o'ziga xos farqli xususiyatlarga ega bo'lsa-da, *edi* to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi shakllarning hammasi uchun umumiy belgi - xususiyatlar ham bor. Bu belgi - xususiyatlar o'tgan zamon fe'lining qo'shimchalar yordamida yasaluvchi shaklning birortasida ham yo'q.

O'tgan zamon fe'lining sintaktik shakllarida harakatning nutq paytiga munosabati bevosita ifodalanadi. *Edi* to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi o'tgan zamon shakllarida

esa harakatning nutq paytiga munosabati bevosita, ya'ni nutq paytini ham o'z ichiga olgan hozirgi vaqt orqali yoki boshqa biror shakl ifodalagan vaqt orqali bo'ladi.

Edi to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi shakllar faqat harakatning o'tgan zamonda bajarilganligi ma'nosini ifodalovchi shakl sifatida qo'llanganda, ular bildirgan harakatning bajarilish vaqti hech qachon hozirgi vaqt doirasida bo'lmaydi va ular anglatgan harakatning bajarilish vaqtiga nisbatan qo'yiladigan so'roqqa ilgari bir vaqtlar kabi so'z yoki so'z birikmalari javob bo'ladi. Masalan, *U jimib qolgan dalada yaralanib yotarkan, shunaqa xayollarni ko'p surgan edi*.

Edi to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi shakllar qandaydir boshqa harakat-hodisaga munosabat, aloqadorlik ifodalanishi ham muhim. Bunday hollarda harakatning bajarilish vaqtning «hozir» qismiga to'g'ri keladi: *Siz bilan xayirlashay deb kelgan edim, bunaqa mojaroning ustidan chiqib qolibman*.

1. Yaqin o'tgan zamon fe'llari **-di** qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl: *o'qidim, o'qiding, o'qidi; o'qidik, o'qidingiz, o'qidi(lar)*. Bu shakl odatda so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq paytigacha bajarilganini aniq, qat'iy tarzda ifodalaydi. Bunday harakat so'zlovchi va tinglovchining bevosita ko'z oldida bajarilishi ham yoki harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganligini so'zlovchi o'zgadan eshitib bilishi mumkin. Masalan: tinglovchining uyidan chiqmaganligini o'zgadan eshitgan so'zlovchi *Kecha uyingdan hech qayerga chiqmading* deyishi mumkin. Umuman **-di** qo'shimchasi bilan yasalgan shakl ifodalagan harakat uzoq o'tmishga emas, yaqin o'tmishga oid bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra bu shakl harakatni so'zlovchining o'zi kuzatgan harakat sifatida ifodalashda keng qo'llaniladi: *Gulshan opa Barnoni bir ko'ray deb bog'chaga kirdi. Hamshira qiz qo'lidagi harorat o'lchagichni qo'ltig'imga qo'ydi*.

2. Uzoq o'tgan zamon fe'llari **-gan** qo'shimchasi va *edi, ekan* fe'llarini tushlash yordamida hosil qilinadi: *kelgan edim*. **-gan** qo'shimchasi yordamida yasaluvchi shakl: *o'qiganman, o'qigansan, o'qigan; o'qiganmiz, o'qigansiz, o'qigan(lar)*. Bu shakl quyidagi xususiyatga ega:

1. Bu shaklda qo'llangan fe'l bildirgan harakat hech vaqt so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan vaqtda bajarilgan harakat bo'lmaydi. Shuning uchun quyidagi misollarda **-di** qo'shimchasi yordamida yasalgan shakl o'rnida **-gan** qo'shimchasi yordamida yasalgan o'tgan zamon shaklini qo'llab bo'lmaydi: Tanidi, tanidi! -Cho'lbobo bir qop semirib ketdi. Yuragim orqamga tortib ketdi.

2. Harakatning bajarilganligi va undan yuzaga kelgan holatning hozir ham mavjud ekanligini bildiradi. Bunday harakat - holatning bajarilgani ma'nosidan uning hozir mavjudligi ustunroq bo'ladi: *O'rnida ham gaplashaveramiz, sen juda charchagansan*.

3. **-di** va **-gan** qo'shimchalari yordamida yasalgan shaklning ikkalasida ham harakatning bajarilganligi aniq tarzda ifodalanadi. **-gan** qo'shimchasi yasalgan o'tgan zamon fe'li so'zlovchining o'zi kuzatmagan, keyin xabardor bo'lgan harakatni ifodalashi ham mumkin: *Seldan keyin go'zalarni o't bosgan hashorat oralagan. Kolxozchilar juda shoshilib qolishgan*.

-gan, edi yasaluvchi shakl: *yozgan edim, ishlagan eding, kelgan edi* kabi. Bu shakl quyidagi ma'no va vazifalarda qo'llanadi:

1. Harakat holatning hozirgi emas balki o'tgan, avvalgi vaqtga oidligini ifodalaydi: *Bizning yigitni ham, katta masofani piyoda bosgani uchunmi kun hiyla betoqat qilgan edi. Yerni yumshatib bahorda to'qayni buzish maqsadida qayta-qayta qo'yilgan suv endi yerga singmay, muzlab qolgan edi*.

2. **-gan, edi** tipida yasalgan shakl harakatining bajarilishini o'tgan vaqtlarga oid ekanligini ifodalaganligi sababli uning **-di** va **-(i)b** qo'shimchalari yordamida yasaluvchi

o'tgan zamon shaklidan farqli xususiyatini sezish qiyin emas. **-gan, edi** yordamida yasaluvchi shakllar o'rtasida esa ma'lum umumiylik borligidan ularning farqli xususiyatlarini farqlash biroz qiyinroq. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat.

- **-gan** qo'shimchasi bilan yasalgan shakl ifodalaydigan harakatning bajarilish vaqtining uzoqlik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Bundan bir necha asr ilgari yuz bergan hodisani ifodalash uchun ham **-gan** qo'shimchasi bilan yasash shakllarini qo'llash mumkin;

- **-gan** qo'shimchasi bilan yasaluvchi shakl juda qadimdan yuz bergan harakatlarni ifodalash uchun ham qo'llanishi harakatning uzoq o'tmishga oidligi ma'nosidan anglashilib turgan hollarda **edi** to'liqsiz fe'lini qo'llamaslik yoki qo'llangan bo'lsa, tushirib qoldirish ham mumkin: *Bir zamonlar dadangiz meni ham yo'lga solish tilagida ancha uringan. Men bo'lsam o'jarlik qilib o'z bilganimni qilganman;*

- **-gan** qo'shimchasi o'zi harakatning o'tmishga oid ekanlik ma'nosini bevosita ifodalay olmaydi, shuning uchun ba'zan **edi** to'liqsiz fe'lini qo'llamay bo'lmaydi usiz shu ma'no ifodalanmaydi: *O'rmonjon brigada va zveno boshliqlaridan xohlagan kishini har hafta ikki marotaba qizil choyhonaga yig'ib o'qita boshlagan edi.*

Gap tarkibida *edi*, hozir kabi so'zlar qo'llanganda ham *edi* to'liqsiz fe'lini tushirib bo'lmaydi: *Ular o'rinlaridan turganlarida, oy endi yuz ko'rsatgan edi.*

- **-gan** qo'shimchasi yordamida yasalgan shakl holat bildirganda, shu hozir mavjud ekanligini faqat **edi** to'liqsiz fe'li yordamida ifodalanadi: *Ikki o'rtoq xayirlashganda, quyosh endigina chiqqan, kun iligan edi.*

2. Shu shakldagi harakat bilan qandaydir aloqasi bo'lgan boshqa biror harakat-hodisaning borligini bildiradi: *Taklif qilmasayam o'tira boshlagandim. Majlisda hamma masala ochilganday, Ahmedovdan so'ralmagan va to'liq javob olinmagan savol qolmaganday bo'ldi...*

Bu misollarda **-gan, edi** yordamida yasalgan shaklning qo'llanishi nutiq so'zlayotgan vaqtda shu shakldagi fe'l bildirgan harakat bilan qandaydir aloqasi boshqa biror harakat hodisa yuz berganligi anglashilib turadi. Bu harakat hodisani ko'rsatuvchi so'z yoki gap yo'qligidan hali fikr tugallanmagandek aytiladigan gap tamom bo'lmaganidek bo'lib turadi: *Bir oz yayrashamizmi deb kelgan edim, shu yerda ham tinchlik bermadingiz.* Bu misolda keyingi gap qo'llanmasa, fikrning tugamaganligi sezilib turadi;

- **-gan, edi** yordamida yasalgan shakl harakat holatni hikoya tarzda ifodalash uchun qo'llanganda bu harakat-holatning bajarilgan vaqti nisbatan ancha ilgariroq vaqtga oid bo'ladi: *-Ha, aya, keldingizmi qorin ham toza ochgan edi-da.*

3. Payt ifodalaydi va payt ergash gapga bog'lash uchun xizmat qiladi: *Davlatbekov oshni yeb bo'lib ...endi bir mizg'ib olmoqchi bo'lib cho'zilgan edi, ko'chada mator guvilladi.*

3. O'tgan zamon hikoya fe'li **-ar, (i)b** qo'shimchali fe'lni tushlash yordamida yasaladi: *kelibman.*

-**(i)b** qo'shimchali ravishdoshni shaxs-son bilan tushlash orqali hosil bo'luvchi shakl: *o'qibman, o'qibsan, o'qibdi; o'qibmiz, o'qibsiz, o'qibdi(lar).* O'tgan zamon fe'lining bu shakli:

1. Harakatning kuzatmaganlik, undan keyin xabardor bo'lganlik ma'nosini bildiradi. Bu mano ikki hil ottenkaga ega:

a) o'zgadan eshitib bilganlik ottenkasi: *Eshitishimga qaraganda, Qo'chqor tuman markaziga ketganicha qaytib kelmabdi.*

b) harakatning bajarilganidan so'zlovchining o'zi xabardor bo'lganlik ottenkasi: *Kechirasiz o'rtoq Zununov, yoshlarning mojarosi bilan bo'lib sizni mahtal qilib qo'yibman. O'zim ko'rdim tosh chap yelkasiga tushibdi.*

2. O'tgan zamon fe'llarining yetakchi fe'llardan qo'ygan ko'makchi fe'ldan tashkil topgan shakli harakat-holatdan keyin xabardor bo'lganlikni emas balki bu harakat-holatning hozir mavjudligi ma'nosini bildiradi: *Rahmat davlatimizga, yetarli mashina berib qo'yibdi.*

3. Payt ergashgapning kesimi **-ki** bog'lovchisi bilan qo'llanganda bosh gapdagi harakat-hodisaning ergash gap kesimi bildirgan harakat bajarilgandan beri davom etayotganligi ma'nosini ifodalaydi: *Aqlimni tanibmanki, shu firmada ishlab kelyapman. Shu uyga tushibmanki, mehmon kutaman.*

4. To'liqsiz ergash gap kesimi vazifasida kelib to'liqsizlik ma'nosini ifodalaydi: *Yopiray, bunaqa battol o'g'rini umrimda ko'rgan emasman, ustidan oshirib o'q otibman - u kiprik qoqmadiya -ya! degan edi.*

-(i)b, edi yordamida yasaluvchi shakl jonli so'zlashuvda undosh yoki **-i** unlisi bilan tugagan fe'llarda **-(i)b, edi, -uvdi** tarzda talaffuz etiladi: *oluvdi - ol-ib-edi; -a* unlisi bilan tugagan fellarda bu tovush **o** ga ravishdosh yasovchi **-b** qo'shimchasi **-v** ga aylanadi: *ishlovdi -ishla-b-edi.*

Fe'ning bu shakli o'z xususiyatiga ko'ra **-gan, edi** yordamida yasaluvchi shaklga juda yaqin turadi, ya'ni:

1. Harakatning o'tmishdagi biror vaqtda yuz berganligini, ilgarisiga oidligini bildiradi: *Urish tugasa biznikiga mehmonga borasiz, o'shanda ayamning qanaqaligini ko'rasiz der edi.*

2. Munosabat ifodalaydi. Munosabatning mazmun jihatdan qanday harakatga egaligi shu munosabatdagi gaplarning umumiy mazmunidan reallashib turadi: *Menga arz qilib keluvdi, menda ixtiyor yo'q hokim to'raga bering dedim.*

3. Payt ifodalaydi va payt ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi: *Joyimdan jilib bir ikki qadam shiyp on o'rtasiga yuruvdim, qiz «yalt» etib menga qaradi.*

-yotib, edi yordamida yasaluvchi shakl: *borayotib edi, ishlayotib edi* kabi ma'no va vazifasi jihatidan bu shakl **-yotgan, edi** tipida yasaluvchi shakldan farqlanmaydi. Shu sababli aynan bir harakatni ifodalashda bu shakllar aralash qo'llanaverishi mumkin:

-Qayoqqa ketayotgan edingiz?

-Shaharga.

-Men ham shaharga ketayotuvdim.

4.O'tgan zamon maqsad fe'llari **-moqchi** qo'shimchasi va **edi** fe'lini tushlash yordamida yasaladi: *kelmoqchi edik.*

5.O'tgan zamon davom fe'li **-(a)r** qo'shimchasi va **edi** fe'lini tushlash yordamida yasaladi:

-(a)r, edi (-mas, edi) yordamida yasaluvchi shakl: *ishlar edi, kelmas edi.* Hozirgi tilida **-(a) r** qo'shimchasi yordamida yasaluvchi sifat-doshning **edi** to'liqsiz fe'liga birikishidan hosil bo'luvchi shakllarning ijro mayili va shartli mayil shakli bo'la olishini ko'rdik. Ijro mayil shakli sifatida u:

1.Harakatning o'tgan zamondagi biror vaqtda tugamaganligini bajarilishda davom etganligini bildiradi: *Mana endi Komil katta yo'lda borarkan, Barnoning qarashi yuragini bir g'amgin hislarga to'ldirar, bir xayolida alamli o'ylar qo'zg'ardi.*

-(a)r, edi yordamida yasaluvchi o'tgan zamondagi ma'lum bir vaqtda tugamagan davom etgan harakatni bildirishiga *ko'rayotgan-edi, yotib-edi, -moqda-edi* yordamida yasaluvchi shakllarga juda yaqin turadi. Lekin o'ziga xos ayrim xususiyatlari bilan

ulardan farqlanadi. Bu shakl bildirgan harakat odatdagi yoki o'tmishdagi ma'lum bir vaqtda bajarilayotgan, davom etayotgan hollardagi harakat bo'lishi mumkin.

-yotgan -edi yordamida yasaluvchi shakllarda harakatning bajarilish vaqti ta'kidlanadi. Badiiy ifoda harakatning bajarilish vaqtini ta'kidlash *emas* balki harakat hodisalarning bayoni asosiy o'rinda bo'ladi. (a)r-edi yordamida yasaluvchi shakllarda ham harakatning bajarilish vaqti konkretlashtirilmaydi, balki harakatning bajarilishi asosiy e'tiborda bo'ladi shunga ko'ra badiiy ifoda o'tgan vaqtda ma'lum bir paytda bajarilayotgan harakatni ko'rsatish uchun **-yotgan -edi** yordamida yasaluvchi shaklga nisbatan **(a)r-edi** bilan yasaluvchi shakl mos keladi.

O'tmishda ma'lum konkret vaqtda bajarilayotgan harakatni ifodalash uchun *-(a)r-edi* yordamida yasaluvchi shaklning ko'p qo'llanish sabablaridan biri bu shaklda bir necha fe'l uchin bitta **edi** to'liqsiz fe'lni qo'llash mumkinligidir: *Ot oldingi oyoqlarini suvga botirib anhor chetida xalqob bo'lib qolgan suvni shimirib og'zini suvdan uzmay yag'rini tilayotgan chivinlarni dum bilan to'zitib yuborar, yigit esa to'qaydan ko'tarilayotgan bir gala o'rdak havoda pirillab uchishini kuzatardi.*

Munosabat ifodalaydi: *Men sizni faqat yaxshi paxtakor deb bilar edim, boshqa hunaringiz ham bor ekan.*

-(a)r edi yordamida yasaluvchi shaklning **edi** to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi o'tgan zamon shakllaridan farqli xususiyati shundaki u jonli so'zlashuvda ham adabiy tilda ham payt ergash gapni bosh gapga bog'lash vazifasida qo'llanmaydi.

-moqda edi yordamida yasaluvchi shakl: *kelmoqda edi, ko'rmoqda edi*. Bu shakl oddiy so'zlashuvda qo'llanilmaydi, obrazli ifodalarda ko'tarinki nutqda uchraydi.

-moqda edi yordamida yasalgan shakl kabi o'tmishdagi biror vaqtda davom etayotgan tugallanmagan harakatni shuningdek, munosabatni ifodalash uchun qo'llanadi: *Aftidan Safarov ikkovi og'ilga tomon kelmoqda edi.*

-moqda edi yordamida yasaluvchi shaklning payt ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanishi deyarli uchramaydi.

-yotgan edi yordamida yasaluvchi shakl: *ishlayotgan edi, kelayotgan edi*. Undosh bilan tugagan fe'llarda **-yot** qo'shimchasidan oldin **a** unlisi orttiriladi: *surishtirayotgan edi, kelayotgan edi*. Bu shakl quydagi ma'no va vazifalarda qo'llanadi:

1. Harakatning o'tmishda davom etayotgan bajarilayotgan holda ekanligini bildiradi: *Adir boshida zo'r otishma bo'layotgan edi.*

2. Payt ergash gapning kesimi vazifasida keladi va ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi, bunday hollarda ergash gapning kesimi vazifasidagi fe'l bildirgan harakatning bir paytda bajarilishi ifodalanadi: *Suluv omonat qamish bostirma tagida bug'doy tortayotgan edi, Bibixoja kirib qoldi.*

-guvchi edi yordamida yasaluvchi shakl. Bu shakl og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham nisbatan kam qo'llanib fe'l bildirgan harakat sub'ekt (bajaruvchi) ning xarakter xususiyatini ko'rsatuvchi tipik harakati ekanini bildirdi: *Mahdum o'z ichida qancha bo'lsa ham necha yillik adovatlarni ikki og'iz shirin so'z yoki besh pullik manfaat evaziga unitib yuborguvchi edi. Egnida yamoq to'n, belida arqon hamma vaqt yerga qarab yurguvchi edi.*

Hozirgi o'zbek tilida odatdagi tipik harakat ma'nosi asosan **-r edi** yordamida yasaluvchi shakl orqali ifodalanadi. **-guvchi edi** yordamida yasaluvchi shaklning qo'llanish doirasi ancha chegaralangan.

Yuqorida aytib o'tilganlardan ma'lum bo'ldiki, **edi** to'liqsiz fe'li yordamida yasaluvchi o'tgan zamon shakllaridan ikkitasi ya'ni **-gan edi, -(i) b edi** yordamida yasaluvchi shakllar harakatning umuman o'tgan vaqtlarga oidligini bildiradi. Qolganlari

esa *-yotgan edi, -yotib edi, -moqda edi, -(a)r edi, -guvchi edi* yordamida yasaluvchi shakllar o'tgan vaqtlarda davom etgan harakatni ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li; 2) hozirgi zamon davom fe'li.

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda va undan keyin ro'y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: *Bobur bu chigal tugunlarni o'zi yecholmasligini sezadi (P.Qodirov). Yoshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).*

Hozirgi-kelasi zamon fe'li sof fe'l negiziga **-a, -y** ravishdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qiyman boraman	-y, -a	-man	o'qiyimiz, boramiz	-y, -a	-k
II shaxs	o'qiysan, borasan	-y, -a	-san	o'qiysiz, borasiz	-y, -a	-ngiz
III shaxs	o'qiydi, boradi	-y, -a	-di	o'qiydilar, boradilar	-y, -a	-di(-lar)

Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: *Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimizning o'z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqishi ortib bormoqda (I.Karimov).*

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsatkichi	Shaxs-son qo'shimchasi
I shaxs	o'qiyapman, o'qimoqdam an, o'qiyotibman	-yap, -moqda, -yotib	-man	o'qiyapmiz, o'qimoqdami z o'qiyotibmiz	-yap, -moqda, -yotib	-miz
II shaxs	o'qiyapsan, o'qimoqdasa n, o'qiyotibsan	-yap, -moqda, -yotib	-san	o'qiyapsiz, o'qimoqdasiz , o'qiyotibsiz	-yap, -moqda, -yotib	-siz
III shaxs	o'qiyapti, o'qimoqda, o'qiyotibdi	-yap, -moqda, -yotib	-ti - -di	o'qiyaptilar, o'qimoqdalar , o'qiyotibdilar	-yap, -moqda, -yotib	-ti(-lar) - -di(-lar)

Shuningdek, murakkab fe'l tarkibida qo'llangan **yot, yur, tur, o'tir** ko'makchi fe'llarni tushlash bilan ham hozirgi zamon davom fe'li hosil qilinadi: *o'qib yotibman, o'qib yuribman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman* kabi.

Kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe'li qo'shimcha modal ma'nolariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) kelasi zamon gumon fe'li; 2) kelasi zamon maqsad fe'li.

Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilish-bajarilmasligi mo'ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: *Bugun havo ochiq bo'lar* (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe'li ba'zan hozirgi-kelasi zamon ma'nosida kelib, aniqlik, qat'iylik ma'nolarini ham ifodalaydi: *Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar* (Maqol).

Kelasi zamon gumon fe'li sof fe'l negiziga **-r(-ar)** sifatdosh qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'shim-chasi	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'shim-chasi
I shaxs	o'qirman, borarman	-r, -ar	-man	o'qirmiz, borarmiz	-r, -ar	-miz
II shaxs	o'qirsan, borarsan	-r, -ar	-san	o'qirsiz, borarsiz	-r, -ar	-siz
III shaxs	o'qir, borar	-r, -ar	-	o'qirlar, borarlar	-r, -ar	(-lar)

Kelasi zamon maqsad fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: *Men kuzdan boshlab o'qishni davom ettirmoqchiman, so'ngra qishloq xo'jalik institutiga kirmoqchiman* (SH.R.). *Oho, qora ko'z deganda, u devordan oshadigan* (O.).

Kelasi zamon maqsad fe'li sof fe'l negiziga **-moqchi** hamda fe'lning ravishdosh (**-a, -y** bilan shakllangan) shakliga **-digan** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'shimchasi	Misol	Zamon ko'rsat-kichi	Shaxs-son qo'shim-chasi
I shaxs	o'qimoqchi-man, o'qiydiganman	moqchi, -digan	-man	o'qimoqchimiz, o'qiydiganmiz	-moqchi, -digan	-miz
II shaxs	o'qimoqchisan, o'qiydigansan	moqchi, -digan	-san	o'qimoqchisiz, o'qiydigansiz	-moqchi, -digan	-siz
III shaxs	o'qimoqchi, o'qiydigan	- moqchi,	-	o'qimoqchilar, o'qiydiganlar	-moqchi, -digan	(-lar)

		-digan				
--	--	--------	--	--	--	--

3- savol bo'yicha dars maqsadlari: talabalarga harakatning sub'ekt va ob'ektga bo'lgan munosabatning turli grammatik formalar orqali ifodalanishini har bir normaning ma'no va qiyoslanish xususiyatlarini o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Harakatning sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi munosabatni ifodalash daraja ko'rsatkichlari orqali amalga oshishni aytib bera oladi.

2. Hozirgi o'zbek tilida fe'l so'zlarni besh xil: bosh, o'zlik, majhul, birgalik va orttirma daraja shakllarini ajratib, farqlab gapirib bera oladi.

3-reja bayoni:

Fe'l nisbatlari harakatning subyekt va obyektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus fe'l formallari orqali ifodalanadi. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil nisbat formasi bor:

1. Bosh nisbat
2. O'zlik nisbat
3. Ortirma nisbat
4. Majhul nisbat
5. Birgalik nisbaqti

Bosh nisbat. Fe'lning bosh nisbati harakatning ega bilan ifodalanagan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi: bildi, ko'rdi, so'radi, aytdi, qaytdi kabi. Bu nisbatning maxsus ko'rsatkichi yo'q. Uning bosh daraja deb atalishi boshqa nisbatlarga nisbatandir. Bu nisbatdagi fe'l ob'ektki yoki ob'ektsiz bo'lishi mumkin.

O'zlik nisbati asosan **-(i)n**, ba'zan **-(i)l** affiksi yordamida ob'ektki fe'llardan yasaladi: *tashlanmoq, maqtanmoq, qo'shilmoq* kabi. **-(i)sh** affiksi yordamida bir-ikkita fe'ldangina o'zlik daraja formasi yasaladi: *joyla-joylash, ber-berish*, kabi: *O'z-o'zidan nariroqda tuproqqa qorishgan gavalarga tomon emakladi*. O'zlik nisbati qo'llangan gaplarda fe'lning leksik ma'nosi, ayrim so'zlar va boshqa faktorlar ta'sirida o'zlik darajasiga xos bo'lmagan ma'nolar xuddi shu formasiga xos ma'nodek ko'rinadi.

Natijada o'zlik nisbatining bevosita o'ziga oid ma'nosini aniq belgilab olish birmuncha qiyin bo'ladi. *Panshaxasini pichanga sanchib sopiga suyanib turgan bir yigit. Daromadning yo'lini bilgan odam chorvadan ham tez boyidi.*

Birinchi misoldagi *suyanib* formasi bildirgan ma'noni «o'zini-o'zi» degan ma'noga qiyoslash. Ikkinchi misoldagi *so'zlandi* formasi ma'nosini «O'zicha» so'ziga xos ma'no bilan izohlash mumkin. Lekin keyingi misollardagi *yig'ilgan, ayrilgan* fe'l formallari bildirgan ma'noni bu yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydi. Quyidagi misollardagi fe'lning o'zlik nisbatning ma'nosiga e'tibor bering: *So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib ko'rinmay ketdi. Otilmagan sopqon ham boshga, ham kunmachga tegadi. Yigit shu gaplarni aytishga aytdi-yu o'zini yashirishga joy topolmay qiynaldi.*

Ovozi titrab yutindi. Ro'paradagi uylardan yaxshi kiyingan ayollar qo'llarida idishlari bilan qozon boshiga qatnab turubdilar. Davlatbekovning tug'ilgan qishlog'i Bodomzor bu yerdan 11 chaqirim pastda.

Bu misollarning birontasi ham o'zlik nisbat formasi harakatni bajaruvchi qaytuvchini, bajaruvchi ham harakat ob'ekti ekanini yoki o'zini o'zi degan ma'noni bildirmaydi.

Fe'ning **orttirma nisbati** quyidagi affikslar yordamida yasaladi:

-dir (-tir): yozdir, kuldir, keltir, choptir.

-gaz (-giz, -g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz): ko'rgaz, kirgiz, turg'iz, yurg'az, ketkaz, ketkiz, o'tqaz, tutqiz.

-t: o'qit, cho'qit, qurit, ishlat, so'rat.

-iz: oqiz, tomiz,

-ir: bitir, uchir, pishir.

-ar: chiqar, qaytar.

-at affiksi faqat ko'r fe'lidan orttirma nisbati yasaydi: ko'rsat.

Ayrim fe'llarni orttirma nisbatlari yasashda ko'rsatilgan affikslardan faqat bittasini, boshqa fe'llardan esa bir nechtasini qo'llash mumkin. *Ko'n-ko'ndir, to'l-to'lat-to'ldir-to'lg'iz* kabi.

Orttirma nisbatda fe'ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi va bajartiruvchi shaxs borligi sezilib turadi. Shunga ko'ra ayrim kishilarda bu nisbat formulasi «asosiy subyekt va ikkinchi darajali subyekt», «harakatni bevosita bajaruvchi shaxs va harakatga vosita bo'luvchi shaxs» bildirilishi haqida gapiriladi. Lekin bu ma'nolar ham bevosita orttirma nisbatga xos bo'lgan grammatik ma'nolar emas. Orttirma nisbatida ham harakat bajaruvchisi ega yoki jo'nalish kelishigidan boshlab kelishikdagi so'z orqali ifodalangan shaxsning o'zi bo'ladi.

Orttirma nisbatda, ko'rib o'tilgani kabi, kishini chalg'itilgan holatlar ta'sirida ba'zan bu formada bajaruvchining birdan ortiqqligining ifodalanishi aytiladi. Orttirmasi va birgalik nisbatlarigina ko'rinadi. Orttirma nisbatda yasalishi bilan esa harakat bajaruvchisi emas, balki harakat ob'ekti ortadi, agar bunday ob'ekt yo'q bo'lsa, u yuzaga keladi: *kiydi-kiygizdi, keldi-keltirdi*.

Ayrim fe'llarda orttirma nisbat yasovchi affiks aniq ko'rinib tursa-da, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan ularni morfemalarga ajratib bo'lmaydi. Ba'zi fe'llarda bosh va orttirma nisbatlarning ma'nosi bir xildek ko'rinadi. Lekin bunday hollarda orttirma daraja formasiga xos xususiyat sezilib turadi yoki orttirma daraja formasi yangi ma'noli so'zga aylanayotgan bo'ladi: *Bir kun u qo'ltig'iga qistirib, eshikdan chiqib ediki, qarshisidan Norjon kelib qoladi. Qora to'riq ot ustida esa telpagini kallasining bir tomoniga bostiribroq kiygan qirolli kimsa*.

Yangi leksik ma'no kasb etgan orttirma nisbat formasidagi bunday fe'llar bosh nisbat formasida butunlay boshqa ma'no bildiradi: *Bu qarash avval qo'rquvni, so'ng g'azabni keltirilgan*.

Majhullik nisbati asosan **-(i)l**, ayrim fe'llardan **-(i)n** affiksi yordamida yasaladi: *aytildi, so'raldi, olindi* kabi.

Majhullik nisbati asosan obyektli fe'llardan va ba'zi obyeksiz fe'llardan yasaladi. Birinchi holda asosiy e'tibor bajaruvchiga emas, balki obyekt bilan harakatning o'ziga qaratiladi, aslida grammatik obyektни bildirgan so'z ega vazifasida bo'ladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, majhul nisbati orttirma va o'zlik nisbatlaridan farqli holda, harakatni bajaruvchiga bo'lgan munosabat nuqtai nazaridan xarakterlaydi, ya'ni bunda harakatning bajaruvchisiga e'tibor qaratilmaydi va u grammatik subyekt tarzida ifodalanmaydi.

Birgalik nisbati - **(i)sh** affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonida bajarilishini bildiradi: *yozishdi, keltirishdi*. Bu nisbatlarning «birgalik» deb atalishiga harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan birgalikda bajarilishi e'tiborga olingan. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi: 1. Birga bajarish harakatni bajarishda birga ishtirok etish ma'nosi: *Men ham birga quvishdim*. 2. Boshqa bir shaxsning harakatiga

yordam tarzidagi harakat ma'nosi: *Yer haydashdi*. 3. Umuman harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishi ma'nosi: *Kattalar o'sha yerda*. 4. O'zaro, galma-gal bajarilgan harakat ma'nosi ifodalaniladi: *Bolalar darvozaga gol urishdi*.

Xullas, birgalik nisbati harakatning bajaruvchi shaxs nuqtai nazaridan (birgalik, ko'plik nuqtai nazaridan) bo'lgan xarakteristikasini bildiradi.

Demak, orttirma va o'zlik nisbatlari harakatning obyektga bo'lgan munosabatini, majhul va birgalik nisbatlari esa harakatning munosabatini ko'rsatadi. Ana shu ikki holat nazarda tutilib, daraja kategoriyasi harakatning obyekt va subyektga munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya sifatida ta'riflanadi.

Nazorat savollari:

1. Harakatning bajaruvchi shaxsga va uning son miqdoriga munosabati haqida ayting.
2. Fe'llarning shaxs ko'rsatgichga bo'lgan munosabatiga ko'ra turlarini ajrating.
3. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan ifodalanish usullarini tushuntiring.
4. Harakatning sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi munosabatni ifodalash daraja ko'rsatkichlari orqali amalga oshishni aytib bering.
5. Hozirgi o'zbek tilida fe'l so'zlarni besh xil: bosh, o'zlik, majhul, birgalik va orttirma daraja shakllarini ajratib, farqlab gapirib bering.
6. Nisbat formasidagi fe'llarni topib, ularning turi, ma'nosi va yasovchi qo'shimchalarini ayting.
7. Fe'l so'zlar ifodalangan zamon grammatik zamon tushunchasi va uning uch zamonga bo'linishini aytib bering.
8. O'tgan zamon fe'llarini yasovchi qo'shimchalar, ularning ma'nolari va har bir shaklining qanday atalishini tushuntiring.
9. Xozirgi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va har bir shaklning qanday atalishini tushuntirib bering.
10. Kelasi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va atalishini so'zlab bering.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

ma'ruza: Fe'lning vazifadosh shakllari. Fe'lning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari. Ko'makchi fe'llar.

To'liqsiz fe'llar

Mavzu rejasi:

1. Fe'lning ravishdosh shakli.
 2. Fe'lning sifatdosh shakli.
 3. Fe'lning harakat nomi shakli.
 4. Fe'lning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari. Ko'makchi fe'llar.
- To'liqsiz fe'llar

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: fe'lning vazifaviy shakllari, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, ularni yasovchi qo'shimchalar.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalar fe'lning ravishdosh formacining ma'no va vazifalari, yasalishi, fe'lning boshqa grammatik kategoriyalarga munosabati haqida sistemali ma'lumotga ega qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fe'lning funktsional formalari va ularning turlarini ajratib bera oladi.

2. Fe'ning ravishdosh formalari, ularning yasalishi va fe'l grammatik kategoriyalariga munosabatini aniqlab va tushuntirib bera oladi.

1-reja bayoni:

Ravishdosh harakatning belgisini bildiradigan, uni biror tomondan xarakterlaydigan fe'l formasidir. Hozirgi o'zbek tilida ravishdoshning bir necha formasi bo'lib, ular quyidagi affikslar yordamida yasaladi:

-(i) b affiksi: *so'rab, eslab, quvonib*. Bu forma bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan boshqa ravishdosh formalaridan alohida ajralib turadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Harakat belgisini bildirib, hol vazifasida keladi: Shu payt *chorbog'dan echki etaklab* Dildor kirib keldi. U okopdan irg'ib yuqoriga chiqdi-da, qorong'uda *g'oyib bo'ldi*.

-(i) b affiksi yordamida yasaluvchi formaning ravishdosh deb atalishi, asosan, uning ana shu xususiyatiga, ya'ni harakat belgisini bildirishiga ko'radir. Ravishdosh, xuddi ravish kabi, **-roq, -gina** affikslari bilan ham qo'llaniladi: Bor, o'qariqlardan xabardor bo'lib tur. Suvni *jildiratibroq* qo'y. Quadrat unga xatni o'qitdi, so'ng *tortinibgina* so'radi.

2. Yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lni bog'lashga xizmat qiladi: *so'rab ko'r, tashlab yubor, ishlab tur* kabi.

3. Bog'lovchilik vazifasini o'taydi va shu bilan birga fe'lning qandaydir bir formasi o'rnida qo'llaniladi: *Keksa master Kuznetsov o'z shogirdlaridan faxrlanib, u ham yaxshi tilaklar bilan bir-ikki so'z aytdi-da, Omonovga o'rin berdi*. Misoldagi *faxrlanib* formasi o'rnida *faxrlandi-da* formasini va *aytdi-da* formasi o'rnida *aytib* formasini qo'llash mumkin. Demak, *faxrlanib* formasidagi **-(i) b** ravishdosh yasovchi -di affiksi bilan -da bog'lovchisiga xos vazifada qo'llanilyapti.

4. Ravishdoshning bu turi shaxs - son bilan tuslanib, o'tgan zamon fe'li hosil qiladi: *kelibman, kelibsan, kelibdi* kabi.

Bu ravishdoshning bo'lishsiz formasi **-may, -masdan** formantlari yordamida yasaladi: **o'qib- o'qimay, o'qimasdan; ko'rib- ko'rmay, ko'rmasdan**: U bir changal norinni bitta, ikkita *chaynab* yutib yuborardi. Ba'zan *chaynamasdan* ham yutardi. *Xotirjam bo'ling, Norqo'zi aka,- dedi Asalxon* suv sathida qalqib kelayotgan joyida *shohidan ko'zini oldi*.

She'riyatda **-may** formatining **-mayin** shaklida qo'llanilishi ham uchraydi: *Qanotini qush qoqmayin uyg'onar el polvonlari*.

Kulmay gapiradi, so'ramay kiradi kabi birikuvlardagi *kulmay, so'ramay* formasi **-a, -y** affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh emas, balki **-(i) b** affiks yordamida yasaluvchi ravishdoshning bo'lishsiz formasi hisoblanadi. *Kulib gapirdi- kulmay gapirdi, so'rab ko'rdi- so'ramay ko'rdi*.

-a, -y affiksi. Ravishdoshning bir turi undosh bilan bitgan fe'llarga **-a**, unli bilan bitgan fe'llarga **-y** affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu turdagi ravishdosh quyidagi ma'no va vazifalarda qo'llaniladi:

1. Harakatning belgisini bildiradi. Bu vazifada u yakka so'z holda (kula, ushlay kabi) kam qo'llaniladi. Yakka so'z holda qo'llanganda, subyektning shu forma bildirgan harakatni bajargan onning o'zida (tezlik bilan) boshqa biror harakatni bajarishiga o'tishi ifodalanadi: *Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'yib chopdi*.

Ravishdoshning **-a, -y** affiksi bilan yasaluvchi turi harakatning belgisini bildirish vazifasida, asosan, takror yoki juft so'z holida qo'llaniladi: *Ular samolyotdan tushishlari bilanoq tizzalaridan sochma qumga bota- bota hansirab biron tomonga borardilar. Muyassar shosha-pisha unga kechagi o'ylarni gapira boshlagan edi.*

Bu vazifada qo'llangan **-a, -y** affiksi yordamida yasaluvchi ravishdosh gapda hol vazifasida keladi. (yuqoridagi misollarga qarang.)

2. Yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'lni bog'lash uchun xizmat qiladi: *yoza olmoq, oqiy boshlamoq.*

3. Shaxs- son bilan tuslanib, hozirgi- kelasi zamon fe'li yasash uchun xizmat qiladi: *kelaman, kelasan, keladi; ishlayman, ishlaysan, ishlaydi* kabi.

-gach (-kach, -qach) affiksi: *kelgach, ekkach, chiqqach.* Ravishdoshning bu turi:

1. Payt ma'nosini bildiradi va payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi harakatning o'zi bildirgan harakatdan keyin bajarilishini ifodalaydi: *Uch- to'rt mehmondorchilikda yurishgach, maktabga qaytdilar.*

2. Sabab ma'nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Vaqt kech bo'lib qolgach, ortiqcha o'tirishni lozim topmagan Xolmat aka fotiha qilib, o'rnidan turdi.*

-gach affiks yordamida yasalgan ravishdoshning bo'lishsiz formasi asosan sabab ma'nosini ifodalashda qo'llanadi: *Shunday bo'lsa ham, ha deganda teshik ochilavermagach, xavotir oldik-da.*

-gach affiksi bilan yasaluvchi ravishdoshga xos ma'no chiqish kelishigidagi sifatdashning keyin so'zi bilan birikuvchi vazifasida ham keladi: *kelgach- kelgandan keyin, aytavermagach - aytavermagandan keyin.* Umuman, **-gach** affiksi bilan yasaluvchi ravishdoshning qo'llanilishi ko'proq kitobiy uslubga xos bo'lib, oddiy so'zlashuvda shu vazifada kelgandan keyin, aytavermagandan keyin tipidagi forma qo'llaniladi.

-guncha (-kuncha, -quncha) affiksi: *kelguncha, chekkuncha, chiqquncha.* Bu affiks yordamida yasaluvchi ravishdosh ham hozirgi o'zbek tilida juda keng qo'llaniladi va quyidagi ma'nolarni bildiradi.

1. O'zi bog'lanib kelgan fe'l bildirgan harakatning bajarilish vaqtini aniqlaydi. Bunda: a) biror harakatning **-guncha** affiksli fe'l bildirgan harakatga qadar bajarilib bo'lishi ifodalanadi: *yuringlar, mashina kampirni tashlab kelguncha, qirga chiqib tushamiz.* Bunday hollarda ana shu mazmunga xos ravishda, uni ta'kidlash uchun to so'zi va **-guncha** affiksli fe'l bildirgan harakatni yuzaga kelmaganligini ifodalash uchun bo'lmay fe'li formasi qo'llanilishi mumkin: *To xo'rda suzilib kelguncha, bir tomonga qiyshayib uxlab qolgan edi;* b) biror harakatning **-guncha** affiksli fe'l bildirgan harakat sodir bo'lguncha davom etishi ifodalanadi: *Aleksey Ivanovich Elmurod o'rniga yotguncha qorong'u hovliga qarab hayol surdi.*

Ket, bor, kel kabi ayrim fe'llar **-guncha** formasida qo'llanganda, biror harakatning shu fe'llar bildirgan harakatning n to'lig'cha bajarilishi protsessida davom etishi ifodalanadi: *Borguncha hikoya qildi. Hoy qizlar, shartim shuki, ketguncha ashula qilib ketasanlar.*

2. Qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi vazifasida kelib, chog'ishtirish ma'nosini bildiradi. Bunday gaplarda ravishdosh anglatgan harakatdan ko'ra bosh gapdagi harakatning bajarilishi ma'qul ekani ifodalanadi, ya'ni **-guncha** affiksi bilan yasalgan ravishdoshning ma'nosi chiqish keishigidagi **-dan** affiksli sifatdash

bilan ko'ra so'zining ma'nolari yig'indisiga to'g'ri keladi: *Olguncha- olgandan ko'ra* kabi: *Shu holgacha tishguncha o'lim tilanglar*.

-gani (-kani, -qani) affiksi: *olgan ekkani, yiqqani*. Bu affiks yordamida madsad ma'nosini bildiruvchi ravishdosh yasaladi: *Siz bilan maslahatlashgani keldim*.

Ba'zan **-gani** affiksi o'rnida uning **-gali** varianti qo'llanish hollari uchraydi: *Adolatoy uyg'onib barg kesgali yo'l oldi*. Lekin **-gali** formasi hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xarakterli emas.

Hozirgi o'zbek tilida maqsad ma'nosini ifodalashda uchun ko'makchisi keng qo'llaniladi. **-gani** affiksi yordamida yasaluvchi ravishdoshning qo'llanishi **uchun** ko'makchisiga nisbatan kam uchraydi. Ayrim hollarda **uchun** ko'makchili konstruktsiyani **-gani** affiksli ravishdosh bilan almashtirib bo'lmaydi, almashtirsa, sun'iylik seziladi: *Qudrat oradagi o'ng'aysizlikni yo'qotish uchunmi yoki chindanmi, ularni boshqa gapga chalg'itdi*.

Bu turdagi ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unung bo'lishsiz formaga ega emasligidir.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalar fe'lning sifatosh formasining ma'no va vazifalari, yasalishi, fe'lning boshqa grammatik kategoriyalarga munosabati haqida sistemali ma'lumotga ega qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fe'lning sifatosh formasi, uning yasalishi va fe'lning grammatik kategoriyalariga munosabatini aniqlab va tushuntirib bera oladi.

2-reja bayoni:

Predmetning harakat va holat belgisini bildiradigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l shakli sifatosh deyiladi: *So'zlayotgan kishining o'ziga emas, so'ziga e'tibor qil* («Tafakkur gulshani»). *Ko'chaning ikki chetida turli mollar bilan savdo qiluvchi do'konlar joylashgan* (M.Qoriev) gaplaridagi *so'zlayotgan, savdo qiluvchi* sifatoshlari *kishi, do'konlar* otlariga bog'lanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqllovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o'zak-negiziga **-gan (-kan, -qan)** affikslarni qo'shish bilan: *yuklagan, kechikkan, qiziqqan* (fe'l negizi **k** yoki **g** bilan tugasa, **-kan; q** yoki **g** bilan tugasa, **-qan** tarzida).

Bu affiks sifatosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski o'zbek adabiy tilida **-gan** affiksining ekvivalenti **-mish, -dik** affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) fe'lning **-a, -y** affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga **-digan, -yotgan** affikslarini qo'shish bilan: *kelayotgan, o'qiyotgan, boradigan, ishlaydigan* kabi;

3) fe'l o'zak-negiziga **-r (-ar)** qo'shilishi bilan (unlidan so'ng **-r**, undoshdan so'ng **-ar**): *sanar, ko'kar* kabi;

4) fe'l o'zak-negiziga **-vchi (-uvchi)** qo'shilishi bilan (unlidan so'ng **-vchi**, undoshdan so'ng **-uvchi**): *boshlovchi, kutuvchi* kabi;

Eski adabiy tilda sifatoshning bu turi **-guchi, -g'uchi** shaklida ham ishlatilgan *aytguchi, kelguchi*. Bu shakl hozir ham poeziyada uchraydi: *Kulimsirab turg'uchi toleing porloq* (G'.G').

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot soʻz turkumiga koʻchish holati ham uchraydi: *oʻquvchi, toʻquvchi, yozuvchi* kabi.

5) feʼl negiziga *-ajak* qoʻshilishi bilan: *kelajak, boʻljak* kabi;

6) feʼl negiziga *-gusi, -gʻusi* qoʻshilishi bilan: *kelgusi, boʻlgʻusi* kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. Shunga koʻra sifatdosh feʼl sanaladi va feʼlga xos boʻlgan grammatik xususiyatlarga egadir, yaʼni:

1) oʻtimli-oʻtimsizlik maʼnosini ifodalaydi: *oʻqigan, yozdirgan* - oʻtimli; *qolgan, qiziqirgan* - oʻtimsiz sifatdosh;

2) boʻlishli-boʻlishsizlik maʼnosini ifodalaydi: *oʻqigan* - boʻlishli, *oʻqimagan* - boʻlishsiz; *aytar* - boʻlishli, *aytmas* - boʻlishsiz sifatdosh;

3) nisbat maʼnosini anglatadi: *yuvgan* - aniq nisbat, *yuvingan* - oʻzlik nisbat, *yuvilgan* - majhullik nisbat, *yuvishgan* - birgalik nisbat, *yuvdirgan* - orttirma nisbat;

4) sifatdoshlar tuslanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos boʻlgan feʼlni hosil qiladi (sof feʼlga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan (O.)*.

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tuslanish xususiyatiga (*-yotgan* shaklidan tashqari) ega. *-r (-ar)* bilan yasalgan sifatdosh shakli esa hozirgi tilda koʻproq tuslangan shaklda ishlatiladi: *oʻqirman, oʻqirsan, oʻqir; oʻqirmiz, oʻqirsiz, oʻqir(lar)* kabi;

5) sifatdosh zamon maʼnosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon maʼnosi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamoni nutq momentiga nisbatan emas, balki feʼl-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Koʻnglini kichik tutgan, kamtarlik yoʻlidan yurgan kishi ulugʻlikka yetadi (Yusuf Xos Xojib)* gapida tuslangan feʼl yetadi hozirgi-kelasi zamonni ifodalasa, koʻnglini kichik tutgan, kamtarlik yoʻlidan yurgan sifatdoshlari oʻtgan zamonni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon maʼnosiga koʻra uch guruhga boʻlinadi: oʻtgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik koʻrsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon koʻrsatkichi ham sanaladi.

Oʻtgan zamon sifatdoshi predmetning nutq soʻzlanib turgan vaqtdan ilgari boʻlgan harakat belgisini anglatadi. **-gan (-kan, -qan)** grammatik koʻrsatkichlari bilan yasalgan sifatdosh oʻtgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *Murabbiysi boʻlmagan odamni hayot oʻzi tarbiyalab qoʻyadi («Otalar soʻzi»)*.

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq soʻzlashib turgan vaqtida davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi *-yotgan, -vchi (-uvchi)* affikslarini qoʻshish bilan hosil boʻladi: *Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni boʻlmogʻi darkor (I.A.Karimov). Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi (P.Tursun)*.

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq soʻzlanib turgan vaqtdan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi *-r (-ar), -digan, -ajak* affikslari bilan yasaladi: *Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt (Maqol). Dehqon kelasi kuzda oladigan hosilining gʻamini shu kuzdan koʻradi (M.Ismoilijoy)*.

Sifatdosh feʼl shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga koʻradir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos boʻlgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, yaʼni:

- sifatdosh morfologik jihatdan oʻzgarmaydi (egalik, kelishik, koʻplik affikslarini olmaydi);

- sifatdosh otga bogʻlanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: *Koʻklam quyoshidan koʻkargan qirlar, koʻm-koʻk (H.Olimjon). Xadichabegim yurt uchun qaygʻuradigan bir malika ekanini koʻrsatishni sevardi (Oybek).*

- sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bogʻlanib kelgan ot qoʻllanmaydi va sifatdosh ot kabi soʻz oʻzgartiruvchi (egalik, kelishik, koʻplik affikslarini) affikslarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, toʻldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: *Yoʻlni bilgan qoqilmaydi (Maqol). Qishloq xoʻjaligida bevosita ishlab chiqaruvchining oʻzi xoʻjayin boʻlishi shart (I.Karimov). Koʻp yurgandan soʻrama, koʻp koʻrgandan soʻra (Maqol). Dushmanga nafrati boʻlmaganing Vatanga muhabbati boʻlmas (Maqol).*

3-savol boʻyicha dars maqsadi: talabalar feʻlning sifatdosh formasining maʼno va vazifalari, yasalishi, feʻlning boshqa grammatik kategoriyalarga munosabati haqida sistemali maʼlumotga ega qilish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

- 1.Feʻlning nokategoriyal (funktsional) formalari va ularning turlarini ajratib bera oladi.
- 2.Feʻlning harakat nomi formalari, ularning yasalishi va feʻl grammatik kategoriyalariga munosabatini aniqlab va tushuntirib bera oladi.

3-reja bayoni:

Ish-harakatning atamasi boʻlib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos boʻlgan feʻl shakli harakat nomi deyiladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliy maʼnaviy harakatlaridandir. *Chavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishini ham, aytnaslikni ham bilmay turgandi (O.Yoqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosga xolisona yondashishning guvohi va shohidi boʻlmoqdamiz (Rahim Vohidov)* gaplaridagi intilish, aytishni, aytnaslikni, yondashishning feʻl shakllari harakatning atamasi (nomi) boʻlib, gapda otga xos ega, toʻldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan.

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

- 1) feʻl negiziga **-sh (-ish)** qoʻshish bilan (unlidan soʻng **-sh**, undoshdan soʻng **-ish**): *oʻqish, yozish, ishlash, chiqish* kabi;

Harakat nomining **-sh (-ish)** affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga koʻchishga moyil boʻladi.

- 2) feʻl negiziga **-v (-uv)** qoʻshish bilan (unlidan soʻng **-v**, undoshdan soʻng **-uv**): *ishlov, bagʻishlov, boruv, keluv* kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi oʻzbek tilida kam ishlatiladi:

- 3) feʻl negiziga **-moq** qoʻshish bilan: *oʻsmoq, ulgʻaymoq, oʻrganmoq* kabi.

Harakat nomining **-moq** affiksi bilan yasalgan shakli feʻlga juda yaqin turadi, chunki har qanday feʻlning bosh shakli yo buyruq-istak mayli shaklida *esla, shosh* kabi, yoki *eslamoq, shoshmoq* kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. Shu jihatdan harakat nomi feʻlga xos grammatik xususiyatlarga ega:

- 1) oʻtimli-oʻtimsizlik maʼnosini ifodalaydi: *oʻrganish, koʻrmoq* - oʻtimli harakat nomi; *yugurish, ishonmoq* - oʻtimsiz harakat nomi;

- 2) nisbat maʼnosiga ega: *yutmoq* - aniq nisbat, *yasamoq* - oʻzlik nisbat, *baholanmoq* - majhullik nisbati, *qiziqitirmoq* - orttirma nisbat;

3) harakat nomining bo'lishsiz shakli faqat *-maslik* affiksi bilan yasaladi: *aytish* - bo'lishli harakat nomi, *aytmaslik* - bo'lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma'nosiga ega emas. Lekin ma'lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma'nosi aks etadi: *Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e'tibor bermoq lozim* (O.Karimova).

5) boshqa fe'l shakllari singari harakat nomi boshqarish xususiyatiga ega.

Shuningdek, ish-harakatning nomini bildirish jihatdan harakat nomi otga xos bo'lgan grammatik xususiyatlarga ham ega, ya'ni:

1) harakat nomi son, egalik va kelishik affikslarini oladi;

2) harakat nomi ot singari ega, qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi ko'makchili shaklda hol va kesim vazifalarini bajaradi: *Zumradning tikishi - go'zal, ipakni turlashi ham mohirona* (O.). *Bilim va tushunishga intil kunu tun* (YUsuf Xos Xojib). *Rais Jo'raboev bilan jiddiy tortishuvdan so'ng juda qattiq asabiylashdi* (SH.R.). *O'zini olim, fozilman deb maqtanish, shu bilan g'ururlanish jaholatning bir ko'rinishidir* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Nazorat topshiriqlari:

1.-topshiriq: Fe'ning funksional formalarini toping. Ularni asosiy xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajrating.

1. Podshoning marhamatidan bahramand bo'lmoq, ajdarning og'zidan taom yemoq bilan barobardir.

2. Ko'zim chiqsin seni ko'rguncha mundoq.

3. Agar istar esa boshimni olsun, Tanamni burdalab, itlarga solsun.

4. San'at osmonida nur sochuvchi ulug' yulduzga aslo zavol yo'q! (Uygun va I.Sulton.)

5. Bir necha qiz raqsga tushib ketdi.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.

Fe'ning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari. Ko'makchi fe'llar.

To'liqsiz fe'llar

Mavzu rejasi:

1. Fe'llarning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari haqida ma'lumot.

2. Ko'makchi fe'llar. To'liqsiz fe'llar.

3. Fe'ning modal ma'no ifodalovchi shakllari (formalar)

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: tub fe'llar, yasama fe'llar, fe'l yasovchi affikslar, qo'shma fe'llar, juft fe'l, takroriy fe'l, ko'makchi fe'l, to'liqsiz fe'l, fe'ning sintaktik vazifasi.

1-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l so'z turkumidagi so'zlarning yasalish xususiyati bor ekanligini, ularning ikki xil usul morfologik va sintaktik usul bilan yasala olishini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar fe'llarda yasalish xususiyati bor ekanligini bilib oladilar.

2. Talabalar fe'l yasovchi qo'shimchalarni bilib oladilar va ular vositasida yangi so'zlar tashkil qila oladilar.

3. So'zlarni bir-biriga qo'shib, juftlab, takrorlab yangi fe'l hosil qila oladilar.

4. Fe'llarni tuzilish jihatdan to'rt guruhga ajrata oladilar.

1-reja bayoni:

O'zbek tilida fe'llar so'z yasash xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

1. Morfologik usulga ko'ra, maxsus fe'l yasovchi affikslar yordamida boshqa so'z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so'zlardan) fe'l yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi so'z yasovchi affikslar qo'llanadi:

-la affiksi: *kuyla, bahola; tozala, oqla; sizla; tezla, sekinla; ufla, dodla; shitirla, shivirla* kabi. Bu affiks unumdor fe'l yasovchi affiks sanalib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi.

-a affiksi: *tuna, o'yna; qiyna, yasha; guldura, shildira* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: *eskir, qisqar, ko'kar* kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe'l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: *ulg'ay, kuchay, qoray; ko'kay, ozay* kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe'l yasaladi.

-sira affiksi: *suvkira, yotsira; sizsira, sensira* kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe'l yasaladi.

-lan affiksi: *otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan* kabi. Bu affiks tuzilishiga ko'ra qo'shma **(-la+n)** bo'lib, ot, sifat, son, undan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbat (o'zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: *gaplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash* kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko'ra qo'shma **(-la+sh)** bo'lib, u ot, son, undov so'zdan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: *changi, boyi, tinchi* kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe'l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: *yo'liq, do'riq, birik, kechik* kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe'l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: *hayqir, yarqira, yaltira, miltira; taqilla, gurilla, vishilla* kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: *gapir, tupur*. Bu affiks ham unum so'z yasovchi affiks bo'lib, u ot va undov so'zdan fe'l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so'z yasovchi affikslar bo'lib, bu affikslar yordamida otdan fe'l yasaladi: *iska, suvsa* kabi.

2. Sintaktik usulga ko'ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikishi bilan yangi so'z qo'shma fe'l yasaladi. Masalan: *Borlig'imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani)*. Bu misollardagi ayon qilmoqdamiz, olib keladi fe'llari sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.

Qo'shma fe'llarning qismlari qaysi so'z turkumidan tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) ot+fe'l qolipidan qo'shma fe'llar. Bunday fe'llarda birinchi qism fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid) dan tuzilib, ikkinchi qismi fe'l bo'ladi: *javob bermoq, qo'l qo'ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo'lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq* kabi. 2) fe'l+fe'l qolipidan qo'shma fe'llarning har ikkala qismi fe'llardan tuziladi: *olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq* kabi. Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi **-b (-ib), -a (-y)** qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo'shimchalar ikkinchi qismga qo'shiladi.

Fe'l+fe'l qolipidagi qo'shma fe'llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo'shma fe'llarning har bir qismi o'z leksik ma'nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. Shu jihatdan qo'shma fe'llar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe'llarda leksik ma'no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (etakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko'makchi fe'l) unga (yetakchi qism ma'nosiga) qo'shimcha modal ma'no qo'shadi: *aytib ko'r, olib tur, ko'rib chiq* kabi qo'shilmalarda *aytib, olib, ko'rib* qismi etakchi, *ko'r, tur, chiq* qismlari esa ko'makchi fe'ldir.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l so'z turkumidagi so'zlarning hammasi ham mustaqil fe'llar emasligini, ular orasida ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar ham mavjudligini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar mustaqil fe'llarning xususiyatlarini bilib oladilar.
2. Ko'makchi fe'llar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va amalda qo'llay oladilar.
3. To'liqsiz fe'llarning xususiyatlarini bilib oladilar.

2-reja bayoni:

Fe'llar boshqa so'zlarga nisbatan leksik-semantik va grammatik xususiyatlari jihatdan nihoyatda murakkab.

O'zbek tilida fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki asosiy gruppaga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar; 2) yordamchi fe'llar.

Mustaqil fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) harakat bildiradi (mustaqil ma'noga ega bo'ladi) va gapning biror bo'lagi vazifasida keladi: *o'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirdi*;

2) biror so'zni boshqarib keladi: *vazifani bajarmoq, ekskursiyaga chiqmoq* kabi;

3) ob'ektga munosabatda bo'ladi. Bu nuqtai nazardan fe'llar ikki turga bo'linadi; a) ob'ektlil fe'llar, b) ob'ektsiz fe'llar. Ob'ektlil fe'llar bildirgan harakat ob'ekt tushunchasi bilan bog'langan bo'ladi va ular tushum kelishigidagi so'zni boshqaradi. Ob'ektsiz fe'llar bunday xususiyatga ega bo'lmaydi. Qiyoslang: *ayt (gapni), o'rgan (xunarni), yoz (xatni)*-ob'ektlil fe'l; *seskan, qayt, kul, yugur*-ob'ektsiz fe'l; 4) mustaqil fe'llar fe'lga xos grammatik kategoriyalarga, shuningdek, funksional formalarga ega va shu formalarga xos vazifalarda qo'llanadi: *keldim*-bosh daraja, bo'lishli, ijro mayl, o'tgan zamon, birinchi shaxs, birlik (demak, bu fe'l daraja, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon va shaxs-son kategoriyaga xos ma'nolarni ifodalovsi formalarga ega); *kelgan*-sifatdosh formasi, *kelgach*-ravishdosh formasi, *kelish*-harakat nomiformasi (funksional formalar).

Yordamchi fe'llar harakat bildirmaydi (mustaqil ma'noga ega emas). Ular turli grammatik ma'nolar ifodalash uchun yoki boshqa vazifada xizmat qiladi.

Yordamchi fe'llar asosiy xususiyatlarga ko'ra uch turga bo'linadi: 1) so'z yashash uchun xizmat qiluvchi va bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar: **bo'l, qil (ayla et)**: *xabar qilmoq, xursand bo'lmoq, tasdiq etmoq* kabi. Bularning so'z yashash funksiyalari «So'z yasalishi» bo'limida, bog'lama funtsiyasi esa «Sintaksis» bahsida o'rganiladi; 2) fe'llarga birikib, turli qo'shimcha ma'no ifodalovchi yordamchi fe'llar: *chiq (o'qib chiq), qol (uxlab qoldi)* kabi. Bular fe'lning analitik formalarini hosil qiladi va yordamchi fe'llarning boshqa turlaridan farqlagan holda «ko'makchi fe'llar» deb yuritiladi; 3) fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'llanib, turli ma'nolar ifodalovchi, yordamchi vazifalarda qo'llanuvchi *edi, ekan, emish* yordamchi fe'llari «to'liqsiz fe'l» deb nomlanadi.

Ko'makchi fe'llar harakatning turlicha xarakteristikasini ko'rsatuvchi, shuningdek, turli modal ma'nolarini ifodalovchi formalarini yasash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'makchi fe'l bog'lanib kelgan mustaqil fe'l yetakchi fe'l deyiladi. *Aytib berdi* (aytib, yetakchi-berdi-fe'l), *ko'rib qoldi* (ko'rib-yetakchi, qoldi-fe'l) va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagicha fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, olmos, tush, yoz*.

Ko'makchi fe'llarning har biri o'ziga xos ma'no va xususiyatlarga ega. Lekin ular uchun umumiy holatlar ham bor.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan asosan **-(i) b** yoki **-a, -y** ravishdosh yasovchilari yordamida birikadi. Ba'zi ko'makchi fe'llargina yetakchi fe'l bilan grammatik forma yordamisiz birikadi. Ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdosh formasi orqali birikkganda, tuslovchi formantlar ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Yetakchi fe'lga grammatik forma yordamisiz birikkanda esa yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil formada bo'ladi: *yozib oldim, yozib olding, yozib oldi; yoza oldim, yoza olding, yoza oldi* kabi.

Ba'zi ko'makchi fe'llar keltirilgan misoldagi kabi, yetakchi fe'lga har uch formada birikadi, ba'zilarida esa faqat ravishdosh formasi yordamida birikadi: *O'qib chiqdi, yoza boshladi*. Bulardagi *chiq, boshla* ko'makchi fe'llari yetakchi fe'l bilan *o'qidi-yozdi, chiqdi-boshlanadi* formasida birkmaydi.

Ayrim ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan **-(i) b** yoki **-a, -y** ravishdosh yasovchilar yordamida, ba'zilarida esa faqat **-(i) b** affiksli ravishdosh formasiga, **yoz** ko'makchi fe'lga **-a** affiksli ravishdoshga birikadi: **yozib ber, o'qib qara, yiqila yozdi**.

Hozirgi o'zbek tiliga ko'makchi fe'llarning asosiy qismi yetakchi fe'l bilan **-(i) b** ravishdosh yasovchisi orqali birikadi. Yetakchi fe'lga faqat **-a, -y** ravishdosh yasovchisi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l uchtagina: *boshla, bil, yoz* (*ayta boshladi, yoza oldi, to'kila yozdi*).

Yetakchi fe'l bilan ravishdoshning har ikki turi yordamida birika oladigan ko'makchi fe'llar **-(i)b** affiksi yordamida birikkanda boshqa ma'no **-a, -y** affiksi yordamida birikkanda boshqa ma'no ifodalaydi. Qiyoslang: *yozib oldi- yoza oldi, kelib qoldi-kela qoldi, aytib ko'r-ayta ko'rma*.

Ko'makchi fe'llarning ba'zilarida bir ma'noli, asosiy qismi esa birdan ortiq ma'nolidir. Birdan ortiq ma'noli ko'makchi fe'llarning qaysi ma'noda qo'llanganda gapda, kontekstda reallashadi. Qiyoslang: *Sabr qil, xotin, yeb turgan go'shtimiz bor, o'g'lingiz kelgan kuni so'yaman, deb ko'nglimdan o'tkazib qo'yibman. Go'zal qo'lidagi guldastani, adashib qoldimi, ona tili o'qtuvchisiga berib qo'ydi*.

Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan analitik formalarda ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ham har bir ko'makchi fe'l o'zidan oldingi fe'l bilan ravishdosh formasi yordamida birikadi: *aytib berib tura qol*. Ko'makchi fe'l yordamida yasaluvchi analitik formaning bir yetakchi va biri ko'makchi fe'ldan hosil qiluvchi turi juda ko'p qo'llanadi. Ikki va undan ortiq ko'makchili formasi kam uchraydi.

Birdan ortiq ko'makchi fe'l o'z ma'nosi bilan qatnashgan formada har bir ko'makchi fe'l o'z ma'nosi bilan qatnashadi. Analitik forma tarkibidan biror ko'makchi fe'l tushirilsa, unga xos ma'no ham yo'qoladi. Qiyoslang: *Aytib berib tura qol-aytib berib tur-aytib ber*.

Birdan ortiq ko'makchi fe'lli analitik formada ravishdoshning **-(i) b** va **-a, -y** affiksi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l ishtirok etsa, yetakchi fe'lga oldin

-(i) **b** affiksi yordamida birikuvchi ko'makchi fe'l qo'shiladi. *Yozib bera qol, yozib ko'ra boshladi, ishlab tura ber kabi.*

Aynan bir ko'makchi bilan yasalgan analitik formadagi fe'llar uyushiq bo'lak vazifasida kelganda, ko'makchi fe'lining bir marta-uyushiq bo'laklarning so'ngisi bilan qo'llanish hollari ham uchraydi: *Bu qadar baliqni saqlashning sira iloji yo'q edi. Xonadonlar quritib ham, muzlatib ham, tuzlab ham, tuyib ham oldilar.*

Ko'makchi fe'llarning analitik forma hosil qilishda qo'llanish imkoni bir xil emas. Ularning ayrimlari deyarli barcha fe'llar bilan birika olgani holda, ba'zilar esa sanoqli fe'llar bilangina birika oladi. Masalan, *boshla* ko'makchi fe'li deyarli barcha fe'llar bilan qo'llana oladi, *yoz* ko'makchi fe'li *quvonmoq, tekshirmoq, o'smoq* kabi juda ko'p fe'llar bilan qo'llana olmaydi. (Buning sabablari haqida har bir ko'makchi fe'ling tahlilida gapiriladi).

Boshla. bu ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdosh yasovchi **-a, -y** affiksi yordamida birikadi va harakatning boshlanishi ma'nosini bildiradi: *yoza boshladi, ishlay boshladi: Elmurod dunyo xabarlaridan o'qib bera boshladi.*

Yot. Bu ko'makchi fe'l bilan **-(i)b** ravishdosh formasi vositasida birikib (yozayotibdi, kelayotibdi kabi forma tarkibidagi yotib ko'makchi fe'l emas affiks), davomlilikni ifodalaydi: *Daryodan suv chiqarishga urinib yotishibdi. May oyining hayotbaxsh quyoshi o'zining erkalovchi, zarrin nurlarini olamga sohib yotibdi.*

Tur. Bu ko'makchi fe'l yetakchi bilan ravishdoshning har ikki formasida birika oladi: *olib tur, yoza tur, ishlay tur.*

I. Ravishdoshning **-(i)b** afiksli turi bilan birikkanda:

A. Harakatning ma'lum konkret (chegaralangan) vaqt ichida davom etishini bildiradi: *Sidiqjon qizni kuzatib turgan edi. Ko'nglingda qanday o'y borligi ko'zingdan ko'rinib turibdi.*

B. Harakatning ma'lum bir vaqt ichida, biror harakat, hodisa amalga oshguncha bajarilishini ma'nosini («vaqtincha», «hozircha» degan ma'noni) bildiradi: *Siz o'qishga ketganingizda daraxtlarga o'zim qarab turaman. To shahardan muallim kelguncha, bo'lis o'zlari o'qitib turadilar.*

II. Ravishdoshning **-a, -y** affiksli turi bilan birikkanda:

A. Harakatning vaqtincha, biror boshqa harakat, hodisa yuz berguncha davom etishi ma'nosini ifodalaydi: *bora tur, qo'ya tur, yoza tur, ishlay tur.*

B. *bil, ko'r, bo'l* fe'llari bilan **-i(b)** affiksli ravishdosh formasida qo'llanganda (shaxs-son bilan tuslanmagan holatda), «bilgani holda», «ko'rgani holda», «bo'lgani holda» degan ma'no, shuningdek, gap ichidagi biror so'z bildirgan harakat yoki hodisaning yetakchi fe'l anglatgan harakatga zidligi ma'nosi ham ifodalanadi: *Ergashning xulqini bila turib unga bir og'iz shipshitib qo'ymaganiga endi qattiq o'kindi. Amirning rahmsizlik bilan odamlarni o'ldirayotganini ko'ra turib bosh ko'tarishga botinadimi?*

Hozirgi o'zbek adabiy tilida to'liqsiz fe'ldan hosil bo'lgan *edi, ekan, emish, emas, esa* formalari qo'llanadi. Bulardan *emas* bo'lishsiz forma yasovchi vositaga, *esa* bog'lovchiga aylangan shu sababli ularning birinchi bo'lishsiz forma yasovchi vositalar bilan bir qatorda, *esa* qo'shma gap bahsida o'rganiladi.

To'liqsiz fe'ling *edi, ekan, emish* formalari ham harakat ma'nosiga ega emas, ular turli ma'nolarni ifodalaydi va har xil grammatik vazifalarda qo'llanadi. To'liqsiz fe'llar otlar bilan ham (otlar — keng ma'noda), fe'llar bilan ham qo'llanadi: *bog' edi, ishlar edi; go'zal ekan, kelgan ekan kabi.*

To'liqsiz fe'l har bir formasining o'ziga xos xususiyati bilan birga ularning uchallasi uchun u mumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor. Ular quyidagilar:

1. To'liqsiz fe'l mustaqil ma'noga ega emas. Lekin tarixan mustaqil ma'noli bo'lgan.

2. To'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildirsa olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolarga va bu ma'noni ifodalovchi formalarga ega bo'la olmaydi. Garchi shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shilsada, lekin ular bildirgan shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'lga emas, balki kesim vazifasidagi butun kompleksga oid buladi: *xabardor ekan+man, xabardor ekan+san, bilgan edi+m, bilgan edi+ng; bilar emish+man, bilar emish+san*. To'liqsiz fe'l yakka holda tuslanmaydi.

3. To'liqsiz fe'l formalarida o'zak va unga qo'shilgan affiks tashqi tomondan aniq ajralib turadi: *edi (e + di), ekan (e + kan)* kabi. Lekin hozirgi o'zbek tilida to'liqsiz fe'lning o'zi mustaqil ma'nosini saqlamagani kabi, unga qo'shilgan affikslar ham shu forma doirasida o'z xususiyatini to'la saqlamagan yoki butunlay yo'qotgan.

4. To'liqsiz fe'l formalaridagi birinchi tovush (e) noturg'un, u ma'lum fonetik sharoitlarda, boiqa tovushning ta'siri bilan yoki pozitsion holatiga qarab, boshqa tovushga o'tishi yoki tushib qolishi mumkin. Bu hodisa, ayniqsa, og'zaki nutqda ko'p uchraydi: *ishlardi, ishlarkan, ishlarmish; ishlaganakan, ishlasaydi, ishlayotganmish va h.*

5. To'liqsiz fe'l formalari uyushiq kesimlar uchun umumiy bo'lganda oxirgi kesim tarkibida qo'llanadi. Bu kesimlar turli formadagi fe'llar, shuningdek otlar bilan ifodalanishi mumkin: *U Barno haqida ham, Gulchehra to'g'risida ham ancha gaplar eshitgan, Akmalning iztirob chekib yurganini ham bilar, lekin Gulsum opa bunchalik fig'oni chiqib gapirishini birinchi ko'rishi edi.* (O. Yo.)

Hozirgi o'zbek tilida **edi** va **ekan** to'liqsiz fe'llarining mustaqil fe'lning u yoki bu formasiga birikishidan turli ma'no ifodalovchi analitik formalar hosil bo'ladi: kelsin edi, bilsa ekan kabi.

-sin edi. Buyruq-istak mayli bilan **edi** to'liqsiz fe'lning birikishidan hosil bo'lgan forma sub'yekt shu formadagi fe'l anglatgan harakatni bajarishi kerak ekanligi (bajarmagani uchun o'zi aybdor ekanligi) ma'nosini bildiradi: *Bunaqa ekan, majlisning oxirigacha o'tiring, nimani o'ylab Usmonjonni taklif qilganligingizni kommunistlarga aiting edi.* (A.Q.) *unaqa olifta bo'lsa, kelmasin edi.* (A.Q.)

-sa edi. Bu forma harakatning bajarilish ehtimoli yo'q emasligi, shu harakat yuz bersa, yana nimadir bo'lishi kabi ma'nolarni bildiradi: *Tuman tarqab ketsa edi, deb ko'nglidan o'tkazdi.* (S. An.) *Bir kun «Elobod» kolxozi seni bag'rimdan uzmasa edi, - dedi ayyorcha iljayib rais.* (O.) *«Bugun yana ota bilan oramizda gap qochmasa edi» degan tashvishga tushdi.* (H.Nu'mon.)

-gan ekan (-yotgan ekan). Bu forma quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Payt ma'nosini ifodalab, payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, payt ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi: *...hovliga kiran deb eshik ostonasiga shunday qadam quygan ekan, birov shaq etib peshanasiga uribdi.* (O.) *Bosmachilar xasida xar xil xabarlar kela boshladi: ...falon qo'rboshi yigitlari bilan tog' oralig'idan kelayotgan ekan ko'chki bosib qolibdi.* (A. Q.)

2. Sabab ma'nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Partiya va hukumat shu kolxozni menga ishonib topshirgan ekan, unda qattiq tartib-intizom o'rnatishga majburman.* (S. An.)

-(a)r ekan. Bu forma quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Payt ma'nosini bildirib, payt ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Yoz chog'lari Yo'lchi dalada ishlarkan, ular tez-tez uchrashib turishar, juda samimiy so'zlashishar edi.* (O.) *Soldatning gaplariga quloq solarkan, Turg'un bu ish cho'ponlardan ko'ra ham Saodat uchun og'ir ekanini uylar edi.* (O. V.)

2. Sabab ma'nosini bildiradi va sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi: *Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ter to'kar ekanmiz, turmushimiz ham farovon bo'luvi shart.* (Sh. R.)

3. Harakatning bajarilish tarzini, holatini bildiradi: *Qo'y-qo'y, aytma, dedi Oliya jilmayib, uning og'zini kafti bilan yoparkan.* (J. Abdullaxonov.) *Ha, ha,— dedi Yo'ldoshboy g'azabidan titrarkan.* (H. Nu'mon, A. Shoraxmedov.)

-sa ekan. Bu forma harakatning bajarilish-bajarilmasligini istash, shunga tarafdorlik haqiqatda esa buning aksi mavjudligi, buni ma'qul emasligi ma'nosini bildiradi: *Birortasining nomini aytsa ekan, sovchilikka borsam.* (S. An.) *Ey, Ruzvon buvi, buyam sizga o'xshab yotig'i bilan gapirsa ekan.* (Ya.)

-moqchi ekan. Maqsad tarzidagi harakatning paytini bildiradi: *...xotin ketmokchi ekan, Jamolboy uning qo'lidan dadil ushladida, bir quli bilan bo'sh stulni o'z yoniga surdi.* (O.)

Ko'pgina analitik funksional formalar boshqa yordamchi fe'llar yoki fe'l bo'lmagan yordamchi so'zlar vositasida yasaladi:

-(i)sh bilan. Bu formada shaxs ko'rsatkichlari asosiy fe'lga qo'shiladi va shu formada fe'l bildirgan harakat bajariladi. Demak, **-di**, deguncha tipida yasaluvchi formaning sinonimi hisoblanadi: *Ahmadjon pulemyotini o'sha tomonga o'nglab, tepkisini bosishi bilan beliga birov qattiq tepganday bo'ldi.* (A. Q.) *Deraza ochilishi bilan Yo'lchi boshini ko'tardi.* (O.) *Ma'rifatxon nomi aytilishi bilan suhbatga yana jon kirdi.* (A. Q.)

-gan bilan. Bu forma to'siqsizlik ma'nosini bildiradi; *Mayli,... dod deganing bilan Ravshan eshitmaydi.* (L. Maxmudov.) *Botqoq joylarni quritish kerak dori sepkan bilan bo'lmayapti.* (A. Nesin.)

-ga qaramay. Bu forma ham boshqa biror harakatning bajarilishiga to'siq bo'la olmaslik (to'siqsizlik) ma'nosini bildiradi: *ishlashiga qaramay, yalinishiga qaramay kabi: Qish oqshomi bo'lishiga qaramay, osmonda yulduzlar charaqlayapti.* (S.3.)

-(i)sh kerak (lozim, zarur). Bu forma harakatning bajarilishi talab etilishini, talabdagi holatda ekanini bildiradi: *ishlash kerak (ishlash lozim, ishlash zarur), o'rganish kerak (o'rganish lozim, o'rganish zarur) kabi.*

-ganicha (-gukcha) yo'q. Bu forma harakatning to'la bajarilib bo'lmaganligi ma'nosini bildiradi: *Advokat nima deyishini o'ylaguncha yo'q u zaxrini sohib ketdi.* (Sh.) *—Tushundim, tushundim...—Yo'q hali tushunganigizcha yo'q* (J. Sh.)

-gandan keyin. Bu forma sabab ma'nosini alohida ta'kid bilan ifodalaydi: *Yashaganingdan keyin tirik ekaningni sezib, turmush sirlarini bilib yashasang-da.* (A. Nesin.) *O'qituvchi bo'lib non yegandan keyin bolalarni o'ziga rom qilsin, bosib olsinda.* (A. Q.)

-sa kerak. Bu tipda yasaluvchi forma gumon, taxmin ma'nosini bildiradi: *Lekin o'zimcha bu soatni Oliya opa Toshkentda olgan bo'lsalar kerak deb o'ylardim.* (O. Muxtorov.) *Lekin ertadan kechgacha ...bunday qurshovda o'tirish odamni tarashaday qotirib yuborsa kerak* (As. M.)

I. **-gan bo'l (-yotgan bo'l.) Bo'l** yordamchi fe'li sifatlash formalaridan faqat o'tgan zamon va hozirgi zamon formalariga birikkandagina analitik forma hosil qila oladi. Bu formalaridan astoydil emas, nomigagina bajarilishi, subyekt o'zini shu harakatni bajargan qilib ko'rsatishi ma'nosini bildiradi: *Har qalay, uzil-kesil bo'lmasa hamki, rozilik bergan bo'ldim.* (N.S.) *Shundan so'ng Begimxon ikki-uch kun maktabga qatnagan bo'ldi-yu, so'ngra qaynona, qaynota o'rta tushdi.* (I.R.) *Omadigiz yo'qqa o'xshaydi, mexmon,— dedi xokim achingan bo'lib.* (Sh. Sa'dulla.) *Kiravering,— debdi*

Karimbobo xiyol yonboshlab, ilgaritdan tayyorlab qo'ygan eski ko'ylagini qo'liga olib, yirtiq joylarini tikayotgan bo'libdi. («Oltin bola» ertagidan.)

-sa bo'l. Bu forma quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Harakatni bajarish mumkinligi (harakatning bajarilishiga mone'likning yo'qligi) ma'nosini bildiradi: *Biz ham odamga o'xshab bemalol o'tirib gaplashsak bo'ladi-ku... (O. Muxtorov.)* Avvalo mullajiring kerak boshpana – bir vatan kerak Keyin qayliq orzu qilsang bo'ladi. (O.)

2. Harakatning bajarilishi eng asosiy maqsad ekanlik ma'nosini bildiradi. Bu ma'noning ifodalanishida *bo'l yordamchisi bo'ldi, bo'lgani* formasida qo'llanadi: *Yolg'iz tashlab qo'ymasangiz bo'ldi. (U. Umarbekov.)* Shomamat otani ko'tkarsak bo'lgani – keladi-yu hammalaringni tuzatadi,... (Sh. Sa'dulla.)

Bo'l yordamchisi bo'ladimi formasida qo'llanganda, harakatning yuz berishidan kuchli taajjublanish ma'nosi ifodalanadi: *hech kutmaganda Kachal polvon boshini qimirlatsa bo'ladimi... (Sh. Sa'dulla.)*

-ganim bo'lsin. Bu forma harakatni bajarish yoki bajarmaslikka qat'iy qaror ma'nosini bildiradi: *Bo'ldi, bo'ldi, yanagi otpuskada borganimiz bo'lsin! (bu qat'iy qaror bilan Xurshidbek onasini xursand qilmoqchi edi.) (S. 3.)* Ikkinchi bunday *qilmaganim bo'lsin. (S. 3.)*

-di deguncha. Shu formadagi fe'l bildirgan harakat bajarilishi bilan tezda boshqa bir harakatning bajarilishi ma'nosi ifodalanadi: *Ular meni ko'rdi deguncha: «Ana, to'ng'iz Amin keldi, sup jirniy bula»,- derdi. (H.Numon, A.Shorahmedov.)* Boybuva ko'sa hamma qo'g'irchoqlar bilan to'y-tomoshalarga ketdi deguncha Kachal polvon ham uydan otilib ko'chaga chiqardi. (Sh.Sa'dulla) Siz keldingiz deguncha bir yoqqa jo'naydilar. (P. T.)

-(a)y deydi (demaydi). Harakatning bajarilishiga moyillik uning bajarilish belgisi bor-yo'qligi ifodalanadi: *G'ulomjon aka esa hamon so'z qotmas, ko'zoynagini burniga ko'targanicha o'z ishidan bosh ko'taray demas,... (M.Nem.)* Oyog'im muzlab ketyapti. Isiy demaydi. (E. Usmonov.)

-(a)y de. Bu forma harakatning bajarilishiga oz qolganlik, sal qolganlik ma'nosini bildiradi: *Atrofda baland tog'lar qad ko'targan, ularning qorli cho'qqilari osmonga tegay-tegay deb turar edi. (O.V.)* Daryo tomondan esgan izg'irin burunni uchirib ketay deydi. (A.Q.) Bu ko'chada qulagan va qulay deb turgan devorlar... orasida reja bilan solingan chiroyli oq imoratlar uchrar edi. (A.Q.) Ko'zi sal ilinay degan-da, go'dakning chinqirig'i qulog'ig'a chalinardi-yu, cho'chib uyg'onib ketardi. (S.3.)

-gi kel. Bu formada shaxs ko'rsatkichlari asosiy fe'lga, mayl, zamon, inkor qo'shimchalari kel fe'lga qo'shiladi va harakatga bo'lgan istak ma'nosi ifodalanadi: *Kamolning qizdan kechirim so'ragisi, muloyim gap bilan uni har qalay erkalab qo'ygisi keldi. (O. Muxtorov.)* To'g'risi, oyog'i tormasdi - onasi vafot etgandan beri o'yin-kulgilarga ko'pda aralashgisi kelmay qolgandi. (H. N.) Yeging kelsa olib beray,- dedi. (Sh. Sa'dulla.)

Bu formadagi *kel* o'rnida ba'zan bor (bo'lishli ma'noda) va *yo'q* (inkor ma'noda) so'zlari ham qo'llanadi: *Rostini aytsam, mening ham uch-turt yil o'qishim bor. (U. Umarbekov.)* Zumrad Qosim to'g'risida ba'zan shunday yo'sinda gapirar, umuman bu yigitni yodiga olgisi ham, uning to'g'risida gaplashgisi ham yo'q edi. (O. Muxtorov.)

Aynan bir fe'lning turli formada qo'llanishidan ham analitik funksional formalar hosil bo'ladi.

-sa... -sin: *o'qisa o'qisin, borsa borsin* kabi. Bu forma harakatning bajarilishi xohish-ixtiyorga zid emasligi ma'nosini bildiradi: *Qiyalsa qiynalsin, ikkinchi poylamaydigan bo'ladi, deb o'ylardi.* (S. 3.)

Birinchi komponenti **-a**, ikkinchi komponenti **-guncha** affiksli ravishdosh formasida qo'llangan analitik formada davomlilik ma'nosi ifodalanadi: *Mityaning taklifi o'zining ham kela kelguncha o'ylab kelgan fikrlariga mos edi.* (M.Muhamedov.) Lekin, birinchidan, bunday qo'llanish uch-to'rtta fe'llardagina uchraydi. Ikkinchidan, shu forma o'rnida **-guncha** affiksli ravishdoshning o'zi qo'llansa ham davomlilik ifodalanaveradi. Analitik formaning qo'llanishida ma'no biroz kuchayadi, xolos. Qiyoslang: *borguncha - bora borguncha, o'lguncha - o'la o'lguncha, kelguncha - kela kelguncha* kabi.

-gan affiksi bilan yasalgan sifatdosh formasining turli formada takror qo'llanishidan ham analitik forma hosil bo'ladi. Bu tipdagi analitik formada komponentlarning qo'llanishi ikki xil ko'rinishga ega: 1) birinchi komponent shaxs ko'rsatkichi bilan qo'llanadi. Bu forma surunkali davom etish, doimiylik ma'nolarini ifodalaydi: *O'rtoqlari kitobdan bosh ko'tarmaydi, nuqul o'qigani o'qigan.* (A. Nesin.) *O'qituvchilar ham ularga brigadir bo'lib, dalada yurgani yurgan.* (P.Q.); 2) birinchi komponent chiqish kelishigi formasida, ikkinchi komponent fe'lning boshqa har qanday formalarida qo'llanadi. Bu formada davomlilik ma'nosi rivojlanish, kuchayish ottenkasi bilan ifodalanadi: *Uning paxtazorlari kengaygandan kengaydi.* (H.G'.) *Yel kuchaygandan kuchayib borar va shu nisbatda mo'ror ichi ham yana bir qat qo'rqinch holga kirar edi.* (A. Qod.) *Hash-pash deguncha oblast raxbarlari oldida ikkalasining nufuzi oshgandan oshib, aytgani aytgan, degani degan bo'lib qoldi.* (T. Po'lat.)

3-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga fe'l so'z turkumidagi so'zlarning modal ma'no ifodalovchi shakllari (formalar)ni tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Talabalar fe'llarning modal ma'no ifodalovchi shakllari (formalar)ini bilib oladilar.
2. Fe'llardagi modal shakllarni amalda qo'llay oladilar.

3-reja bayoni:

O'zbek tilida fe'l o'ziga xos turli modal ma'nolarga (qo'shimcha ma'nolarga) ega. Fe'llardagi modal ma'nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliliigi, takroriyliigi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shadigan shakl yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) **-la** affiksi fe'l negiziga qo'shilib, takror, davomiylik ma'nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho'qila* kabi;

2) **-gila (-kila, -qila, -g'ila):** *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg'ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo'shilib, harakatning davomiyliigi, takror ma'nosini bildiradi;

3) **-(i)msira, -(i)nqira:** *yig'lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo'shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) **-(i)sh** affiksi ham harakatning kuchsizligini bildiradi: *oqarishdi, to'lishdi* kabi;

5) **-qilla:** *chopqilla.* Bu affiks fe'l negiziga qo'shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe’ldagi modal ma’no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko`makchi fe'llar va to`liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi: *yozib ko`r, aytib chiq, ko`ra qol, so`zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan* kabi.

Fe'l tahlili namunasi	
1. So`rog`i. 2. Bo`lishli yoki bo`lishsizligi. 3. O`timli yoki o`timsizligi. 4. Nisbati. 5. Shaxs-soni 6. Zamon turi. 7. Mayl turi.	8. To`liq yoki to`liqsizligi. 9. Etakchi, ko`makchi fe'llar aniqlanadi. 10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari. 11. Tuzilish turi. 12. Tub yoki yasamaligi. 13. Gapdagi sintaktik vazifasi

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 5, 6, 7.